


A.G. SAIDXODJAYEV

SHAHARLAR ELEKTR TA'MINOTI



TOSHKENT

Yan
621.303 (045)

021

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

A.G'. SAIDXODJAYEV

**SHAHARLAR
ELEKTR TA'MINOTI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
tomonidan «5310200-Elektr energetika» yo'naliishi
talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*



UO'K: 621.31 (075)

KBK 31.279.1

S-21

S-21 A.G'. Saidxodjayev. Shaharlar elektr ta'minoti. Darslik. – T.: «Fan va texnologiya», 2015, 320 bet.

ISBN 978-9943-998-00-1

Ushbu darslikda shaharlardagi elektr energiya qabul qiluvchilar va iste'molchilarning tasnifi berilib, shaharlar elektr ta'minotining dolzarb masalalari ko'rib chiqilgan. Elektr yuklamalarini hisoblashning yangi usuli va shahar elektr tarmoqlarining aralash yuklamalarini hisoblashning yangi uslubiyoti, kuchlanishni va transformatorlarni tanlash, shaharlarning elektr ta'minoti sxemalari, energiya tejamkorligi va shahar elektr tarmoqlarini optimallashtirish rejimlari keltirilgan.

В учебнике приводится классификация приемников и потребителей электрической энергии в городах. Анализируются основы рационального построения электроснабжения городов. Рассматриваются новые методы расчета электрических нагрузок потребителей и новые способы определения суммарных расчетных электрических нагрузок городских сетей, выбор напряжения и трансформаторов, схемы электроснабжения городов, технико-экономические показатели, а также вопросы проектирования и эксплуатации городских электрических сетей. Даются практические примеры расчета городской электрической сети.

The tutorial a classification of and receivers of electricity consumers in the cities. Analyzes the basis for the rational construction of power cities. There are considered new methods for calculating the electric loads of consumers and new methods of determining the total estimated electric loads of urban networks, the choice of voltage and transfor-formers, power supply for cities, technical and economic indicators, as well as the design and operation of urban electrical networks. Provides practical examples of calculation of the urban power grid.

Mas'ul muharrir:

R.A. Zohidov – O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi akademigi, texnika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Z.M. Solihov – texnika fanlari doktori, professor;

T.A. G'aniyev – texnika fanlari nomzodi, dotsent;

M.R. Ikramov – «Toshkent shahar elektr tarmoqlari» korxonasi direktori.

ISBN 978-9943-998-00-1

© Toshkent davlat texnika universiteti, 2015
© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2015.

KIRISH

Darslikda shaharlar elektr ta'minoti masalalari, elektr yuklamalarini hisoblash, shahar elektr tarmoqlarini qurish hamda elektr energiya iste'molini me'yorlash va energiya tejamkorlik muammolari, energiyani nazorat qilish va hisobga olishning yangi texnologiyalarini qo'llash masalalari keltirilgan.

Elektr yuklamalarning to'liq sutkalik grafiklari to'plami asosida shaharlarni elektr energiya iste'molchisidan to transformator podstansiya (TP), taqsimlash punkti, taqsimlash qurilmasi (TQ), bosh pasaytiruvchi podstansiya (BPP), markaziy transformator podstansiya (MTP) va ta'minot manbaigacha elektr yuklamalarini hisoblashning yangi usuli va ifodasi keltirilgan.

Xalqaro amaliyotda shahar elektr tarmoqlarini hisoblashda va tuzishda elektr yuklamalarni ishonchli aniqlash masalalari hal etilgan. Ilgari taklif etilgan usullar iste'molchidan energotizimgacha bo'lgan barcha bo'g'indlardagi haqiqiy yuklamalarni hisobga olmay, katta xatoliklarga yo'l qo'yilgan.

Tajriba natijalari asosida iste'molchilarning sutkalik iste'moli tavsiyi olinib, bir jinsli bo'lмаган aralash yuklamalarni hisoblash uchun yangi usul taklif etilgan. Bunda ko'rileyotgan elektr ta'minoti tizimi 48 variantda ochilib, eng maksimal variant tanlanadi. ni hisobga olish va nazorat qilishning yangi texnologiyasidan foydalanish natijasida 14 foizga tejamkorligiga oshishiga erishilgan. Bunday natijalar Toshkent shahrida joylashgan elektr ni tijorat ko'rinishida hisoblashning avtomatik tizimi ETHAT (ASKUE) xalqaro granti tomonidan tasdiqlangan.

B.L.Ayzenbyerg, I.A.Budzko, V.A.Venikov, S.D.Volobrinskiy, N.N.Voropay, A.A.Glazunov, A.A.Yermilov, V.V.Zorin, Yu.S.Jelezko, I.V.Jejelenko, V.A.Kozlov, B.I.Kudrin, F.F.Karpov, T.M.Qodirov, Yu.B.Klyuev, S.L.Kujekov, G.M.Kayalov, V.D.Lordkipanidze, Yu.L.Mukoseev, B.S.Meshel, V.M.Mixaylova, V.R.Okorokov, A.V.Praxovnik, L.A.Soldatkina, X.F.Fozilov, A.A.Fedorov, D.S.Chukayev kabi olimlar elektr ta'minoti tizimini loyihalashda o'z hissalarini qo'shishgan.

Elektr iste'molini hisoblash amaliyoti jamoa binolarida va yashash joylarida yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shundan kelib chiqqan holda aniq takliflar berilgan. Hozirgi vaqtida ommaviy binolarda elektr jihoz va elektr iste'moli holati bo'yicha tekshirishlar olib borilmoqda. Bu ishda patent bo'yicha yangi usul va hisoblashlarning aniq ifodasi qo'llaniladi.

O'quvchiga qulaylik yaratish maqsadida energetika sohasiga oid qisqartirma va asosiy terminlar berilgan.

Muallif o'z ilmiy maslahatlaridan bahramand etgan O'zR FA akademigi R.A.Zohidov, t.f.d., professorlar Z.M.Salixov, T.M.Qodirov, K.R.Allaev, R.X.Saydahmedov, X.Z.Igamberdiyev, A.H.Hamidov, t.f.d., professor A.R.Rajabov, t.f.n., dotsentlar O.M.Burxonxodjaev, va «Toshkent shahar elektr tarmoqlari» direktori M.R.Ikramovga o'z minnatdorchiligini bildiradi.

SHARTLI QISQARTMALAR

- ZAK (AVR) – zaxirani avtomatik kiritish
AQU (APV) – avtomatik qayta ulash
QAR (ARV) – qo‘zg‘atishni avtomatik rostlash
KAR (ARN) – kuchlanishni avtomatik rostlash
AChYu (AChR) – avtomatik chastotali yuksizlantirish
EUTQ (PUE) – elektr uskunalarining tuzilish qoidalari
EUTEQ (PTE) – elektr uskunalarini texnik ekspluatatsiya qoidalari
EUTXQ (PTB) – elektr uskunalarining texnika xavfsizligi qoidalari
BPP (GPP) – bosh pasaytiruvchi podstansiya
KTQ (KRU) – komplekt taqsimlash qurilmasi
TUKTQ (KRUN) – tashqi uskunalarini komplekt
taqsimlash qurilmalari
TQ (RU) – taqsimlash qurilmasi
OTQ (ORU) – ochiq taqsimlash qurilmasi
YoTQ (ZRU) – yopiq taqsimlsh qurilmasi
QQU (PBV) – qo‘zg‘atishsiz qayta ulash
YuOR (RPN) – yuklama ostida rostlash
HL (VL) – havo liniyasi
KL (KL) – kabel liniyasi
YuK (VN) – yuqori kuchlanish
PK (NN) – past kuchlanish
TM (IP) – ta’mnotin manbai
TP (TP) – transformator punkti
TaqP (RP) – taqsimlash punkti
SK (SK) – sinxron kompensator
KQ (KS) – kondensator qurilmasi (uskuna)
IES (TES) – issiqlik elektr stansiyasi
IEM (TEI) – issiqlik elektr markazi
AES (AES) – atom elektr stansiyasi
BGQ (PGU) – bug‘ gazli qurilma
GTQ (GTU) – gaz turbinali qurilma
GES (GES) – gidro elektr stansiya
GAES (GAES) – gidro akkumulyastiyalovchi elektr stansiyasi
EEQQ (EP) – elektr qabul qilgich
DIES – davlat issiqlik elektr stansiyasi
ETHAT (ASKUE) - elektr ni tijorat ko‘rinishida hisobga
olishning avtomatlashdirilgan tizimi

1. SHAHARLARDA ELEKTR ENERGIYA QABUL QILGICHLARI VA ISTE'MOLCHILARI

1.1. Shahar elektr qabul qilgichlari va iste'molchilarining tasnifi

Barcha shahar elektr energiya qabul qilgichlari va iste'molchilarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Xonodon ichidagi elektr qabul qilgichlar. Bular:

a) xonodon yoritgichlari;

b) maishiy elektr qabul qilgichlar (maishiy elektr isitish uskunalarini, madaniy-maishiy turdagini elektr uskunalarini va h.k.).

2. Uylarda umumfoydalanuvchi elektr qabul qilgichlar va elektr iste'molchilar:

a) lift qurilmalari;

b) havoni muvofiqlashtiruvchi qurilmalar;

v) shamollatish va kalorifyer qurilmalari;

g) sovuq va issiq suv nasoslari, yong'inga qarshi nasoslari;

d) uy oshxonalarini va kir yuvish xonalari;

e) uy podyezdlari, yo'laklari va zinapoyalarining yoritgichlari;

j) boshqa kichik yoritgichli yuklamalar.

3. Shaharlarda umumfoydalanuvchi elektr qabul qilgichlar va iste'molchilar:

a) shahar elektrlashgan transporti (tramvay, trolleybus, metro, shahardan tashqariga yuruvchi elektr poyezdlari);


b) ko'chalarni yoritish, reklama yoritgichlari;

v) sanitarni-gigienik inshootlar (suv o'tkazgichlar kanalizatsiya va tozalash inshootlari);


g) kommunal-maishiy va jamoat sektorining elektr energiya qabul qilgichlari va iste'molchilarini (savdo, umumiyoq ovqatlanish korxonalarini, madaniy-ma'rifiy muassasalarini, davolanish maskanlari, o'quv yurtlari va h.k.);

d) shahar ichidagi sanoat korxonalarini, qurilish va transport.

Shaharlardagi elektr energiya qabul qilgichlari va iste'molchilarining bo'linishlari 1.1-rasmda ko'rsatilgan.



1.1-rasm. Shaharlarda elektr qabul qilgichlari va iste'molchilarining tasnifi



1.2-rasm. Shaharda elektr energiya iste'molining strukturasi

Barcha iste'molchilarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

- «A» guruhi iste'molchilar - 6-10 kV li tarmoqdan ta'minlanadi;
- «B» guruhi iste'molchilar - 0,38 kV li tarmoqdan ta'minlanadi.

«A» guruhiga quyidagi iste'molchilar kiradi:

- shahar hududida joylashgan sanoat korxonalar;
- yirik kommunal iste'molchilar (suv o'tkazgich, kanalizatsiya, tashqi yoritish, elektrlashgan transport);

• o'zining transformator podstansiyalariga ega bo'lgan yirik nosanoat iste'molchilar (katta univyersemag, supyermarketlar, teatrlar, ko'p profilli shifoxonalar, stadionlar, televideniya va b.).

«B» guruhiga quyidagi iste'molchilar kiradi:

- 0,38 kV li tarmoqdan ta'minlanuvchi turarjoy binolari;
- Transformator podstansiyalaridan to'g'ridan-to'g'ri ta'minlanuvchi jamoat va fuqarolar binolari va inshootlari, shuningdek,

turarjoy binolarining communal yuklamalari – lift qurilmalari, havoni muvofiqlashtirish qurilmalari va boshqalar.

1.2. Shaharlarda umumfoydalanuvchi elektr qabul qilgichlar va iste'molchilar

1.2.1. Shahar elektrlashgan transporti

Hozirgi vaqtida zamonaviy shaharni jamoat transportisiz tasavvur qilish qiyin. Bu, ayniqsa, tumanlari orasidagi masofa bir necha o'n kilometrni tashkil yetadigan, aholisi juda ko'p bo'lgan shaharlarga tegishlidir.

Yaxshi rivojlangan transportlar sababli shahar atroflari va aholi yashaydigan rayonlar zamonaviy shaharlarga qo'shilib, kengaymoqda. Rivojlangan shahar transportining mavjudligi shahar hududini oqilona rejalashtirish, sanoat korxonalarini shahar hududining chetiga joylashtirish, ko'kalamzorlarni ratsional va bir tekis taqsimlash va shunga o'xshash imkoniyatlarni beradi.

Zamonaviy shahar elektrlashgan transporti – yo'lovchi transportining tejamkor, ishonchli, gigienik va sig'imli turidir. Bunday transport atrof-muhit muhofazasi, to'liq harakatlanish xavfsizligi va ishonchliligi, yo'lovchilar uchun qulayligi, harakatlanish vaqtida shovqinning kamligi, harakatlanish chastotasi va muntazamligining yuqoriligi singari talablarga javob beradi.

Shahar elektr transportining asosiy turlariga tramvay, trolleybus, metropoliten va shahar atrofi poyezdlari kiradi. Ayrim hollarda boshqa turdag'i, masalan, yuritgichi akkumulyatorlardan ta'minlanuvchi elektromobillar ham kiradi.

Elektr transportining texnik xarakteristikalari

Elektrlashgan transport deb shunday transportga aytiladiki, unda harakatlanuvchi g'ildiraklardagi tortish kuchi (tyaga) elektr yuritgichlari yordamida hosil qilinadi, ularni ta'minlovchi Energiya esa muqim stansiyalardan olinadi. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH)da elektr tyaga (elektr kuchi bilan tortish) uchun o'zgarmas tok va 50 Gst chastotali bir fazali o'zgaruvchan tok qo'llaniladi.

MDH da elektr tyagada qo'llaniluvchi nominal kuchlanishlar va tok tizimlari 1.1-jadvalda keltirilgan.

1.1-jadval

Elektr tyaganing qo'llanilish hududi	Tok tizimi	Tyaga nimstan-siyasi-ning U_{nom} , V	Elektr harakatlanuvchi tarkibining tok qabul qilgichidagi U_{nom} , V	Elektr harakatlanuvchi tarkibining tok qabul qilgichidagi U_{maks} , V
Shahar atrofi va magistral temir yo'llari	I f.O'zgar uvchan 50 Gst o'zgarmas	27500 3300	25000 3000	29000 3850 (4000 RU)
Sanoat elektr transporti:	o'zgarmas -//-	275 3300	250 3000	325
Yer osti	-//-	1650	1500	3850
Yer usti	-//-	600	550	1925 700
Shahar transporti: metropoliten tramvay, trolleybus	bir fazali o'zgaruvchan 50 Gst	11000 6600	10000 6000	-
Daryolar-dagi: ulovlar, elektroxodlar	o'zgarmas -//-	825 600	750 550	975 700 (720)
Avtonom transport: Teplovozor Elektromobillar elektro-aravalalar	-//-	600	-	1000 gacha
	-//-	600	24-200 24-200	1000 gacha

Transportning elektr jihozlari shikastlangan detallarni tez o'zgartirish, buzilgan apparatlarni ta'mirlash yoki almashtirish imkonini beruvchi ishonchli va sodda tuzilishga ega bo'lishi kerak.

Montaj ulanishlarning tuzilishi shunday bo'lishi kerakki, ularning tok yurituvchi qismlari mexanik yuklanmasligi kerak.

Tramvay vagonlarida faqatgina o'zgarmas tok yuritgichlari qo'llaniladi.

Ketma-ket qo'zg'atishli yuritgich eng yaxshi tortish hususiyatiga ega, lekin elektr Energiyani rekupyerastiyalash qo'llanilganda aralash qo'zg'atishli yuritgich eng maqbul hisoblanadi. Shuning uchun tramvay vagonlarida ketma-ket va aralash qo'zg'atishli tortish yuritgichlari qo'llaniladi.

Harakatlanish tezligi, yurish sifatining yaxshilanishi mamlakatimiz va chet el metropolitenlarida kuzatilayotgan harakatlanuvchi tarkibning enyergoqurollanganligini oshishi tendensiyasi evaziga amalga oshirilmoqda. MDHda tortish yuritgichlarining bitta vagonga yig'indiviy quvvati 272 kVt dan (E vagon) 440 kVt gacha (I vagon) oshdi. Stokgolmda bu ko'rsatkich – 440 kVt, Tokioda – 404 kVt. MDH da eng yuqori konstruksion harakatlanish tezligi 100 km/soatni, San-Franstiskoda esa 130 km/soatni tashkil qiladi.

Shahar elektrlashgan transporti yuklamasini hisoblash usuli

Elektrlashgan shahar transportining yuklamasi, birinchi navbatda tramvayning, hozirgi vaqtgacha shaharlardagi turarjoy sektoridagi elektr Energiya umumiy sarfining ko'p qismini tashkil qiladi. Shaharlardagi bir kishiga to'g'ri keladigan elektr Energiya sarfi yillik yurishlarning o'rtacha soniga, yo'lning o'rtacha uzoqligiga va elektrlashgan transportning bir yo'lovchi-kilometr yurishga ketadigan elektr Energiya sarfiga bog'liq. Oxirgi me'yor harakatlanish tezligi, transportdan foydalanish koeffitsiyenti va bir qator boshqa omillarga bog'liq. Rejalash hisoblarida elektrlashgan transportning yuklamasi quyidagi formula orqali amalga oshiriladi:

$$P = m \cdot v \cdot Wh \cdot \eta_{pik} \cdot \eta_{o.s}, \text{kVt} \quad (1.1)$$

bu yerda: P – elektr qurilmalarning zarur quvvati, kVt;

m – harakatdagi shahar transporti vagonlari yoki seksiyalarining soni (o'rtacha bir kunda);

v – o‘rtacha harakatlanish (ekspluatatsion) tezligi, km/soat;

Wh – vagon yoki seksiyaga ketadigan o‘rtacha energiya sarfi, kVt/soat;

η_{pik} – «tig‘iz» vaqtarda harakatlanish ko‘payishi koeffitsiyenti, tramvaylar uchun 1,05-1,1; trolleybuslar uchun 1,2-1,3; metropoliten uchun 1,2-1,3;

$\eta_{o\cdot s.}$ – o‘z ehtiyojlariga ketadigan Energiya sarfini hisobga oluvchi koeffitsiyent, tramvay, trolleybus va metro uchun – 1,05.

Elektrlashgan transportning harakatlanishiga sarf bo‘ladigan miqdori harakatlanish egri chizig‘idan aniqlanadi. Buning uchun tok iste’moli egri chizig‘i, tokning qiymati uncha katta tebranmaydigan yo‘lning alohida bo‘laklariga bo‘linadi va har bir bo‘lak uchun $I_{o\cdot r}$ va Δt aniqlanadi. Unda elektr ning solishtirma sarfi quyidagi teng:

$$Wh_{sol} = \frac{U_{o\cdot r} \cdot \left[(\sum I_{o\cdot r} \cdot \Delta t)_{tort} - (\sum I_{o\cdot r} \cdot \Delta t)_{rekup} \right]}{3600 \cdot G \cdot L}, \text{ kVt·soat/t·km} \quad (1.2)$$

bu yerda: $U_{o\cdot r}$ – kontakt tarmog‘ining o‘rtacha kuchlanishi, V;

G – og‘irlik, t;

L – ko‘rilayotgan bo‘lakning uzunligi, km.

Analitik solishtirma Energiya sarfini quyidagi formuladan aniqlash mumkin:

$$Wh_{sol} = 2,275 \cdot (\varpi_{o\cdot r} + i_e) \cdot \left(\frac{1}{\eta_{o\cdot r}} - \frac{1}{L \cdot \eta_{sh}} + \frac{K_p \cdot l_p}{L} \right) + \frac{10,7 \cdot (1+\nu)}{1000 \cdot L} \cdot \left(\frac{v^2}{\eta_{o\cdot r}} + K_p \cdot v^2 \right),$$

$$\text{kVt·soat/t·km} \quad (1.3)$$

bu yerda: i_e – ekvivalent ko‘tarilish, %;

$\varpi_{o\cdot r}$ – poezd harakatiga solishtirma asosiy qarshilik;

$\eta_{o\cdot r}$ – tortish dvigatelining o‘rtacha FIK i;

l_t – tormozlanish uzunligi, m;

l_p – ishga tushirish yo‘lining uzunligi, km;

K_p – pusk vaqtidagi yuritgichlarni qayta ulash sxema koeffitsiyenti;

ν – aylanuvchi qismlarning inyertsiya koeffitsiyenti;

v – harakatlanish tezligi (p – ishga tushirishniki, t – tormozlanishniki), km/soat.

1.2.2. Ko‘cha va reklama yoritishlari

Shahar ko‘chalari, yo‘llari va maydonlarini kechki va tungi vaqtida yoritish – shaharlarni obod qilish va arxitektura-badiiy bezashda eng asosiy element hisoblanadi.

MDH da ishlab chiqarilayotgan barcha Energiyaning 17–19 foizi yoritishga sarflanadi. Shaharlarning turarjoy sektorida esa yoritishga barcha iste’mol qilinayotgan Energiyaning 85 foizi to‘g‘ri keladi. Lekin shaharlarning obod bo‘lishi uchun tashqi yoritish katta ahamiyatga egaligiga qaramay, u hali yetarlicha qo‘llanilmayapti. Aholi yashaydigan joylarda sun‘iy yoritish uchun turli xildagi yoritish qurilmalaridan foydalaniladi:

1. Utilitar – asosiy vazifasi shahar ko‘chalari va maydonlarda transport va yo‘lovchilarining xavfsiz harakatlanishi uchun yetarlicha yorug‘lik hosil qilish.

2. Arxitektura-badiiy – asosiy maqsadi ko‘cha va maydonlarda «yoritish arxitekturasini» hosil qilish va badiiy jihatdan eng qadrli bino va inshootlarni yorqin ko‘rsatish.

3. Reklama – turli xil tovarlarni, teatr va kino tomoshalarini reklama qilish uchun mo‘ljallangan. Bunga magazin va kioskalarning vitrina yoritkichlari ham kiradi;

4. Yoritish signallari ko‘rinishidagi yo‘l-transport – bekatlar, xavfsizlik orolchalar, harakatlanishni boshqarish ko‘rsatkichlari, yonuvchi belgi va raqamlar va b.

Yorug‘lik manbalari va yoritgichlar

Hozirgi vaqtida tashqi yoritish uchun cho‘g‘lanma lampalar, lyuminessent va simobli lampalar yorug‘lik manbalari bo‘lib xizmat qilmoqda.

Cho‘g‘lanma lampalar nisbatan arzon, keng diapazonli yoritish kuchi va boshqa ijobiy sifatlarga ega bo‘lishidan qat‘i nazar, elektr ni yorug‘lik siga aylantirishda uning samarasini past. Bunday lampalarning yorug‘lik byerishi ularning quvvati va nominal kuchlanishiga bog‘liq.

Cho‘g‘lanma lampalar quyidagi ko‘rsatkichlarga bog‘liq holda tasniflanadi:

- fizik – cho‘g‘lanish jismining matyerial turi, cho‘g‘lanish
- jismi va ballonning formasi bo‘yicha;

v – o‘rtacha harakatlanish (ekspluatatsion) tezligi, km/soat;

Wh – vagon yoki seksiyaga ketadigan o‘rtacha energiya sarfi, kVt/soat;

η_{pik} – «tig‘iz» vaqtarda harakatlanish ko‘payishi koeffitsiyenti, tramvaylar uchun 1,05-1,1; trolleybuslar uchun 1,2-1,3; metropoliten uchun 1,2-1,3;

$\eta_{o.s.}$ – o‘z ehtiyojlariga ketadigan Energiya sarfini hisobga oluvchi koeffitsiyent, tramvay, trolleybus va metro uchun – 1,05.

Elektrlashgan transportning harakatlanishiga sarf bo‘ladigan miqdori harakatlanish egri chizig‘idan aniqlanadi. Buning uchun tok iste’moli egri chizig‘i, tokning qiymati uncha katta tebranmaydigan yo‘lning alohida bo‘laklariga bo‘linadi va har bir bo‘lak uchun $I_{o.r}$ va Δt aniqlanadi. Unda elektr ning solishtirma sarfi quyidagi teng:

$$Wh_{sol} = \frac{U_{o.r} \cdot \left[(\sum I_{o.r} \cdot \Delta t)_{tarif} - (\sum I_{o.r} \cdot \Delta t)_{rekup} \right]}{3600 \cdot G \cdot L}, \text{ kVt·soat/t·km} \quad (1.2)$$

bu yerda: $U_{o.r}$ – kontakt tarmog‘ining o‘rtacha kuchlanishi, V;

G – og‘irlik, t;

L – ko‘rilayotgan bo‘lakning uzunligi, km.

Analitik solishtirma Energiya sarfini quyidagi formuladan aniqlash mumkin:

$$Wh_{sol} = 2,275 \cdot (\varpi_{o.r} + i_s) \cdot \left(\frac{1}{\eta_{o.r}} - \frac{1}{L \cdot \eta_{eh}} + \frac{K_n \cdot l_n}{L} \right) + \frac{10,7 \cdot (1+\nu)}{1000 \cdot L} \cdot \left(\frac{v_n^2}{\eta_{o.r}} + K_n \cdot v_n^2 \right),$$

$$\text{kVt·soat/t·km} \quad (1.3)$$

bu yerda: i_s – ekvivalent ko‘tarilish, %;

$\varpi_{o.r}$ – poezd harakatiga solishtirma asosiy qarshilik;

$\eta_{o.r}$ – tortish dvigatelining o‘rtacha FIK i;

l_n – tormozlanish uzunligi, m;

l_p – ishga tushirish yo‘lining uzunligi, km;

K_p – pusk vaqtidagi yuritgichlarni qayta ulash sxema koeffitsiyenti;

ν – aylanuvchi qismlarning inyertsiya koeffitsiyenti;

v – harakatlanish tezligi (p – ishga tushirishniki, t – tormozlanishniki), km/soat.

1.2.2. Ko‘cha va reklama yoritishlari

Shahar ko‘chalari, yo‘llari va maydonlarini kechki va tungi vaqtda yoritish – shaharlarni obod qilish va arxitektura-badiiy bezashda eng asosiy element hisoblanadi.

MDH da ishlab chiqarilayotgan barcha Energiyaning 17–19 foizi yoritishga sarflanadi. Shaharlarning turarjoy sektorida esa yoritishga barcha iste’mol qilinayotgan Energiyaning 85 foizi to‘g’ri keladi. Lekin shaharlarning obod bo‘lishi uchun tashqi yoritish katta ahamiyatga egaligiga qaramay, u hali yetarlicha qo‘llanilmayapti. Aholi yashaydigan joylarda sun’iy yoritish uchun turli xildagi yoritish qurilmalaridan foydalilaniladi:

1. Utilitar – asosiy vazifasi shahar ko‘chalari va maydonlarda transport va yo‘lovchilarining xavfsiz harakatlanishi uchun yetarlicha yorug‘lik hosil qilish.

2. Arxitektura-badiiy – asosiy maqsadi ko‘cha va maydonlarda «yoritish arxitekturasini» hosil qilish va badiiy jihatdan eng qadrlı bino va inshootlarni yorqin ko‘rsatish.

3. Reklama – turli xil tovarlarni, teatr va kino tomoshalarini reklama qilish uchun mo‘ljallangan. Bunga magazin va kioskalarning vitrina yoritkichlari ham kiradi;

4. Yoritish signallari ko‘rinishidagi yo‘l-transport –bekatlar, xavfsizlik orolchalar, harakatlanishni boshqarish ko‘rsatkichlari, yonuvchi belgi va raqamlar va b.

Yorug‘lik manbalari va yoritgichlar

Hozirgi vaqtda tashqi yoritish uchun cho‘g‘lanma lampalar, lyuminessent va simobli lampalar yorug‘lik manbalari bo‘lib xizmat qilmoqda.

Cho‘g‘lanma lampalar nisbatan arzon, keng diapazonli yoritish kuchi va boshqa ijobiy sifatlarga ega bo‘lishidan qat’i nazar, elektr ni yorug‘lik siga aylantirishda uning samarasini past. Bunday lampalarning yorug‘lik byerishi ularning quvvati va nominal kuchlanishiga bog‘liq.

Cho‘g‘lanma lampalar quyidagi ko‘rsatkichlarga bog‘liq holda tasniflanadi:

- fizik – cho‘g‘lanish jismining matyerial turi, cho‘g‘lanish jismi va ballonning formasi bo‘yicha;

- elektr va yorug‘lik parametrlari bo‘yicha;
- ekspluatatsion – qo‘llanilishiga qarab.

Cho‘g‘lanma lampalarning yorug‘lik foydali ish koeffitsiyenti 3–5 foizdan oshmaydi. Shuning uchun keyingi yillarda ko‘chalarni yoritish uchun yangi, ancha tejamli gaz razryadli yorug‘lik manbalaridan keng foydalanimoqda. Turli tipdagisi simobli lampalar keng tarqagan:

- past bosimli (0,01–1,00 mm.sim.ust) lampalar – bu naysimon lyuminessent lampalardir;
- yo‘naltirilgan rangli yuqori bosimli (0,3–3 atm.) lampalar – bu DRL (5–10 atm.) 300–400°C, yoy-razryadli lyuminessent lampalar;
- o‘ta yuqori bosimli (3 dan yuzlab atm. gacha) – ksenonli va natriyli lampalar.

Bunday lampalar cho‘g‘lanma lampalarga nisbatan 2–2,5 marotaba tejamliroqdir.

Tashqi yoritish uchun turli xil lampalardan ratsional foydalinish jabhalari:

Cho‘g‘lanma – yuqori arxitektura-badiiy bezash talab qilinmaydigan barcha ko‘chalarni yoritish.

Lyuminessent – yuqori arxitektura-badiiy bezashni talab qiluvchi markaziy ko‘chalarni, magistrallarga tutashuvchi ko‘chalar, shuningdek, xiyobon, bog‘ va maydonlarni yoritish.

Simobli to‘g‘rilangan rangli DRL – magistrallarni, keng ko‘chalarni va katta maydonlarni yoritish.

Natriyli – shahar chetidagi avtoyo‘l va avtomagistrallarni yoritish, bino va monumentlarni pastdan biroz yoritish.

Turarjoy binolarini yoritish uchun zarur o‘rnatilgan quvvatni va sarfini hisoblash

Yoritish uchun sarfini quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$W_{yor} = P_{n.yor} \cdot K_{bv} \cdot T_{maks}, \text{ kVt·soat} \quad (1.4)$$

bu yerda: $P_{n.yor}$ – yorug‘lik manbalarining o‘rnatilgan quvvati, kVt ;

K_{bv} – yoritish manbalarining o‘rnatilgan quvvatidan maksimal talab koeffitsiyenti;

T_{maks} – maksimal talab qilingan quvvatdan foydalinish vaqt.

Yorug'lik manbalari quvvatini aniqlashning bir necha xil usullari mavjud:

1. Solishtirma yuklama usuli.
2. Yorug'lik oqimidan foydalanish koeffitsiyenti bo'yicha hisoblash usulidir.
3. Nuqtali usul.

Yoritishni batafsil hisoblash zarurati bo'lмаган holda, eng ko'p tarqalgan usullardan biri – yorug'lik oqimidan foydalanish koeffitsiyenti bo'yicha hisoblash usulidir. Unga ko'ra 1 m^2 yoritilayotgan maydon yoritgichlarining o'rnatilgan quvvati quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$N = \frac{E_{\min} \cdot K \cdot Z \cdot S}{F \cdot \eta_{foy\!d}} \quad (1.5)$$

bu yerda: E_{\min} – zarur bo'lgan o'rtacha yoritilganlik, (lk) bu formula orqali haqiqiy E_{\min} aniqlanadi va me'yorlar bilan solishtiriladi;

K – zaxira koeffitsiyenti;

Z – minimal yoritilganlik koeffitsiyenti;

S – maydon;

N – lampalar soni.

$\eta_{foy\!d}$ – yorug'lik oqimini ishlatilish koeffitsiyenti; Jadvaldan foydalanish koeffitsiyenti aniqlanadi. [68] Quyidagi formuladan yoritgichning yorug'lik oqimi topiladi:

$$F = \frac{E \cdot K \cdot Z \cdot S}{N \cdot \eta_{foy\!d}}, \text{ lm} \quad (1.6)$$

jadvaldan kerakli quvvat va lampa turi aniqlanadi. [68]

Ko'cha va maydonlarning tasnifi


A – magistral ko'chalar, umumshahar jadal harakatdagи ko'chalar, asosiy vokzal va transport maydonlari.

B – rayon miqyosidagi kichik ko'chalar, turarjoy rayonlarining maydonlari, teatr oldi maydonlari.

V – ko‘p qavatli binolar joylashgan rayonlardagi turarjoy ko‘chalari, sanoat rayonlarining asosiy ko‘chalari.

G – mahalliy harakatlanish ko‘chalari, A kategoriyadagi ko‘chalardagi yo‘lakdir.

D – mikrorayon yo‘laklari va yo‘lovchilar yuradigan yo‘llar.



1.3- rasm. Yoritgichlarning joylashish sxemasi

Quyida yoritgichlarning joylashish sxemasi keltirilgan. Ular:

- a) bir taraflama;
- b) o‘q bo‘ylab yo‘nalgan;
- d) ko‘chaning o‘qi bo‘ylab ikki qatorli;
- e) ikki qatorli to‘g‘ri burchakli;
- f, g) ikki qatorli shaxmatli;
- h) uch qatorli to‘g‘ri burchakli;
- i) to‘rt qatorli to‘g‘ri burchakli (1.3-rasm).

1.2.3. Suv ta'minoti va kanalizatsiya

Shahar va qishloqlarning obodonlashishi xo'jalik-ichiladigan suv ta'minoti tizimini kengaytirish va rivojlantirishni taqozo etmoqda. Bunda aholini sifatli ichimlik suv bilan ta'minlash masalasi yangi, markazlashtirilgan tizimlarni qurish va mavjudlarini kengaytirish va unumdorligini oshirish yo'li bilan hal qilinadi. Suv ta'minotining rivojlanishi aniqlovchi omil bo'lib, so'nggi 15 yil ichida MDH shaharlarida deyarli ikki barobar oshganligini ko'rsatish mumkin.

Quyida mamlakatimizda amal qilinayotgan, suv ta'minoti insho-otlarini loyihalash va ishlatishda qo'llaniluvchi suv ta'minoti me'yordari keltirilgan.

Hozirgi vaqtida shaharlarning 62 foiz ida suv ta'minoti yer osti suvlariga asoslanadi, 21 foizida aralash suv ta'minoti manbalari mavjud va faqatgina 17 foiz shaharlarda yer usti suv manbalaridan foydalaniladi. Ularning mamlakat suv iste'molidagi ulushi 60 foizni tashkil qiladi, chunki manbalardan yirik zavodlar foydalanadilar (ularda suv iste'moli 100 ming m³/sut.).


1.2.-jadval

Aholi yashash joylarining obodonlashganlik darajasi	Bir kishi ichishi va xo'jalik uchun ishlatajigan suvning bir kunlik o'rtacha sarfi, l/sut
Vannasiz ichki vodoprovod va kanalizatsiya bilan ta'minlangan binolar hududi	125-160
Huddi shu, faqat vannalar va mahalliy suv isitgichlar bilan	160-230
Huddi shu, faqat markazlashgan issiq suv ta'minoti bilan	230-250

1.4 a - rasmida yer usti manbaidan foydalanuvchi shahar suv ta'minoti tiziminining asosiy inshootlari sxemasi keltirilgan. Bunda suv to'suvchi inshoot-1, yig'ma rezyervuar-4 ga va nasos stansiyasi-3 ga suv chiqaruvchi birinchi ko'tarish nasos stansiyasi-2 bilan, keyin ko'tarilish-5 va suv yuritgich-6 larga ulangan. Keyin taqsimlovchi tarmoq-8 ga ulangan qabul qiluvchi sig'im-7 ga boradi.

1.4 b - rasmida yer osti manbalaridan foydalanuvchi suv ta'minoti tiziminining asosiy inshootlari sxemasi keltirilgan. Bu yerda artezian quduqlari (yuqori bosimli chuqur yer osti suvlari qudug'i)-1 alohida

guruhlarda (I, II) o‘rnashgan. Birinchi ko‘tarish nasoslari quduqlarda joylashgan, ular suvni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarmoqqa beradi (I quduqlar guruhi). Bir qator holatlarda quduqlardagi suv avval rostlovchi va zaxira sig‘im xizmatini bajaruvchi rezyervuar-2 ga beriladi, u yerdan ikkinchi ko‘tarish nasoslari-3 bilan tarmoqqa beriladi (II).




1.4 a-rasm. Yer osti manbaidan suv ta'minoti sxemasi:

- 1 – suv to‘sish inshooti; 2 – nasos stansiyasi; 3 – tozalash inshootlari;
- 4 – yig‘ma rezyervuar; 5 - II ko‘tarish nasos stansiyasi; 6 – suv yurgich;
- 7 – bosimni rostlovchi sig‘im; 8 – taqsimlovchi tarmoq

Agar yer osti suvi tozalashga muhtoj bo‘lsa, sxemaga maxsus tozalash inshootlari qo‘shiladi. Quyida santar-gigienik jihozlar keltirilgan:

1. Suvni tortib, bosim hosil qilish elektr qurilmalari.
2. Suvni sanitar me’yorlari bo‘yicha filtrlash va tozalash elektr qurilmalari.
3. Yong‘inga qarshi vodoprovod qurilmalaridagi elektr uskunalar
4. Gradirnya, sachratish basseynlari yoki sovitish qurilmalaridagi suvni sovitish elektr uskunalar.
5. Shahar suv ta’minoti tizimidagi elektr uskunalar.
6. Tozalash inshootlari va ayeratorlarning elektr uskunalar.



1.4 b-rasm. Yer osti manbaidan suv ta'minoti sxemasi:

- II – artezan quduqlari; 2 – rezyervuar; 3 – ikkinchi ko‘tarish nasos stansiyasi

Suv ta'minoti xo'jaligida asosiy Energiya sarfi suvni bir joydan boshqa joyga ko'chirishda sodir bo'ladi. Suvni, uning to'silgan joyidan iste'molchilargacha yetkazib byerish uchun quvvat va Energiya sarfi, asosan, ikki omilga bog'liq:

1) byerilayotgan suv hajmiga;

2) suvning ko'tarilish balandligiga, quvurlardagi gidravlik qarshilikni yengish uchun bosim yo'qotilishlarini hisobga olgan holda.

Elektr yuritgichlarning zarur quvvatini va nasos yuritmalaridagi Energiya sarfini hisoblash uchun quyidagi formulalardan foydalilanildi:

$$P_{yur} = \frac{Q_{\max} \cdot H}{102 \cdot \eta_{nas} \cdot 3600}; \quad W_{yil} = \frac{Q_{\max} \cdot 365 \cdot H}{102 \cdot \eta_{nas}} \quad (1.7)$$

kVt

kVt/soat

bu yerda: P_{yur} – yuritgichning zarur quvvati, kVt;

Q_{sut} – sutkalik o'rtacha suv sarfi, l;

Q_{\max} – bir soatlilik maksimal suv sarfi, l;

N – ko'tarilish balandligi, m;

η_{nas} – nasos-motor guruhining foydali ish

koeffitsiyenti, 0,6 – 0,7 ga teng deb olinadi.

365 – bir yildagi kunlar soni.


Elektr yuklamalari grafiklari

Yuritgichlar uzluksiz va stiklik ishlashi mumkin. Birinchi holatdagi elektr yuritgichlarning ishlashi katta elektr Energiyaning sarfi va yuritgichlardan yomon foydalilanligani uchun nomuvofiqdir.


Agar yuritgichlar stiklik ishlasa, u holda sig'imlar uchun joy kerak. Maishiy talablarga suv iste'molining ish holati, ko'pincha vodoprovod tizimida suvni zaxira bosim baklari ishlataligani oqibatida, suvni bir joydan boshqa joyga ko'chirish uchun elektr Energiya sarfi holati bilan mos kelmaydi. 1.5-rasmida vodoprovod va kanalizatsiya elektr yuklamasining sutkalik grafigi ko'rsatilgan.

Grafikning koeffitsiyentlari tahlili shuni ko'rsatadiki, yuklama maksimumidan foydalananish vaqtiga juda katta va qishki maksimum bo'yicha 6500 soat atrofida, yozgisi bo'yicha esa 8500 soatni tashkil

yetadi. Demak, yozgi davrdagi suvning pyerekachkasi (uzatish) uchun elektr Energiya sarfi qishkinikidan 10 foizga yuqori ekan.



a)



b)

1.5-rasm. Suv quvuri va kanalizatsiyaning sutkalik elektr yuklamalari grafiklari: a) qishki; b) yozgi

1.3. Uylarda umumfoydalaniluvchi elektr qabul qilgichlar

Uylarda umumfoydalanuvchi elektr qabul qilgichlarni ikki guruhga bo'lish mumkin: zinapoyalar, yerto'lalar, boloxonalar, xoll, vestibyul, koridorlar, axlatxonalar, liftlarning shaxtalari va mashina xonalarining yoritish qurilmalari va kuch elektr qabul qilgichlar.

Avvallari zinapoyalarni, xoll, vestibyul va koridorlarni yoritish uchun cho'g'lanma lampalardan foydalanilardi. Hozirda Energiyani ortiqcha sarflamay, yaxshiroq yorituvchi lyuminssent chiroqlardan foydalanilmoqda.

Qolgan joylarni yoritish uchun cho'g'lanma lampalar qo'llaniladi. Texnik yerto'la, axlatxona, nasosxona, liftlarning mashina xonalarida namdan himoyalangan chiroqlardan foydalaniladi.

Kuch elektr qabul qilgichlarga lift qurilmalari, havoni muvoifqlashtiruvchi qurilmalar va boshqa elektr yuritgichli qurilmalar kiradi.

1.3.1. Lift qurilmalari

Ko'p qavatli ma'muriy va turarjoy binolari, o'quv yurtlari hamda magazinlarda odamlar va yuklar tez va oson harakatlanishi uchun vyertikal harakat qiluvchi transport vositasi o'rnatiladi. Vyertikal harakat qiluvchi transportning asosiy afzalliklaridan biri – bu uning

jihozlari nisbatan kichik joyni egallashidadir. Vyertikal harakatlanuvchi transportning bu jihatni sanoatda va turarjoylarda ulardan foydalanishni taqozo etmoqda. Barcha 5 qavatdan yuqori bo‘lgan turarjoy binolari bunday transportlar bilan ta’milnadi. Ba’zan kichik masofaga ham odam va yukni ko‘tarib chiqish uchun harakat vositalaridan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Bunga kasalxonalar, nogironlar shifoxonasi, omborxonalar misol bo‘la oladi. Vertikal harakat vositasi – bu eng ko‘p foydalilaniladigan liftlardir.

Lift deb shaxtaning ichida vyertikal yo‘nalishda harakat qiladigan, ichida odam yoki yukni bir qavatdan ikkinchi qavatga olib o‘tuvchi qurilmaga aytildi. Zamonaviy lift quvvatli qurilma bo‘lib, unga xizmat ko‘rsatadigan kishi mexanika, elektrotexnika va avtomatika asoslarini chuqur egallagan bo‘lishi zarur. Yangi liftlarga bir qator yangi talablar qo‘yilgan, bu talablarning bajarilishi uning tuzilishiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bu talablarga yo‘lovchilarga maksimal qulayliklar yaratish, istalgan qavatga chaqirish, yo‘l - yo‘lakay chaqirish, signalizatsiya, to‘xtashda aniqlik, zamonaviy estetik ko‘rinish, barcha tugunlarining ishonchlilikini oshirish, shovqin darajasini pasaytirish va boshqalar kiradi.


Ko‘p qavatli binolar uchun tezyurar liftlarning konstruksiyasi ishlab chiqilgan. Bu liftlar o‘zgarmas tok yuritgichlari bilan jihozlangan bo‘lib, harakatlanish tezligi 0,71; 1; 1,4; 2,5; 3,5 m/sek. ni tashkil qiladi.

Zamonaviy liftlarning tuzilishi va turlarining ko‘pligiga qaramay, ularning bari bir xil asosiy elementlardan iborat. Liftning asosiy qismi ishchi qanotlar va podveska yordamida lift xonasini binoning turli qavatlariga ko‘taruvchi mexanizm hisoblanadi. Liftxona va unga qarama-qarshi yuk qismining muvozanatini saqlash uchun qarshi og‘irlik qismlari maxsus jihozlangan joyda harakatlanadi. Bu joy shaxta deb ataladi. Avariya vaqtida liftxona maxsus ushlab qoluvchi moslama yordamida to‘xtatiladi. Xonaning harakatlanish tezligini kamaytiruvchi blok va po‘lat arqon yordamida nazorat qilinadi. Liftxona tezligi ortganda maxsus ushlab qolgichlar harakatga keladi. Balandlik holatini, liftxonasiga qotirilgan po‘lat arqon yordamida qavatdan-qavatga o‘tishni ta’milaydi. Odatda, ko‘tarish mexanizmi joylashgan inshoot mashinalar xonasi deyiladi va shu yerda transformatorli, bo‘lgichli va boshqa qurilmali liftlarni boshqarish stansiyalari o‘rnatalidi.

Liftlarning tasnifi

Ishlatilishiga ko‘ra liftlar odam tashuvchi (kasalxona liftlari bunday liftlarning bir ko‘rinishi), yuk hamda odam tashuvchi va yuk tashuvchi liftlariga bo‘linadi.

Odam tashuvchi liftlar odamlarni qo‘l yuki bilan tashish, (odam va yukning vazni liftning yuk ko‘tarish qobiliyatidan oshmasligi sharti bilan) uy-ro‘zg‘or buyumlarini tashishga mo‘ljallangan.



1.6-rasm. Lift qurilmalarining mashina xonalari va shaxtalarining ko‘rinishi: o‘ngda – liftning yuk ko‘tarish qobiliyati (kgk), kabinaning harakatlanish tezligi (m/sek), kabinaning tashqi o‘lchamlari (sm), odamlar sig‘imi, liftning ko‘tarilish balandligi (m), kabinaning to‘xtashlar soni

Kasalxona liftlari odam tashuvchi liftlar turkumiga kiradi, ammo liftda bemorlarni aravalarda tashish ko‘zda tutilganligi uchun liftning yuk ko‘tarish qobiliyati nisbatan kichik bo‘lgan holda polining maydoni yetarlicha keng bo‘ladi. Yuk bilan odam tashish liftlari yuklarni xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar kuzatuvি ostida tashishga mo‘ljallangan; bu turdagи liftlarda odam tashish ko‘zda tutilganligi uchun, ular odam tashuvchi liftlardagi kabi barcha xavfsizlik talablariga javob byerishlari shart. Yuk tashish liftlari faqatgina yuk tashish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ularda odam tashish qat’ian man etiladi.

Yuk tashish liftlari orasida yuk ko‘tarish qobiliyati 100 kg gacha bo‘lgan kichik liftlar alohida o‘ringa ega. Bu liftlar o‘matilishiga ko‘ra kutubxona, magazin, bufet liftlariga bo‘linadi.

Kabinaning harakatlanish tezligiga ko‘ra liftlar quyidagicha bo‘lish mumkin: – sekin harakatlanuvchi – tezligi 0,75 m/sek gacha. Ular odatda, uncha baland bo‘limgan kam yo‘lovchili va lift tez-tez ishlataladigan binolarda qo‘llaniladi;

– tez harakatlanuvchi – tezligi 0,75-1,5 m/sek. Ular balandligi 14 dan 20 qavatgacha bo‘lgan va ko‘p odamlar qatnaydigan binolarga xizmat ko‘rsatadilar;

– yuqori tezlikli – tezligi 1,5 m/sek dan yuqori. Ular balandligi 20 qavatdan yuqori bo‘lgan binolarda qo‘llaniladi.

Kabinaning to‘xtash aniqligiga ko‘ra liftlarni quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

– aniq to‘xtash tizimli. Bunday tizimlar bilan odatda sekin harakatlanuvchi va yuqori tezlikli liftlar jihozlanadilar. Bunday tashqari, bunday tizimlar kabinasi turli xil aravachalar yordamida yuklanuvchi kasalxona va yuk tashish liftlarida ko‘zda tutiladi.

– kabinaning aniq to‘xtash tizimli. Bunday liftlar ancha arzon bo‘lib keng qo‘llaniladi.


Bu, asosiy xususiyatlardan tashqari liftlar ham mavjud. Odam tashish liftlari umumiyl foydalanish liftlariga, yong‘in liftlari, xizmat-xo‘jalik liftlari va boshqalarga bo‘linadi.

Lift elektr jihozlarining ishlatalishi va ularga qo‘yiladigan talablar

Liftlarning elektr jihozlari deganda, lift qurilmalarida ishlataladigan elektr mashinalar, elektr apparatlar, uskuna va elektr

o'tkazgichlar majmui tushuniladi.

Elektr jihozlar liftning elektr yuritmasi yordamida liftlarni yuk yoki odamlar bilan yuqoriga yoki pastga tashishga mo'ljallangan. Yuritma dvigatel bir necha elektr mashinalardan tashkil topgan bo'ladi. Elektr dvigatel tarmoqdan olinuvchi elektr Energiyani kabina harakatlanishining mexanik Energiyasiga aylantirib beradi. Liftning elektr yuritmasini boshqarish, ya'ni uni o'chirish va yoqish, harakatlanish yo'nalishini o'zgartirish, liftni tezlashtirish va



1. *Mashinalar xonası*
 - 2 *Ko'tarish mexanizmi*
 3. *Po'lat arqon*
 4. *Ushlagichlar*
 5. *Kabina (xona)*
 6. *Ushlagich asosi*
 7. *Osma kabel*
 8. *Qavatlardagi qayta ulagich*
 9. *Shaxta*
 10. *Shaxta to'siqlar*
 11. *Lift xonasini yo'naltirgich*
 12. *Posinga yo'naltirgich*
 13. *Chaqirish apparatlari*
 14. *Pasoni*
 15. *Pruijinnali qaytargich*
 16. *Shaxta chuqurligi*
 17. *Tezlik chegaralagichning tortilish bloki*
 18. *Tezlik chegaralagichni po'lat arqoni*
 19. *Liftxona va shaxta eshiklari*
 20. *Liftxonasingin boshqarish pulti*
 21. *Tezlikni chegaralagich*
 22. *Oxirgi uzgich*
 23. *Liftni boshqarish paneli*
 24. *Elektrodvigatel*
 25. *Sekinlashtrigich (tormoz)*
 26. *Po'lat arqonni yo'naltiruvchi g'ildirak*

1.7-rasm. Lift qurilmalarining asosiy jihozlari

Elektr jihozlari, avtomatik boshqarish apparatlarini ham o‘z ichiga oladi. Liftning tuzilishi shunday bo‘lishi kerakki, undan foydalanish yo‘lovchilar va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar hayotiga xavf tug‘dirmasligi kerak. Bu elektr va mexanik qurilmalarni o‘z ichiga oluvchi avtomatik himoya va blokirovka vositalari orqali amalga oshiriladi.

Zamonaviy lift, undan foydalanish qulay bo‘lishi uchun, avtomatik tarzda signali beruvchi vositalar bilan jihozlanadi. Liftning elektr mashinalari va apparatlari turli joylarga joylashtiriladi: mashina bo‘limiga, shaxta va kabinaga.

Alohibo qurilmalarning o‘zaro elektr bog‘lanishi uchun (liftning elektr jihozlari xonasida alohibo o‘ringa ega bo‘lgan) elektr yuritmadan foydalaniladi.

Asosan, shaxta va mashinalar xonasida joylashgan qo‘zg‘almas apparatlar va kabinadagi apparatlar o‘rtasida elektr bog‘liqlikni o‘tkazish qiyin masalalardan biridir. Bu vazifani egiluvchvan kabel o‘z zimmasiga oladi. Liftdan normal foydalanish uchun, lift elektr jihozining tarkibi hisoblanuvchi kabina yoritilishini hisobga olish darkor. Lift qurilmalarining asosiy elektr jihozlari 1.7-rasmida keltirilgan.

Lift qurilmalarining quvvati va sonini tanlash

Liftlar binolarda bajaradigan vazifasiga ko‘ra yo‘lovchi, yuk tashuvchi va boshqalarga bo‘linadi. Liftlarning soni binoning qavatlari soniga muvofiq tanlanadi.


To‘qqiz qavatli binolarda har bir podyezdga bittadan 320 kg yuk ko‘tarish qobiliyatiga ega bo‘lgan, 0,71 m/sek tezlikda harakatlanuvchi va quvvati 3,5-4,5 kVt li yo‘lovchi liftlari o‘rnataladi.

10-12 qavatli binolarda har bir podyezdga ikkitadan 320 kg yuk ko‘tarish qobiliyatiga ega bo‘lgan, 1 m/sek tezlikda harakatlanuvchi va quvvati 7 kVt li yo‘lovchi liftlar o‘rnataladi.


Balandligi 13 dan 20 qavatgacha bo‘lgan binolarda har bir podyezdda 3 tadan lift – 2x320 kg va 1x500 kg, tezligi 1m/sek, 11,2–17 kVt li liftlar o‘rnataladi.

21 dan 25 qavatgacha bo‘lgan binolarda har bir podyezdda 4 tadan – 2x320 kg va 2x500 kg, tezligi 1m/sek, 30kVt va undan yuqori liftlar o‘rnataladi.

Hozirgi vaqtida balandligi 17 dan 25 qavatgacha bo'lgan binolarda yangi yuk ko'tarish qobiliyati 500 kg li va tezligi 1,4 m/sek li ancha tezyurar liftlar qo'llanilmoqda. Liftning quvvati quyidagi formula orqali aniqlanadi:



a) turar-joy binolari



b) jamoat binolari

1.8- rasm. Lift qurilmalarining elektr yuklamalari grafiklari

$$P_{hl} = K_T \cdot \sum_{i=1}^n P_{ni} \cdot n_i \quad (1.8)$$

bu yerda: K_T – talab koeffitsiyenti; n_i – lift qurilmalarining soni; P_{ni} – bitta liftning o'rnatilgan quvvati, kWt.

Lift qurilmalarining kunlik elektr yuklamalari grafiklari 1.8-rasmda ko'rsatilgan.

1.3.2. Havoni mo'tadillashtirish qurilmalari

Hozirgi kunda sanoatda va maishiy-xo'jalikda havoni mo'tadillashtirish (konditsionerlash) qurilmalaridan keng foydalanilmoqda. Ular havoni mo'tadillashtirish texnologik, sanitarn-texnik va komfort shartlari bo'yicha zarur bo'lgan xonalarda sun'iy iqlimni hosil qilish va ushlab turish uchun mo'ljallangan. Havoni tayyorlash, uni alohida xonalarga yo'naltirish va taqsimlash uchun mo'ljallangan qurilmalar majmui tizim deyiladi.

Konditsionyerlar – havoni mo'tadillashtirish qurilma-lari bo'lib, ular havoni qayta ishlab, uni isitadi yoki sovitadi, quritadi yoki namlaydi, tozalaydi va aylantiradi.

Xonaning vazifasiga qarab havo muhitining ichki parametrlarini talab qilinayotgan konditsiyalari (shartlari) tanlanadi.

Sanoat konditsionerlariga texnologik jarayonni olib borish uchun eng muvofiq havo muhitini chiqarish, sifatlari mahsulot yaratish, mahsulotlarni saqlash kabi vazifalar qo'yildi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish xonalarining havo muhiti sanitarni-gigienik holatini yaxshilash masalasi ham ko'riladi. Konditsionerlashtirish radio va telestudiylardagi qurilmalarni, avtomatik radiorele stansiyalaridagi qurilmalarni ekspluatatsiya qilishda, tarixiy boyliklarni saqlash va boshqalarda zaruriy shartlardan hisoblanadi.

So'nggi paytlarda jamoat, ma'muriy va maishiy binolarda shinam konditsionerlashtirish keng tarqalib bormoqda. Shinam konditsionerlashtirishda xonada ishlash va dam olish uchun eng qulay havo muhitini yaratish masalasi maqsad qilinadi.

Ishlatilayotgan xonalarga qarab konditsionerlarni markaziy va mahalliy turlarga bo'lish mumkin. Markaziy konditsionerlar xonalaridan tashqariga o'rnatiladi, mahalliy esa to'g'ridan-to'g'ri xonalarning o'ziga joylashtiriladi. Konditsionerlar sovuq va issiq havo bilan ta'minlanishiga ko'ra avtonom va avtonom bo'limgan konditsionerlarga bo'linadi.

Avtonom konditsionerlar o'ziga o'rnatilgan sovitish va isitish agregati yordamida sovuq va issiq havo ishlab chiqaradi. Avtonom bo'limgan konditsionerlar markaziy manbalardan issiq va sovuq havo bilan ta'minlanadi. Havoni muvofiqlashtiruvchi markazlashgan tizimlarda avtonom bo'limgan konditsionerlar qo'llaniladi, mahalliy tizimlarda esa avtonom va avtonom bo'limgan konditsionerlar qo'llaniladi.

Xonalarga xizmat ko'rsatishga qarab havoni mo'tadillashtirish (konditsionerlash) qurilmalar markaziy va mahalliy larga bo'linadi.

Markaziy havoni mo'tadillashtirish (konditsionerlash) qurilmalari xizmat ko'rsatilayotgan xonadan tashqariga, mahalliy esa xizmat ko'rsatilayotgan xonani o'ziga o'rnatiladi.

Issiq va sovuq bilan ta'minlash usuliga qarab havoni mo'tadillashtirish (konditsionerlash) qurilmalari avtonom va avtonomsizlarga bo'linadi.

Avtonom havoni mo'tadillashtirish (konditsionerlash) qurilmalari sovuq havoni o'zida o'rnatilgan muzlatgich agregati orqali ishlab chiqaradi. Avtonomsiz havoni mo'tadillashtirish (konditsionerlash)

qurilmalari sovuq va issiq havo bilan tashqaridan, markaziy man'ba orqali ta'minlaydi.

Markaziy havoni mo'tadillashtirish (konditsionerlash) qurilmalari sistemalarida avtonomsiz havo almashtirgichlar qo'llaniladi, maxalliy sistemalarda esa avtonom va avtonomsiz havoni mo'tadillashtirish (konditsionerlash) qurilmalari qo'llaniladi.

Ventilyatorlar hosil qiluvchi bosimiga ko'ra havoni mo'tadillashtiruv tizimlari past bosimli (100 kg/m^2 gacha), o'rta bosimli (100 dan 300 kg/m^2 gacha) va yuqori bosimli (300 kg/m^2 dan yuqori) tizimlarga bo'linadi. Masalan, yarim o'tkazgichli moslamalarni ishlab chiqarishda havoning ichki harorati va namligini saqlash bilan bir qatorda, ish joyida havo harakati juda past bo'lishi kerak. Yog' va pishloq ishlab chiqaruvchi zavodlarda pishloq pishadigan kameralarda havo muhiti pishloqlar sifatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Tovuqlarni qafaslarda saqlashda havo harorati va namligi tarkibida amiyak va uglekislota borligi ularning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.


Havoni mo'tadillashtirish qurilmalarini qo'llash qimmatbaho asbob-uskunlardan foydalanishda juda zarur, masalan, radio va telestudiyalarda, avtomatik radioreleli stansiyalarda, tarixiy ahamiyatga ega yodgorliklarni va tasviriy san'at asarlarini saqlaydigan xonalarda.

So'nggi paytlarda jamoat joylarida, ma'muriy va turarjoy binolarida havoni mo'tadillashtirish (konditsionerlash) qurilmalarida birinchi navbatda xonalarda ishlash va dam olish uchun qulay havo muhitini yaratish ko'zdautiladi. Iliq sharoitda eng yaxshi ishchanlik saqlanadi.

Sobiq Ittifoqda 30-yillarda texnologik havoni mo'tadillashtirish qurilmalarini to'qimachilik va tamaki fabrikalarida qo'llay boshlashgan. Havoni mo'tadillashtirish qurilmalarini ishlab chiqarila boshlanishi 1956–1957 yillarga to'g'ri keladi. Shu yillarda Xarkovdagi isituvchi-ventilyatsiya uskunlari zavodida $10,20,40$ va 60 ming m^3/soat li markaziy gorizontalli havoni mo'tadillashtirish qurilmalari va $0,5$ ming dan to $3,5$ ming m^3/soat li mahalliy agregatli havoni mo'tadillashtirish qurilmalarini ishlabchiqarish yo'lga qo'yilgan.

Hozir Xarkovdagi «Konditsionyer» zavodi 10 dan to 240 ming m^3/soat li, Domodedova zavodi $0,5$ dan 20 ming m^3/soat li havoni mo'tadillashtirish qurilmalarini ishlab chiqarmoqda.

Sanoat bu davrgacha «KD» tipi markaziy havoni mo'tadillashtirish qurilmalarini ishlab chiqarish 10, 20, 40, 60, 80, 120, 160, 200 va 240 ming m^3/s soatli edi. KD-10, KD-20, KD-40, KD-60, KD-80 tipi havo almashtirgichlarning seksiyalari faqat temirbetonli qurilmalarda qo'llash uchun yasalar edi.



1.9-rasm. Unifikatsiya qilingan «KD» tipi uskuna


Hozirgi kunda sanoatda namunali konditsioner «KT» (konditsioner tipovoy) rusumli havoni mo'tadillashtirish qurilmalari ishlab chiqarilmoqda. Ular Unifikatsiyalangan detallardan tuyyoranadi (9 ventilyatsiyali agregatlardan tashqari). Konditsionyerlar 30 va 40 $m^3/soatl$ havoni mo'tadillashtirish qurilmalarining seksiya va kameralari namunaviy deb olingan, ular **anonda** konditsionerlar 60, 80, 120, 160 va 200 ming $m^3/soatl$ havoni mo'tadillashtirish qurilmalari yasaladi.

Unifikatsiya qilingan «KD» tipi uskunaning o'lcham qatori bo'yicha qurilishi 1.9-rasmida tasvirlangan. Yangi turdag'i Unifikatsiya qilingan markaziy havoni mo'tadillashtirish qurilmalariga KT-30, KT-40, KT-60, KT-80, KT-120, KT-160 va KT-250 indekslari berilgan.

Havoni mo'tadillashtirish qurilmalar uning bu turida havo o'ng tomonga harakatlanganda chap tomonga yuboriladi va havo chap tomonga harakatlanganda o'ng tomonga yuboriladi. Ishlab chiqarishi 10 va 20 ming m³/soat bo'lgan konditsionerlar «KD» rusumda chiqariladi. Unifikatsiya qilingan uskunalaridan yig'ilgan konditsionerlar alohida temirbeton yoki g'ishtli qurilmalarga o'rnatiladi. Issiq va sovuq suv ta'minoti markazlashtirilgan tipik seksiyali, yil davomida havoni mo'tadillashtirish uchun mo'ljallangan qurilmalarning 1.10-rasmda aks ettirilgan elementlari mavjud.

Bu qurilma xizmat ko'rsatayotgan xonada yil davomida markazlashgan bir va ikki martali havoni retsirkulyatsiya (ishlatilgan havoni tozalab qayta uzatish) qilish qurilmalarini o'rnatish uchun xizmat qiladi.

Havo almashtirgichda seksiyalarni qay tarzda yig'ilishini ko'rib chiqamiz.



1.10-rasm. Markaziy havoni mo'tadillashtirish qurilmalari:

- 1 - qabul qiluvchi klapansi, 18-ventilyator bilan aloqasi bor;
- 2 - oraliq seksiya; 3 - havoni boshqarish (uzatish) uchun qo'shaloq klapani;
- 4 - tashqi havoni isitadigan seksiyasi; 5 - tashqi havoni sovutish seksiyasi;
- 6 - 1-retsirkulyatsiyali o'tish klapani; 7 - o'tkazuvchi kameralar;
- 8 - forsunkalovchi kameralar; 9 - 2-retsirkulyatsiyali o'tish klapani;
- 10 - o'tkazuvchi kamera; 11 - o'zini-o'zi tozalovchi moyli filtr;
- 12 - oraliq seksiya; 13 - qo'shaloq klapani; 14 - isitish seksiyasi; 15 - oraliq seksiyasi; 16 - gorizontal yig'uvchi turgaklar turi;
- 17 - o'tuvchi seksiyasi; 18 - ventilyator; 19 - havo o'tkazuvchi

1-qabul qiluvchi klapanga havo o'tkazgich uzatiladi, bundan klapanning lapatkalari ochiq turganda tashqi havo ishlov byerilishi uchun havo almashtirgichga kelib tushadi. Odatda, qabul qiluvchi klapanlarda pnevmatik va elektrik uzatmalar bo'ladi. Bular avtomatik

boshqarish sistemasi orqali ventilyator ishga tushganda uzatma qabul qiluvchi klapan – 1 ning darchalari ochilishini, ventilyator o‘chganda esa darchalari yopilishinini ta’minlaydi.

Oraliq seksiya – 2 qabul qiluvchi klapan – 1 ning ichki qismiga va qo‘shaloq klapan – 3 ga o‘tish uchun xizmat qiladi.

Isitish seksiyasi 4 va 5 ni navbatma-navbat o‘rnatish, yilning sovuq paytida tashqi havoni, havo almashtirgichda isishini ta’minlaydi.

Havoning isish darajasi qo‘shaloq klapan – 3 dagi darchalarning o‘zaro aylanish holati bilan boshqariladi. Klapan – 3 ning pnevmatik va elektrik ishlashi avtomatik boshqariladi.

O‘tkazuvchi kameraning ustki qismiga o‘tish klapani – 6 o‘rnatilgan, bunga xizmat ko‘rsatilayotgan xonadan (birinchi retsirkulyatsiya) havo kelib tushadi.


O‘tkazuvchi kamera – 7 ga tashqi va retsirkulyatsiya qilingan havo kelib tushadi va ularning qorishmasi forsunlovchi kamera – 8 da qayta ishlaniadi. Retsirkulyatsiya qilingan havoni bu turda qo‘llash almashtirilgan havoni qayta ishlashda issiqlik sarfini kamaytiradi.

Havo qorishmasi 2-retsirkulyatsiya forsunlovchi kameradan o‘tgandan so‘ng, o‘zini-o‘zi tozalovchi moyli filtr – 11 da tozalanadi, bunga xizmat ko‘rsatish o‘tkazuvchi kamera – 10 va oraliq seksiya – 12 orqali amalga oshiriladi. Isitish seksiyasi – 14 da havo xizmat ko‘rsatilayotgan xonaga (2-isitish) uzatishdan oldin isitiladi, 2-lintinhdan havoning isitilanlik darajasi qo‘shaloq klapan – 13 dagi darchalar orqali boshqariladi. Oraliq seksiya – 15 ning yoniga o‘tuvchi neklyon – 17 ulangan bo‘indi. Bu, o‘z navbatida havo uzatilish yo‘lini ventilyator – 18 ning so‘rvuchi teshigi bilan bog‘laydi. Gorizontal yig‘ilishi va seksiyalarning o‘rnatilishini ta’minlash uchun gorizontal yig‘uvchi tirgaklarni turi – 16 xizmat qiladi. Eguvchi qismlar – 18 havo o‘tkazuvchi tirqish bilan bog‘lanadi va bu havo o‘tkazuvchi orqali almashtirilgan havo xizmat ko‘rsatilayotgan xonaga uzatiladi.

1.4. Xonadon ichidagi elektr qabul qilgichlar

Turarjoy binolarining elektr qabul qilgichlari ikki asosiy guruhga bo‘linadi: xonadon ichidagi elektr qabul qilgichlar va uylardagi umumfoydalaniluvchi elektr qabul qilgichlar. Xonadon ichidagi elektr


qabul qilgichlarga yoritish va maishiy elektr jihozlari kiradi. Hozirda maishiy xo'jalikda 500 dan ortiq elektr jihozlar mavjud. Barcha elektr jihozlari; mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash jihozlari; xo'jalik jihozlari (kiyim-kechaklarni tozalash va dazmollash, xonalarni tozalash, elektr asboblar va b.); madaniy-maishiy elektr jihozlari; sanitarn-gigienik; maishiy havo konditsionerlari; suv isitgichlar; xonalarni isitish jihozlari. elektr plitkalar, elektr pechlar, tostyerlar, elektr qo'ralar, elektr samovarlar, elektr choynaklar, mikroto'lqinli pechlar va b. 1.11-rasmda 4 konforkali elektr plitasining sxemasi keltirilgan.



1.11-pasm. 4 konforkali elektr plitasining elektr sxemasi

Ovqat tayyorlash uchun isitish jihozlari: elektr plitalar, pishirish shkaflari,


Xo'jalik jihozlari: kir yuvish mashinalari (avtomatik bo'limgan, yarim avtomatik, avtomatik), changyutgichlar, dazmollar, idish-tovoq yuvish mashinalari va boshqalar.



1.12-rasm. Kir yuvish mashinasining elektr sxemasi:


RV – vaqt relesi, RT – tok relesi M - elektr motor, n – signal lampasi
R – kontakti

Mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash jihozlari; bularga sovitgichlar (kompression, absorbsion, yarim o'tkazgichli), muzlatgichlar, univyersal oshxona elektr yuritmalari, go'sht qiymalagichlar, kofemolkalar, miksyerlar, sharbat siqqichlar va boshqalar kiradi. Masalan, 1.13-rasmida changyutgichning va 1.14-rasmida sovitgichning elektr sxemasi keltirilgan.




1.13-rasm. Changyutgichning elektr sxemasi:

D – havo so'rvuchi agregat, shepselga sannchqich,
V – o'chirgich, S1, S2, S3, S4 – sig'imli kondensatorlar




1.14-rasm. Sovitgichning elektr sxemasi

Madaniy-maishiy jihozlar: televizorlar, videomagnitofonlar, magnitofonlar, radiopriyomniklar, shaxsiy kompyutyerlar, elektr musiqa asboblari, elektrlashtirilgan o'yinchoqlar va boshqalar. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, keltirib o'tilgan jihozlar guruhi, ayniqsa televizorlar, kuchlanish tebranishiga juda sezgir bo'ladi. Shu sababli mahalliy kuchlanish stabilizatorlari keng qo'llaniladi. Ular televizorlar ishlashini yaxshilab, tarmoqning qvvat koeffitsiyentini pasaytiradi va Energiya isrofini oshirib ish holatini yomonlashtiradi. Shu sababli, shahar elektr tarmoqlarida maxsus kuchlanishni rostlash qurilmalarini qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.



1.15-rasm. «Komfort» elektr konvektorining elektr sxemasi

Sanitar-gigienik jihozlar: ventilyatorlar, maishiy konditsionerlar, havo namlagichlar, fenlar, ionizatorlar, elektr soqol olgichlar, soch olish mashinkalari, massaj jihozlari va boshqalar.



1.16-rasm. «Chayka» elektr soqol olgichining elektr sxemasi

Xonani mo'tadillashtirish jihozlari: konditsionerlar (yozgi-qishki), xonani isitish uskunaları, ventilyatorlar, suvni isitish qurilmalari va boshqalar.

Maishiy elektr jihozlar: elektrodrel, elektrpayvandlagich, elektrcharx va boshqalar.

Elektr yoritish jihozlari: svetodiodlar, natriyli, gazrazryadli, elektr energiyani iqtisod qiluvchi (ekonom) lampalar, ko'p yorug'lik beruvchi va uzoq xizmat qiluvchi lampalar va boshqalar.

Nazorat savollari

1. Shahar elektr Energiya qabul qilgichlari va iste'molchilarining tasnisi qanday malumotlarga ega?
2. Shaharda elektr Energiya iste'molining strukturasini nimadan iborat?
3. Elektr transport yuklamasi qaysi formula bo'yicha topiladi?
4. Elektr transportning texnik tasnifini toping?
5. Ko'cha va reklama yoritishlari nimalardan iborat?
6. Yorug'lik manbalari va yoritgichlari qaysi turlardan iborat?
7. Yoritgichlarning joylashishi sxemasi qanday turlarda bo'ladi?
8. Suv ta'minoti sxemasi necha turlardan iborat?
9. Qaysi formula bo'yicha suv ta'minoti sarflari topiladi?
10. Lift qurilmalarining tasniflarini bilasizmi?
11. Nеча xil liftlar turlarini bilasiz?
12. Lift qurilmalarining asosiy jixozlari nimalardan iborat?
13. Havoni mo'tadillashtirish qurilmalari necha xillardan iborat?
14. Xonodon ichidagi elektr qabul qilgichlari necha xillardan iborat?

2. SHAHAR ISTE'MOLCHILARI SUTKALIK ELEKTR YUKLAMALARI GRAFIKLARINING EKSPERIMENTAL TADQIQOTLARI

2.1. Shahar elektr iste'molining ijtimoiy-iqtisodiy muammolari

Energiya iste'moli jarayonida yoqilg'i-energetika kompleksi sohalarining rivojlanishi va takomillashishining asosiy yo'naliishlari dan biri – xalq xo'jaligini elektrlashtirish darajasini oshirishdir.

Yangi Energiya manbalarining topilishi va elektr stansiyalardagi elektr Energiya ishlab chiqarishning keskin ortishi tufayli, kelajakda shaharlarda yagona enyergotashuvchiga o'tish mumkin. Albatta, elektr Energiyaning barcha o'ziga xos afzalliklari bo'lgan «dastur» bo'yicha boshqarilishining soddaligi bilan ajralib turuvchi, shunday univyersal Energiya turiga o'tiladi. Elektr Energiyaning univyersal turi, turarjoy sektorining enyergetik jarayonlar kompleksi uchun zarur. Bular:

- birinchidan, xonodon enyergetik jihozlarining nisbatan kichik quvvatliligi bilan bog'liq bo'lgan bo'linish xususiyati;
- ikkinchidan, enyergotashuvchidan maxsus malakaga ega bo'lmanan iste'molchining foydalanishi osonligi;
- uchinchidan, harakat juda tezligi;
- to'rtinchidan, enyergotashuvchining gigiena talablariga javob byerishi. Bunday barcha talablarni, elektr Energiya to'la qondiradi.

Maishiy xo'jalikni elektrlashtirishning iqtisodiy ahamiyati boshqa ko'rsatkichlar orasida uy xo'jaligida ketkaziladigan vaqtini tejash darajasi bilan baholanadi. Masalan, to'rt kishidan iborat oila elektr qurilmalari bo'lmanan holda, uy ishlariga 5,5 soat atrofida vaqt sarflaydi. To'liq elektrlashtirilgan uyda esa bunga 1,5 soatini ketkazadi. So'ngi yillarda maishiy elektr qurilmalarini ishlab chiqarish va ishlatish miqyosi keskin ortmoqda. Aholining ular bilan ta'minlanganlik darajasi ham sezilarli darajada oshdi.

Jamoat va turarjoy binolaridagi elektr Energiya iste'moli miqdoriga ta'sir qiluvchi eng asosiy omillardan biri – bu Markaziy Osiyo davlatlarida soni va qiymati tezlik bilan oshib borayotgan havoni mo'tadillashtiruv qurilmalarining qo'llanishidir.

Yozda hisobiy yuklamaga sovitish, ventilyatsiya qurilmalari, suv nasoslari, shuningdek, ko'cha va maydon hududlariga suv sepish juda katta ta'sir ko'rsatadi.

Shaharlarda elektr iste'moliga ikkinchi kuchli ta'sir qiluvchi omil-larga maishiy xizmatdagi elektr plitalarda taom tayyorlash, statsionar elektr plitalarni qo'llash kiradi. Yirik shaharlarda kommunal-maishiy xo'jalikda kuchli elektr qabul qilgichlarning yuklamalari ortmoqda. Jamoat va turarjoy binolarida lift qurilmalarini qo'llash kengaymoqda.

So'ngi vaqtarda kommunal-maishiy sektorda turli xil elektr tyermoelementlar yordamida elektr isitish va issiq suv ta'minotidan foy-dalanila boshlandi.

Ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan xususiyatlardan biri – Markaziy Osiyo davlatlarida aholining eng yuqori o'sishi – har 1000 aholiga 38 kishi, O'zbekistondagi oilaning o'rtacha-normativ kattaligi 4,5 kishiga teng, ayrim oilalarda esa ularning soni 10–15 kishiga yetadi.

O'zbekiston shaharlarida jamoat va turarjoy binolarining elektr iste'moliga ular joylashgan iqlimi zona ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. O'zgidrometeo markazning ma'lumotlariga ko'ra, yozgi davrda o'rtacha harorat +35 °C gacha yetadi.

Aholining turmush sharoitini yaxshilash uchun, ularni zamonaviy maishiy texnika bilan ta'minlash zarur. Bular esa ro'zg'or tashvishlariga ketadigan vaqtini ancha tejaydi.

2.2. Shahar tarmoqlarida elektr yuklamalarni o'lchashni o'tkazish uslubi

Toshkent shahri tarmoqlarining yuklamalarini o'rganish bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borildi. Bunda o'lchash uslubi Sankt-Petyerburg muhandislik-iqtisodiyot Instituti, MEI, K.D.Panfilov nomidagi Maishiy-xo'jalik Akademiyasi, «Giprokommunenyergo» va Moskva namunaviy va eksperimental loyihalash ilmiy tadqiqot instituti va boshqa institutlarning ishlari asosida tanlandi. Har bir obyekt uchun «O'zenyergota'minot» ma'lumoti asosida, kiritilish o'mining tuzilishiga qarab, elektr jihozlarning ishlashi vaqtini hisobga

olgan holda, kuch va yoritish yuklamalari uchun alohida maksimal elektr iste'moli davri aniqlandi. Havoni mo'tadillashtirish va sovitish qurilmalari mavjud bo'lgan obyektlarda, elektr yuklamaning o'zgarish xarakterini va maksimumini bilish uchun, tekshiruvlar yozgi va qishki paytlarda o'tkazildi.

Asboblarni nazorat qilish va yuklamalar nosimmetriyasini aniq-lash uchun o'ziyozar asboblardan foydalanish bilan bir vaqtda yuklamalarning maksimum vaqtlarida tok va kuchlanishlar o'lchanib turildi. Bundan tashqari, har soatda o'rganilayotgan obyektlarning schyot-chiklaridagi ma'lumotlar yozib borildi. Quyidagi punktlardan iborat bo'lgan statistik ma'lumotlar anketasi to'ldirib borildi: tashkilot (muassasa) nomi, manzili, bino turi, umumiyligi va foydali maydoni, tanlangan ko'rsatkichning qiymati, isitish turi, issiq suv ta'minotining bor-yo'qligi, havoni konditsionerlash, taom tayyorlash turi, o'rnatilgan quvvatlar – kuch va yoritish, schetchik- ning turi va raqami, transformator va ta'minlovchi liniyaning, shuningdek, transformator punktining parametrlari.

Bundan tashqari, so'rov anketasida quyidagi jadvallar to'ldirildi:

1-jadval – o'rnatilgan quvvat tarkibi.

2-jadval – sutkalik elektr yuklamalar grafigini qurish uchun schyotchik ko'rsatkichlari.

3-jadval – yillik elektr yuklamalar grafigini qurish uchun schyotchik ko'rsatkichlari.

Bu elektr yuklamaga ta'sir qiluvchi omillarni har tomonlama tahlil qilish imkonini beradi.

Elektr yuklamalarni o'lhashda ishonchli boshlang'ich ma'lumotlarni olish uchun tekshirish obyektlarini, obyektlar soni va zarur o'lhashlar sonini to'g'ri tanlash juda zarur.

Obyektlar quyidagi alomatlari orqali tanlandi:

a) gaz plitalarga ega bo'lgan, havoni mo'tadillashtiruv qurilmalari bo'lmagan obyektlar;

b) elektr plitaga ega bo'lgan, havoni mo'tadillashtiruv qurilmalari bo'lmagan obyektlar;

v) gaz plita va havoni mo'tadillashtiruvchi qurilmalarga ega obyektlar;

g) elektr plitalarga va havoni mo'tadillashtiruvchi qurilmalarga ega obyektlar;

d) kommunal-xo‘jalik iste’molchilarining elektr yuklamalari tasodifiy xarakterga ega va ular ehtimollar nazariyasi va matematik statistika qonunlariga bo‘ysunadi.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, agar turarjoy binolarida elektr yuklamalar grafigining o‘zgarishi adabiyotlarda berilgan ma’lumotlarga muvofiq me’yoriy taqsimlanish qonuniga to‘g‘ri kelsa va hisobning aniqligi uchun juda ko‘p o‘lhashlarni talab qilsa, unda jamoat sektorining bir xil kuch qurilmali, bir turdag'i iste’molchilar ish holati va elektr yuklamaning xarakteri vaqt bo‘yicha kam o‘zgaruvchi va bir-biridan konfiguratsiyasi va rejimi bilan kam farqlanuvchi elektr iste’molchilar qismi uchun student taqsimlash qonunini qo’llash hamda katta ma’lumotlar hajmidan kichik tanlanmani olish mumkin.

[60] ga muvofiq, hisobning aniqligi $\pm 5\%$ oraliq‘ida bo‘lishi uchun, ya’ni ehtimolligi 95% ga mos keluvchi, me’yorlovchi og‘ish $t_0 = 1,65$ ga ega bo‘lish uchun $n = 60$ ta o‘lhashlar o‘tkazish lozim. Shuning uchun ham olib borilgan tadqiqotdagi o‘lhashlar davomiyligi 8 kundan kam bo‘lmay, bir turdag'i 8 ta obyektlarda o‘tkazildi. So‘ngra, qishki va yozgi grafiklar uchun seriyali xatoga ega bo‘imasligi uchun o‘lhashlar qishki va yozgi mavsumlarda haftaning turli kunlarida o‘tkazildi. I, P, cosφ, Wh qiymatlarini o‘ziyozar qurilmalar, yukläma nosimmetriyasini aniqlash va nazorat qilish uchun o‘lhash qisqichlari, shuningdek, aktiv va reaktiv Energiya schyotchiklari yordamida o‘lhash bilan bir vaqtida, elektr iste’molchilari uchun anketa ma’lumotlari yig‘ildi. Bu, bir tomonidan, yuklämalarning (kuch qurilmalari va boshqa omillarga bog‘liq holda) qishki yoki yozgi maksimumini aniqlash imkonini byerdi. Ikkinchi tomonidan esa, boshlang‘ich ma’lumotlarni ehtimollik-statistik qayta ishlash asosida jamoat va turarjoy binolarining har bir guruh elektr Energiya iste’molchilari uchun xarakterli grafiklarini ishlab chiqish imkonini byerdi.

Grafiklarni ishlab chiqishda va ularning sonli xarakteristikalarini aniqlashda aniq ma’lumotlarga ega bo‘lish uchun, matematik statistikaning – ma’lum qiymatlar majmuining eng yaxshi bahosi – bu ularning o‘rtachasiligi to‘g‘risidagi qoidaga asoslangan holda, eksperimental tadqiqotlarning natijalarini to‘g‘ri qayta ishlash zarur. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, katta sonlar qonuni va ehtimollar nazariyasiga ko‘ra, o‘rtacha yig‘indini aniqlash natijalari qachonki

sinovlar soni yoki boshqacha qilib aytganda, majmuuning o'rganib chiqilgan had (qism)larining soni yetarlicha katta bo'lganda ular shundagina ishonchli bo'ladi. Boshqa tarafdan, majmua hadlari soni ortishi bilan ularni o'rganib chiqish juda katta mehnatni talab qiladi. Shuning uchun yuqorida qo'yilgan masalani echish uslubi to'g'risida aniq o'rtacha qiymatlarni olish uchun majmuada qancha had bo'lishi kerak, degan savol tug'iladi.

Bu masalani echishning bir qator usullari mavjud. Lekin matematik statistika nuqtai nazaridan eng mos keluvchi va nazariy jihatdan asoslangan jamoat binolarining sutkalik yuklamalar grafik majmuidan tanlanmalarning zarur o'hashlar sonini aniqlash usuli – bu talaba taqsimlashiga asoslangan kichik tanlanmalar usulidir, bunda «t» taqsimlanishi quyidagi qonunga bo'ysunadi:

R

$$S(t) = C \cdot \left(1 + \frac{t^2}{n-1} \right)^{-\frac{n}{2}} \quad (2.1)$$

talaba taqsimotida «n» istaganicha katta yoki kichik bo'lishi mumkin, «n» oshganda, taqsimlash normal taqsimlashga yaqinlashadi:

$$P(t) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \cdot e^{-\frac{t^2}{2}} \quad (2.2)$$

Jamoat binolarining elektr yuklamalarini tadqiq qilishning afzalliklaridan biri shundaki, jamoat binolari turli guruhlarining o'rtacha maksimal qiymatlarga, turarjoy binolaridagi kabi statistik ishlov berib bo'lmaydi. Chunki jamoat binolarining turli xil konstruksiyalari va xarakteriga ko'ra elektr yuklamalarining absolyut kattaliklarining o'rtacha qiymatlari juda yoyilib ketgan bo'lib, ular hisoblashda yetarlicha aniqlik byermaydi. Shuning uchun jamoat binolarining statistik ma'lumotlariga ishlov berishda elektr yuklamalari o'rtacha qiymatlarining kattaligi aniq va ishonchli bo'lgan bir turdag'i iste'molchilardan foydalanish zarur.

O'hashlar soni elektr yuklamalarning boshlang'ich xarakteristikalari aniqligini xarakterlovchi bo'lib, quyidagi formula orqali aniqlanadi [64]:

$$n = t^2 \cdot \left(\frac{\nu \%}{\Delta \%} \right)^2 \quad (2.3)$$

bu yerda:

ν – variastiya koeffitsiyenti;

Δ – o'lhashlar aniqligi.

Elektr yuklamalarni o'lhashda zarur aniqlik $\pm 10\%$ deb qabul qilinishida shunday mulohazadan kelib chiqildiki, jamoat sektori iste'molchilarini ta'minlovchi transformatorning quvvati va kabelning standart kesim yuzasini tanlashda bundan yuqori aniqlik natijalarni o'zgartirmaydi. Shuning uchun yuqoridagi ifoda quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$n = 3,84 \cdot \left(\frac{\nu \%}{\Delta \%} \right)^2 \quad (2.4)$$

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, jamoat sektorining bir turdag'i iste'molchilari elektr yuklamalarini variatsiya koeffitsiyentini o'zgarish chegarasi 7–14% ni tashkil qiladi. 0,38 kV li shahar tarmoqlari sharoitida tarmoqning bir nuqtasida zarur o'lhashlar soni:

$$60 < n < \infty \quad (2.5)$$

oralig'idan bo'ladi.

Registrogramma lentalari, anketa ma'lumotlari va boshqa statistik va eksperimental o'lhash natijalarini tayyorlash (ishlov byerish) K.X.Panfilov nomidagi AKX va MNIITEP uslubi bazasi asosida, turli omillarni qamrab olgan holda har bir ma'lumot yaxshilab tekshirilib ishlov byerilayotganda yuklama maksimumlarini o'lhash ishlari 64 sutka davomida barcha vaqt oraliqlarida olib borildi. Bu sutkalik grafiklarni 5 daqiqa va 1 daqiqlik intyerval bo'yicha ishlov byerib tahlil qilish imkonini byerdidi. Yarim va bir soatli yuklamalar maksimumini hisoblash natijalari yuklamalar grafigini EHM yordamida 95% aniqlikda, $\pm 5\%$ xatolik oralig'ida 5 daqiqlik intyerval bilan olib borish mumkinligini ko'rsatdi.

Shunday qilib, ishonchli boshlang‘ich ma’lumotlarni olish uchun quyidagilarni hisobga olish zarur:

1. Jamoat binolarining elektr yuklamalarini eksperimental tadqiq qilishda ko‘rib chiqiladigan obyektlarni va ularning sonini to‘g‘ri tanlash, shuningdek, boshlang‘ich ma’lumotlarni yetarlicha aniq darajada olish uchun zarur o‘lhashlar sonini to‘g‘ri tanlash.

2. O‘lhashlarni olib borish vaqtin yuklamaning eng katta maksimumi davrida iste’molchilarining turi, elektr Energiyaning iste’mol qilinishi xarakteri va iqlim omillariga bog‘liq holda tanlanadi. Havoni konditsionerlash va sovitish qurilmali obyektlar qishki va yozgi vaqt-larda o‘rganib chiqiladi.

3. Tadqiqot jarayonida olinayotgan boshlang‘ich ma’lumotlarni sinchiklab tekshirish va aniqlash talab qilinadi.

4. Boshlang‘ich matyerial qanchalik puxta yig‘ilgan va aniqlangan bo‘lsa, tekshirish natijalari tahlili shunchalik samarali bo‘ladi.

5. Elektr yuklamalarni tekshirishni muvaffaqiyatli o‘tkazishning zarur shartlaridan biri – bu yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatolarni oldini olish va uning sabablarini joyida aniqlash uchun, olingan ma’lumotlarni darhol ko‘rib chiqish va registrogramma lentalarini tekshirishdir.

6. Bir turdag‘i iste’molchilar yuklamalari hisobining ishonchli boshlang‘ich ma’lumotlarini olish uchun zarur o‘lhashlar soni:

$$60 < n < \infty$$

oralig‘ida bo‘ladi.

7. Statistik tekshirishda so‘rovning anketa ma’lumotlari elektr tar-mog‘ining hisobi uchun barcha zarur koeffitsiyentlar va parametrlarni aniqlash imkonini beradi.

Obyektlarni tekshirish uslubini ishlab chiqishda shu sohadagi yetakchi institutlar olib borgan tadqiqotlarning ijobjiy tomonlari va kamchiliklari hisobga olindi. Tok, quvvat, kuchlanishni o‘lhash va so‘rov anketalarni to‘ldirish juda katta hajmdagi ish va asboblarni talab qilsa-da, biroq u tadqiq qilinayotgan obyektlarning o‘zgarishlarini va xarakterli chiziqlarini to‘laroq hisobga olish, shuningdek, barcha hisobiy va bashoratlovchi kattaliklarni olish imkonini beradi.

2.3. Shahar elektr iste'molchilarining xarakterli sutkalik elektr yuklamalari grafiklarini ishlab chiqish

Mavjud shahar tarmoqlarining elektr yuklamalarini hisoblash usullari aniqligi subyektiv va obyektiv omillarga bog'liq bo'lган yuklamalarni turli koeffitsiyentlarda aniqlashga asoslanganligi sababli ko'plab kamchiliklarga ega. Bu hisoblashlarning eng zaif tomoni talab koeffitsiyenti – K_1 , umumiy maksimumda qatnashish koeffitsiyenti – $K_{um\cdot maks}$ va yuklama maksimumlarini bir-birini qoplash (yuklanish) koeffitsiyenti K_2 larni aniqlashdadir.

Iste'molchilar yuklamalarining aniq va to'g'ri baholarini amaldagi elektr yuklamalari grafiklari tahlili asosida olish mumkin. Mavjud adabiyotlarda loyihalovchilarga shahar elektr tarmoqlarini turli xil guruhdagи iste'molchilar birikmalarini, ixtiyoriy iqlimiylarini uchun barcha omillarni hisobga olgan holda yetarlicha aniqlikda hisoblash imkonini beruvchi, barcha turarjoy va jamoat binolari iste'molchilarining xarakterli sutkalik elektr yuklamalari grafiklarining to'liq to'plami mavjud emas. Shuning uchun, talab koeffitsiyentlarining aniq qiymatlarini olishda shu kattalikka ta'sir qiluvchi barcha omillarning eksperimental va nazariy tadqiqotlari zarur. Shunday qilib, shahar tarmoqlarining hisobiylarini hisoblash usullari aksariyat holatlarda yuklamalar ning haqiqiy qiymatlarini aks ettirmaydi u ko'pincha loyihachining tajribasi va uning qabul qilgan qaroriga bog'liq.

Agar ko'p sonli elektr jihozlarga ega bo'lган va yuklamasi bir joyga to'plangan sanoat korxonalarida hisobiylarini hisoblash uslubiyoti yetarli darajada ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan bo'lsa, o'zining xususiyatiga ega bo'lган shahar tarmoqlari uchun, mavjud adabiyotlardagi elektr yuklamalarni hisoblash uslubiyotiga aniqliklar kiritish lozim.

Tadqiqot natijasida turarjoy va jamoat binolaridagi havoni konditsionerlash, sovitish-kompression stansiyalar, ventilyatsiya, lift qurilmalari va elektr yordamida taom tayyorlash kuch qurilmalarini hisobga olgan holda, elektr yuklamalari o'rGANilib chiqildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, elektr yuklamalar stoxastikdir. Demak, barcha elektr yuklamalar asosida hisoblanadigan kattaliklar ham ehtimoliy kattaliklardir, ya'ni elektr yuklamalarning tasodifiy o'zgaruvchilarining funksiyalaridir. Tarmoq elementlaridagi

maksimal yuklamalarni eng aniq hisoblashni iste'molchilarining amaldagi elektr yuklamalari asosida aniqlash mumkin. Bu holda yarim soatli va bir soatli maksimumlarni hisoblash yuklama grafigini har bir vaqt oralig'i uchun bajarish va barcha hisobiy davrlar orasidan uning eng katta qiymatini hisobiy kattalik sifatida olish kerak. Bunday yondashuvda maksimal yuklamali amaldagi hisobiy tartib (holat) talab koeffitsiyenti – K_t , yuklamalarning umumiy maksimumda qatnashish koeffitsiyenti kabi turli xil asoslanmagan koeffitsiyentlardan foydalanmagan holda olinishi mumkin.

Turarjoy va jamoat binolarining elektr yuklamalarini ehtimoliy-statistik tahlili va sutkalik elektr yuklamalari grafiklariga ishlov byerish yo'li bilan aniqlash usuli ishlab chiqilgan.

Taklif qilingan elektr yuklamalarni yangi ehtimoliy-statistik hisoblash usulida eksperimental yo'l bilan ishlab chiqilgan turarjoy va jamoat binolarining xarakterli sutkalik elektr yuklamalar grafiklaridan foydalaniladi. O'rtacha maksimallardan EHM yordamida olingan xarakterli sutkalik yuklamalar grafigining to'plami jadvallar ko'rinishida berilgan. Ta'kidlab o'tish joizki, iste'molchilar xarakterli elektr yuklamalar grafiklarining ehtimoliy xarakterini inobatga olish bilan hisoblash, shuningdek amaldagi yuklamalar grafiklariga statistik ishlov byerish juda katta miqdordagi hisoblashlarni talab qiladi. Lekin hozirgi texnika taraqqiyoti davrida bu ishlarni EHM yordamida amalga oshirish mumkin. Bu usulning afzalligi shundaki, EHM yordamida shahar tarmoqlarini loyihalashtirish va ekspluatatsiya qilishda elektr yuklamalarni hisoblash jarayonining o'zi avtomatlashtiriladi. EHMni qo'llash, o'z navbatida hisoblarni har bir vaqt oralig'i uchun olib borish va shaharlarning taqsimlovchi va ta'minlovchi elektr ta'minoti tarmoqlarining maksimal elektr yuklamalari yig'indisini kerakli anqlikda, hech qanday koeffitsiyentlardan foydalanmagan holda, jamoat va turarjoy binolari elektr iste'molchilarining ixtiyoriy katta qiymatida aniqlash imkonini beradi. Iste'molchilarining yuklamalari grafiklari asosida tarmoqning ruxsat etilgan kuchlanish yo'qotilishini yanada asoslangan hisoblarni olib borish mumkin. Elektr Energiya sifatining integral ko'rsatkichlari orqali kuchlanishning bir xilda emasligini yoki tarmoq elementlaridagi haqiqiy elektr Energiya isroflarini aniqlash mumkin.

Jamoat binolarining harakterli elektr yuklamalari grafiklarining to'liq to'plamini tadqiq qilish masalasi hozirgi shahar elektr ta'mi-

notining rivojalish bosqichida o‘z yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan biridir. Shuning uchun shahar iste’molchilarining hisobiy elektr yuklamalarini aniqlashning yangi usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish juda zarur. Bu usullar shahar elektr tarmog‘ining ixtiyoriy iste’molchilar guruhining hisobiy yuklamalarini kerakli aniqlikda, turli omillarni (havoni konditsionerlash, elektr Energiya yordamida taom tayyorlash, lift qurilmalari va boshqa kuch qurilmalarini) hisobga olgan holda aniqlash imkonini beradi.

Eksperimental tadqiqotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, turli iste’molchilar guruhi solishtirma yuklamalarining o‘zgarish xarakteri bir xil emas. Shuning uchun jamoat sektorining har bir iste’molchilar guruhi uchun joylar soni o‘zgarishini va boshqa omillarni hisobga olgan holda hisoblar olib borildi va solishtirma qiymatlari aniqlandi.

Shahar tarmog‘iga ulangan elektr iste’molchilarining ish holati ularning vazifasiga va ishlatilishiga bog‘liq. Ular sutkaning turli vaqtlarida va yilning turli oyлarda doimiy bo‘lib qolmaydi, bu esa nutkulik grafikning formasiga bog‘liq.

Bir qator adabiyotlarda [3, 17] shahar hududida quvvat koefitsiyenti g‘oyatda yuqori, ya’ni $\cos\varphi = 0,9 \div 0,95$ atrofida taxmin qilinadi, shuning uchun ham reaktiv quvvat grafiklari alohida ko‘rib chiqilmaydi. Bunda yana reaktiv quvvat grafigining ko‘rinishi aktiv quvvat grafigining ko‘rinishini takrorlaydi, deb taxmin qilinadi. Shuning uchun ham ko‘pchilik loyihachilar yuklamalarning reaktiv quvvoti o‘zgarishlariga e’tibor berishmagan. Toshkent shahridagi jamoat binolarida o’tkazilgan eksperimental o‘lhashlar alohida iste’molchilarining quvvat koefitsiyenti $-\cos\varphi$, havoni konditsionerlash, sovutish-kompression stansiylar, ventilyatsiya tizimining elektr jihozlari, lyumenissent lampalar kabi reaktiv quvvatni iste’mol qiluvchi elektr jihozlardan foydalanish kengayib borayotganligi unababli ancha past qiymatlarni ko’rsatdi. Bundan tashqari, ko‘pchilik shahar elektr iste’molchilari uchun reaktiv quvvat qiymati aktiv quvvat qiyamatiga qaraganda ko‘proq tarmoq kuchlanishining qiyamatiga bog‘liq. Ammo aralash yuklamalarni 0,38 KV li TaqP da va 10 KV li TP da o‘lhashlar, turarjoy va jamoat binolari aralash yuklamalarining $\cos\varphi$ si yuklamalar maksimumi davrida aksi bo‘ladi, ya’ni oshadi va yuklamaning xarakteri, shaharning katta-ki-chikligi, yil fasli va iqlim sharoitiga bog‘liq holda $\cos\varphi = 0,85 \div 0,95$.

ga teng. Ilgarilari alohida holatlarda $\cos\varphi$ ning qiymati birga etardi, hozir esa $\cos\varphi$ ning qiymati pasaygan.

Respublikamizdagi jamoat sektorida havoni konditsionerlash qurilmalaridan foydalanish sur'atlari ko'tarilmoqda. So'ngi yillarda Toshkent shahrida jamoat binolarida o'rnatilgan konditsionerlar soni keskin oshib ketdi. Havoni konditsionerlash qurilmalarini yuklamalar maksimumiga ta'siri yetaricha o'rganib chiqilmagan va mavjud adabiyotlarda ko'rsatib o'tilmagan. Jamoat binolarida havoni konditsionerlash qurilmalarining elektr yuklamalari, [56] dagi sovuq havo sarfi grafigiga muvofiq, soat 8 dan 20 gacha kuzatiladi, lekin konditsionerlarning ish rejimi turlicha bo'lganligi uchun elektr iste'molchilarining yuklamalari maksimumiga ta'siri turlicha bo'ladi.

Shunday qilib, havoni konditsionerlash qurilmalari va sovitish-kompression stansiyalar ishlataladigan jamoat binolarida yozdagি maksimal yuklama qishdagiga nisbatan yuqoriroq bo'ladi. Biroq, shunday iste'molchilar mavjudki (bolalar bog'chasi, mакtablar va oshxonalar), ular guruhiга havoni konditsionerlash qurilmalari solishtirma hisobiy yuklamasi deyarli ta'sir qilmaydi.

Havoni konditsionerlash qurilmalarining yuklamasi ta'sirining ikkinchi xususiyati – bu yuklama maksimumining vaqt bo'yicha siljishidir. Konditsionerlashning elektr yuklamasi, asosan, atrof-muhit haroratiga muvofiq o'zgaradi.

Yuklama maksimumiga ta'sir qiluvchi omillardan biri – bu elektr enrgiyadan taom tayyorlashda foydalanishdir.

Masalan, elektrlashgan oshxonali bolalar bog'chasida yuklama maksimumi kechki vaqtlardan ertalabki soat 8–9 ga suriladi. Bundan tashqari, yuklama maksimumining siljishi elektrlashgan taom tayyorlash blokli maktablarda, mehmonxonalarda, yotoqxonalarda va kasalxonalarda kuzatiladi.

Tarmoq elementlaridagi maksimal yuklamalarni eng aniq hisoblashni iste'molchilarining haqiqiy elektr yuklamalari asosida aniqlash mumkin. Bu holatda, yarim soatli va bir soatli maksimumlarni hisoblash yuklama grafigini har bir vaqt oraliq'i uchun bajarish kerak. Bunda barcha hisobiy davrlar orasidan uning eng katta qiymatini hisobiy kattalik sifatida olish kerak. Bunday yondashuvda maksimal yuklamalni haqiqiy hisobiy rejim (holat) talab koeffitsiyenti – K_t , yuklamalarni umumiy maksimumda qatnashish

koeffitsiyenti kabi turli xil ixtiyoriy (asossiz) koeffitsiyentlardan foydalanimagan holda olinishi mumkin.

Turarjoy va jamoat binolarining elektr yuklamalarini ehtimoliy-statistik tahlil va sutkalik elektr yuklamalari grafiklariga ishlov byerish yo'li bilan aniqlash metodikasi ishlab chiqilgan. Bunda misol turqnsida Toshkent shahri elektr tarmoqlarining aralash yuklamalari hisoblab chiqildi. Hisoblashlardan keyin qurilish me'yorlari va qoidalari [56] bo'yicha aniqlangan hisobiy yuklamalar va ishlab chiqilgan yangi sutkalik grafiklar asosida aniqlangan yuklamalar solishtirildi. Natijada shu narsa ma'lum bo'ldiki, taklif qilinayotgan usul bilan hisobiy yuklamani aniqroq topish mumkin bo'ladi, bu esa enki usullar natijalaridan 27 foizdan oshiqroqqa farq qiladi.

2.4. Xonadon ichidagi xarakterli sutkalik elektr yuklamalari grafiklarini ishlab chiqish (masala)

Elektr yuklamani deganda, ayrim elektr qabul qiluvchi, sexdagi elektr qabul qiluvechilar guruhni, sex, butun korxonaning elektr int' moll tushuniladi. Sanoat korxonalarida asosan uch turdag'i yuklar mavjud: aktiv quvvat, reaktiv quvvat va tok. Elektr yuklamani o'chov asboblari bilan kuzatish mumkin. O'zi yozar asbob bilan yuklama o'zgarishi qayd qilinadi. Ekspluatatsiya jarayonida aktiv, reaktiv quvvatlarni vaqt bo'yicha o'zgarishini aktiv, reaktiv energiyalar hisoblagichlarning bir xil intervallaridan ko'rsatkichlari asosida xlapoya ko'rinishida chizish mumkin.

Aktiv, reaktiv quvvat va tokni vaqt bo'yicha o'zgarishi – aktiv, reaktiv va tok yuklamalari grafigi deyiladi. Grafiklarni ikki turga bo'lish mumkin: xususiy va guruhiy grafiklar. Xususiy grafiklari odadta doimiyligiga qarab korxonaning kunlik va yillik grafigi yuklamanning doimiyligi bo'yicha tuziladi. Bunda avval quvvat katta qlymatining vaqt doimiyligi so'ngra keyingi pog'ona quvvatining katta qlymatining vaqt doimiyligi va shu tartibda boshqa pog'onadagi quvvat dolmiyligi ko'rsatiladi. Har xil korxonaning namunaviy, kunlik va yillik grafiklari ma'lumotnomalarda keltiriladi. Bu grafiklar asosida korxonalar elektr uskunalarini optimal tanlash, yuklamalar ortib ketganda qaysi agregatni to'xtatish rejasini tuzish, elektr yuklamalarini ta'mirlanishini qaysi agregatni to'xtatish rejasini tuzish elektr qurilmalarining ta'mirlanishini qaysi vaqtлага mo'ljallash

iste'mol qilinadigan elektr energiyani aniqlash va shunga o'xshash tadbirlarni amalga oshirish mumkin.

Energiya iste'molchilar ma'lumotlari

1. Xonadonda yashaydigan odamlar soni	:2 ta,
2. Xonadonning umumiyl maydoni	:F=18 m ²
3. Binoning turi	:4 qavatlik
4. Xonalar soni	:1
5. Isitish tizimi	:suvlik
6. Issiq suv bilan ta'minlangan	:ha
7. Energiya turi	:elektr
8. Ovqat tayyorlanishi	:gazda
9. Hammomning isitish tizimi	:suvlik
10. Konditsionyerning ishlash rejimi	:sovitis
11. Kir yuvish mashinasining ish rejimi	:ishlatilmaydi

Kundalik vositalar tarkibi

1-Jadval

Tok qabul qiluvchilarining nomi	Asbob turi	P _n , Vt	Vositalar soni	P _y (kVt)
Yoritish	Lyustra(3l)	75·3	1	0,225
Yoritish	Plafon(1l)	75	8	0,60
Yoritish	Bra(1l)	75	1	0,075
Yoritish	Stol lam-pasi(1l)	75	1	0,075
Televizor	«Samsung»	57	1	0,057
Dazmol	«Efiniti»	1400	1	1,4
Muzlatgich	«Indezit»	105	1	0,105
Chang yutgich	«Ракета»	400	1	0,40
Musiqiy markaz	«Sharp»	16	1	0,016
Kompyutyer	«CZTCK»	300	1	0,3
Kir yuvish mashinasi	«Сибирь»	600	1	0,60
Tikuv mashinasi	«Чайка»	90	1	0,09
DVD	«Samsung»	9	1	0,009
Hammasi:		3.952		

Elektr energiyadan oyma-oy foydalanish

2-Jadval

Oylar	W hisobl.	W _{oy}	N _{kun}	W _{o'r.kun.}	P _{o'r.kun}
Yanvar (01)	3363	102	31	3,29	0,14
	3465				
Fevral (02)	3665	102	29	3,5	0,15
	3767				
Mart (03)	3767	101	31	3,26	0,14
	3868				
Aprel (04)	3868	103	30	3,4	0,14
	3971				
May (05)	3971	190	31	6,1	0,26
	4161				
Iyun (06)	4161	95	30	3,2	0,15
	4256				
Iyul (07)	4256	95	31	3	0,13
	4351				
Avgust (08)	4351	95	31	3	0,13
	4446				
Mentyabr (09)	4446	95	30	3,2	0,15
	4541				
Oktynabr (10)	4541	110	31	3,5	0,15
	4651				
Noyabr (11)	4541	111	30	3,7	0,15
	4652				
Dekabr (12)	4652	108	31	3,48	0,15
	4760				

2-jadvalni davomi

P, kVt	t _{qish} s	t _{oy} s	t _{yillar} s	Wh, kVt
0,05	-	1122	1122	56
0,1	1068	935	2003	200
0,15	356	187	543	81
0,2	178	187	365	73
0,25	534	374	908	227
0,3	356	561	917	275
0,35	356	-	356	125
0,4	712	374	1086	434
0,45	365	-	356	160
0,5	-	374	374	187
0,55	178	187	365	201
0,6	178	187	365	219
ΣP	4272	4488	8760	2238

Elektr energiyadan sutka bo'yicha foydalanish

3-Jadval

T (s)	Qishda, kuniga (o'rtacha oy)		Mavsumlar orasida, kuniga (mavsumiy oy)		Yozda, kuniga (o'rtacha oy)	
	W _{his} , kVt·s	ΔW, kVt·s	W _{his} , kVt·s	ΔW, kVt·s	W _{his} , kVt·s	ΔW, kVt·s
0	4530,40	---	4410,65	---	4335,50	---
1	4530,50	0,10	4410,70	0,05	4335,55	0,05
2	4530,60	0,10	4410,75	0,05	4335,60	0,05
3	4530,70	0,10	4410,80	0,05	4335,65	0,05
4	4530,80	0,10	4410,85	0,05	4335,70	0,05
5	4530,90	0,10	4410,90	0,05	4335,75	0,05
6	4531,00	0,10	4410,95	0,05	4335,80	0,05
7	4531,35	0,35	4411,25	0,30	4336,10	0,30
8	4531,95	0,60	4411,75	0,50	4336,65	0,55
9	4532,35	0,40	4412,00	0,25	4336,90	0,25
10	4532,50	0,15	4412,10	0,10	4337,00	0,10
11	4532,65	0,15	4412,20	0,10	4337,10	0,10
12	4532,95	0,3	4412,35	0,15	4337,30	0,20
13	4533,35	0,4	4412,60	0,25	4337,60	0,30
14	4533,60	0,25	4412,70	0,10	4337,70	0,10
15	4533,85	0,25	4412,80	0,10	4337,80	0,10
16	4534,10	0,25	4412,90	0,10	4337,90	0,10
17	4534,50	0,40	4413,15	0,25	4338,20	0,30
18	4534,95	0,45	4413,55	0,40	4338,80	0,60
19	4535,50	0,55	4414,05	0,50	4339,30	0,50
20	4535,95	0,45	4414,20	0,15	4339,45	0,15
21	4536,15	0,2	4414,45	0,25	4339,70	0,25
22	4536,45	0,3	4414,85	0,40	4340,10	0,40
23	4536,85	0,4	4415,20	0,35	4340,60	0,50
24	4537,20	0,35	4415,45	0,25	4341,00	0,40
Σ_{24}	W_{hkun.q.}	6,8	W_{hkun.oy}	4,8	W_{hkunyoz}	5,5

YECHISH

1) 3-jadvaldag'i elektr energiya iste'mol qilish ko'rsatkichlari bo'yicha bir sutka uchun yuklama grafigini quramiz. Sutkali yuklama grafigi qish vaqtiga uchun ikkinchi rasmida, yoz vaqtiga uchun 3-rasmida keltirilgan.

2) Qishki muvsumi 178 sutka, yozgi esa 187 sutkani tashkil etadi. Shuni hisobga olgan holda qish va yoz grafiklari bo'yicha yillik grafikni quramiz.

Bu grafik 3-rasmida keltirilgan.

3) 2-jadvaldan yil davomida foydalanilgan elektrenergiyani aniqlaymiz:

$$W_{\text{yil}} = 108 + 111 + 81 + 95 + 95 + 95 + 190 + 103 + 101 + \\ + 102 + 102 = 1307 \text{ kVt} \cdot \text{soat}$$

Foydalanish bo'yicha yillik grafik quramiz. (Oyma-oy) 1-Rasm.

4) Yillik davomiy grafik bo'yicha elektr energiyaning 1 yildagi foydalanishini aniqlaymiz:

$$W_{\text{yil}} = P_1 \cdot t_1 + P_2 \cdot t_2 + P_3 \cdot t_3 + \dots + P_n \cdot t_n$$

$$W_{\text{yil}} = 56 + 200 + 81 + 73 + 227 + 275 + 125 + 434 + 160 + \\ + 187 + 201 + 219 = 2238 \text{ kVt} \cdot \text{soat}$$

5) O'matlig'an quvvatni va 1-jadvaldan kuch va yoritish elektr qabul qiliuvohilar sonini aniqlaymiz:

$$P_{\text{o'm}} = 3,952 \text{ kVt} \cdot \text{soat}$$

6) Maksimal yuklamанинig soatlar sonini yil va sutka bo'yicha aniqlaymiz:

$$T_{\text{max}} = \frac{W_{\text{yil}}}{P_{\text{max}}} = \frac{2238}{0.6} = 3730 \text{ soat}$$

$$t_{\text{max}, \text{yoz}} = \frac{W_{\text{yil}, \text{yoz}}}{P_{\text{max}}} = \frac{5.5}{0.6} = 9.17 \text{ soat}$$

Elektr energiyadan sutka bo'yicha foydalanish
3-Jadval

T (s)	Qishda, kuniga (o'rtacha oy)		Mavsumlar orasida, kuniga (mavsumiy oy)		Yozda, kuniga (o'rtacha oy)	
	W _{his,} kVt·s	ΔW, kVt·s	W _{his,} kVt·s	ΔW, kVt·s	W _{his,} kVt·s	ΔW, kVt·s
0	4530,40	---	4410,65	---	4335,50	---
1	4530,50	0,10	4410,70	0,05	4335,55	0,05
2	4530,60	0,10	4410,75	0,05	4335,60	0,05
3	4530,70	0,10	4410,80	0,05	4335,65	0,05
4	4530,80	0,10	4410,85	0,05	4335,70	0,05
5	4530,90	0,10	4410,90	0,05	4335,75	0,05
6	4531,00	0,10	4410,95	0,05	4335,80	0,05
7	4531,35	0,35	4411,25	0,30	4336,10	0,30
8	4531,95	0,60	4411,75	0,50	4336,65	0,55
9	4532,35	0,40	4412,00	0,25	4336,90	0,25
10	4532,50	0,15	4412,10	0,10	4337,00	0,10
11	4532,65	0,15	4412,20	0,10	4337,10	0,10
12	4532,95	0,3	4412,35	0,15	4337,30	0,20
13	4533,35	0,4	4412,60	0,25	4337,60	0,30
14	4533,60	0,25	4412,70	0,10	4337,70	0,10
15	4533,85	0,25	4412,80	0,10	4337,80	0,10
16	4534,10	0,25	4412,90	0,10	4337,90	0,10
17	4534,50	0,40	4413,15	0,25	4338,20	0,30
18	4534,95	0,45	4413,55	0,40	4338,80	0,60
19	4535,50	0,55	4414,05	0,50	4339,30	0,50
20	4535,95	0,45	4414,20	0,15	4339,45	0,15
21	4536,15	0,2	4414,45	0,25	4339,70	0,25
22	4536,45	0,3	4414,85	0,40	4340,10	0,40
23	4536,85	0,4	4415,20	0,35	4340,60	0,50
24	4537,20	0,35	4415,45	0,25	4341,00	0,40
Σ_{24}	W _{hkun.q.}	6,8	W _{hkun.oy}	4,8	W _{hkunyoz}	5,5

YECHISH

1) 3-jadvaldag'i elektr energiya iste'mol qilish ko'rsatkichlari bo'yicha bir sutka uchun yuklama grafigini quramiz. Sutkali yuklama grafigi qish vaqtiga uchun ikkinchi rasmida, yoz vaqtiga uchun 3-rasmida keltirilgan.

2) Qishki mavsum 178 sutka, yozgi esa 187 sutkani tashkil etadi. Shuni hisobga olgan holda qish va yoz grafiklari bo'yicha yillik grafikni quramiz.

Bu grafik 3-rasmida keltirilgan.

3) 2-jadvaldan yil davomida foydalananligan elektrenergiyaning aniqlaymiz:

$$W_{yil} = 108 + 111 + 81 + 95 + 95 + 95 + 190 + 103 + 101 + \\ + 102 + 102 = 1307 \text{ kVt·soat}$$

Foydalananish bo'yicha yillik grafik quramiz. (Oyma-oy) 1-Rasm .

4) Yillik davomiy grafik bo'yicha elektr energiyaning 1 yildagi foydalananishini aniqlaymiz:

$$W_{yil} = P_1 \cdot t_1 + P_2 \cdot t_2 + P_3 \cdot t_3 + \dots + P_n \cdot t_n$$

$$W_{yil} = 56 + 200 + 81 + 73 + 227 + 275 + 125 + 434 + 160 + \\ + 187 + 201 + 219 = 2238 \text{ kVt·soat}$$

5) O'rnatilgan quvvatni va 1-jadvaldan kuch va yoritish elektr qabul qiluvchilarning sonini aniqlaymiz:

$$P_{oym} = 3,952 \text{ kVt·soat}$$

6) Maksimal yuklamанинг soatlar sonini yil va sutka bo'yicha aniqlaymiz:

$$T_{max} = \frac{W_{yil}}{P_{max}} = \frac{2238}{0.6} = 3730 \text{ soat}$$

$$t_{max,yoz} = \frac{W_{sut.yoz}}{P_{max}} = \frac{5.5}{0.6} = 9.17 \text{ soat}$$

$$t_{\max \text{ qish}} = \frac{W_{sut, qish}}{P_{\max}} = \frac{6.8}{0.6} = 11.33 \text{ saat}$$

7) O'rtacha yillik va o'rtacha sutkali yuklamani aniqlaymiz:

$$P_{o'r.sut} = \frac{W_{sut}}{24}$$

$$P_{o'r.sut.yoz} = \frac{5.5}{24} = 0.229 \text{ kVt}$$

$$P_{o'r.sut.qish} = \frac{6.8}{24} = 0.283 \text{ kVt}$$

$$P_{o'r.yil} = \frac{W_{yil}}{8760}$$

$$P_{o'r.yil} = \frac{2238}{8760} = 0.2551 \text{ kVt}$$

8) Maksimum koeffitsiyenti:

$$k_{\max \text{ qish}} = \frac{0.6}{0.283} = 2.12$$

$$k_{\max \text{ yoz}} = \frac{0.6}{0.229} = 2.62$$

9) Talab koeffitsiyenti:

$$k_t = \frac{P_{\max}}{P_{nom}} \leq 1$$

$$k_t = \frac{0.6}{6.6} = 0.09$$

10) Grafikni to'ldirish koeffitsiyenti:

$$k_{g.t.} = \frac{P_{o'r.}}{P_{\max}}$$

$$k_{g.t.yil} = \frac{0.255}{0.6} = 0.425 \quad k_{g.t.qish} = \frac{0.283}{0.6} = 0.472$$

$$k_{g.t.yoz} = \frac{0.229}{0.6} = 0.382$$

11) Ishlatish koeffitsiyenti:

$$k_t = \frac{P_{o'r.}}{P_{o'r.n.}} \leq 1$$

$$k_{t.yil} = \frac{0.255}{6.6} = 0.039$$

$$k_{t.qish} = \frac{0.283}{6.6} = 0.043$$

$$k_{t.yoz} = \frac{0.229}{6.6} = 0.035$$

12) Hisobiy quvvatni aniqlaymiz:

$$P_{his} = k_t \cdot P_{nom} = 0,09 \cdot 6,6 = 0,594 \text{ kVt}$$

13) Forma koeffitsiyenti:

$$k_F = \frac{P_{o'r\ kv}}{P_{o'r}}$$

$$k_{F_{yot}} = \frac{0,486}{0,229} = 2,12 \quad k_{F_{qish}} = \frac{0,486}{0,283} = 1,72$$

14) Maksiimumda ishtirok etish koeffitsiyenti:

$$K = \frac{P_t}{P_{max}} = \frac{0,6}{0,6} = 1$$

15) Xona va m^2 uchun solishtirma quvvat:

$$P_{sol} = \frac{P_{max}}{n} = \frac{0,6}{4} = 0,15 \text{ kVt/odam}$$

$$P_{sol} = \frac{P_{max}}{F} = \frac{0,7}{18} = 0,038(8) \text{ kVt/m}^2$$

16) O'rtacha kvadratik quvvat:

$$P_{o'r\ kv} = \sqrt{\frac{P_1^2 \cdot t_1 + P_2^2 \cdot t_2 + \dots + P_n^2 \cdot t_n}{8760}}$$


$$P_{o'r\ kv} = \sqrt{\frac{56+200+81+73+227+275+125+434+160+187+201+219}{8760}} = 0,486 \text{ kVt}$$

17) Yillik abonent to'lovi:


$$N = W_{yt} \cdot \beta \quad N = 2238 \cdot 60,40 = 135175,2 \text{ so'm}$$

Bizga berilgan masalalarni hisoblash natijasida elektroenergiya iste'molining qanday yo'llar bilan tejalishi mumkinligini o'rgandik. Jumladan, reaktiv quvvatni kompensatsiyalash orqali quvvat isroflarini kamaytirish mumkin. Masalan: 1-masalada kompensatsiyagacha bo'lgan quvvat qiymatlarini solishtirish kifoyadir. Bundan tashqari xonodon uchun yozgi, qishki, kunlik va yillik energiya iste'moli hamda grafikni ifodalovchi koeffitsiyentlar aniqlanadi.


Elektrokumandanıñ oylar bo'yicha ýillik grafiki




Elektr yoki lamarning suifikalik grafigi (qishgij)




Elektr yüklemelerinin sıralı grafiği (yazılı)




Elektr yüklenmesi yararlıdır么ýliý grafiği



Elektr yüklenmesi sükkalılık grafigi foizlarda (yozgılı)



Elektři yuktamining sutkalik grafigi foizlarda (qishgى)



Nazorat savollari

1. Ijtimoiy iqtisodiy muammolari qanday shahar elektr-istemolining ijtimoiy iqtisodiy muammolari bo‘ladi?
2. Qaysi usul bilan shahar tarmoqlarida elektr yuklamalarini o‘lchash mumkin?
3. Student kriteriya orqali o‘lchash sonlarni keltiring .
4. Shahar elektr iste’molchilarning sutkali grafikning koefitsientlarini toping.
5. Talab koeffitsenti nimaga teng?
6. Grafik orqali hamma koeffitsientlarini toping.
7. Talaba ifodasini keltiring.

3. SHAHAR ELEKTR ISTE'MOLCHILARINING ELEKTR YUKLAMALARINI HISOBBLASH MUAMMOLARI

3.1. Shahar tarmoqlarida hisobiy elektr yuklamalarining tahlili

Shahardagi bino va inshootlarning ichki va tashqi elektr tarmoqlarini loyihalash vaqtida kutilayotgan elektr yuklamalarni to‘g‘ri aniqlash barcha shahar elektr ta‘minoti masalalari kompleksining ratsional yechimi hisoblanadi.

Shahar tarmoqlari jamoat va turar joy binolarining hisobiy elektr yuklamalari qurilish me'yorlari va qoidalari (QMQ) 2.04.17 – 98, «Turar joy va jamoat binolarining elektr jihozlari. Loyihalash me'yorlari» [56] bilan reglamentlanadi.

Xonadonlarning elektr Energiya qabul qilgichlaridan vujudga keluvchi transformator podstansiyalarining ta‘minlovchi liniyalarida, kirishlarida va 0,4 kV RU shinalarida hisobiy elektr yuklamani quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$P_{h,xon} = P_{sol,xon} \cdot n_{xon}, \text{ kVt} \quad (3.1)$$

bu yerda: $P_{sol,xon}$ – xonodon elektr qabul qilgichlarining solishtirma hisobiy elektr yuklamalari, xonadonda konditsionerlarning mavjudligiga, ishlatalayotgan oshxona plitalarining turiga va ulangan xonadonlar soniga qarab QMQning 5-jadvalidan aniqlanadi, kVt/xonodon;

n_{xon} – TP tarmog‘iga ulangan xonadonlar soni.

Turarjoy binosining kirish qurilmasiga, liniyasiga yoki TP ning 0,38 kV kuchlanishli shinalariga keltirilgan kuch elektr qabul qilgichlarning hisobiy yuklamasi talab koefitsiyenti usuli bo‘yicha aniqlanadi.

Lift qurilmalari ta‘minlov liniyasining hisobiy yuklamasi – $R_{h,l}$. Quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$P_{h,l} = K_{t,l} \cdot \sum_{l=1}^{nl} P_{n,l} \cdot n_l, \text{ kVt} \quad (3.2)$$

bu yerda: $K_{t,l}$ – talab koefitsiyenti, QMQ ning 6-jadvalidan aniqlanadi;

n_l – liniya bilan ta'minlanuvchi liftlar soni.

Sanitar-texnik qurilmalar elektr yuritgichlarining ta'minlov liniyasi hisobiy yuklamasi ularning o'rnatilgan quvvati bo'yicha, talab koefitsiyentini hisobga olgan holda QMQning 10-jadvalidan aniqlanadi.

Ta'minlov liniyasi kirishlaridagi TP ning RU-0,38 kV li shinalaridagi maishiy pol usti elektr plitalaridagi hisobiy yuklamalar quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$P_{h,pl} = P_{n,pl} \cdot n_{pl} \cdot K_{t,pl} \quad (3.3)$$

bu yerda: $P_{h,pl}$ – pol usti elektr plitalarining hisobiy yuklamasi, kVt;

$P_{n,pl}$ – elektr plitasining o'rnatilgan quvvati, kVt;

n_{pl} – elektr plitalar soni;

$K_{t,pl}$ – talab koefitsiyenti, QMQ ning 7-jadvalidan aniqlanadi.

Ta'minlovchi liniyalar TP ning RU-0,38 kV shinalari va kirishlari uchun yo'laksimon turdag'i yotoqxonalarning umumiyligini yorug'lik hisobiy yuklamasi, QMQ ning 7-jadvalidan aniqlanuvchi yoritgichlarning o'rnatilgan quvvati Rn ga bog'liq bo'lgan talab koefitsiyenti – K_t ni hisobga olgan holda aniqlanadi.

Turarjoy binolari umumfoydalanuv xonalarining, shuningdek, yotoqxonalalar va yashash xonalarining guruhiy yoritish tarmoqlari hisobiy yuklamasini talab koefitsiyenti birga teng bo'lgan yorug'lik-texnik hisob bo'yicha aniqlash kerak.

Turarjoy binosining hisobiy yuklamasi – $Rx.t-j$ (xonadonlar va kuch qurilmalari) quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$P_{h,t-j} = P_{h,xon} + 0,9 \cdot P_{h,kuch}, \text{ kVt} \quad (3.4)$$

bu yerda: $P_{h,xon}$ – xonadon elektr qabul qilgichlarining hisobiy yuklamasi, kVt;

$P_{h.kuch}$ – kuch elektr qabul qilgichlarining hisobiy yuklamasi, kVt.

Transformator podstansiyasining turarjoy va noturarjoy binolari xonalarining aralash ta'minotida hisobiy yuklama maksimumlarini bir-birini qoplash koeffitsiyentini (koeffitsiyent sovmesheniya maksimumov) hisobga olgan holda aniqlanadi.

Zaxira elektr yuritgichlari quvvati, shuningdek, yong'inga qarshi qurilmalar va yig'ish mexanizmlari elektr qabul qilgichlarining quvvatni ta'minlovchi liniya va binoga kirish joyidagi hisobiy yuklamalarni aniqlashda hisobga olinmaydi.

Bino va inshootlarning ichki elektr ta'minotini hisoblash va loyihalashda, jamoat binolariga kirish joyining va ta'minlovchi liniyalarning hisobiy yuklamasi, kuch va yoritish elektr qabul qilgichlarining aniq ma'lumotlari hisobga olingan holda, tartiblangan diagrammalar usuli yordamida quyidagi formula orqali aniqlanadi, kVt (1937-yilda ixtiro qilingan):

$$P_{x.fb} = K_i \cdot K_m \cdot P_n, \text{ kVt} \quad (3.5)$$

bu yerda: P_n – elektr qabul qilgichlar o'rnatilgan quvvatning yig'indisi, kVt;

K_i – guruhiy aktiv quvvatni ishlatish koeffitsiyenti;

K_m – maksimum koeffitsiyenti, elektr qabul qilgichlarning effektiv soni va K_i ga bog'liq holda aniqlanadi.

Elektr qabul qilgichlarning effektiv soni – ne quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$n \leq 10$ bo'lganda

$$n_e = \frac{\left(\sum_1^n P_{ni} \right)^2}{\sum_1^n P_{ni}^2} \quad n > 10 \quad \text{bo'lganda} \quad n_e = \frac{2 \cdot \sum_1^n P_{ni}}{P_{n,max}}$$

bu yerda:

n – elektr qabul qilgichlarning umumiyligi soni;

$\sum_1^n P_{ni}$ – guruh elektr qabul qilgichlarining o'rnatilgan quvvati yig'indisi, kVt;

$P_{ni} - i$ elektr qabul qilgichning quvvati, kVt;

$P_{n,max}$ – ushibu guruhning eng katta elektr qabul qilgichining quvvati, kVt.

Ma'lumotlar yetarlicha bo'lmagan holatlarda jamoat binolarining hisobiy elektr yuklamalari quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$P_{x,jb} = P_{sol} \cdot N, \text{ kVt} \quad (3.6)$$

bu yerda, R_{sol} – solishtirma yuklama, QMQ ning 8-jadvalidan aniq.

Turarjoy va jamoat binolarining elektr iste'molchilari aralash liniya (TP) bilan ta'minlanganida hisobiy yuklama quyidagi formula orqali aniqlanadi, kVt:

$$P_x = P_{b,max} + K_1 \cdot P_{b,1} + K_2 \cdot P_{b,2} + \dots + K_i \cdot P_{b,i} \quad (3.7)$$

bu yerda: $R_{b,max}$ – liniya (TP) bilan ta'minlanuvchi binolar yuklamalarining eng kattasi;

$R_{b,1} \dots R_{b,i}$ – boshqa binolarning hisobiy yuklamasi;

$K_1 \dots K_i$ – maxsimumda qatnashish koeffitsiyenti, QMQ ning 8-jadvalidan olinadi.

3.2. Yuklamalar grafiklarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar

Yuklamalarni hisoblash va aniqlashda iste'molchilarning quvvat va vaqt bo'yicha ish rejimini tavsiflovchi yuklamalar grafiklarining koeffitsiyentlaridan foydalaniladi. Bunday koeffitsiyentlar xususiy va guruh grafiklari uchun aniqlanib, mos ravishda kichik k va katta K harflari bilan belgilanadi.

Ishilatilish koeffitsiyenti deganda o'rtacha aktiv quvvatni nominal quvvatga nisbati tushuniladi va uning miqdori eng ko'p yuklamali smena uchun aniqlanadi:

$$k_{ia} = \frac{P_{o'r}}{P_n}; \quad K_{ia} = \frac{P_{o'r}}{P_n} = \frac{\sum_1^n k_{ia} \cdot p_n}{\sum_1^n p_n} \quad (3.8)$$

Bu yerda: r_n , P_n – mos ravishda bir yoki guruh iste'molchilarining nominal aktiv kuvvatlari. P_n ning miqdorini takroriy qisqa muddatda ishlaydigan iste'molchilarda ularning pasportlaridan olinadi.

$P_{o\cdot r}$, $P_{o\cdot r}$ – mos ravishda ayrim guruh iste'molchilarining o'rtacha aktiv quvvat Energiya hisoblagichlarining ko'rsatkichi buyicha aniqlanadi:

$$P_{o\cdot r} = \frac{w h_a}{t_s} \quad P_{o\cdot r} = \frac{W h_A}{t_s}$$

wh_a , Wh_A – bir yoki guruh iste'molchilarning qabul qilgan aktiv elektr Energiysi;

t_s – sikl uchun vaqt intervali.

Yuqorida keltirilgan munosabatlarni reaktiv quvvatga ham tatbiq qilish mumkin:

$$k_r = \frac{q_r}{q_n}; \quad K_{tr} = \frac{Q_1}{Q_n} = \frac{\sum_1^n k_{nr} \cdot q_n}{\sum_1^n q_n}$$

$$q_s = \frac{w h_r}{t_s} \quad Q_s = \frac{W h_r}{t_s}$$

Turli rejimlarda ishlovchi elektr iste'molchilari uchun ishlatilish koeffitsiyentlarining o'rtacha qiymati ma'lumotlarda keltirilgan.

Grafikni to'ldirish koeffitsiyenti deb ma'lum vaqt oralig'i idagi o'rtacha quvvatni maksimal quvvatga nisbatiga aytildi.

$$K_{ta} = \frac{P_{o\cdot r}}{P_m}$$

Odatda, $P_{o\cdot r}$ va P_m larning miqdorlari katta yuklamali smena davrining vaqt uchun olinadi.

Aktiv quvvatning maksimumi deganda ma'lum vaqt oralig'i da o'rtacha quvvatning maksimumi tushuniladi. Smena davomidagi 30 minutli o'rtacha quvvatlarning qiymatlaridan eng maksimumi olinadi. Yuklananining ushbu qiymatini ko'pincha hisobiy quvvat sifatida ham qabul qilinadi.

Grafikni to'ldirish koeffitsiyenti guruh iste'molchilar uchun topiladi. Bu koeffitsiyentni aniqlashning reaktiv quvvat uchun ifodasi quyidagicha bo'ladi:

$$K_{Tr} = \frac{Q_{o'r}}{Q_M}$$

Kunlik grafikni to'ldirish koeffitsiyentlarining qiymatlarini turli korxonalar uchun ma'lumotnomalardan olish mumkin [96].

Maksimum koeffitsiyenti – grafikni to'ldirish koeffitsiyentiga teskari bo'lgan miqdor, ya'ni:

$$K_{Ma} = \frac{1}{K_{Tr}} = \frac{P_m}{P_{o'r}}, \quad K_{Mr} = \frac{1}{K_{Tr}} = \frac{Q_m}{Q_{o'r}} \quad (3.9)$$

Bu koeffitsiyentning qiymati katta yuklamali smena uchun aniqlanadi va guruh iste'molchilariga tegishli bo'ladi. Agar maksimal quvvat deganda hisobiy quvvatni qabul qilinishini hisobga olinadigan bo'lsa,

$$K_{Ma} = \frac{P_{hs}}{P_{o'r}}$$

Demak, maksimum koeffitsiyenti grafikdan aniqlanadigan ikki eng asosiy miqdorlar – hisobiy va o'rtacha yuklamalar orasidagi munosabatni belgilaydi. K_m koeffitsiyenti hisobiy quvvatni o'rtacha quvvatga nisbatan qancha kattaligini ko'rsatadi. Uning miqdori birga teng yoki katta bo'lishi mumkin. Masalan, iste'molchilar uchun o'zgarmas yuklama (ventilyatorlar, nasoslar va sh.o.): $K_{mq} = 1$, ya'ni $P_{hk} = P_{o'r}$.

Forma koeffitsiyenti yuklananing samarali (o'rtacha kvadratik) qiymatini uning o'rtacha qiymatiga nisbati bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkich ayrim iste'molchi yoki guruh iste'molchilar uchun ma'lum vaqt oralig'ida topiladi:

$$k_{fa} = \frac{P_{yu.k}}{P_{o'r}} \quad K_{FA} = \frac{P_{yu.k}}{P_{o'r}} \quad (3.10)$$

$$k_{fr} = \frac{q_{yuk}}{q_{o'r}}$$

$$K_{FR} = \frac{Q_{yuk}}{Q_{o'r}}$$

Forma koeffitsiyenti yuklama grafigining vaqt bo'yicha notejisligini ko'rsatadi. Uning eng kichik qiymati, vaqt bo'yicha o'zgarmaydigan yuklamada birga teng bo'ladi. O'rtacha kvadrat yuklama quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$P_{yuk} = \sqrt{\frac{\sum_{k=1}^n P_k^2 \cdot t_k}{T}} = \sqrt{\frac{\sum_{k=1}^n P_k^2}{n}}$$

$$Q_{yuk} = \sqrt{\frac{\sum_{k=1}^n Q_k^2 \cdot t_k}{T}} = \sqrt{\frac{\sum_{k=1}^n Q_k^2}{n}}$$

$$n = \frac{T}{t_k}$$

bu yerda, $n = \frac{T}{t_k}$ – yuklama grafigining T vaqt oralig'idagi teng intyervalli bo'laklari soni. K_f – forma koeffitsiyentining miqdori ishlab chiqarish jarayoni maromida bo'lgan korxonalarda 1.05 dan 1.15 oralig'ida bo'ladi.

Yuklanish koeffitsiyenti deb, ma'lum vaqt davomida iste'-molchining haqiqiy o'rtacha quvvatini uning nominal quvvatiga nisbati tushuniladi.

$$K_{yuk} = \frac{P_{o'r,u}}{P_n} \quad (3.11)$$

Iste'molchining o'rtacha haqiqiy yuklamasi $P_{o'r,u}$ deganda, uning faqat ulangan vaqtga to'g'ri keladigan o'rtacha yuklama tushuniladi.

$$K_{yuk} = \frac{P_1 \cdot t_1 + P_2 \cdot t_2 + \dots + P_{10} \cdot t_{10}}{P_n(t_1 + t_2 + \dots + t_{10})}$$

Yuklanish koeffitsiyenti iste'molchining ulangan vaqtdagi ishlatalish (foydanish) darajasini ko'rsatadi.

Talab koeffitsiyenti istemolchilar guruhiga tegishli bo'lib, u hisobiy yuklamani iste'molchilarning nominal qiymatiga nisbati orqali aniqlanadi:

$$K_{Ta} = \frac{P_h}{P_n} \quad (3.12)$$

Ishlatilish va maksimum koeffitsiyentlarining ifodalarini hisobga olsak

$$K_{Ta} = \frac{P_{o'r}}{P_n} \cdot \frac{P_h}{P_{o'r}} = K_{ra} \cdot K_{Ma}$$

$$\text{Shuningdek, } K_{Tr} = K_{rr} \cdot K_{kfr} \quad (3.13)$$

Talab koeffitsiyentlarining qiymatlari sanoat korxonalaridagi turli iste'molchilar guruhlari uchun ekspluatatsiya sharoitida tajriba asosida quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$K_{Ta} = \frac{P_h}{P_n}$$

bu yerda, P_k – iste'molchilar guruhi qabul qilgan aktiv quvvat. Talab koeffitsiyentining turli iste'molchilar guruhi va korxonalar uchun qiymatlari ma'lumotnomalarda keltirilgan.

O'rtacha, o'rta kvadratik va maksimal yuklamalar

Korxonalarning hisobiy yuklamalarini aniqlashda va elektr ta'minoti tizimidagi Energiya sarfini, nobudgarchiligini hisoblashda o'rtacha yuklamasi hisobiy yuklamaning eng kichik qiymati to'g'risida ma'lumot beradi. Umumiy holda ma'lum oraliqdagi o'rtacha quvvat quyidagicha ifodalanadi:

$$P_{o'r} = \frac{1}{t} \int_0^t pdt \quad q_{o'r} = \frac{1}{t} \int_0^t qdt$$

Ekspluatatsiya sharoitida guruh iste'molchilarining o'rtacha quvvatlari aktiv va reaktiv Energiya hisoblagichlarining ko'rsatkichlari asosida quyidagi munosabatlar orqali topiladi:

$$P_{o'r} = \frac{Wh_a}{t_{fis}} \quad Q_{o'r} = \frac{Wh_p}{t_{fis}} \\ S_{o'r} = \sqrt{P_{o'r}^2 + Q_{o'r}^2} \quad (3.14)$$

bu yerda, Wh_A , Wh_r – aktiv va reaktiv elektr Energiyalarining ko'rilayotgan t_{st} vaqt oralig'idagi sarfi.

Korxonaning elektr ta'minotini loyihalash bosqichida guruh iste'molchilarining eng katta yuklamali smenasidagi o'rtacha quvvatni quyidagicha aniqlash mumkin:

$$P_{o'r} = K_{ia} \cdot P_n \quad (3.15)$$

Bu yerda, P_n – iste'molchilarning nominal quvvatlari yig'indisi bo'lib, takroriy-qisqa muddatli rejimda ishlovchi iste'molchilarни UD=100% rejimga keltirish kerak; K_i a – guruh iste'molchilariga tegishli bo'lgan ishlatilish koeffitsiyenti.

Eng yuklangan smenaga reaktiv quvvatning o'rtacha qiymatini guruh iste'molchilari uchun quyidagicha topiladi:

$$Q_{o'r_q} = K_i Q_n \quad yoki \quad Q_{o'r_q} = P_{o'r} \operatorname{tg} \varphi \quad (3.16)$$

Bu yerda $\operatorname{tg} \varphi$ ning qiymatini topishda ma'lumotnomalarda turli guruh iste'molchilari uchun berilgan quvvat koeffitsiyentidan foydalilaniladi. Sex yoki korxonaning yillik o'rtacha quvvati quyidagi munosabatdan anilanadi:

$$P_{o'r} = \frac{Wh_{ay}}{T_{is}} \quad Q_{o'r} = \frac{Wh_{py}}{T_{is}}$$

Ifodadagi W_{ay} – yillik iste'mol qilingan aktiv Energiya miqdori (kVt soat)

W_{ry} – yillik iste'mol qilingan reaktiv Energiya miqdori (kVAr soat);

T_y – korxonaning yillik ish vaqt (soat).

Faza bo'yicha oldinda boruvchi toklar hosil qiluvchi iste'molchilarning (sinxron mashinalar, statik kondensatorlar) reaktiv quvvatlari manfiy ifoda bilan qabul qilinadi.

O'rta kvadratik yuklamalar

Turli vaqt oralig'ida (interval) o'rta kvadratik yuklama quyidagicha aniqlanadi.

$$P_{sk} = \sqrt{\frac{1}{T} \int_0^T P^2(t) dt}$$

$$Q_{sk} = \sqrt{\frac{1}{T} \int_0^T Q^2(t) dt}$$

$$I_{sk} = \sqrt{\frac{1}{T} \int_0^T I^2(t) dt} \quad (3.17)$$

bu yerda: T – vaqtning ko‘rilayotgan davri; $Q_{o'rik}$ – elektr Energiya tarmoqlarida quvvat koeffitsiyenti (sosq) oshganda, quvvat isrofi kamayishini baholash uchun zarur bo‘lgan kattalik.

Maksimal yuklama

P_m – vaqtning ma’lum oraliq‘idagi o‘rtacha quvvatning eng katta qiymati. Maksimal yuklanish vaqtning u yoki bu davrida, ma’lum bir kutilayotgan tezlikda hosil bo‘lishi bilan xarakterlanadi.

Davomiyligi bo‘yicha ikki xil maksimal yuklanish turi mavjud:

1. Elektr ta’minalash tarmoqlarida tizim elementlarining qizishi va maksimal quvvat isrofini vaqt davomiyligi bo‘yicha turlicha (15, 30, 60 min) tanlashdagi maksimal yuklanishlar.

2. Tarmoqlardagi kuchlanish tebranishlarini tekshirish, kontaktli tarmoqlardagi kuchlanish yo‘qolishini aniqlash, tarmoqlarni elektr dvigatellarni o‘z-o‘zidan ishga tushish shartlari asosida tekshirish, saqlagichlarning yeruvchan qismlarini tanlash, maksimal tokli rele himoyasining ishga tushish tokini hisoblash uchun davomiyligi 1÷2 sek bo‘lgan qisqa muddatli maksimal yuklanishlar kerak bo‘ladi.

Hisobiy yuklamalarni aniqlash

Zamonaviy sanoat korxonasining elektr ta’minoti tizimini loyihalashda hal qilinishi zarur bo‘lgan murakkab texnik-iqtisodiy muammolardanbiri – bu elektr yuklamalarni to‘g‘ri aniqlashdir. Elektr yuklamalarni hisoblash har qanday elektr ta’minalash tizimini loyihalashda dastlabki bosqich hisoblanadi. Elektr yuklamalarning ko‘rsatkichlari elektr tizimiga sarf bo‘ladigan kapital mablag‘larni, rangli metallar sarfini, elektr Energiyaning nobudgarchiligi va ekspluatatsiya xaratjatlarini belgilaydi. Agar hisobiy quvvat oshirib aniqlansa, kapital

mablag'ning ortishiga, tanqis bo'lgan elektr qurilmalar va o'tkazgichlarni to'la imkoniyat darajasida ishlamasligiga va elektr Energiyasi isrofgarchiligidagi sabab bo'ladi. Yuklamani kamaytirib aniqlash esa, elektr qurilmalarini tez ishdan chiqishiga, ayrim agregatlarning ish unumidorligi kamayishiga, elektr ta'minoti tizimida isrofgarchiliklarga, elektr Energiyasi sifat ko'rsatkichlari yomonlashishiga va elektr ta'minoti tizimining ishonchliligi kamayishiga olib keladi. Shuning uchun kutilayotgan yuklamalarni to'g'ri aniqlash – elektr ta'minoti tizimini optimal loyihalashtirishning assosiy omilidir.

Hisobiy aktiv quvvat sifatida shunday davomli o'zgarmas yuklama qabul qilinadiki, uning ta'siridan o'tkazgich harorati oshishi yoki ixotasining issiqlikdan eskirish darajasi kutilayotgan o'zgaruvchan yuklamadagiga ekvivalent bo'lishi mumkin.

Smena davomida ma'lum vaqt oralig'i (10, 30 yoki 60 min. va h.k.) uchun olingan barcha o'rtacha quvvatlarning eng kattasi maksimal quvvat sifatida qabul qilinadi. Elektr ta'minoti tizimining elementlarini ularning qizishi nuqtai nazaridan qabul qilinsa, hisobiy quvvat sifatida 30 minutli maksimal yuklama olinadi. Bu vaqt oralig'i ko'ndalang kesim yuzasi kichik va o'rta bo'lgan o'tkazgichlarning qizish vaqt doimiyligiga yaqin hisoblanadi. Agar sex tarmoqlari o'tkazgichlarining qizish vaqt doimiyligi 0,5 soatdan katta bo'lsa, maksimum koeffitsiyentining miqdori quyidagi formula orqali qayta hisoblanadi:

$$K_{M.s} = 1 + \frac{K_m - 1}{\sqrt{2t}} \quad (3.18)$$

bu yerda: K_m – maksimum koeffitsiyentining vaqt doimiyligi 0,5 soat bo'lgandagi qiymati;

$K_{m.t}$ – maksimum koeffitsiyentining vaqt doimiyligi t bo'lgandagi qiymati.

Ko'ndalang kesim yuzasi har xil bo'lgan o'tkazgichlar uchun qizish vaqt doimiyligi T ning miqdorlari (min.) QMQda keltirilgan.

Turarjoy va jamoat binolarining sun'iy yoritilishini uch xil usul bilan hisoblash mumkin:

1. **Yorug'lik oqimidan foydalanish koeffitsiyenti usuli.** Bu usulda devor va shiftning gorizontal tekislikdagi yorug'lik qaytarishi

hisobga olinadi. Bu usul soyalovchi qurilma yo‘qligida ixtiyoriy turdag‘i yoritgichda umumiy birtekis yoritishni hisoblash uchun ishlataladi. Yorug‘lik oqimidan foydalanish koeffitsiyenti usulining asosiy hisoblash formulasi quyidagicha:

$$F = \frac{E_{\min} \cdot F \cdot K_z \cdot Z}{N \cdot \eta} \quad (3.19)$$

bu yerda: F – yoritgichdagi bitta lampaning yorug‘lik oqimi, lm ;

E_{\min} – minimal yoritilganlik, lm ;

F – xonaning maydoni, m^2 ;

$K_z = E_{\text{his}}/E_{\text{norm}}$ – zaxira koeffitsiyenti;

$Z = E_{o'r}/E_{\min}$ – o‘rtacha yoritilganlikning minimal yoritilganlikka nisbati;

N – yoritgichlar soni;

η - yorug‘lik oqimidan foydalanish koeffitsiyenti, ya’ni hisobiy yuzaga tushuvchi yorug‘lik oqimining barcha lampalar oqimi yig‘indisiga nisbati.

E_{\min} qiymati xonaning vazifasiga qarab QMQ dan qabul qilinadi. Xona maydoni F plan bo‘yicha aniqlanadi. Zaxira koeffitsiyenti ekspluatatsiya vaqtida me’yoriy yoritilganlikni ushlab turish uchun uni $K_z = 1,3 \div 1,5$ ga teng deb olinadi.

Minimal yoritilganlik koeffitsiyenti Z yorug‘lik oqimi taqsimlanishining bir tekis emasligiga tuzatishlar kiritadi. Minimal yoritilganlik koeffitsiyenti – Z yoritgichlarning yorug‘lik tarqalishi egrи chizig‘i va yoritgichlarning yoritilgan muhitda joylashishiga bog‘liq bo‘lib, $1,1 \div 1,2$ oralig‘ida qabul qilinadi.

Masalan:

Berilgan:

Sport zali o‘lchamlari: uzunligi	A=60m
kengligi	V=30m
balandligi	H=6m

Sport zalining ichini yoritish normasi $E_{\min}=200$ lk.

1. Sport zali yuzasini aniqlaymiz. $S=A \cdot B=60 \cdot 30=1800m^2$

2. Ishchi yuzaning balandligini aniqlaymiz. $h_i=0.8m$

3. Yoritgichning osilish kattaligini aniqlaymiz (shiftdan yoritkichga bo‘lgan masofa $h_s=0,2m$).

4. Yoritishning hisobiy balandligini topamiz (yoritgichdan ishchi yuzagacha bo'lgan masofa).

$$H_h = H - (h_h + h_s) = 6 - (0,8 + 0,2) = 5,0 \text{ m}$$

5. Xona indeksini topamiz.

$$i = \frac{A + B}{H_p \cdot (A + B)} = \frac{1800}{5 \cdot (60 + 30)} = 4,0$$

6. Yoritgichning solishtirma quvvatini aniqlaymiz.

$$P_{sol} = \frac{E_{min} \cdot K_z \cdot Z_{min}}{C \cdot \eta} = \frac{200 \cdot 1,6 \cdot 1,1}{35 \cdot 0,69} = \frac{352}{24,15} = 14,57 \text{ Vt/m}^2$$

bu yerda:

K_z – zaxira koeffitsiyenti (ishlatish jarayonida yorug'likni kamaytirish hisobi uchun, yoritgichning ifloslanish oqibatida lampaning eskirishi va boshqalar).

$K_z=1,1-1,7$ Cho'g'lanma lampalar.

$K_z=1,5-2$ Lyuminessent lampalar uchun

(PUE 368b, jadv VI – 2 – 4)

Z_{min} – minimal yoritish koeffitsiyenti, o'rtacha yoritishning minimalga bo'lgan nisbati, yorug'lik oqimining notekis taqsimlanishiga tuzatma qaysiki yoritgichning yorug'lik taqsimoti egri chiziqlariga bog'liq bo'lgan va yoritgichlarning yoritilgan muhitda joylashishi.

$$Z_{min} = \frac{E_{TP}}{E_{min}} = 1,0 + 1,5 \quad \text{cho'g'lanma lampa uchun}$$

$$Z_{min} = 1,0 + 1,1 \quad \text{lyuminiessent lampa uchun.}$$

C – tanlangan yorug'lik manbasining yorug'lik tarqatuvchanligi.

$S=7+19,7 \text{ lm/Vt}$ chug'lanma lampa uchun

$S=33+37 \text{ lm/Vt}$ lyuminiessent lampa uchun.

η =yorug'lik oqimini ishlatilish koeffitsiyenti, jadval bo'yicha aniqlanadi, G.M.Knorrin red.ligida «Справочная книга для проектирования освещения» qo'llanmasi bo'yicha L. 1986 y, 128÷145 betlar. Qaytarilish koeffitsiyenti ρ_s , ρ_{hl} , ρ_p bilgan xolda $\rho=70$, $\rho=50$, $\rho=10$ devor va shift, xona indeks kattaligini jadval bo'yicha aniqlaymiz. $\eta=69\%$ yorug'lik oqimining foydalanish koeffitsiyenti, lampa oqimidan foiz hisobida. Lampa DRL 400 Vt.

7. Lampalar sonini tenglamadan topamiz.

$$n = \frac{P_{sol} \cdot F}{P_{lamp}} \tag{3.20}$$

$$n = \frac{14,57 \cdot 1800}{400} = 65,6$$

yorug'likning o'rnatilgan umumiy quvvati teng.

$$P_{n,o} = P_{sol} \cdot F = 14,75 \cdot 1800 = 25,75kVt$$

Aniqlik kiritamiz, yoritilish yuklamasini nominal quvvati:

$$P_{nu} = P_L \cdot n = 66 \cdot 400 = 26,4kVt$$

8. Yoritish elektr iste'molchilarining hisobiy aktiv quvvati.

$$P_x = K_{tyo} \cdot P_{n,o} = 0,95 \cdot 26,4 = 25,1 \text{ kVt}$$

9. Yoritgichdagи lampalar sonini aniqlaymiz (tanlangan yoritkich turi va lampalar soni bo'yicha).

10. Yoritgichlar sonini aniqlaymiz. $n_s = \frac{n}{n^1}$

11. Yoritgichlar orasidagi masofani eni bo'yicha aniqlaymiz.

$$l_v = 1,4N$$

12. Xona kengligi bo'yicha qatorlar sonini aniqlaymiz.

$$n_v = 1 + \frac{B - 2l_t}{l_h} \quad (3.21)$$

13. Xona uzunligi bo'yicha yoritkichlar sonini aniqlaymiz.

$$n_a = \frac{n}{n_b}$$

PUE bo'yicha 6 bo'lim «Elektr yoritish» ko'rsatilgan, har bir fazadagi 20 tadan ortiq lampa tarmoqda bo'lishi mumkin emas.

2. Solishtirma yuklama usuli boshlang'ich ma'lumotlar yetarli bo'lmaganda yoritish tarmog'ini hisoblash uchun ishlataladi va quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$P_H = P_{sol} \cdot F \cdot K_{s,o} \quad (3.22)$$

bu yerda: P_{sol} – solishtirma quvvat, kVt;
 F – yoritilayotgan yuzaning maydoni, m^2 .

J. Nuqtalar usuli ixtiyoriy yuza, devor va shiftning yorug'lik qaytarishini hisobga olmagan holda yoritilganligini aniqlashda, zarur nuqtalardagi yoritilganlikni tekshirish uchun ishlataladi. Unda yoritilganliklarga (izolyukslarga) teng bo'lgan fazo egri chiziqlaridan foydalantildi. Bu egri chiziqlar standart yoritgichlarning turli xili uchun 1000 lm shartli lampa bilan, to'g'ri burchakli koordinatalar uchun yoritgichlar ilingan balandligi N_r va yoritgich proeksiyasining bog'liq holda qurilgan. Yoritilganlikni bilgan holda lampalar sonini aniqlash mumkin:

$$N = \frac{E \cdot F \cdot K_z \cdot Z}{Fk \cdot \eta} \quad (3.23)$$

Shahar tarmog'idagi ixtiyoriy elementdagи elektr yuklama bir qator omillar, ularning tasodifiy birikmasi va vaqt bo'yicha o'zgarishi funksiyasidir. Demak, barcha kattaliklar ham, ehtimoliy kattaliklar – elektr yuklamalarni tasodifiy o'zgaruvchilari funksiyalari bo'ladi. Bu holatda tarmoqlurni ehtimoliy-statistik usul bilan hisoblash maqsadga muvoqqedir. Bunda elektr yuklamalarning ehtimoliy kattaliklarini statistik tafsilishlarning sonli xarakteristikalari kabi ko'rib chiqish mumkin. Tasoditiy kattalikning kerakli darajadagi sonli bahosini uning sonli xarakteristikalari asosida, EHM ni qo'llab quyidagi formula orqali olib borish mumkin:

$$P_h = \bar{P}_{\text{yuk}} + t_{\alpha} \cdot \sigma_{\bar{P}} \quad (3.24)$$

bu yerdan: \bar{P}_{yuk} – hisobly yuklamaning matematik kutilishi;

t_{α} – o'rta kvadratik og'ish;

$\sigma_{\bar{P}}$ – me'yorlanadigan og'ish.

Shahar elektr tarmoqlarida hisobning aniqligi «ikki sigma» qoldan tа = 2 xatoligi

$0 = \pm 5\%$ yoki «uch sigma» qoidasi $t_{\alpha} = 3$ xatoligi $\theta = \pm 0,5\%$ bo'yicha olinadi.

Hozirgi kunga kelib shaharning komunal – maishiy sektori tez rivojlanmoqda va elektro sarfi 11% dan to 42% gacha ko'paymoqda. Shaharlar elektr tahminoti masalalari, elektr yuklamalarini hisoblash, shahar elektr ta'moqlarini qurish, hamda elektr iste'molini

me'yorlash va tejamkorlik muammolari, ni nazorat qilish va hisobga olishning yangi texnologiyalarini qo'llash masalalari dolzarbli va muhimdir.

Tipik grafiklarni ishlab chiqish davomida to'g'ri ma'lumotlarni olish va ularning miqdoriy tavsiflarini berishda matematik statistika va ehtimollar nazariyasi qoidalariga asoslangan holda tajriba taddiqotlari natijalarini to'g'ri ishlash kerak bo'ladi. Shu bilan birga shuni unutmaslik kerakki, katta sonlar va ehtimollar nazariyasi o'rtacha jamlanmani aniqlash natijalari tajribalar, ya'ni tadqiq etilgan jamlanma a'zolari miqdori katta bo'lgandagina to'g'ri bo'lishi mumkin. Sutkalik grafiklarni qayta ishlab chiqish va ularni tahlil qilish ehtimoliy statistik metod asosida shaxsiy kompyuter SHK (EHM) ning yangi ishlab chiqilgan dasturlarini qo'llagan holda amalga oshirilgan bo'lib, ular asosida miqdoriy xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi: matematik kutilgan natija va o'rtacha kvadrat og'ish, 1 soat, yarim soat va 15 daqiqa vaqt intervalli xarakterli tipik sutkali yuklanma grafigi. «SHaharlarda elektr tahminoti tizimlari elektr yuklamalari rejimlarini hisob-kitob qilish va optimallashtirish metodlarini ishlab chiqish uchun dasturiy vositalar majmui»ga patent olingan bo'lib, u uchta dasturdan iborat.

Dastur ikkita dasturchadan iborat. Birinchisida matematik kutilgan natija va maksimal yuklama hajmi belgilanadi, ikkinchisida – birinchisi asosida boshqa foydali kattaliklar: o'rtacha kvadrat og'ish, ulushli yuklama, umumtarmoq maksimumida ishtirok etish koefitsiyenti, yuklama maksimumidan foydalangan soatlar miqdori. Quvvati «P», toki «I», kuchlanishi «U» kattaliklarida berilgan egri chiziq shaklidagi bir tipli elektr iste'molchilar sutkalik grafiklar bergen sinov natijalariga ko'ra grafikning 5 daqiqa intervaliga ega bir qator nuqtalariga ega bo'lamiz, ya'ni yarim soat uchun 7 ta nuqtaga ega ($N = 7$), unda 1 sutkalik grafik uchun 48 ta yuklamaning 1 sutkalik o'rtacha maksimal qiymatiga ega bo'lamiz ($m = 48$). Soatbay maksimumlari uchun o'rtacha maksimal qiymat olish uchun biz ($N = 13$) nuqtaga, ya'ni 1 soat intervalida matematik kutilgan natija va o'rtacha kvadrat og'ishga ega bo'lamiz va 1 sutkada ($m = 24$) ega bo'lamiz.

Natijada - bir turdag'i iste'molchilar yuklamalarning tipik grafigini tuzish uchun matematik kutilgan natija mazkur iste'molchilar turining o'rtacha maksimal kattaliklarining \bar{P} va σ_r larni bevosita aniqlash uchun

lozim bo'lgan maksimal bir soatli yoki yarim soatli o'rtacha qiymatlar nuqtasida qurilgan obyektlarning o'rtacha maksimal qiymatiga teng bo'ladi, ya'ni.

$$\bar{P}_{o.r.m} = \frac{\sum_{j=1}^m \sum_{r=1}^l \sum_{p=1}^n Y_{j,r,p}}{m l n}, \quad (3.25)$$

bunda, $P_{o.r.m}$ - tasodifiy yuklamaning matematik kutilgan natijasi;

$Y_{j,r,p}$ - 1 sutkalik grafik yuklamasi kattaliklarining boshlang'ich qiymatlari matriksasi;

n - yarim yoki bir soatli intervaldag'i 1 sutkalik grafik o'lehamayotgan kattalikdagi nuqtalar miqdori;

l - elektr tarmog'ining har bir nuqtasida yuklamalarni o'lichash o'tkazilgan kunlar miqdori;

m - tajriba uchun olingan bir tipli iste'molchilar obyektlarning miqdori.

Unda, mos ravishda, o'rtacha kvadrat og'ish quyidagiga teng bo'ladi:

$$\sigma_p = \sqrt{D_p} = \sqrt{\frac{\sum_{j=1}^m \sum_{r=1}^l \sum_{p=1}^n Y_{j,r,p}^2}{m l n} - \left(\frac{\sum_{j=1}^m \sum_{r=1}^l \sum_{p=1}^n Y_{j,r,p}}{m l n} \right)^2} \quad (3.26)$$

1 sutkalik grafikning o'lehangan yuklanmasi kattaligi tok yoki quvvat matriksini $Y_{j,r,p}$ shaklida berilishi mumkin, unda,

l - matriksa qatorlari (yarim soatli intervallarda 1 sutkada $i = 48$ ga, 1 soatli intervalda esa $i = 24$ ga teng);

j - matriksa ustunlari (yarim soatli intervalda yuklamalar egri chizig'ining 5 minutli o'sishlarida $j = 7$ ga, bir soatli intervalda esa $j = 13$ ga ega bo'lamiz).

Me'yorlashgan og'ish kattaligiga qarab maksimum kattaligi turli qiymatlarga ega bo'ladi. Me'yorlashgan og'ish yuklama maksimumi o'rinchindan qancha standartga og'ishini ko'rsatadi.

$$t_a = \frac{P_{\max} - \bar{P}_{o.r.\max}}{\sigma_p} \quad (3.27)$$

Shu bilan birga t_a bunday, o'rtachadan og'ishlar ehtimoli qay darajada ekanligini ko'rsatadi. Simlari kam kesishgan va nisbatan past doimiy isish vaqtiga ega bo'lgan uy va jamoat binolarining ichki tarmoqlari uchun t_a uchun katta qiymatlarni olish maqsadga muvofiqdir, xususan $t_a = 3$ (ehtimollik 99,7% ga teng). Doimiy isish vaqtin katta bo'lgan tashqi tarmoqlar uchun $t_a = 1,65 - 2$ olinadi (ehtimollik tahminan 95% ga teng) [58].

Tarmoq hisobotlarining talab qilingan aniqligiga qarab loyihachi «uch sigm» yohud «ikki sigm» qoidasiga ko'ra, mehyorlashtirilayotgan og'ish kattaligini tanlash orqali hisob kitob yuklamalarning kerakli darajada haqqoniyligini talab qilishi mumkin.

$$P_{\max.} = P_{o'r.\max.} + 3\sigma_R \quad \text{yoki} \quad P_{\max.} = P_{o'r.\max.} + 2\sigma_R \quad (3.28)$$

Iste'molchilar yuklamalar grafiklari bo'yicha tarmoq elektrotexnik hisob-kitoblarni bajarish istiqbolli hisoblanadi. Iste'molchilar yuklamalar grafigi asosida masalan, kuchlanishning sodir bo'lishi mumkin og'ishlarga bo'lgan tarmoqning asosliroq hisob kitobini amalga oshirish, elektro sifatining integral ko'rsatkichi – kuchlanishning bir xil emasligi, yoki tarmoq elementlarida yo'qotilgan elektr ni aniqlash mumkin bo'ladi.

Shu tariqa, elektr iste'molining axborot taxliliy modellari, ni hisob kitob va nazorat qilishning avtomatlashgan tizimlari monitoringini qo'llagan holda ko'plab elektr iste'molchilarini o'lhash amallarini o'tkazib, ko'plab omillar va talab qilingan aniqlikni hisobga olib shaharlardagi bir tipli elektr iste'molchilar elektr yuklamalarining xarakterli ti'ik bir sutkalik grafiklari ishlab chiqildi.

So'nggi yillarda adabiyotlarda sanoat korxonalarining elektr tarmoqlarini hisob kitob qilish uchun EHM SHK dan foydalanib amalga oshirilgan ishlar ko'plab nashr qilinmoqda. Shu sababli yashash va jamoat binolarini tahminlovchi elektr tarmoqlari hisob kitob yuklamalarini aniqlashda algoritmlarning samaraliroq va to'g'riroq ishlanmalarini tahlil qilib chiqishni maqsad qilib qo'yildi. 1 sutkalik yuklamalar grafigini qayta ishslash va tahlil qilish ehtimolliy statistik metod asosida yangi ishlab chiqilgan EHM SHK dasturlarini qo'llagan holda amalga oshirildi. Ular yashash va jamoat binolaridagi iste'molchilar yuklamalarining 1 sutkalik tajriba grafiklarini qo'llab, ular asosida miqdoriy sifatlarni: matematik kutilgan natija va o'rtacha

kvadrat og'ish, yarim soatli va 15 daqiqali intervalli tipik 1 sutkalik yuklamalar grafigini hisob qilishni ta'minlayapti.

3.1-rasmda 1 sutkalik yuklamalar grafigi bo'yicha jamoat binolari elektr yuklamalari hisob kitobining blok sxemasi (algoritmi) keltirilgan.

Quyida dasturda ishlatalgan operatorlar va alohida identifikatorlar tavsifi keltirilgan.

Boshlang'ich ma'lumotlarni kiritish:

n – turli hisob kitoblar sharoitlari uchun o'lchangan faktik yuklamalar grafigi diagrammalaridagi nuqtalar miqdori;

t_a – mehyorlashgan og'ish;

U – o'rtacha yuklama maksimumi kuchlanishi;

$sos\varphi = quvvat\ koeffitsiyenti$;

F – obyektning foydali maydoni;

K – qabul qilinayotgan ko'rsatkich birliklari miqdori (joy va h.);

W_{yl} – yillik elektro iste'moli;

$P_{0'm}$ – o'rnatilgan quvvat;

Y_0 – tujribaviy 1 sutkalik yuklamalar grafigi qiymatlari matritsasi.

1, 2, n = 7 yoki n = 13

3, 4, L: = 1; L: = 2 – yarim yoki bir soatlik yuklama maksimumi bo'yicha hisob-kitob qilish imkonini beruvchi belgi.

5. i = 1 – qator raqami; 1 dan 48 gacha bo'lgan qiymatlarni qabul qila oladi.

6. $r_i = 0$; $Y_{max} = 0$ – boshlang'ich belgilangan qiymat Y_{max} ui

7. $\bar{Y}_i = \frac{1}{n} \sum_{j=1}^n Y_{ij}$ – qatorning o'rtacha qiymatini aniqlash

8. $\bar{Y}_{max} < \bar{Y}_i$ – maksimal qiymatni belgilash.

9. $Y_{max} = \bar{Y}_i$

10. $i = i+1$ – qatorni to'ldirish, jadval to'lishigacha



11. $i = 1$

12. $i = 1$ – jadvalning ikkinchi qismi matritsasini qayta ishlashni boshlash.

13. $D_i = \frac{\sum_{j=1}^n Y_{ij}^2}{n} - \left(\frac{\sum_{j=1}^n Y_{ij}}{n} \right)^2$ – dispersiya.

BOSHLANISHI

Boshlang'ich ma'lumotlarni kiritish: n; t₀, U_{max}; cosφ; F; K; W₃₀; P_{sigma}; matritsalar Y_{ii}



3.1.-rasm. Elektr yuklamalarni hisob-kitob qilish algoritmi koeffitsiyenti.

14. $\sigma_i = \sqrt{D_i}$ - o'rtacha kvadrat og'ish (standart).

15. $v = \frac{\sigma_i}{Y_i} \cdot 100\%$ - variatsiyi koeffitsiyenti.

16. $O_i = t_{\alpha} \frac{\sigma_i}{n}$ - o'rtacha kattaliklar hatosi

17. $\bar{Y}_i \% = \frac{\bar{Y}_i}{Y_{\max}} \cdot 100\%$ - yuklamaning matematik kutilgan natijalarining o'rtacha kattaliklar qiymati.

18. $i = \frac{40}{L}$ - umumtarmoq maksimumi belgisi (20 soat).

19. $Y_{\max} = \bar{Y} + t\alpha \cdot \sigma$

20. $K_{\text{uch max}} = \frac{\bar{Y}_i}{Y_{\max}}$ - umumtarmoq maksimumida ishtirok etish

21. $n = 0$ (va $n = 1$) – tok yoki quvvat bo'yicha hisob kitob qilish belgisi.

22. $P_{\text{o'r max}} = \sqrt{3} Y_{\max} U_{\max} \cos\phi$ - o'rtacha maksimal quvvatni aniqlash.

23. $P_{\text{o'r maks}} = Y_{\max}$ - o'rtacha maksimal yuklama.

24. $t_{\max} = \frac{W_{\text{vt}}}{P_{\text{o'r max}}}$ - yuklama maksimumidan foydalangan soatlar miqdori.

25. $P_{\text{his}} = P_{\text{o'r max}} \cdot K_{\text{q,max}}$ - hisobiy yuklama.

26. $K = 0$ – o'rinlar soniga qarab ulushli yuklama kattaligini hisob kitob qilish sharti, $F = 0$ – foydali maydon bo'yicha.

27. $P_{\text{vt}} = \frac{P_{\text{his}}}{K}$

1m^2 yoki 1 ta joydagи elektr yuklamalarning ulushli quvvati.

28. $P_{\text{vt}} = \frac{F_{\text{vt}}}{F}$ solishtirma yuklama.

29. $K_e = \frac{P_{\text{his}}}{P_{\text{vt}}}$ - talab koeffitsiyentini aniqlash.

30. $i > \frac{48}{L}$ - matritsan qayta ishlash tugallanganligi sharti.

31. $i := i + 1$ – matritsaning keyingi qatoriga o'tish.

32. Natijalarni chiqarish.

33. Butun massiv ishlab chiqilganmi?

34. Massiv oxiri.

Hisob kitoblar natijasida tok yoki quvvatning boshlang'ich haqiqiy kattalik qiymatlari jadvali va turar joylar va jamoat binolari elektr ta'minoti tarmog'i yuklamasini aniqlash uchun zarur bo'lgan

tipik yuklama grafigining miqdoriy sifatlari va har bir vaqt oralig‘ining yuqori qiymatiga ko‘ra tipik yuklama grafigini tuzish va uni tahlil qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar jadvali chiqariladi[2].

Jamoat binolari elektr yuklamalarini tadqiq etishning o‘ziga xos xususiyat laridan biri shundaki, turli guruhdagi jamoat binolarining maksimal qiymatlarini statistik jihatdan qayta ishlab bo‘lmaydi, zero konstruksiyasi va xarakteriga ko‘ra turlicha bo‘lgan jamoat binolari uchun elektr yuklamalarning mutlaq kattaliklari turlicha bo‘lib, o‘rtacha qiymatlar o‘rtasidagi farq juda katta va shu sababli aniq hisob kitoblarni amalga oshirishda qiyinchiliklar vujudga keladi. Shunga ko‘ra bir ti‘li iste’molchilar bo‘yicha jamoat binolari statistik ma’lumotlarini qayta ishlab borish kerak, bunda elektr yuklamalarning o‘rtacha maksimal qiymatlaridan aniqroq va ishonchliroq o‘rtacha maksimal kattaliklar olinadi.

Yuqorida keltirilgan algoritmgaga asosan quyidagi natijalar olindi:

1. Elektr yuklanmalar bo‘yicha ehtimollik nazariyasi va matematik statistikani qo‘llab o‘tkazilgan eks’perimental tadqiqotlar chog‘ida, umumiy turar joylardagi elektr iste’molchilarining ish rejimi mo‘tadil taqsimot qonuniyatiga bo‘ysinishidan kelib chiqqan holda, ammo umumiy binolar ish rejimini kattadan kichik sari tanlab olish mumkinligini hisobga olib, mo‘tadil taqsimot qonuniyati talaba taqsimotiga ko‘ra, hisob-kitoblarining $\pm 5\%$ ($2\sigma -$ ikki sigm) darajadagi aniqligiga erishish uchun 60 karra o‘lchov o‘tkazish zarur.

2. Eksperimental o‘lchovlar o‘tkazish joyi har bir iste’molchining alohida bo‘g‘inida belgilanadi va TP ning quyi chiqish joyidagi tekshiruv yig‘indilarini qo‘shish orqali bajariladi.

3. Elektr yuklanmalari algoritmlarini ishlab chiqish va grafiklarini tuzishda quyidagi uslubiyatdan foydalandik, ya’ni elektr yuklanmalar hisobining birlamchi ma’lumotlari har 5 daqiqada qayd etib boriladi. Natijada yarim soatlik muddat oralig‘ida 7 ta nuqta va bir soatlik muddat oralig‘ida 13 ta nuqta ma’lumotlari qayd etildi. ‘irovardida elektr yuklanmalarining yakuniy matritsasi chiqarildi. Ana shu yakuniy ma’lumotlarga ehtimollik nazariyasi asosida ishlov berib, elektr yuklanmalarini yangi usulda hisoblab topish imkonini berdi.

Yakuniy hisobot natijasida quvvati yoki tokning hajmi bo‘yicha jadval beriladi va jadval ma’lumoti tahlili hamda o‘rnatilgan grafika

og'irligi qurilmasida uning sondagi xarakteristika va barcha vaqt oralig'i hisobotining imkoniyatiga bog'liq.

Yuklamaning taxminiy balandlik deb ko'rilib aniq taxminlarga asoslanib u yoki bu imkoniyatlar olinadi.

Yuklama hisobi ostida yarim soatlik maksimum balandligi nazarda tutilib, hisobot yilida kamida 2-4 marta 'aydo bo'ladi. Bu usul og'irlilik maksimumining tashkil etishida ehtiborga olinadi. Bunday usul elektrotarmoq loyihalashtirishda xorijda ham MDHda ham umumiy qabul qilingandir. (2005 y. 'UE va 1983 yildagi "Sanoat korxonalarida elektr yuklamani aniq ko'rsatkichlari qo'llanmasi")

Bu usul bir tomondan, kam sonli elektr iste'molchilar ulanishida elektr tarmoqning ko"ayishini aniqlash bo'lsa, ikkinchi tomondan, ko"sonli elektr iste'molchilar ulanishida tarmoqka tushayotgan yuklamaning hisobini aniqlaydi.

Qizishi bo'yicha chiziqlar kesimmasi va transformatorlar quvvatini aniqlashda yuklamalik jadvali formasining hisobi kerak. Shunday yuklamani hisobini to'ish kerakki, qizish samaradorligi ishlayotgan jadvaldagi yuklama o'zgarishlari samaradorligi bilan bir xil bo'lishi kerak.

Bunday hisobotlar amalda bo'lishi mumkin emas, shuning uchun o'zgaruvchan jadvalni aniqlash tavsiya etiladi.

Shahar-tumanlarining elektr tarmoqlari barcha iste'molchilar hisobini hamda 10 yilga tuman xalq xo'jaligi rivojlanishini e'tiborga olib hisoblanishi lozim. Hozirgi vaqtda yuklama hisobi 10 yilga yetishi kerak, undan keyin tarmoq ta'mirlanishi mumkin. Ko'p yillik statistika shuni ko'rsatadiki, tarmoqning umumiy yuklama 10 yilda ikki barobar ortadi.

Har yilgi o'sishni hisobga olingandagi aktiv elektr yuklama quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$P_t = P_0 \cdot (1 + \alpha_p)^{t-1} \quad (3.29)$$

reakтив elektr yuklama quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Q_t = Q_0 \cdot (1 + \alpha_Q)^{t-1} \quad (3.30)$$

bu yerda: R_0 – ekspluatatsiyaning birinchi yilidagi aktiv yuklama, kVt;

Q_0 – ekspluatatsiyaning birinchi yilidagi reaktiv yuklama, kVAr;

α_R – aktiv yuklamaning har yilgi o'sish foizi;

α_Q – reaktiv yuklamaning har yilgi o'sish foizi;

t – hisobiy yil.

Elektr uskunalarini ishlatish qoidalari ‘UE ga muvofiq shahar tarmoqlaridagi maksimal yuklamaning quvvat koeffitsiyenti cosφ q 0,9 deb, reaktiv quvvat koeffitsiyenti tgφ q 0,4 deb qabul qilinadi.

Elektr qabul qilgichining to'la quvvati quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$S_{hs} = \sqrt{P_{hs}^2 + (\operatorname{tg} \varphi \cdot P_{hs})^2} \quad (3.31)$$

3.3. Bir turdag'i iste'molchilar elektr yuklamalarini hisoblashning yangi usul va ifodalarini ishlab chiqish

Elektr iste'molchilarning maksimal elektr yuklamalarini aniqlash usuli elektroenergetika, elektr tarmoqlari va shahar elektr ta'minoti tizimiga mansub. Elektr tarmoqlarini loyihalash va ekspluatatsiya qilishda zarur bo'ladigan maksimal elektr yuklamalarni aniqlash berilgan davrda energotizimning maksimum soatlarda umumiy yuklamani tushirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish, shu bilan birga shaharlardagi elektr ta'minot tizimini loyihalashda har qanday tur va miqdordagi elektr iste'molchilari uchun qo'llanilishi mumkin.

Interval bo'yicha berilgan t vaqtida (8 yoki 0,5 soat) o'zgaruvchan boshlang'ich nuqtadagi o'lchov bilan alohida elektr iste'molchilarning o'rtacha yuklamasini o'lchashga asoslangan, bir turdag'i elektr iste'molchilarni maksimal elektr yuklamasini aniqlash usuli ma'lum. Bunda o'lchov ishlari olib borilgan elektr iste'molchilarning umumiy soni 15 donadan oshmagan holda, barcha elektr iste'molchilarning 20% ini tashkil etgan. O'lchash ishlari ko'p marotaba va uzoq vaqt mobaynida olib borilgan (Volobrinskiy S.D. va boshqalar «Электрические нагрузки промышленных предприятий». Л.: , 1971. с. 9-17, 171-205.)

Bizga ma'lum bo'lgan yana bir usulni «Qurilish me'yorlari va qoidalari» (SNIP) da QMQ 2.04.17-98 «Turar-joy va jamoat binolarining elektrijozlari». Toshkent: O'zR «Davarxitektqurilishqo'm» [17] hamda shahar elektr tarmoqlarini loyihalash yo'riqnomasida

Инструкции по проектированию городских электрических сетей RD 34.20.185-94 М.: EES Rossii, 1994. maksimal elektr yuklamani aniqlash uchun qo'llashadi.

Bu usullarning kamchiligi quyidagicha:

- o'lhash davrining uzunligi va past darajadagi aniqlik;

- real yuklamalar orasidagi farq, ayniqsa umumiylukta yuklamalarni;

- hisobdagagi xatolik, shahar tarmoqlaridagi elektr yuklamani o'zgaruvchan xarakteri hisobga olinmaydi;

- har bir iste'molchi elektr yuklamasi shaxsiy maksimumining vaqt faktori hisobga olinmaydi, maksimumda ishtirok etish koefitsiyenti va maksimumni almashish koefitsiyentlari katta xatoliklarga ega.

Bundan tashqari, bu usullar doimiy ish rejimiga ega bo'lgan va ko'p miqdordagi qo'shimcha o'lhashlarni talab etuvchi elektr iste'molchilar uchun mo'ljallangan. Elektr iste'molchilar soni to'rttadan kam bo'lгanda, keltirilgan usullar berilgan davr mobaynida qidirilayotgan kattalikni aniqlashga imkon bermaydi.

Taklif ettilayotgan usulga yaqinroq qilib yana bir keng tarqalgan usulni, ya'ni bir guruh elektr iste'molchilarining maksimal elektr yuklamalini aniqlash usulini [MG № 796765, MKI G 01 R 21/00, 15.01.1981] kiritish mumkin. Bu usul ba'zi usullarga mos ravishda alohida elektr iste'molchilarining elektr yuklamasida o'lhashlarni amalga oshiradi hamda vaqtini kamaytirish va doimiy bo'limgan ish rejimlarida aniqliknini oshirish uchun har xil texnologik ish rejimlarida elektr yuklamada o'lhashlarni amalga oshiradi. Bazis vaqtida har xil texnologik rejimlarining umumiyluk oqib o'tish vaqtini hisoblanadi, qidirilayotgan kattalikni esa o'lchangani yuklamalar orasidan eng kattasi qilib topiladi, ya'ni uning paydo bo'lish ehtimolligi 0,4–0,5 oralig'ida chiqsa, u ehtimollik quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$P_{t\delta t} = \sum_{\gamma=n}^N C_N^\gamma \cdot E_{(\epsilon)}^\gamma \cdot [1-E_{(\epsilon)}]^{N-\gamma} \quad (3.32)$$

Lekin bu usul TP, TaqP, MP, (TP, RP, StP) ko'rinishidagi elektr ta'minot tizimlaridagi umumiylukta yuklamani aniqlay olmaydi. Bundan tashqari, har bir alohida iste'molchilarining elektr yuklamasini shaxsiy maksimumida vaqt faktori hisobga olinmaydi. Natijada aniqlanayotgan yuklama bilan mavjud yuklama orasida anchagini farq

paydo bo‘ladi. Shuningdek, ehtimollik nazariyasiga tayangan holda, bu usul bilan topiladigan maksimal elektr yuklama faqatgina bir turdag'i elektr iste'molchilarga taalluqli bo'lib, maksimal yuklamaning hosil bo'lish ehtimoli 0,4–0,5 oralig'ida qabul qilinganda, bu etarli aniqlikdagi ushbu yo'l bilan aniqlangan yuklamani bermaydi.

Vaqtni kamaytirib, aniqliknii oshirish hamda elektr iste'molchilarni tashkil etuvchi elektr tarmoqning maksimal elektr yuklamasini aniqlashdagi ishonchhlilik – bu yangi usulning maqsadidir.

Qo'yilgan masala elektr tarmoqning maksimal elektr yuklamasini aniqlash usuli bilan elektr tarmoqni tashkil etuvchi alohida elektr iste'molchilarning turli texnologik ish rejimlarida elektr yuklamani o'lhash, bazis vaqtida turli texnologik rejimlarning umumiy o'tish vaqtini o'lhash, o'lchanigan yuklamalar orasidan eng maksimalini aniqlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Yangi ishlab chiqilgan usulga muvofiq elektr yuklamaning maksimal kattaligini barcha o'lchanigan davrlar ichidan eng maqbali sifatida olinadi. 15, 30 va 60 daqiqa vaqt oralig'i bo'yicha elektr yuklamaning sutkalik grafigi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$P_h = \frac{\sum_{\beta=1}^m \sum_{\gamma=1}^l \sum_{j=1}^n \bar{P}_{\beta, \gamma, j}}{m \cdot l \cdot n} + \sigma \cdot \sqrt{\frac{\sum_{\beta=1}^m \sum_{\gamma=1}^l \sum_{j=1}^n p^2}{m \cdot l \cdot n} - \left(\frac{\sum_{\beta=1}^m \sum_{\gamma=1}^l \sum_{j=1}^n p}{m \cdot l \cdot n} \right)^2} \quad (3.33)$$

Bu yerda:

$\bar{P}_{\beta, \gamma, j, \max}$ – maksimal yuklamalar orasidagi o'rtacha maksimum;

σ – o'rtacha kvadratik chekinish;

α – me'yorlangan chekinish;

n – bazali vaqt oralig'idagi elektr yuklamalarning sutkalik grafigida olinadigan o'lchov nuqtalari;

I – elektr tarmoqning har bir nuqtasidagi yuklamani o'lhash kunining soni;

m – bir turdag'i iste'molchi obyektlarining miqdori.

1. Elektr tarmoqning maksimal elektr yuklamasini aniqlash usuli elektr tarmoqni tashkil etuvchi alohida elektr iste'molchilarni turli texnologik ish rejimlarida elektr yuklamani o'lhash, bazis vaqtida turli texnologik rejimlarning umumiy o'tish vaqtini o'lhash, o'lchanigan yuklamalar orasidan eng maksimalini aniqlash yo'li bilan

imalga oshiriladi. Yangi ishlab chiqilgan usulga muvofiq elektr yuklamaning maksimal kattaligini elektr tarmoqqa kiruvchi iste'molchilarining sutkalik grafigini har bir vaqt oralig'i (15, 30, 60 daq) uchun nol soatdan boshlab yig'ish orqali sutkalik yuklama grafiglari tuziladi. Izlanayotgan elektr yuklamaning umumiyligi kattaligini esa elektr ta'minot tizimining har bir alohida nuqtalaridagi elektr tarmoqqa kiruvchi elektr yuklamalarning sutkalik grafigini har bir vaqt oralig'i bo'yicha o'lchangan yuklama variantlari orasidan eng ma'quli sifatida aniqlanadi. Ya'ni, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, bir turdag'i yoki bir turga mansub bo'limgan aralash yuklamalarning yig'indisi binoning kirish qismida transformator punktida (TrP), taqsimlovchi punktda (TP), bosh pasaytiruvchi n/st (BPN)da, ta'minot markazida (TM) aniqlanadi.

Elektr tarmoqqa kiruvchi iste'molchilarining sutkali yuklama grafigini har bir vaqt oralig'i uchun nol soatdan boshlab grafiklarni yig'ish asosida izlanayotgan elektr yuklamaning umumiyligi kattaligini 0,7-0,9 oralig'ida chiqish ehtimolida tarmoqqa kiruvchi elektr yuklamalari sutkalik grafigining har bir oralig'i bo'yicha o'lchangan (96, 48, 24) yuklama variantlari orasidan eng maksimali sifatida aniqlanadi. Bunday yondashuvga maksimal (hisobiy) yuklamalardan olingan natijalar yig'indisi haqiqatga yaqinroq chiqadi. Maksimal elektr yuklamalarni qabul qilingan koefitsiyentlarsiz ham olsa bo'ladi, ya'ni talab koefitsiyenti – κ_T , birgalikda ishlatish koefitsiyenti – κ_B , hamda umumtarmog'iy maksimumda qatnashish koefitsiyenti – $K_{max,qat}$ va boshqalar, bu koefitsiyentlar o'z navbatida maksimal yuklamaga qo'shimcha xatolik beradi.

2. Elektr tarmoqning maksimal elektr yuklamasini aniqlash usuli bilan elektr tarmoqni tashkil etuvchi alohida elektr iste'molchilarini turli texnologik ish rejimlarida elektr yuklamani o'lchash, bazis vaqtida turli texnologik rejimlarning umumiyligi o'tish vaqtini o'lchash, o'lchangan yuklamalar orasidan eng maksimalini aniqlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Buning farqi esa elektr yuklamani maksimal kattaligining barcha o'lchangan davrlar ichidan eng maqbولي sifatida olinadi. 15, 30 va 60 daqiqa vaqt oralig'i bo'yicha maksimal elektr yuklamaning sutkalik grafigi umumiyligi ko'rinishda quyidagi ifoda orqali topiladi:

$$S(x) = \bigcup_{i=96, \dots, 48} \cdot S_i(x) \quad (3.34)$$

yoki

$$\begin{aligned} S_i(x) &= \frac{M_{i-1}}{6h_i}(x^3 - 3x_i^2x + 3x_i x^2 - x^3) + \frac{M_i}{6h_i}(x^3 - 3x^2 x_{i-1} + 3x x_{i-1}^2 - x_{i-1}^3) + \\ &+ \frac{f_{i-1}}{h_i} x_i - \frac{M_{i-1} \cdot h_i^2}{6h_i} x_i - \frac{f_{i-1}}{h_i} x + \frac{M_{i-1} \cdot h_i^2}{6h_i} x + \frac{f_i}{h_i} x - \frac{f_i}{h_i} x_{i-1} - \frac{M_i \cdot h_i^2}{6h_i} x + \frac{M_i \cdot h_i^2}{6h_i} x_{i-1} = \\ &= (M_i - M_{i-1}) \cdot \frac{x^3}{6h_i} + \frac{3}{6h_i} \cdot (M_i x_i - M_{i-1} x_{i-1}) x^2 + (M_i \cdot x^2 x_{i-1} - M_{i-1} \cdot x^2 - 2f_{i-1} + M_{i-1} \cdot h_i^2 - \\ &- M_i \cdot h_i^2 + 2f_i) x + (M_{i-1} \cdot x^3 - M_i \cdot x^3 x_{i-1} + 6f_{i-1} \cdot x_i - 6f_i \cdot x_{i-1} - M_{i-1} \cdot h_i^2 \cdot x_i + \\ &+ M_i \cdot h_i^2 \cdot x_{i-1}) \frac{1}{6h_i} = a_{i0} \cdot x^3 + a_{i1} \cdot x^2 + a_{i2} \cdot x + a_{i3} \end{aligned}$$

bu yerda,

$$\begin{aligned} a_{i0} &= \frac{M_i - M_{i-1}}{6h_i} \\ a_{i1} &= \frac{1}{2h_i} (M_{i-1} x_i - M_i x_{i-1}) \\ a_{i2} &= \frac{1}{2h_i} (M_i \cdot x^2 x_{i-1} - M_{i-1} \cdot x^2 + M_{i-1} \cdot h_i^2 - M_i \cdot h_i^2 - 2f_{i-1} + 2f_i) \\ a_{i3} &= \frac{1}{6h_i} (M_{i-1} \cdot x^3 - M_i \cdot x^3 x_{i-1} + 6f_{i-1} \cdot x_i - 6f_i \cdot x_{i-1} + M_i \cdot h_i^2 \cdot x_{i-1} - M_{i-1} \cdot h_i^2 \cdot x_i) \end{aligned}$$

Ushbu algoritm negizida 1-jadvaldan M_i , f_i , h_i , x_i 96 va 48 ta 3-darajali ifodalar tizimini olamiz.

Elektr yuklamalarning sutkalik grafigi uchun ifodalar tizimidan quyidagi umumiy ko‘rinishga ega bo‘lgan koeffitsiyentlarni kiritamiz:

$$S_3(x) = a_{i0} x^3 + a_{i1} x^2 + a_{i2} x + a_{i3} \quad (3.35)$$

bu erda: a_{i0} , a_{i1} , a_{i2} , a_{i3} – har bir ifoda koeffitsiyenti.

Natijada 96, 48 ta 3-darajali ifoda chiqadi. Sutkalik grafik ma’lumotlarini mana shu ifodaga qo‘ysak grafikning alohida qismlarini olamiz va hamma 96, 48 bo‘lakni yig‘ib sutkalik grafik chizmasini olish mumkin. Bu chizma elektr iste’molchilarning xarakterli sutkalik grafigiga ancha yaqin.

Bundan xarakterli sutkalik grafiklarni to‘la yig‘ish orqali bir turdag‘i elektr iste’molchilarning sutkalik yuklama grafigi kelib chiqadi. Keyin elektrta’mnot tizimining bir turdag‘i elektr

iste'molchilarining o'rtacha maksimal 15, 30, 60 daqiqalik yuklamalaridan maksimal elektr yuklama topiladi. Har bir elektr iste'molchi uchun o'zining maksimal elektr yuklamasini aniqlash ifodasi va chizmalari mavjud.

Usul quyidagi namuna orqali ifodalanadi:

Gaz plitali, 5 qavatdan oshmagan turarjoy binosining sutkalik elektr yuklama grafigi o'lchangan va egri chiziqli grafik ko'rinishida (Rasm.1,) keltirilayapti, ushbu grafik uchun eng yaqin bo'lgan, bizning misolda 3-darajali Splayn funksiya orqali aniqlangan elektr yuklamaning sutkalik egri chiziqli grafigini topamiz. Bu grafikning analitik ifodasi Splayn funksiya amallari asosida elektr iste'molchilarning har bir turi uchun alohida aniqlangan [60] Завялов Ю.С., Квасов Б.И., Мирошниченко В.Л. Методы Сплайн – функций. М.: Наука, 1980. – 352 с. Interpolyatsion kub Splaynni qurish uchun $[a, b]$ kesmani (sutkalik grafikni) teng uzunlikdagi n qisimlarga ajratamiz.

$$h = (a - b) / n \quad (3.36)$$

keltirilayotgan misoldagi hisob miqdorini kamaytirish maqsadida bazis vaqtida oraliqni 60 daqqa, ya'ni o'lchashlar miqdorini $i=24$ deb qabul qilamiz.

Bu holatda $[x_{i-1}, x_i]$ qismdagi kub Splayn, ya'ni $i=1, 2, \dots, n$ gacha quyidagi ko'rinishda yoziladi:

$$\begin{aligned} S_3(x) = & M_{i-1} \cdot \frac{(x_i - x)^3}{6h_i} + M_i \cdot \frac{(x - x_{i-1})^3}{6h_i} + \\ & + \left(f_{i-1} - \frac{M_{i-1} \cdot h_i^2}{6} \right) \cdot \frac{x_i - x}{h_i} + \left(f_i - \frac{M_i \cdot h_i^2}{6} \right) \cdot \frac{x - x_{i-1}}{h_i} \end{aligned} \quad (3.37)$$

M_{i-1} , M_i – ishlab chiqish shartlaridan kelib chiqadigan ba'zi bir splayn sonlar:

$$S'_3(x_i) = M_i$$

$$S'_3(x_{i-1}) = M_{i-1}$$

$$h_i = x_i - x_{i-1};$$

$$i = 1, 2, \dots, n-1$$

$$M_0 = M_n = 0$$

Qolgan M_i ($i = 1, 2, \dots, n-1$) larni aniqlash uchun (1) formulani sod-dalashtirib, quyidagi ifodalarni kiritamiz:

$$l_i = h_i / 6$$

$$b_i = \frac{(h_i + h_{i+1})}{3}$$

$$c_i = h_{i+1} / 6$$

$$d_i = (f_{i+1} - f_i) / h_{i+1} - (f_i - f_{i-1}) / h_i$$

$$q_0 = 0$$

$$p_i = l_i \cdot q_{i-1} + b_i$$

$$q_i = -c_i / p_i$$

$$U_0 = 0 \quad U_i = (d_i - l_i \cdot U_{i-1}) / p_i$$

$$M_{n-1} = U_{n-1}$$

$$M_k = q_k \cdot M_{k+1} + U_k,$$

unda, $k = n-2, n-3, \dots, 1$

Taklif etilayotgan algoritmda Splayn funksiyaning kub polinom koefitsiyentlarini hisoblovchi Turbo Paskal tilidagi dastur ishlab chiqilgan [muallif olgan patent № DGU 02278].

$$\begin{aligned} S_3(x) &= \frac{M_{i-1}}{6h_i} (x_i^3 - 3x_i^2x + 3x_i x^2 - x^3) + \frac{M_i}{6h_i} (x^3 - 3x^2 x_{i-1} + 3x x_{i-1}^2 - x_{i-1}^3) + \\ &+ \frac{f_{i-1}}{h_i} x_i - \frac{M_{i-1} \cdot h_i^2}{6h_i} x_i - \frac{f_{i-1}}{h_i} x + \frac{M_{i-1} \cdot h_i^2}{6h_i} x + \frac{f_i}{h_i} x - \frac{f_i}{h_i} x_{i-1} - \frac{M_i \cdot h_i^2}{6h_i} x + \frac{M_i \cdot h_i^2}{6h_i} x_{i-1} = \\ &= (M_i - M_{i-1}) \cdot \frac{x^3}{6h_i} + \frac{3}{6h_i} \cdot (M_i x_i - M_{i-1} x_{i-1}) x^2 + (M_i \cdot x_{i-1}^2 - M_{i-1} \cdot x^2 - 2f_{i-1} + M_{i-1} \cdot h_i^2 - \\ &- M_i \cdot h_i^2 + 2f_i) x + (M_{i-1} \cdot x^3 - M_i \cdot x_{i-1}^3 + 6f_{i-1} \cdot x_i - 6f_i \cdot x_{i-1} - M_{i-1} \cdot h_i^2 \cdot x_i + \\ &+ M_i \cdot h_i^2 \cdot x_{i-1}) \frac{1}{6h_i} = a_0 \cdot x^3 + a_1 \cdot x^2 + a_2 \cdot x + a_3 \end{aligned}$$

bu erda. $a_0 = \frac{M_i - M_{i-1}}{6h_i}$

$$a_1 = \frac{1}{2h_i} (M_{i-1} x_i - M_i x_{i-1})$$

$$a_2 = \frac{1}{2h_i} (M_i \cdot x_{i-1}^2 - M_{i-1} \cdot x^2 + M_{i-1} \cdot h_i^2 - M_i \cdot h_i^2 - 2f_{i-1} + 2f_i)$$

$$a_3 = \frac{1}{6h_i} (M_{i-1} \cdot x^3 - M_i \cdot x_{i-1}^3 + 6f_{i-1} \cdot x_i - 6f_i \cdot x_{i-1} + M_i \cdot h_i^2 \cdot x_{i-1} - M_{i-1} \cdot h_i^2 \cdot x_i)$$

Shaxsiy kompyuter hisoblari natijalariga ko'ra M_i ni quyidagicha aniqlaymiz:

3. I-jadval

i	X_i	f_i	h_i	l_i	b_i	e_i	d_i	a_i	g_i	e_i	M_i
1	0	15,1	1						0	0	0
2	1	17,43	1	1/6	2/3	1/6	-5,85	0,667	-0,25	-8,775	-9,864
3	2	13,91	1	1/6	2/3	1/6	4,33	0,625	-0,2667	9,268	4,358
4	3	14,72	1	1/6	2/3	1/6	9,74	0,622	-0,2678	13,171	18,414
5	4	25,27	1	1/6	2/3	1/6	-6,31	0,622	-0,2679	-13,67	19,572
6	5	29,51	1	1/6	2/3	1/6	2,83	0,622	-0,2679	8,2135	22,013
7	6	36,58	1	1/6	2/3	1/6	-6,31	0,622	-0,2679	-12,345	-51,501
8	7	37,34	1	1/6	2/3	1/6	52,35	0,622	-0,2679	87,472	146,132
9	8	90,45	1	1/6	2/3	1/6	-99,26	0,622	-0,2679	-183,02	-218,927
10	9	44,30	1	1/6	2/3	1/6	47,97	0,622	-0,2679	126,163	134,015
11	10	46,12	1	1/6	2/3	1/6	2,53	0,622	-0,2679	-29,738	-29,315
12	11	50,47	1	1/6	2/3	1/6	-6,09	0,622	-0,2679	-1,8226	-1,577
13	12	48,73	1	1/6	2/3	1/6	-1,78	0,622	-0,2679	-2,37	-0,9169
14	13	45,21	1	1/6	2/3	1/6	6,11	0,622	-0,2679	10,458	-5,4353
15	14	47,80	1	1/6	2/3	1/6	24,4	0,622	-0,2679	36,426	-59,3181
16	15	74,79	1	1/6	2/3	1/6	-39,14	0,622	-0,2679	-72,686	-85,4369
4.7. Shahar elektr ta'minotining ratsional sxemalari

Oqilona tanlangan elektr ta'minoti tizimi hamma ideal elektr ta'minotining barcha talablariga javob berishi shart. Katta va kichik shaharlar tizimida taxminan 110/10 kV li kuchlanish qabul qilinadi. Tarmoq halqa ko'rinishida bo'ladi.

Shahar hududining tanlanadigan parametrlari 3 ta qismdan iborat:

1. Markaziy va yuklama zinch joylashgan hudud.

2. O'rta chuqur kirib borgan liniyalar.

3. Yuklama siyrak bo'lgan va kam yuklangan shahar atrofi.

Bloktr ta'minoti: shahar markaziga 110/10 kV li nimstansiya olinadi; iste'molchilarni ta'minlovchi manba shahar tashqarisida bo'lmaydi; 110 kV li halqaga berib turiladi. Bu halqa boshqa iste'molchilar uchun ham manba bo'lib hisoblanadi.

Halqa orqali uzluksiz elektr ta'minoti berib boriladi. Nimstansiyalarning soni shahar hududidagi yirik sanoat korxonalari va iste'molchilar surʼ qiladigan elektr siga bog'liq.

Qulay rejim uchun iste'molchilar har tomonlama, ya'ni bir nechta nimstansiyalardan ta'minlanadi. Havo liniyasi va kabel liniyalar yuklamalarning holati va qaysi hududda joylashganligiga qarab tanlanadi. 110 kV li halqada liniyalar o'tkazuvchanlik qobiliyatini avariya rejimi holati uchun ham hisobga olinishi shart. Undan tushqari, shahardagi yangi iste'molchilar yuklamalari oshishini ham

hisobga olish zarur. Nimstansiyaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirib keladigan liniyalar tejamkor hisoblanadi. Nimstansiyalarga avtotransformatorlar o‘rnatilgan bo‘lib, ular 2 xil kuchlanishni uzatadi. Bunda halqa ko‘rinishidagi tizim qulay hisoblanadi, chunki u iste’molchilarini uzlusiz elektr bilan ta’minlab turadi. Bu sistema dispetcher boshqarmalari tomonidan boshqariladi. Tizimda bo‘layotgan har bir holat nazoratda bo‘ladi.

Nimstansiyalarning qulayligi tizimdan olayotgan kuchlanishlarni to‘g‘ri taqsimlash va kuchlanishni pasaytirib berishda va liniyalarning avariya holatlarida boshqariladi.

Shahar elektr ta’minotiga qo‘yiladigan asosiy talablar

Tizimni tanlashda texnik-iqtisodiy jihatdan oqilona yo‘l tutish, ko‘rsatkichlar esa yuqori darajada bo‘lishi zarur. Asosiy talab – bu ishonchlilikni ta’minlashdir. Elektr ta’minotida ishonchlilik EUTQ (PUE) talablariga javob berishi va unda, albatta, avariya holatlari hisobga olinishi shart.

Ikki tomonlama ta’minlanadigan iste’molchilar ZAU ga ega bo‘lishi, ya’ni bir tomondan, ta’minlanayotganda ikkinchi tomonidan, ham ta’minlanib turishi kerak.

Tanlangan sxema egiluvchan tizimli bo‘lishi, ya’ni turli rejimda ham o‘z barqaror rejimini saqlab qolishi kerak. Elektr ta’minot tizimida yuklamalarning oshishi tizimni rivojlantirishga olib keladi. Obyekt loyihasida istiqboldagi 10–15 yilni hisobga olinishi kerak. Ishlab chiqilgan loyiha jahon andozasiga yaqin qilinishi kerak.

Shaharda aholi soni va sanoatning ko‘payishi bir qator muammolarni keltirib chiqaradi (ba’zan shaharda mukammal elektr ta’minoti tizmini qurish masalalari). Shuni ta’kidlash joizki, hozirgacha shahar ichki elektr tarmoqlari deganda faqat (6-10 kV) o‘rta taqsimlash tarmoqlari va past kuchlanish tarmoqlari tuman tarmoqlari darajasida qaraladi.

So‘ngi yillarda yuklama ko‘payishi bilan shaharda joylashgan yuqori kuchlanish tarmoqlari ancha ortmoqda: shahar iste’molchilarini o‘rtasida elektr sini taqsimlashga mo‘ljallangan maxsus yuqori kuchlanish tarmoqlari yaratilishi kuzatilmoida. Bu tarmoq tizimlari tuman tarmoqlaridan o‘ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi. Hozirda shahar elektr tarmog‘ini shahar iste’molchilarini elektr ta’minoti sxemasida barcha kuchlanishlar tarmog‘i majmui deb qarash

kerak. Bunday tarmoqning o‘ziga xos xususiyatlari texnik-iqtisodiy xarakterdagi muammolarni echishda namoyon bo‘ladi.

Xorijiy davlatlar elektr ta’minoti tizimida katta masshtabdag‘i elektr uzatilishining to‘xtatilishi shahar hayotini izdan chiqaradi. Shuning uchun shahar iste’molchilari elektr ta’minoti tarmoqlari barcha pog‘onalarida ni yuqori darajadagi ishonchhlilik va to‘xtovsiz uzatilishi ta’milanadi. Bu zaxira manbalaridan va turli avtomatlardan keng foydalanishini talab qiladi.

Shahar markazini elektr bilan ta’minlashda unga yuklama tushishini oldini olish uchun maxsus kamaytiruvchi 110 kV li nimstansiya halqa sifatida bog‘ladi. Har jihatdan mukammal sxema mahalliy va atrofdagi iste’molchilarga 110 kV li beradi. Ular parallel ulangan iste’molchilar hisoblanadi.

110 kV li tarmoqda yuqori kuchlanishni pasaytirishni transformator podstansiyasi amalga oshiradi. Bu, aylananing o‘rtasida joylashgan yuklama hisoblanadi.

110 kV li aylananing bir necha qismida (shahar chetida) havo liniyulari orqali elektr yuklamalari uzatilishi mumkin. U shahar elektr tizimini harakatga keltirishni aloqa kabeli orqali amalga oshiradi.

Yuklama ortganda ularning har biri yangi 110/10 kV li nimstansiya ularishi mumkin. Uziq-uziq qismlarda ham shunday ulaniladi, qisqa tutashuv amalga oshmasligi uchun aylananing har bir nuqtasida buni hisobga olish shart. Shartli ravishda har bir aylana 220–500 kV li kuchlanishdu mustaqil ishlashi mumkin.

Elektr ta’minot tizimlarini mukamallashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni umumiy olib qaraydigan bo‘lsak, biz bu sohada rivojlangan davlatlardan ancha orqadamiz. Lekin, so‘ngi yillardagi rivojlanish ham qaysidir ma’noda kelajak sari intilishga umid bug’ishlaydi. Bir qator mutaxassislarning fikricha, bizning energo ta’minot tizimimiz yaxshi tuzilgan [2,9,52]. Shularni e’tiborga olgan holda ratsional sxemalarni hayotga ko‘proq tatbiq etilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

4.8. Berk zanjirli elektr tarmoqlari

Uzbekiston energetikasida rekonstruksiya va modernizatsiya ishlari ketmoqda, 2018-yilgacha olish va boshqarishning yangi tizimlari ishga tushirishi rejallashtirilgan.

Maishiy yuklamadagi elektrofiksatsianing o'sishi mavjud tarmoq yuklamalarining to'xtovsiz o'sishiga olib kelmoqda, ularning tuzilib, rivojlanishi talab etmoqda. Shu bilan birga iste'molchilarni uzlusiz ta'minlanishi va ishonchlilik talablarini o'sish elektro energiyani uzatish tizimlarining barcha kuchlanish boqichlaridagi sarf - xarajatlarning ko'payishiga olib keladi. Bunday sharoitlarda shahar elektr tarmoqlarining ratsional qurilishi masalasi xalq xo'jaligining katta muammosiga aylanadi.

Kuchlanishi 1000 V gacha bo'lgan berk sxemalami shaharlarda qo'llash yo'llari qiyin bo'lib chiqdi, ularni yaratish bo'yicha bиринчи harakatlar 30-yillarda Moskva shahrida va Gorkiy avtozavadi sexlarida amalga oshirilgan. Bu urinishlar unchalik omadli bo'lmadi, shu sababli ham bu tarmoqlarni rivojlanishi birmuncha to'xtab qoldi. Bu davrda chet el amaliyotida 1000 V gacha bo'lgan berk zanjirli tarmoqlarning shaharlarda ko'payishi e'tirof etildi. Berk zanjirli tarmoqlar yuqori texnik - iqtisodiy ko'rsatgichlarga ega bo'lishi bilan bir qatorda ekspluatatsiyada o'zini yaxshi tomondan ko'rsatgan. Buni Nyu - York va AQSh ning boshqa shaharlarda ushbu tarmoqlarni keng qo'llanishining 30 yillik amaliyoti tasdiqlaydi. Bu tarmoqlarni qo'llanilishi 37,5 mlrd. dollarni iqtisod qilishga olib keldi.

Evropada bиринчи berk zanjirli tarmoqlar 30-yillar boshida Berlin va Maltada paydo bo'ldi. hozirgi vaqtida 1000 V gacha bo'lgan bunday tarmoqlar AQSh, Yaponiya, Daniya, Shvetsariya, Germaniya va Norvegiya shaharlarda qo'llanilib kelinmoqda. Rossiyada bunday tarmoqlar Moskva, Riga, Leningrad va Viborg shaharlarda barpo etilgan.

Lekin berk zanjirli tarmoqlarning kamchiliklarini ham ta'kidlab o'tish lozim:

1. Yangi barpo etilayotgan tuman uchun bunday sxemalarni qo'llash faqatgina qurilishlar to'liq bitgandan so'ng amalga oshirilishi mumkin.

2. Ekspluatatsion kamchiliklar qatoriga alohida elementlarni ta'mirlashga chiqarish paytida sxemaning buzilishi, shuningdek o'rta quvvatli iste'molchilarni tarmoqqa ulash paytidagi qiyinchiliklar.

Berk zanjirli elektr tarmoqlari hisobi

Berk zanjirli elektr tarmoqlari deb shunday elektr tarmoqlariga aytiladiki ularda elektr iste'molchilarga kamida ikki tomondan yetkazib beriladi.

Maishiy yuklamadagi elektrofiksatsiyaning o'sishi mavjud tarmoq yuklamalarining to'xtovsiz o'sishiga olib kelmoqda, ularning tuzilib, rivojlanishi talab etmoqda. Shu bilan birga iste'molchilarni uzlucksiz ta'minlanishi va ishonchhlilik talablarini o'sish elektro energiyani uzatish tizimlarining barcha kuchlanish boqichlaridagi sarf – xarajatlarning ko'payishiga olib keladi. Bunday sharoitlarda shahar elektr tarmoqlarining ratsional qurilishi masalasi xalq xo'jaligining katta muammosiga aylanadi.

Kuchlanishi 1000 V gacha bo'lgan berk sxemalarni shaharlarda qo'llash yo'llari qiyin bo'lib chiqdi, ularni yaratish bo'yicha birinchi harakatlar 30-yillarda Moskva shahrida va Gorkiy avtozavadi sexlarida amalga oshirilgan. Bu urinishlar unchalik omadli bo'lmadi, shu sababli ham bu tarmoqlarni rivojlanishi birmuncha to'xtab qoldi. Bu davrda chet el amaliyotida 1000 V gacha bo'lgan berk zanjirli tarmoqlarning shaharlarda ko'payishi e'tirof etildi. Berk zanjirli tarmoqlar yuqori texnik - iqtisodiy ko'rsatgichlarga ega bo'lishi bilan bir qatorda ekspluatatsiyada o'zini yaxshi tomonidan ko'rsatgan. Buni Nyu - York va AQSh ning boshqa shaharlarda ushbu tarmoqlarni keng qo'llanishining 30 yillik amaliyoti tasdiqlaydi. Bu tarmoqlarni qo'llanilishi 37,5 mlrd. dollarni iqtisod qilishga olib keldi.

Evropada birinchi berk zanjirli tarmoqlar 30-yillar boshida Berlin va Maltada paydo bo'ldi. hozirgi vaqtida 1000 V gacha bo'lgan bunday tarmoqlar AQSh, Yaponiya, Daniya, Shvetsariya, Germaniya va Norvegiya shaharlarda qo'llanilib kelimoqda. Rossiyada bunday tarmoqlar Moskva, Riga, Leningrad va Viborg shaharlarda barpo etilgan.

Lekin berk zanjirli tarmoqlarning kamchiliklarini ham ta'kidlab o'tish lozim:

1. Yangi barpo etilayotgan tuman uchun bunday sxemalarni qo'llash faqatgina qurilishlar to'liq bitgandan so'ng amalga oshirilishi mumkin.
2. Ekspluatatsion kamchiliklar qatoriga alohida elementlarni ta'mirlashga chiqarish paytida sxemaning buzilishi, shuningdek o'rta quvvatli iste'molchilarni tarmoqqa ulash paytidagi qiyinchiliklar.


Berk zanjirli elektr tarmoqlari hisobi

Berk zanjirli elektr tarmoqlari deb shunday elektr tarmoqlariga aytildikti ularda elektr iste'molchilarga kamida ikki tomonidan yetkazib beriladi.

Asosiy tushunchalar

Ko'rib chiqilgan hamma dastlabki elektr tarmoqlari berk turdag'i elektr tarmoqlari edi. Al uchastkasida avariya sodir bo'lganda yoki generator o'chirilsa barcha iste'molchilarga elektr si ta'minoti to'xtaydi.

Shuning uchun uning asosiy kamchiligi avariya holatida bu tarmoqqa ulangan bir qator iste'molchilarga iqtisodiy zarar yetkaziladi.





Bunday nohush holatlarni oldini olish uchun va uzlusiz ravishda I va II kategoriya iste'molchilarini elektr bilan ta'minlash uchun elektr 2 va undan ortiq tomondan beriladi. Bunday elektr tarmoqlari berk zanjirli elektr tarmoqar deyiladi.

Berk zanjirli elektr tarmoqlar turlari

Berk zanjirli elektr tarmoqlar:

1) Oddiy berk zanjirli elektr tarmoqlari – bu elektr ta'minoti 2 tomondan berilmaydi.


A) Halqasimon tarmoq.



Generator manbai uzilganda tok bo'lmaydi.


Afzalligi: har qanday uchastkada tokni o'chirish mumkin qolganlarida esa tok saqlanib qolinadi.

B) Ikki tomondan ta'minlangan.



Har qanday uchastka va manbalarning biri o'chirilganda tok bo'ladi.

2) Murakkab berk zanjirli elektr tarmoqlar - bu tarmoq tugun nuqtalarining bir qancha elektr manbaiga ega elektr tarmoqlardir.



Stantsiyalar halqaga ishlaydi va doim tok iste'mol qiladi - buni EHM hisoblaydi.

6, 10, 35, 110 kV elektr tarmoqli Toshkent elektr tizimi murakkab ko'rinishga ega Moskva elektr tizimi esa undanda murakkabroq.


Bir tomondan elektr bilan ta'minlangan berk zanjirli elektr tarmoq doimiy ta'minot uchastka elektr ta'minoti uzilganda, generatorda avariya sodir bo'lganda taminlab bera olmaydi.

Ikki tomondan ta'minlangan elektr tarmoqlarida ishonchlilik ko'proq.

Berk zanjirli elektr tarmoqlari hisobi ajratilgan tarmoqdan murakkabroq:

Ajratilgan tarmoqning alohida uchastkalaridan o'tayotgan quvvat yuklama va quvvat isroflarini qo'shish orqali aniqlaymiz.

Masalan:



a) Alovida yuklama kuchlanishlarini o'zaro tarmoq naminal kuchlanishiga teng deb qabul qilamiz.

b) tarmoq quvvat isroflarini hisobga olmaymiz.

Umumiy hollarni ko'rib chiqamiz:

1. «U» tok manbai o'zaro qiymat bo'yicha teng emas va fazalar bo'yicha mos kelmaydi.

$$U_A \neq U_B$$

2. Har bir uchastka qarshiligi.

$$Z = R + jX$$

3. Yuklamalar tok komplekslari ko'rinishida berilgan.

$$i = i_a + i_p$$


Ya'ni yuklamalarda quvvat koefitsiyenti bir xil bo'lmasligi mumkin.

Berilgan: Hamma $L; i_1; i_2; i_3$

Hamma $Z; U_A; U_B$

Uchastkalardagi tokni topish kerak.

Asosiy formulani chiqarish uchun 3 bo'lim nuqtadagi tokni belgilaymiz va chiqib undan $I_A; I_B; i_1; i_2$ uchastkalarga yo'naligan tok yo'nalishini belgilaymiz.



Keyin tok yo'nalishi uchastka qarshiliklarini va «U» ta'minot punktlari bilan biz Kirxgof II qonuniga asosan kuchlanish tushuvi tenglamasini berilgan berk zanjirli elektr tarmoq uchun tuzishimiz mumkin.

$$\dot{U}_A - \dot{U}_B = \sqrt{3} \dot{I}_A Z_1 + \sqrt{3} \dot{I}_1 Z_2 + \sqrt{3} \dot{I}_2 Z_3 - \sqrt{3} \dot{I}_B Z_4 \quad (4.1)$$

1-tenglamadagi I_1, I_2 va I_B ni I_A toki va ma'lum yuklama toklari orqali ifodalaymiz:

$$\left. \begin{array}{l} \dot{I}_1 = \dot{I}_A - i_1 \\ \dot{I}_2 = \dot{I}_A - i_1 - i_2 \\ \dot{I}_B = i_1 + i_2 - i_3 - \dot{I}_A \end{array} \right\} \quad (4.2)$$

(4.2) ni (4.1) da ifodalaymiz.

$$\begin{aligned} \frac{\dot{U}_A - \dot{U}_B}{\sqrt{3}} &= I_A \cdot Z_1 + (I_A - i_1) Z_2 + (I_A - i_1 - i_2) Z_3 - (i_1 + i_2 + i_3 - I_A) Z_4 \\ \frac{U_A - U_B}{\sqrt{3}} &= I_A (Z_1 + Z_2 + Z_3 + Z_4) - i_1 (Z_2 + Z_3 + Z_4) - i_2 (Z_3 + Z_4) - i_3 \cdot Z_4 \\ \dot{I}_A &= \frac{\dot{U}_A - \dot{U}_B}{\sqrt{3} Z_{AB}} + \frac{i_1 Z'_1 + i_2 Z'_2 + i_3 Z'_3}{Z_{AB}} \end{aligned} \quad (4.3)$$

bu yerda : iZ - yuklama momenti:

$$\begin{aligned} \dot{I}_B &= - \frac{\dot{U}_A - \dot{U}_B}{\sqrt{3} Z_{AB}} + \frac{\sum iZ}{Z_{AB}} \\ \dot{I}_A &= \frac{\dot{U}_A - \dot{U}_B}{\sqrt{3} Z_{AB}} + \frac{\sum iZ'}{Z_{AB}} \end{aligned} \quad (4.4)$$

(4.3) va (4.4) formulalarni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$I_A = I_{AB} + I_A'$$

$$I_B = -I_{AB} + I_B'$$

Bu yerda I_{AB} muvozanatlovchi tok deb nomlanib, «U» ta'minot punkti farqi va umumiylar tarmoq qarshiligi Z_{AB} larga bog'liq.

$$\dot{I}_{AB} = \frac{U_A - U_B}{\sqrt{3}Z_{AB}}$$

Bu tok, yuklama toklari bilan aniqlanadi va liniya parametrlariga bog'liq.

$$\dot{I}_A' = \frac{\sum iZ'}{Z_{AB}} \quad \dot{I}_B' = \frac{\sum iZ}{Z_{AB}}$$

Ba'zida elektr hisoblarida yuklamalar Z_1, Z_2, Z_3 quvvatlar bilan beriladi va manbadan oqib chiqayotgan S_A va S_B quvvatlarni va hamma uchastkalardagi toklarni topish kerak. Buning uchun (3) va (4) formulalarni

$\sqrt{3} \cdot U_H$ ga ko'paytiramiz:

$$\begin{aligned}\sqrt{3} \cdot U_H \cdot \dot{I}_A &= \frac{\dot{U}_A - \dot{U}_B}{\sqrt{3}Z_{AB}} \sqrt{3}U_H + \frac{\sum iZ' \sqrt{3} \cdot U_H}{Z_{AB}} \\ \dot{S}_A &= \frac{\dot{U}_A - \dot{U}_B}{Z_{AB}} \cdot U_H + \frac{\sum \dot{S}Z'}{Z_{AB}}\end{aligned}\tag{4.5}$$

$$\dot{S}_B = \frac{\dot{U}_A - \dot{U}_B}{Z_{AB}} \cdot U_H + \frac{\sum S Z}{Z_{AB}}\tag{4.6}$$

4.3, 4.4, 4.5, 4.6 formulalar va Kirxgofning I qonunidan foydalanib hamma uchastkalardagi quvvat oqimini (yoki tok) aniqlaymiz va tok ajralish nuqtasini topamiz.

Ikki tomonlama elektr bilan tahminlangan liniyalarning ba'zi hollari

1-hol: $U_A = U_B$, ya'ni «U» ta'minot punktlari o'zaro teng va fazalararo mos, unda $I_{AB} = 0$, ya'ni $U_A - U_B = 0$, va asosiy formulalar quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:

$$\dot{I}_A = \frac{\sum iZ'}{Z_{AB}} \quad (4.3')$$

$$S_B = \frac{\sum JZ}{Z_{AB}} \quad (4.4')$$

$$S_A = \frac{\sum JZ'}{Z_{AB}} \quad (4.5')$$

$$\dot{I}_B = \frac{\sum iZ}{Z_{AB}} \quad (4.6')$$

2-hol: «U» ta'minot punktlari o'zaro teng va fazalararo mos. Bundan tashqari, AB liniya butun uzunligi bo'ylab bitta ko'ndalang kesim yuzali simdan qilingan va similarning tayanchlarda joylashishi bir xildir, ya'ni

$$Z_0 = r_0 + jx_0$$

Xuddi shunday butun uzunlik bo'ylab, uchastka uzunligi esa har xil bo'lishi mumkin.

$$\dot{I}_A = \frac{\sum i(r_0 + jx_0) \cdot L'}{(r_0 + jx_0) \cdot L_{AB}} = \frac{\sum iL'}{L_{AB}}$$

$$\dot{S}_A = \frac{\sum JL'}{L_{AB}} \quad (4.3'')$$

$$\dot{I}_A = \frac{\sum iL'}{L_{AB}} \quad (4.5'')$$

$$\dot{I}_B = \frac{\sum iL}{L_{AB}} \quad (4.4'')$$

$$\dot{S}_B = \frac{\sum JL}{L_{AB}} \quad (4.6'')$$

3-hol: Berk zanjirli kabel liniyasi tarmoqlari hisobida $X_0=0$ deb qabul qilish mumkin, bunda $Z=R$ va formulalar quyidagicha bo'ladi:

$$I_A = \frac{\sum iR'}{R_{AB}} \quad (4.3''')$$

$$S_A = \frac{\sum JR'}{R_{AB}} \quad (4.5''')$$

$$I_B = \frac{\sum iR}{R_{AB}} \quad (4.4''')$$


$$S_B = \frac{\sum JR}{R_{AB}} \quad (4.6''')$$

Masala: Berilgan sxemada 2 hol uchun tok taqsimlanishini topish:

a) $U_A - U_B = 220 \text{ B}$

$U_A = 222 \text{ B}; \quad U_B = 228 \text{ B};$

AB liniya mis temirli ko'ndalang kesim yuzasi 50 mm^2 kabeldan iborat. Sxemada uzunlik M da berilgan, toklar esa A da.



$$i_1 = 50 + j0$$

$$i_2 = 54 + j26,4$$

$$i_3 = 56 + j42$$

$$i_a = i \cdot \cos \varphi$$

$$i_p = i \cdot \sin \varphi$$

$$Z_{A-1} =$$

$$Z_{1-2} =$$

$$Z_{2-3} =$$

$$Z_{3-B} =$$

Uchastkalardagi qarshilikni aniqlash

$$r_0 = \frac{1}{\gamma F}$$

$$\gamma_{Al} = 53$$

$$R_{A-1} = \frac{L_{A1}}{\gamma F} = \frac{40}{53 \cdot 50} = 0,015(OM)$$

$$R_{2-3} = \frac{L_{2-3}}{\gamma F} = \frac{50}{53 \cdot 50} = 0,019(OM)$$

$$R_{3-B} = \frac{L_{3-B}}{\gamma F} = \frac{50}{53 \cdot 50} = 0,019(OM)$$

$$R_{1-2} = \frac{L_{1-2}}{\gamma F} = \frac{60}{53 \cdot 50} = 0,023(OM)$$

A) $U_A = U_B; X_0 = 0$

Uchinchchi xususiy holni ko'ramiz:

$$I_A = \frac{\sum i R'}{R_{AB}} = \frac{\sum (i_a + j i_p) R'}{R_{AB}} = \frac{\sum i_a R'}{R_{AB}} + j \frac{\sum i_p R'}{R_{AB}} = I_{Aa} + j I_{Ap}$$

$$I_{Ba} = \frac{\sum i_a R}{R_{AB}} = \frac{56(0,015+0,023+0,019)+54(0,015+0,023)+50 \cdot 0,015}{0,015+0,023+0,019+0,019} = 79,5$$

A

$$I_{Aa} = \frac{\sum i_a R'}{R_{AB}} = \frac{50(0,023+0,019+0,019)+54(0,019+0,019)+56 \cdot 0,019}{0,015+0,023+0,019+0,019} = 80,5 A$$

$$I_{Ap} = \frac{\sum i_p R'}{R_{AB}} = \frac{26,4(0,019+0,019) + 42 \cdot 0,019}{0,015+0,023+0,019+0,019} = 23,7 A$$

$$I_A = I_{Aa} + j I_{Ap} = (80,5 + j 23,7) A$$

Shunday ekan:

$$I_B = 79,5 + j 44,7$$

Demak hisob to'g'ri

Xulosasi: Kuchlanish manbai $U_A=U_{B2}$ teng bo'lganda tugunda 2 ta tok ajralishi bo'ladi.

$$I_w = \frac{\sum i R}{R_{AB}} = \frac{42(0,015+0,023+0,019)+26,4(0,023+0,015)}{0,015+0,023+0,019+0,019} = 44,7 \text{ A}$$


Bu holda muvozanatlangan skvaznoy tok paydo bo'ladi.

$$I_{AB} = \frac{U_A - U_B}{\sqrt{3} R_{AB}} = \frac{222 - 228}{\sqrt{3}(0,015+0,023+0,019+0,019)} = -45,5 A$$


$$I_A = I_{AB} + I'_A = -45,5 + (80,5 + j 23,7) = (35 + j 23,7) A$$

$$I_B = -I_{AB} + I'_B = +45,5 + (79,5 + j 44,7) = (125 + j 44,7) A$$


Aktiv va reaktiv quvvat taqsimlanishini alohida bajaramiz:



Natijada 1-nuqta aktiv quvvatning tok ajralishi nuqtasi.




2-nuqta reaktiv quvvatning tok ajralish nuqtasi.
Umumiy holda




2 tarafdan elektr bilan ta'minlangan liniya kuchlanish isrofini aniqlash.

Berilgan:

Yuklama toki, uchastka uzunligi va manba kuchlanishi U_A U_B
Kuchlanish isroflari quyidagi reja asosida aniqlanadi.



1. Avvalgi keltirilgan formulalarga asosan (3.4.5.6): I_A I_B toklar aniqlanadi (yoki quvvatlar: S_A S_B)
2. Tok taqsimlanish sxemasi Kirxgof I qonunini qo'llash yo'li bilan amalga oshiriladi va tok ajralish nuqtasi aniqlanadi.
3. Tok ajralish nuqtasida hayolan sxema ajratiladi va 2 ta mustaqil ajralgan tarmoq hosil bo'ladi.



4. Formula asosida har bir tarmoqda kuchlanish isrofini aniqlaymiz.

$$\Delta U = \sum \frac{PR + QX}{U} - \text{agar}$$


yuklama quvvat bilan berilgan bo'lsa;

$$\Delta U = \sqrt{3}(\sum I_a R + \sum I_p x) - \text{agar yuklama elektr toki bilan berilgan bo'lsa.}$$

Tok ajralish nuqtasida eng past kuchlanishli bo'ladi.

Faza qilamiz:

Natijada olamiz:



Agar iste'molchilar punkti kuchlanishi $U_A = U_B$ bo'lsa, bunda tok ajralish nuqtasigacha masofa «▼ U» ikki tomonda bir xil, chunki tok ajralish nuqtasida eng past kuchlanishli $U_A = U_B$ teng bo'ganda «▼ U» ni shiqat tok ajralish nuqtasigacha bo'lgan masofaning bir tomonidan aniqlash mumkin.

Agar $U_A \neq U_B$ bunda «▼ U» isrofining eng kattasi tarmoqning eng yuqori kuchlanishli iste'mol punktida bo'ladi.


5. Biri o'chganda kuchlanish isrofi avariya vaziyatida aniqlanadi ya'ni iste'mol punktining

Masalan: U_B o'chadi va barcha tarmoqlar U_A dan elektr ni oladi va kuchlanish isrofi bir tomonlama iste'mol tarmog'idan aniqlanadi va albatta normal rejimiga nisbatan ortiq bo'ladi.

Ruxsat etiladi $\nabla U_{rux} = 5\%$ - normal sharoitda

$\nabla U_{AB} = 8\% - 12\%$ avariya sharoitida

Namunalarini davom ettiramiz:
 Holat: a) $U_A = U_B = 220 \text{ V}$



$$\sum 54 + j26$$

Kabel liniya $X=0$ bo'lganligi sabab:

$$\sum J_r \cdot x = 0$$

$$\Delta U = \sqrt{3}(\sum I_a R + \sum I_p x) = \sqrt{3}[80,5 \cdot 0,015 + 30,5 \cdot 0,023] = 3,32B$$


Foizlarda tashkil etadi: -

$$\Delta U_A \% = \frac{3,32 \cdot 100}{220} = 1,5\%$$

Normal sharoitda «B» tomondagi kuchlanish istrofi quyidagicha:

$$\Delta U_{A-3} = \Delta U_{B-3}$$

Avariya sharoitida «B» punkti o'chishi natijasida



Foizlarda tashkil etadi:

$$\text{B hol: } U_A = 222 \text{ V}; U_B = 228 \text{ V}$$

$$\Delta U_{A-3} = \sqrt{3}(160 \cdot 0,015 + 110 \cdot 0,023 + 56 \cdot 0,019) = 10,4B$$

$$\Delta U_{A-3} \% = \frac{10,4 \cdot 100}{220} = 4,68\%$$

Tok ajralish nuqtasi bo'yicha bo'lamiz ▼

Aniqlaymiz:

$$\Delta U_{A-1} = \sqrt{3}(35 \cdot 0,015) = 0,91V \quad \Delta U_{A-1} \% = 0,41\%$$

$$\Delta U_{B-1} = \sqrt{3}(125 \cdot 0,019 + 69 \cdot 0,019 + 15 \cdot 0,023) = 6,91V$$

$$\Delta U_{B-1} \% = 3,14\%$$

Eng og'ir avoriya sharoitida «B» manbaining o'chishi. Tok ajralish nuqtasining kuchlanishi:

$$U_1 = U_A - \Delta U_{A-1} = 222 - 0,91 = 221V$$

$$U'_1 = U_B - \Delta U_{B-1} = 228 - 6,91 = 221V$$

Ruxsat etilgan kuchlanish isrofi bo'yicha 2 tomondan elektr bilan ta'minlangan liniyalarda sim va kabellarning ko'ndalang kesim yuzasini aniqlash

Oddiy berk zanjirli elektr tarmoq hisobi liniyaning 2 sharoitida tekshirish bilan amalga oshiriladi:

a) normal sharoitda iste'molchi elektr ni A va B manbadan bir vaqtning o'zida olgan paytda.

b) avariya sharoitida, iste'molchining ulangan liniyalarining biri ishdan chiqgan paytda.

«a» holatda-tanlangan ko'ndalang kesim yuza yuk taqsimlanishi **vN ruxsat etilgan kuchlanish isrofi** tejalgan tok zichligini tok ajralish nuqtasigacha qanoatlantirish zarur.

«b» holatda-avariya sharoitidagi ruxsat etilgan kuchlanish isrofi chunki avariya sharoiti uzoq bo'lmaydi, bunday holatlarda simlarning ko'ndalang kesim yuzasini J_e ni qoniqtirmasligi mumkin, ammo J_e $I_{d,d}$ dagi qizishiga tekshirilgan bo'lishi kerak.

2 tomonidan elektr bilan ta'minlangan liniyalar hisobida 2 xususiy hol kuzatilishi mumkin.

A) Liniya AB butun uzunlik bo'ylab 1 ta ko'ndalang kesim yuzali simdan tayyorlangan bu liniyani montaj va ekspluatatsiya qilishda o'ziga xos qulaylik yaratadi. Bu liniyalarni shoxobchalash nisbatan kichik ko'ndalang kesim yuzali sim orqali amalga oshadi.




Quyidagi shart uchun 2 tomonlama elektr bilan ta'minlangan liniyaning ko'ndalang kesim yuzasini aniqlash uchun formulani ishlab chiqaramiz:

$$F = \text{const hamma liniyalar uchun bir xil.}$$

Butun liniya uzunligi bo'yicha $F=\text{const}$

Hisob ruxsat etilgan kuchlanish isrofigacha amalga oshadi va rejaga asosan hisoblanadi.

Berilgan: $\blacktriangledown U_{\text{rux}}$ va liniya parametrlarini topish kerak F -?




1) Beramiz: $U_A = U_B$

2) 3, 4, 5, 6 formula bo'yicha quvvat oqimini yoki AB tomondagи toklarni aniqlaymiz.

3) Uchastkalarda tok (yoki quvvat) taqsimlanishini belgilaymiz va tok ajralish nuqtasini topamiz. Uni 2 – nuqtada deb faraz qilamiz.

4) Tok ajralish nuqtasida sxema hayolan 2 ta mustaqil radial liniyalarga ajratiladi.



5) So'ng har bir alohida liniyaning ko'ndalang kesim yuzasi alohida quyidagi tartibda aniqlanadi:

(mahalliy tarmoqlarda ruxsat etilgan kuchlanish isrofi ΔU_{rux} bo'yicha ko'ndalang kesim yuzani aniqlash).

A) Havo liniyalar uchun

$$X_0 = 0,35 - 0,4 \text{ om/km} \text{ deb qabul qilamiz.}$$

$$\text{B) aniqlaymiz: } \Delta U_p = \sqrt{3} \sum I_p X_0 l$$

V) $\Delta U_{rux} = \Delta U_a + \Delta U_r$ ifodadan $\Delta U_a = \Delta U_{rux} - \Delta U_p$ - ifodani chiqaramiz

$$\text{G) ifodaga } \Delta U_{a,rux} = \sqrt{3} I_a r_0 l \text{ ifodani beramiz:}$$

$$r_0 = \frac{1000}{\gamma F}$$

km yoki m da berilgan.

Ruxsat etilgan kuchlanish isrofidan simning ko'ndalang kesim yuzasini aniqlaymiz. $\Delta U_a = \sqrt{3} \sum I_a \frac{1}{\gamma F} l$

Agar yuklama quvvatlar bilan berilgan bo'lsa, unda:

$$F = \frac{\sqrt{3} \sum I_a l}{\gamma \Delta U_{a,rux}}$$

D) topilgan ko'ndalang kesim yuzani standartgacha yaxlitlaymiz, x_0 r_0 larni to'liq haqiqiy kuchlanish isrofini quyidagi ifodadan aniqlaymiz:


$\Delta U_{thaq} = \sqrt{3} (\sum I_d r_0 l + \sum I_p X_0 l)$ - agar yuklama toklar bilan berilgan bo'lsa.

$$\Delta U_{thaq} = \sum \frac{PR + QX}{U} - \text{agar yuklama quvvat bilan berilgan bo'lsa.}$$

E) taqqoslaymiz agar $\Delta U_{\text{haq}} < \Delta U_{\text{ruxs.e}}$ bo'lsa, unda ko'ndalang kesim yuza tanlash shart va yana ΔU_{haq} ga tekshiramiz.

Agar 2 tomonlama elektr bilan ta'minlangan liniya shoxobchaga ega bo'lsa, unda shohobcha ko'ndalang kesim yuzasi qoldiq kuchlanish isrofiga tekshiriladi. Masalan, AB magistral ko'ndalang kesim yuzasi va barcha uchastkalar uzunligini bilgan holda A₁ uchastkadagi haqiqiy kuchlanish isrofini aniqlashimiz mumkin. So'ng qoldiq kuchlanish isrofini aniqlaymiz.

$$\Delta U_{\text{qol}} = \Delta U_{\text{r.e.}} - \Delta U_{A1}$$



So'ng 1-4 shoxobchalangan ko'ndalang kesim yuzani qoldiq kuchlanish isrofi orqali aniqlaymiz.

$$F = \frac{\sum P_l}{\gamma \Delta U_{\text{qol}} U_{\text{u}}^2}$$

Murakkab berk zanjirli elektr tarmoqlari hisobi


Murakkab berk zanjirli elektr tarmoqlari ENA kursida ko'rib chiqilgan usullar orqali hisoblanadi, bu:

1. Keltirish usuli
2. Kontur tenglamalar usuli
3. Yetqizish usuli
4. Sxemani bo'lish usuli - bunda tarmoq 2 mustaqil sxemaga bo'linadi. Biri faqat aktiv yuklama bilan yuklangan (tarmoq uchastkalari reaktiv qarshilik bilan ifodalangan), boshqasi faqat reaktiv yuklamalar bilan (tarmoq uchastkalari R-aktiv qarshilik bilan ifodalangan), so'ng bitta sxema olinadi va haqiqiy quvvat taqsimlanishi aniqlanadi.


5. Iugun kuchlanishlari usuli va iteratsiya usuli.
6. Kirxgof qonunlariga asoslangan α va β usullari teng taqsimlash.
7. Quvvat usuli.

Quvvat teng taqsimlash usuli bo'yicha murakkab berk zanjirli elektr tarmoqlarni hisoblash

Bu usul yetqizish usuliga asoslangan bo'lib murakkab berk zanjirli elektr tarmoqlari tizimida tok va quvvat taqsimlanishini aniqlashda qo'llaniladi.



Agar berk kontur berilgan bo'lsa, uchastkalar bo'yicha quvvat oqimini aniqlash tok taqsimlanish nuqtasi bilan beriladi («S» nuqta) **va shartli ravishda** kontur shu nuqtadan qirqiladi. Bu kesish berk konturni foydali bir tomonidan ta'minlanuvchi 2 berk bo'limgan radial liniyoga aylantiradi.



Chapdan o'ngga

Berk konturda $\Delta U_{Aabc} = \Delta U_{Adc}$ agar «S» nuqta tok taqsimlanish nuqtasi bo'lsa, sxemani ixtiyoriy kesishda $\Delta U_{Aabc} \neq \Delta U_{Adc}$, chap va o'ng teng emas.

Agar ularni aniqlasak, unda chap bo'ylama tashkil etuvchisi;

$$\Delta U'_1 = \frac{\sum PR + \sum Qx}{U_n} \quad j\Delta U'' = j\delta U$$

Ko'ndalang tashkil etuvchisi:

$$\Delta U''_1 = \frac{\sum Px - \sum QR}{U_n}$$

Demak, $\Delta U_1 = \Delta U'_1 + j\Delta U''_1$ bu chapga

O'ngda: $\Delta U'_2 = \frac{\sum PR + \sum Qx}{U_n}$ - bo'ylama tashkil etuvchisi

$\Delta U''_2 = \frac{\sum Px - \sum QR}{U_n}$ - ko'ndalang tashkil etuvchisi

Demak,

$$\Delta U_2 = \Delta U'_2 + j\Delta U''_2$$

Kuchlanish U_{nom} yoki $U_{o'rt}$ bo'lishi mumkin.

Chunki o'ng va chap tomon kuchlanish isrofi o'zaro teng bo'imasligi mumkin, bunda $\Delta U_1 = \Delta U_2$ bo'lishi mumkin.

O'zaro chap va o'ngda kuchlanish tushishi farqini aniqlaymiz:

$$\Delta U'_{rez.} = \Delta U'_1 - \Delta U'_2 \quad \Delta U''_{rez.} = \Delta U''_1 - \Delta U''_2$$

Bundan «bc» uchastkada kuchlanish isrofi kuzatilmoqda:

$$\Delta U_{rez.} = \Delta U'_{rez.} + j\Delta U''_{rez.}$$

Agar C nuqtadan zanjirni berkitsak, bunda shartli qabul qilingan quvvat taqsimlanishiga yangi tenglashtiruvchi quvvat qo'yamiz.

$$S_{teng} = P_{teng} + jQ_{teng}$$

Bu quvvat quyidagi tenglamalar tizimidan aniqlanadi:

$$\left. \begin{aligned} \Delta U'_{\text{rez}} &= \frac{P_{\text{teng}} \sum R + Q_{\text{teng}} \sum X}{U_n} \\ \Delta U''_{\text{rez}} &= \frac{P_{\text{teng}} \sum X - Q_{\text{teng}} \sum R}{U_n} \end{aligned} \right\}$$

S_{teng} ni sartli qabul qilingan taqsimlash quvvatiga qo'yib, berilgan konturda haqiqiy quvvat taqsimlanishini aniqlaymiz.

P_{teng} va Q_{teng} dan olingan qiymatlar «bs» uchastkadagi tenglashtiruvchi quvvat yo'nalishini ko'rsatadi.

Nazorat savollari

1. Shahar tarmog'ining strukturasi hamda elektr tarmog'i sxemasi nimalardan iborat?
2. Qaysi kichik shaharlarning elektr ta'minoti tizimlarini bilasiz?
3. Qaysi yirik shaharlarning elektr ta'minoti tizimlarini bilasiz?
4. Shaharlar elektr ta'minoti tizimi haqida umumiy tushunchalarini keltirib bering.
5. 6-10 kV li ta'minlovchi tarmoqlar va 6-10 / 0,38 kV li transformator nimstansiyalari sxemalarini chizib ko'rsating.
6. Taqsimlovchi tarmoqlar sxemalari asosiy qurilma tamoyillarini keltiring.
7. Qanday chuqur kirib borgan 110-220 kV li tarmoqlar sxemalari mavjud?

5. SHAHAR ELEKTR TA'MINOTI TIZIMLARIDA ELEKTR ISTE'MOLINING BASHORAT USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

5.1. Elektr iste'moliga ta'sir qiluvchi omillar

Jamoat va turarjoy binolarining elektr iste'moliga ta'sir qiluvchi ko'plab omillar mavjud. Ulardan eng jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga quyidagilar kiradi:

1. Ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarishning rivojlanishi.
2. Aholining umumiyligi soni va xonodon yashovchilarining o'rtacha soni.
3. Qulay sharoitlarni yaratish uchun havoni mo'tadillashtiruv qurilmalari va turli xil yangi maishiy elektr qurilmalardan foydalanish.
4. Iqlim sharoitlari.
5. Vaqt omilini va elektr iste'moli darajasini hisobga olish.
6. Yangi texnik va texnologik jihozlarni qo'llash.
7. Qurilish sektorini rivojlanishi.
8. Shahar ko'chalarining me'yoriy yoritilishini ta'minlash.
9. Yangi namunaviy asboblarni qo'llab, nazorat va qayd qilishni tashkil qilish.
10. Gaz va elektr ning o'zaro nisbatini ta'siri.
11. Shahar maishiy-xo'jaligidagi elektr qabul qilgichlar strukturasining o'zgarishi.
12. Zarur materiallar, jihozlar va asboblarning mavjudligi, umuman texnikanining rivoji.

5.2. Elektr iste'moli bashoratining mavjud usullarini tahlil qilish va ratsional uslubini ishlab chiqish

Energetika sohasida zamonaviy bashoratlash juda zarur. Barcha bog'liqliklarni hisobga olgan holda, masalaga kibernetik yondashib, nafaqat energetikaning miqdoriy rivojini bashoratlash, balki bir vaqtning o'zida yangi texnik yechimlarni izlash kerak. Bashoratlashsiz, reja tuzib bo'lmaydi. Ba'zan reja tuzishdan oldin u

yeterlicha tekshirilmaydi. Bu esa natijalarga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Hozirda bashoratlashning 100 dan ortiq usullari mavjud, ularni shartli ravishda quyidagi sinflarga bo'lish mumkin:

1. Matematik statistikaning ekstrapolyatsiya va interpolyatsiya turlariga asoslangan usullar.

2. Ekspertiza usullari.

3. Modellashtirish usullari.

4. Taqqoslovchi usullar.

Ekstrapolyatsiya usuli o'z ichiga uch bosqichni oladi:

1) parametrlar bo'yicha ma'lumotlarni bashoratlash;

2) funksional xarakteristikalarini baholash;

3) tizimiylar va tuzilmaviy xarakteristikalarini baholash.

Ekspertiza usullari quyidagi ikki guruhga bo'linadi:

1) individual;

2) delfi usullari guruhini o'z ichiga oluvchi kollektiv.

Modellashtirish usullari quyidagilarga bo'linadi:

1) mantiqiy;

2) matematik;

3) informatsion.

Argument sifatida vaqt ishtirokidagi eng oddiy korrelyatsion usul

- bu vaqt qatorlarining ekstrapolyatsiyasidir. Bu usulning vazifikasi $W=f(t)$ nazariy egri chiziqning tenglamasini aniqlashdan iborat. Bu yerda $W - t_n$ vaqt davrida elektr iste'moli va uni bashoratlovchi davr t_{pr} ga ekstrapolyatsiyasi. Usulning afzalligi uning soddaligi va ma'lumotlarga kam talabgorligida: bir ko'rsatkich va yil bashorati uchun ma'lumotlar soni o'rtacha 2-4 dan oshmasligi mumkin. Biroq bazis (boshlang'ich) davr va, asosiyasi, aloqa formasini to'g'ri tanlash uchun o'tgan davr va keyingi rivojlanish to'g'risida maxsus ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumot talab qilinadi.

Tadqiqotning bazasi sifatida t_n davomiy muddat mobaynidagi elektr iste'molining statistik kuzatishlari olinadi. Bunda t_n va t_{pr} orasidagi bog'lilik quyidagi tengsizlikni qoniqtirishi kerak:

$$t_{pr} \leq (0,3 \div 0,4) \cdot t_n$$

Vaqt qatorlarining ekstrapolyatsiyasi birinchi navbatda mamlakat, shahar yoki tuman xalq xo'jaligining iste'molini qisqa va o'rta muddatli bashoratlash uchun qo'llanishi mumkin. Vaqt

ekstrapolyatsiyasi yordamida uzoq muddatli bashoratlash xatoliklarga olib kelishi mumkin. Vaqt qatorlarining ekstrapolyatsiyasi usuli boshqa jiddiy kamchiliklarga ham ega. Bunda elektr iste'moli faqatgina vaqt funksiyasi sifatida aniqlanadi va xalq xo'jaligi, uning texnologik strukturasi rivojlanish ko'rsatkichlari bilan bog'liq emas. Bundan tashqari, elektr iste'moli sharoitlarini va struktura (tuzilma) xarakteristikalarini tahlil qilish imkoniyati yo'q. Va, niyoyat vaqt ekstrapolyatsiyasi texnik-iqtisodiy baholash va elektrlashtirish darajasi variantlarini tanlash hamda elektr iste'molining tuzilma xarakteristikalarini uchun asos bo'lmaydi.

Yuqorida keltirilganlarga bog'liq ravishda vaqt qatorlarini ekstrapolyatsiyalash usullarini uzoq muddatli bashoratlashda faqatgina yordamchi usullar sifatida yoki boshqa ishonchliroq usullar uchun ma'lumotlar kamligida tavsya qilish mumkin. Bir va ko'p omilli Korrelyatsiyaya usullarini qo'llash uchun asos – elektr iste'moli bilan korrelyatsion bog'liqlikda turuvchi, elektrlashtirish darajasiga ta'sir qiluvchi ko'plab omillar ichidan ajratib olish imkonidir. Ular uchun $w = f(p)$ yoki $w = f(p, q, u \dots m)$ ko'rinishdagi tenglamalar tuziladi, bu yerda $p, q, u \dots m$ xalq xo'jaligi ko'rsatkichlari.

Korrelyatsion usullarni qo'llash uchun quyidagi shartlarni bajarish kerak:

a) hisobiy davr mobaynida asosiy ko'rsatkichlar bilan elektr iste'moli o'rtasida doimiy va mantiqiy asoslangan korrelyatsion bog'liqlik ochilgan bo'lishi;

b) xalq xo'jaligi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasining ishonchli bashorati ishlab chiqilgan bo'lishi kerak.

Korrelyatsion usullarni vaqt qatorlarining ekstrapolyatsiyasi usullariga nisbatan afzalligi shundaki, ular o'rganilayotgan kattalikkarning rivojlanishini ma'lum darajada tushuntirib berish imkonini beradi. Ammo bu yerda elektr iste'molining tuzilmaviy tahlili imkoniyatlari chegaralangan. Xalq xo'jaligining istiqboldagi texnik, ijtimoiy-iqtisodiy siljishlarini to'g'ridan-to'g'ri hisobga olib, bashoratlanayotgan kattalikka iqtisodiy baho berib bo'lmaydi. Shu bilan birga, taxminiy bashoratlar uchun qo'llaniladigan korrelyatsion usullar ma'lumotlarga nisbatan sodda talablar qo'yish imkonini beradi: bir omilli Korrelyatsiyaya uchun bitta bashoratlanuvchi ko'rsatkichga 8–10 ma'lumot talab qilinadi; ko'p omilli uchun

bashoratda qo'llanuvchi ma'lumotlar soni omillar sonining oshishiga muvofiq ravishda oshadi.

Korrelyatsion usullarni keng qo'llash uchun Energotarmoqloyiha institutida dasturlar kompleksi ishlab chiqilgan. Ular elektr iste'molini quyidagi modellar orqali hisoblash imkonini beradi: vaqt qatorlarining bevosita ekstrapolyatsiyasi, bir omilli model, ko'p omilli model va nochiziqli. So'nggisi quyidagi ko'rinishga ega:

$$Wh_i = 10^{-4} \cdot 0,407 \cdot H_s^{2,5552} \cdot D_{md}^{0,4374} \cdot K_m^{0,3841},$$

bu yerda: W_t – t yildagi umumiyligi elektr iste'moli;

H_s – aholi soni;

D_{md} – milliy daromad;

K_m – xalq xo'jaligi kapital mablag'lari.

Elektr talabini korrelyastion usul bilan bashoratlashda elektr iste'molining dinamikasi va bog'liqlik formasining tahlili juda katta ahumiyyatga ega. Uning murakkab tomoni shundaki, ular keyinchalik tashqi omillar ta'sirida transformatsiyalanishi mumkin. Shunday qilib, doimiy hosilani taxmin etuvchi, elektr iste'molining chiziqli o'sish formasi xalq xo'jaligi rivojlanishining evolyutsion davri uchun xarakterlidir. Bunda elektr dan foydalanish miqyosi kengaymaydi, elektr iste'moli dinamikasi esa texnika rivojining ekstensiv yo'liga mos keladi. Elektr iste'molining mantiqiy egri chiziq bo'yicha o'sishi juda xarakterlidir. U mamlakatning texnik rivojlanish davri uchun xalq xo'jaligini elektrlashtirish darajasi avval o'sishini, keyin esa stabillashishini o'zida aks ettiradi. Bizningcha, hozirgi davr va istiqbol uchun elektr iste'moli o'sishini umumlashtiruvchi egri chiziq Gomperst logistik funksiyasi va boshqa turdag'i murakkab funksiya ko'rinishida ifodalash mumkin. Bunda u butunlay vaqtidan o'ziga xos funksiya tomon yaqinlashib boradi.







Elektr iste'molining vaqt bo'yicha ekstrapolyatsiyasi uchun quyidagilar eng xarakterli funksiya hisoblanadi:

a) chiziqli; b) kvadratik; v) darajaviy;

g) eksponensial; d) mantiqiy; e) torkvistning ikkinchi funksiyasi.

O'zining soddaligi bilan keng tarqalgan usul – kichik kvadratlar usulidir. Eng kichik kvadratlar usuli bilan olinayotgan hisoblar, yuqorida keltirilgan taxminlarning haqqoniyligi modelini

bashoratlashda (keyinchalik regressiyani qo'llash uchun) bir qator qimmatli xususiyatlarga ega. Masalan:



- 1) parametrlarning siljimaydi, ya'ni parametrning matematik kutilishida juftlik regressiya $E(a) = \alpha$ va $E(b) = \beta$ Keltirilgan xususiyat toyilish xarakteri – ε haqidagi ikkinchi taxminning mantiqiy oqibatidir. Siljimaslik, parametrlarning tanlanma baholari noma'lum haqiqiy parametrlar atrofida konstentratsiyalanishini ko'rsatadi;
- 2) baholar asoslangan, boshqacha qilib aytganda,

n ning ortishi bilan parametr bahosi dispersiyasi nolga intiladi. Juftlik regressiya uchun bu xususiyatni quyidagicha yozish mumkin:
 $\lim_{n \rightarrow \infty} \sigma_a^2 = 0$ va $\lim_{n \rightarrow \infty} \sigma_b^2 = 0$.

3) baholar shu ma'noda samaraliki, ular shu parametrning boshqa ixtiyoriy baholari bilan solishtirganda minimal dispersiyaga ega.

Agar 3 va 4-taxminlar bajarilmasa, unda baholashning siljimasligi va mustaqillik xususiyatlari saqlanib qoladi, ammo baholar samaraliliği, bu taxminlar bajarilganligi holatiga nisbatan pasayib ketadi.

Bashoratlash uchun baholarning qanday xususiyatga ega ekanligi ahamiyastiz emas. Siljimaslik hususiyatiga kelsak, u juda zarur. Asoslanganlik xususiyati kuzatishlar hajmining ortishi bilan parametrlar bahosi, ehtimollik ma'nosida, yanada ishonchli bo'ladi. Umuman olganda, samaralilik xususiyati nihoyatda zarur, chunki u bashoratda vujudga kelishi mumkin bo'lgan xatolik darajasini aniqlaydi.

Hodisalarni vaqt bo'yicha rivojlanish qonuniyatlarini tasvirlovchi o'sish egri chiziqlari dinamik qatorlarni analitik tekislash yo'li bilan amalga oshiriladi. Qatorlarni u yoki bu funksiyalar yordamida tekislash (ya'ni ularni ma'lumotlarga keltirish) aksariyat holatlarda o'rganilayotgan hodisaning vaqt bo'yicha rivojini xarakterlovchi empirik ma'lumotlarni tasvirlash uchun qulay vosita bo'ladi. Bu positani bir qator talablarga rioya qilinganda bashoratlash uchun ham qo'llash mumkin (bularga keyinroq to'xtalib o'tiladi).

Tekislash jarayoni ikki asosiy etapdan tashkil topadi:

– dinamik qatorning o'zgarish xarakteriga mos keluvchi egri chiziq turini tanlash;

– egri chiziq parametrlarining sonli qiymatlarini aniqlash.

Topilgan funksiya tekislangan yoki, boshqacha qilib aytganda, dinamik qator darajasining nazariy qiymatlarini olish imkonini beradi. Xuddi shu funksiya ekstrapolyatsiya uchun ham qo'llaniladi.

Elektr taqchilligi sharoitida shaharlarda elektr dan foydalanish masalasiga katta e'tibor qaratiladi. Elektr ga bo'lgan talabni hisoblovchi ixtiyoriy usul qandaydir xatolikka ega. O'zbekiston shaharlarida istiqboldagi elektr iste'molini to'g'ri aniqlash juda muhim. Chunki, u ortiqcha kapital mablag'larni tejash va shaharlarda elektr sidan ratsional foydalanish imkonini yaratadi. Haqiqiy elektr sarfi bir qator omillarga bog'liq, shuning uchun ularni tasodifiy

kattalik deb hisoblash mumkin. Bu sarflarning qiymatlari normal qonun bo'yicha taqsimlanadi. Murakkab bog'lanishlarni o'rganish uchun korrelyatsiya va regressiyani tadqiq qiluvchi statistik usullardan foydalilanadi. Ular yordamida nafaqat har bir asosiy omillarning ta'sirini hisobga olish, balki bir guruh o'rganilayotgan omillarning natijasini ham aniqlash mumkin. Korrelyatsiya va regressiya usullari qayta hisoblashni taqozo etmaydi va shu bilan soxta bog'lanishlarni haqiqiyidan ajratish imkonini beradi.

Korrelyatsion tahlil o'rganilayotgan kattaliklar orasida bog'liqlik bor yoki yo'qligini aniqlash imkonini beradi. U asosida berilgan omil ta'sirida iqtisodiy ko'rsatkich qay darajada o'zgarganligini aniqlash mumkin. Regressiv tahlil konkret turdag'i bog'lanishni qurish masalasini matematik funksiya yordamida echadi va uning aniqligiga turlicha baho beradi. Regression tahlil omillarning qiymatlariga qarab funksiyaning o'rtacha qiymatini o'zgarish qonuniyatini o'rnatish imkonini beradi. Regressiyaning tenglamasi bu bog'lanishni matematik regressiya chizig'i esa grafik tarzda ifodalaydi. Regression tahlilda asosiy bosqich – bu elektr iste'moli bilan sababiy omillar orasidagi matematik bog'lanish formasini tanlashdir. Eng umumiy ko'rinishda ular orasidagi bog'lanish quyidagicha bo'lishi mumkin:

$$Wh_i = f(x_1; x_2; \dots; x_n)$$

bu erda: Wi – elektr sarfi, kVt.s;

$x_1; x_2; \dots; x_n$ – sababiy omillar.

Elektr sarfining o'zgarish qonuniyatlarini sababiy omillar bilan bog'lanishini eng yaxshi ifodalovchi regressiya tenglamasi formasini to'g'ri tanlash juda muhim. Bashoratlashning aniqlik darajasi regressiya tenglamasi formasining qanchalik to'g'ri tanlanganligiga bog'liq. Qurilish formasiga qarab barcha ko'p miqdorli regressiya tenglamalarini chiziqli, egri chiziqli va kombinatsiyalangan tenglamalarga bo'lish mumkin. Ko'p miqdorli regressiyaning chiziqli tenglamalarini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$Wh = a_0 + a_1 \cdot x_1 + a_2 \cdot x_2 + \dots + a_n \cdot x_n$$

Egri chiziqli tenglama misoli sifatida quyidagi darajaviy tenglamani ko'rsatish mumkin:

$$Wh = e^{a_0} \cdot x_1^{a_1} \cdot x_2^{a_2} \cdot \dots \cdot x_n^{a_n}$$

yoki II tarkibli parabola tenlamasi:

$$Wh = a_0 + a_1 \cdot x + a_2 \cdot x^2 + \dots + a_n \cdot x^n$$

Omillar ajratilib va ko‘p miqdorli regressiya tenglamasi tanlab olingandan keyin, bu tenglamaning parametrlarini aniqlash zarur. Tanlangan regressiya tenglamasining parametrlarini hisoblashni eng kichik kvadratlar usuli bilan amalga oshirish mumkin. Bu usulning tekshirish printsipi regressiya tenglamasini shunday parametrlarini izlashga keltiriladi, bunda funksiyalarning nazariy qiymatlari og‘ishi kvadratining summasi uning empirik qiymatlaridan eng kichigi bo‘lsin. Oddiy regressiya bog‘lanishini quyidagi tenglama ko‘rinishida yozish mumkin:

$$Wh = a + b \cdot x$$

bu erda, a – elektr iste’moliga bog‘liq bo‘limgan ozod had;

b – elektr iste’molining o‘zgarish darajasini xarakterlovchi regressiya koeffitsiyenti.

Bunda shu darajadagi « a » va « b » parametrlarning konkret qiymatlarini aniqlash asosiy muammo bo‘lib qoladi.

Eng kichik kvadratlar usuli yordamida normal tenglamalar sistemasini echamiz:

$$\begin{cases} \sum Wh = n \cdot a + b \cdot \sum x \\ \sum xWh = a \cdot \sum x + b \cdot \sum x^2 \end{cases}$$

buning uchun determinantlar usulidan foydalanish mumkin. « a » va « b » parametrlari quyidagi formulalardan aniqlanadi:

$$a = \frac{\begin{vmatrix} \sum W & \sum x \\ \sum Wx & \sum x^2 \end{vmatrix}}{\begin{vmatrix} n & \sum x \\ \sum x & \sum x^2 \end{vmatrix}} = \frac{\sum W \cdot \sum x^2 - \sum Wx \cdot \sum x}{n \cdot \sum x^2 - \sum x \cdot \sum x}$$

$$b = \frac{\begin{vmatrix} n & \sum W \\ \sum x & \sum Wx \end{vmatrix}}{\begin{vmatrix} n & \sum x \\ \sum x & \sum x^2 \end{vmatrix}} = \frac{n \cdot \sum Wx - \sum x \cdot \sum W}{n \cdot \sum x^2 - \sum x \cdot \sum x}$$

Parametrlarning qiymatlarini topish natijasida, ularni $y = b \cdot x + a$ tenglamaga qo'yib, omilga bog'liq holda elektr sarfini topish mumkin. Lekin bunday bir omilli model etarlicha aniq natija bermaydi. Yanada aniq natijani ko'p omilli tahlil beradi. U elektr iste'moli bog'lanishini va unga ta'sir qiluvchi omillarni to'laroq ochib beradi.

Elektr dan foydalanish, me'yorlashtirish aniqligi va elektr iste'moli dinamikasi natijalariga quyidagi omillar sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi:

- a) o'rnatilgan quvvat;
- b) aholi soni;
- v) shahar elektr tarmoqlarining shartli xizmat ko'rsatiluvchi birliklari soni;
- g) yillar bo'yicha elektr iste'moli darajasi.

Bu ishlov berish EHM yordamida ko'p miqdorli korrelyatsiya dasturi bo'yicha amalga oshiriladi. Natijada elektr iste'moli qiymatini aniqlovchi quyidagi tenglama olinadi:

$$Wh = a_0 + a_1 \cdot x_1 + a_2 \cdot x_2 + a_3 \cdot x_3 + a_4 \cdot x_4$$

bunda, \bar{Wh} – yillik elektr iste'moli, kVt. s;

x_1, x_2, x_3, x_4 – elektr iste'moliga ta'sir qiluvchi omillar.

Ma'lumotlarga ishlov berish algoritmi elektr iste'molini aniqlashning statistik usuli asosida qurilgan. Tenglama parametrlari Gauss usuli yordamida topiladi. Algoritmni tuzishda quyidagi omillar (argumentlar)dan foydalanildi:

$x_1 = P_{yp}$ – o'rnatilgan quvvat;

$x_2 = N_{ax}$ – aholi soni;

$x_3 = B$ – shahar elektr tarmoqlarining shartli xizmat ko‘rsatiluvchi birliklari soni;

$x_4 = Wh$ – daraja bo‘yicha va yillar bo‘yicha elektr iste’moli.

Korrelyatsiya koeffitsiyentlarini, ya’ni alohida omillarni va omillarning o‘zaro bog‘liqlik darajasini funksiya yordamida aniqlaymiz. Shuningdek, bir kattalikning qiymatini boshqasining qiymatlari orqali hisoblanuvchi ko‘p miqdorli regressiya tenglamasini topamiz. Boshlang‘ich ma’lumotlar asosida quyidagilar topiladi:

1. Argumentlarning o‘rtacha qiymatlari:

$$\bar{x}_i = \frac{\sum_{i=1}^n x_i}{n}$$

bu erda: i – ishlab chiqarish hajmi; n – omil raqami.

2. Funksiyaning o‘rtacha qiymati:

$$\bar{W}_i = \frac{\sum_{i=1}^n W_i}{n}$$

3. Argument va funksiyalarning o‘rtacha qiymatlarining kvadrati:

$$[x_i]^2 \text{ va } [\bar{W}_i]^2$$

4. Argument va funksiyalar qiymatlarining kvadrati va shu kvadratlarning o‘rtacha qiymatlari:

$$x_i^2; W_i^2$$

$$\bar{x}_i^2; \bar{W}_i^2$$

5. Argument va funksiyalarning o‘rta-kvadratik og‘ishlari:

$$\sigma = \sqrt{D}$$

$$D_w = \overline{W_i}^2 - [\overline{W_i}]^2 \quad D_x = \overline{x_i}^2 - [\overline{x_i}]^2$$

$$\sigma_{x_i} = \sqrt{\overline{x_i}^2 - [\overline{x_i}]^2} \quad \sigma_{w_i} = \sqrt{\overline{W_i}^2 - [\overline{W_i}]^2}$$

bunda, σ – o'rta-kvadratik og'ish; D – dispersiya

6. Quyidagi ko'paytmalar topiladi:

$$x_i \cdot W_i ; \bar{x}_i \cdot \bar{W}_i$$

7. Ko'rilayotgan taqsimotning momentlari:

$$\mu_{x,w} = \frac{1}{n} \cdot \sum x_i \cdot W_i - \bar{x}_i \cdot \bar{W}_i$$

alohida holatlari:

$$\mu_{x,o} = \frac{1}{n} \cdot \sum x_i^2 - \bar{x}_i^2$$

$$\mu_{w,o} = \frac{1}{n} \cdot \sum W_i^2 - \bar{W}_i^2$$

8. Korrelyatsiya koeffitsiyentlari:

$$r = \frac{\mu}{\sigma_{x_i} \cdot \sigma_{W_i}}$$

alohida holat uchun:

$$r_{x,o} = \frac{\mu_{x,o}}{\sigma_{x_i}^2} = 1 \quad r_{w,o} = \frac{\mu_{w,o}}{\sigma_{W_i}^2} = 1$$

9. Olingan korrelyatsiya koeffitsiyentlaridan matritsa quriladi.
Juftlik korrelyatsiya koeffitsiyentlari matristasi:

1	r_{x_1, x_2}	r_{x_1, x_3}	r_{x_1, x_4}	$r_{x_1, w}$	1
r_{x_2, x_1}	1	r_{x_2, x_3}	r_{x_2, x_4}	$r_{x_2, w}$	2
r_{x_3, x_1}	r_{x_3, x_2}	1	r_{x_3, x_4}	$r_{x_3, w}$	3
r_{x_4, x_1}	r_{x_4, x_2}	r_{x_4, x_3}	1	$r_{x_4, w}$	4

10. Quyidagi tenglamalar sistemasini olamiz:

$$r_{x_1, W} = \beta_1 + \beta_2 \cdot r_{x_1 x_2} + \beta_3 \cdot r_{x_1 x_3} + \beta_4 \cdot r_{x_1 x_4}$$

$$r_{x_2, W} = \beta_1 \cdot r_{x_2 x_1} + \beta_2 + \beta_3 \cdot r_{x_2 x_3} + \beta_4 \cdot r_{x_2 x_4}$$

$$r_{x_3, W} = \beta_1 \cdot r_{x_3 x_1} + \beta_2 \cdot r_{x_3 x_2} + \beta_3 + \beta_4 \cdot r_{x_3 x_4}$$

$$r_{x_4, W} = \beta_1 \cdot r_{x_4 x_1} + \beta_2 \cdot r_{x_4 x_2} + \beta_3 \cdot r_{x_4 x_3} + \beta_4$$

Ushbu tenglamalar sistemasini Gauss usuli bilan echib, ya'ni noma'lumlarni ketma-ket chiqarib, $\beta_1, \beta_2, \beta_3, \beta_4$ larni topamiz:

$$\beta_i = a_i \cdot \frac{\sigma_{x_i}}{\sigma_W}$$

bu yerda, $i = 1, \dots, 4$; β_i – natural masshtabdagi regressiya koeffitsiyenti.

U holda haqiqiy masshtabdagi regressiya koeffitsiyenti:

$$a_i = \beta_i \cdot \frac{\sigma_W}{\sigma_{x_i}}$$

bu yerda, a_i – haqiqiy masshtabdagi regressiya koeffitsiyenti.

11. Regressiya tenglamasidagi ozod had:

$$a_0 = -a_1 \cdot \bar{x}_1 + a_2 \cdot \bar{x}_2 - a_3 \cdot \bar{x}_3 - a_4 \cdot \bar{x}_4$$

12. Haqiqiy masshtabdagi ko'p miqdorli regressiya tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$\bar{W} = a_0 + a_1 \cdot \bar{x}_1 + a_2 \cdot \bar{x}_2 + a_3 \cdot \bar{x}_3 + a_4 \cdot \bar{x}_4$$

Shu algoritm asosida EHM uchun dastur ishlab chiqish mumkin. Tenglamalar sistemasini echish standart programmalar yordamida amalga oshiriladi.

Elektr ta'minoti ratsional sxemasini tanlashning zarur asoslaridanı biri – bu elektr iste'moli va hisobiy yuklamalarnı bashoratlashdir. Yuklamalarning vaqt bo'yicha o'zgarishi umumiyl holda tasodifiy tarkiblardan determinantlangandan yig'iladi. Shuning uchun yuqlama ayrim darajada ehtimoliy kattalikdir va u ishlab chiqarishning texnologik jarayoni xususiyatlari, aholining mehnat va maishiy tashkiliy tuzilishi, aholi soni kabi tasodifiy omillarga bog'liq. Shu sababli hisobiy yuklamalarni aniqlash usullari o'lichash natijalarini matematik statistika va ehtimollar nazariyasi usullari yordamida amaldagi elektr qabul qilgichlar yuklamalarini eksperimental aniqlash usullariga asoslanadi.

Shaharlarda turarjoy va jamoat sektori elektr ta'minoti hududlarini loyihalashda quvvat va isroflarini, kuchlanish yo'qotilishlarini hisoblashda, yuqlama manbalari va kuch transformatorlarining quvvatini aniqlashda elektr yuklamalarning o'rtacha maksimumlaridan kelib chiqish zarur.

Elektr iste'moli va yuklamalarning uzluksiz o'sishini hisobga olgan holda, ularni bashoratlash usuli masalalari va bunday bashoratlarning optimal ta'sir muddatini o'rnatish katta ahamiyat kasb etadi. Bu masalalar solishtirma yuklamalar va solishtirma elektr iste'moli bilan uzviy bog'liqidir. Biroq, bu erda shuni ta'kidlab o'tish joizki, mutaxassislar orasida jamoat va turarjoy sektoridagi elektr iste'moli va yuklamalarni me'yorlashtirish muammolariga qiziqish kattaligiga qaramay, hozirgi vaqtida solishtirma elektr iste'moli yuklamalarini hisoblashning umum qabul qilingan birliklari va sonli qiymatlari yo'q, ularning o'sish sur'ati to'g'risidagi ma'lumotlar esa bir-biriga zid.

Hozirgi vaqtida O'zbekiston shaharlarida kommunal-xo'jalik elektr iste'moli umumiyl elektr iste'molining 40 foizidan oshiqrog'i ini tashkil etadi, kommunal-xo'jalik elektr iste'molchilarining yuqlanish maksimumi esa energetik tizimning yuqlanish maksimumiga to'g'ri keladi. Boshqa tarafdan esa, energetik tizim sanoatdag'i kabi cheklanishlar kiritish yo'li bilan ularning maksimumiga ta'sir ko'rsata olmaydi. Shuning uchun kommunal-xo'jalik iste'molchilarining elektr iste'molining bashoratlash masalasi va elektr iste'molini bashoratlash usulini tanlash eng zarur va murakkab masalalar qatoriga kiradi. Bu bashorat boshlang'ich ma'lumotlarning ishonchilik va to'liqligiga,

bashorat obyekti va bashoratlanayotgan jarayonlarning xarakteri va xususiyatiga hamda muddatiga bog'liq.

Shahar iste'molchilarining elektr iste'molini qisqa muddatli bashoratlash masalalari etaricha keng ishlab chiqilganligiga qaramay, kommunal-xo'jalik iste'molchilarning elektr iste'molini o'rta muddatli va uzoq muddatli bashoratlash adabiyotlarda etaricha yoritilmagan. Bashoratlash usullaridan samarali foydalanishning asosiy sharti – bu kompleks-tizimli yondashuvmdir. Bunda turli omillar tizimini qo'llab, bir obyektni parallel holda turli usullar orqali bashoratlanadi.

Uzoq muddatli, ma'lum darajada, o'rta muddatli bashoratlashlar energetika rivojining umumiyo yo'nalishini aniqlashga qaratilgan. Qisqa muddatli bashoratlashlar esa, uzoq muddatli tendensiyalardan og'ishga olib keluvchi omillar ta'sirini baholaydi.

Tadqiqot mobaynida 40 yillik boshlang'ich ma'lumotlar asosida shahar iste'molchilarining elektr iste'molini bashoratlash usullari va solishtirma elektr iste'moli tahlil qilindi. Kommunal-xo'jalik iste'molchilarining elektr iste'moli, ta'kidlab o'tilganidek, ko'plab omillarga bog'liq. Shuning uchun ularni to'la asos bilan, sarfining qiymatlari normal qonuniyat bilan taqsimlanuvchi tasodifiy kattaliklar deb hisoblash mumkin.

Shularga bog'liq holda yaqin kelajakda ehtimollar nazariyasi hamda matematik statistikaning ekstrapolyatsiya va interpolyastiya, korrelyatsion va regressiv tahlil, shuningdek, ko'p omilli korrelyatsiya usullarini qo'llash samaralidir. Hozirgi vaqtida, boshqa bashoratlash modellaridan farqli o'laroq, dinamik qatorning kundalik xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi va so'nggi yillardagi maishiy xo'jalikda elektr iste'molining o'sish tendensiyasini hamda dinamik xarakteristikalar evolyustiyasini hisobga oluvchi bashoratlashning adaptiv usuli keng qo'llanilib kelmoqda.

Energetikada uzoq muddatli bashoratlashning asosiy uslubiy asoslari quyidagicha: kelajak miqdoriy jihatdan bir ma'noda bo'lmaydi. Shuning uchun ko'plab usullar asosida energetika rivojining asosiy obyektiv tendensiyalarini va bu tendensiyalarning bashoratlanuvchi davrdagi mumkin bo'lgan gipotezalarini aniqlash zarur.

Kommunal-xo'jalik iste'molchilarining elektr iste'molini uzoq muddatga bashoratlashni ko'p omilli tahlil asosida matematik modellashtirish, taqqoslovchi va kombinatsiyalangan usullar bilan

amalga oshirish mumkin. Ularning yanada aniq miqdorli baholarini va bashoratlash natijalari nazoratini – kumulyativ, adaptiv va global usullar bilan amalga oshirish mumkin.

Bu, aslini olganda, ayrim korrelyastion bog‘lanishlar asosidagi bashoratdir, lekin sub’ektiv emas, balki obyektiv yo‘nalishlarni aks ettiradigan majmuada olingan. Natijada keyingi tahlillar va umumiy xulosalar uchun qandaydir miqyosiy fon beruvchi gipotezalar (optimistik, ehtiyyotli, oraliq) seriyasi olinadi.

40 yil mobaynidagi hisobot ma’lumotlariga statistik ishlov berish natijasida, to‘rtta omilga: o‘rnatilgan quvvat, aholi soni, shahar elektr tarmoqlarining shartli xizmat ko‘rsatuvchi birliklari soni va yillar bo‘yicha elektr iste’moli darajasiga bog‘liq holda, elektr iste’molining qiymatini aniqlash uchun quyidagi tenglama ko‘rinishdagi ifoda olindi:

$$W = a_0 + a_1 \cdot \bar{x}_1 + a_2 \cdot \bar{x}_2 + a_3 \cdot \bar{x}_3 + a_4 \cdot \bar{x}_4$$

bunda: W – yillik elektr iste’moli, mln.kVt.soat;

x_1, x_2, x_3, x_4 – elektr iste’moliga ta’sir qiluvchi omillar.

Berilgan elektr iste’moli tizimida bashoratlashning ratsional va yanada aniq usulini topish orqali 1960-yildan dan 2005-yilgacha bo‘lgan boshlang‘ich ma’lumotlar asosida 2010-yilga bashorat qilinadi. Har bir bashoratlash usulini aniqlik nazorati va tekshirishlari 2010-yilning haqiqiy elektr iste’moliga nisbatan o’tkaziladi. Tanlangan eng aniq usullar orqali 2015–2020-yilgacha elektr iste’moli bashorati olib borildi.

5.3. Shahar elektr iste’molchilarining xarakterli sutkalik elektr yuklamalari grafiklarini bashorat qilish

Mavjud shahar tarmoqlarining elektr yuklamalarini hisoblash usullari, aniqligi subyektiv va obyektiv omillarning katta soniga bog‘liq bo‘lgan yuklamalarni turli xil koeffitsiyentlar yordamida aniqlashga asoslanganligi tufayli ko‘plab kamchiliklarga ega. Bu hisoblashlarning eng zaif joyi talab koeffitsiyenti – K_t , umumiy maksimumda qatnashish koeffitsiyenti – $K_{um,max}$ va yuklama

maksimumlarini bir-birini qoplash (yuklanish) koeffitsiyenti – K_y
larni aniqlashdadir.

Iste'molchilar yuklamalarining aniq va to'g'ri baholarini faktik (haqiqiy) elektr yuklamalari grafiklari tahlili asosida olish mumkin. Mavjud adabiyotlarda, loyihalovchilarga shahar elektr tarmoqlarini turli xil guruhdagi iste'molchilar birikmalarini, ixtiyoriy klimatik zona uchun, barcha faktorlarni hisobga olgan holda etarlicha aniqlikda hisoblash imkonini beruvchi, barcha turar joy va jamoat binolari iste'molchilarining xarakterli sutkalik elektr yuklamalari grafiklarining to'liq to'plami yo'q. Shuning uchun, talab koeffitsiyentlarining aniq qiymatlarini olish uchun shu kattalikka ta'sir qiluvchi barcha faktorlarning eksperimental va nazariy tadqiqotlari zarurdir. Shunday qilib, shahar tarmoqlarining hisobiyl elektr yuklamalarini talab koeffitsiyenti yordamida aniqlash usuli asosan, yuklamalarning haqiqiy qiymatlarini aks ettirmaydi. U, ko'pincha loyiha chining tajribasi va uning intuitiv qabul qilgan qaroriga bog'liq.

Agar ko'p sonli elektr jihozlariga ega bo'lgan va yuklamasi bir joyga to'plangan sanoat korxonalarida hisobiyl yuklamalarni aniqlash uslubiyoti etarli darajada ishlab chiqilgan va amaliyatga kiritilgan bo'lsa, o'zining hususiyatlariga ega bo'lgan shahar tarmoqlari uchun mavjud adabiyotlardagi elektr yuklamalarni hisoblash uslubiyotiga aniqliklar kiritish lozim.

Tadqiqot natijasida turarjoy va jamoat binolarining, havoni konditsionerlash, sovitish-kompression stansiyalar, ventilyastiya, lift qurilmalari va elektr yordamida taom tayyorlash qurilmalarini hisobga olgan holda, elektr yuklamalari o'rganilib chiqildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, elektr yuklamalar stoxastikdir, demak, barcha elektr yuklamalar asosida hisoblanadigan kattaliklar ham ehtimoliy kattaliklardir, ya'ni elektr yuklamalarning tasodifiy o'zgaruvchilarining funksiyalaridir.

Turarjoy va jamoat binolarining elektr yuklamalarini ehtimoliy-statistik tahlil va sutkalik elektr yuklamalari grafiklariga ishlov berish yo'li bilan aniqlash metodikasi ishlab chiqilgan. Taklif etilgan elektr yuklamalarni yangi ehtimoliy-statistik hisoblash usulida eksperimental yo'l bilan ishlab chiqilgan turarjoy va jamoat binolarining xarakterli sutkalik elektr yuklamalar grafiklaridan foydalaniadi. O'rtacha maksimallardan EHM yordamida olingan xarakterli sutkalik yuklamalar grafigining to'la to'plami yuqorida jadvallar ko'rinishida

berilgan. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, iste'molchilar xarakterli elektr yuklamalari grafiklarining ehtimoliy xarakterini hisobga olish bilan hisoblash, shuningdek, faktik yuklamalar grafiklariga statistik ishlov berish juda katta miqdordagi hisoblashlarni talab qiladi. Lekin hozirgi texnika rivoji vaqtida bu ishlarni EHM yordamida amalga oshirish mumkin.

Bu usulning afzalligi shundaki, EHM yordamida shahar tarmoqlarini loyihalashtirish va ekspluatatsiya qilishda elektr yuklamalarni hisoblash jarayonining o'zi avtomatlashtiriladi. EHMni qo'llash, o'z navbatida, hisoblarni har bir vaqt oraliq'i uchun olib borish va shaharlarning taqsimlovchi va ta'minlovchi elektr ta'minoti tarmoqlarining maksimal elektr yuklamalari yig'indisini kerakli aniqlikda, hech qanday koeffitsiyentlardan foydalanmagan holda jamoat va turarjoy binolari elektr iste'molchilarining ixtiyoriy katta qiymatida aniqlash imkonini beradi. Iste'molchilarining yuklamalari grafiklari asosida tarmoqning ruxsat etilgan kuchlanish yo'qotilishini yanada asoslangan hisoblarini olib borish mumkin. Elektr sifatining integral ko'rsatgichlari – kuchlanishning bir xilda emasligini yoki tarmoq elementlaridagi haqiqiy elektr isroflarini aniqlash mumkin.

Hozirgi shahar elektr ta'minotining rivojalish bosqichida hali o'z echimini kutayotgan dolzarb muammo – bu jamoat binolarining xarakterli elektr yuklamalari grafiklarining to'liq to'plamini ishlab chiqishdir. Shuning uchun ham shahar iste'molchilarining hisobiy elektr yuklamalarini aniqlashning yangi usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish juda zarurdir. Bu usullar shahar elektr tarmog'i ixtiyoriy iste'molchilar guruhining hisobiy yuklamalarini kerakli aniqlikda, turli omillar (havoni konditsionerlash, elektr yordamida taom tayyorlash, lift qurilmalari va boshqa kuch qurilmalari)ni hisobga olgan holda aniqlash imkonini beradi.

Eksperimental tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, turli iste'molchilar guruhi solishtirma yuklamalarining o'zgarish xarakteri bir xil emas. Shuning uchun jamoat sektorining har bir iste'molchilar guruhi uchun joylar soni o'zgarishini va boshqa omillarni hisobga olgan holda hisoblar olib borildi va solishtirma qiymatlari aniqlandi.

Shahar tarmog'iga ulangan elektr iste'molchilarining ish holati, ularning vazifasiga va ishlatilishiga bog'liq. Ular sutkaning turli vaqtlarida va yilning turli oylarda doimiy bo'lib qolmaydi. Bu esa sutkalik grafikning formasiga bog'liq.

Bir qator adabiyotlarda mualliflar o'rnashgan hududlar rayonlarida, odatda, qvvat koeffitsiyentini g'oyatda yuqori – $\cos\varphi = 0,9 + 0,95$ deb, taxmin qilishadi [52]. Shuning uchun ham reaktiv qvvat grafiklari alohida ko'rib chiqilmaydi. Bunda yana reaktiv qvvat grafigining ko'rinishi aktiv qvvat grafigining ko'rinishini takrorlaydi, deb taxmin qilinadi. Shuning uchun ko'p loyihachilar yuklamalarning reaktiv qvvati o'zgarishlariga e'tibor berishmaydi. Toshkent shahridagi jamoat binalarida o'tkazilgan eksperimental o'lhashlar shunday natijalarni ko'rsatdiki, alohida iste'molchilarning qvvat koeffitsiyenti $\cos\varphi$ havoni konditsionerlash, sovitish-kompression stansiyalar, ventilyastiya tizimining elektr jihozlari, lyumenisstent lampaldan keng foydalanish kabi reaktiv qvvatni iste'mol qiluvchi elektr jihozlardan foydalanishning kengayib borayotganligi sababli ancha past qiymatlarni ko'rsatdi. Bundan tashqari, ko'pchilik shahar elektr iste'molchilari uchun reaktiv qvvat qiymati, aktiv qvvat qiymatiga nisbatan tarmoq kuchlanishining qiymatiga ko'proq bog'liq. Ammo aralash yuklamalarni $0,38 \text{ kV li } T_{aq}P$ da va $10 \text{ kV li } TP$ du o'lhashlar turarjoy va jamoat binolari aralash yuklamalarining ~~cosφ~~ maksimumi davrida aksi bo'ladi, ya'ni oshadi va yuklamalarning xarakteri, shaharning katta-kichikligi, yil fasli va iqlim sharoitlariga bog'liq holda $\cos\varphi = 0,85 - 0,95$ ga teng. Alohida holatda $\cos\varphi$ ning qiymati bиргача etmaydi.

Markaziy Osiyo Respublikalarida jamoat sektorida havoni konditsionerlash qurilmalaridan foydalanish yuqori sur'atlarda o'smoqda. So'nggi yillarda Toshkent shahrida jamoat binolarida o'rnatilgan konditsionerlar soni keskin oshib ketdi. Havoni konditsionerlash qurilmalarini yuklamalar maksimumiga ta'siri etarlicha o'rganib chiqilmagan va mavjud adabiyotlarda ko'rsatib o'tilmagan. Jamoat binolarida havoni konditsionerlash qurilmalarining elektr yuklamalari, sovuq havo sarfi grafigiga muvofiq, soat 8 dan 20 gacha kuzatiladi. Lekin konditsionerlarning ish rejimi turlicha bo'lganligi uchun elektr iste'molchilarning yuklamalari maksimumiga ta'siri turlicha bo'ladi.

Shunday qilib, havoni konditsionerlash qurilmalari va sovitish-kompression stansiyalar ishlatalidigan jamoat binolarida yozdag'i maksimal yuklama qishkinikiga nisbatan yuqoriroq bo'ladi. Biroq, shunday iste'molchilar mavjudki (masalan, bolalar bog'chasi,

maktablar va oshxonalar), ularga havoni konditsionerlash qurilmalari solishtirma hisobiy yuklamasi deyarli ta'sir qilmaydi.

Havoni konditsionerlash qurilmalarining yuklamasi ta'sirining ikkinchi xususiyati – bu yuklama maksimumining vaqt bo'yicha siljishidir. Konditsionerlashning elektr yuklamasi, asosan, atrof-muhit haroratiga muvofiq o'zgaradi.

Yuklama maksimumiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan yana biri – bu elektr dan taom tayyorlashda foydalanishdir. Masalan, elektrlashtirilgan oshxonali bolalar bog'chasida yuklama maksimumi kechki vaqtlardan ertalabki soat 8–9 ga suriladi. Bundan tashqari, yuklama maksimumining siljishi elektrlashtirilgan taom tayyorlash blokli maktablarda, mehmonxonalarda, yotoqxonalarda va kasalxonalarda ham kuzatiladi.

Tarmoq elementlaridagi maksimal yuklamalarni eng aniq hisoblashni iste'molchilarining faktik elektr yuklamalari asosida aniqlash mumkin. Bu holda yarim soatli va bir soatli maksimumlarni hisoblash, yuklama grafigini har bir vaqt oralig'i uchun bajarish kerak va barcha hisobiy davrlari orasidan uning eng katta qiymatini hisobiy kattalik sifatida olish kerak. Bunday yondashuvda maksimal yuklamali faktik hisobiy rejim (holat)ni talab koeffitsiyenti K_t , yuklamalarni umumiy maksimumda qatnashish koeffitsiyenti kabi turli hil ixtiyoriy (asossiz) koeffitsiyentlardan foydalanilmagan holda olinishi mumkin.

Turarjoy va jamoat binolarining elektr yuklamalarini ehtimoliy-statistik tahlil va sutkalik elektr yuklamalari grafiklariga ishlov berish yo'li bilan aniqlash metodikasi ishlab chiqilgan.

Misol tariqasida Toshkent shahri kvartali elektr tarmoqlarining turli aralash yuklamalari hisoblab chiqilgan. Hisoblashlardan keyin QMQ 2.04.17-98 bo'yicha aniqlangan hisobiy yuklamalar va ishlab chiqilgan yangi sutkalik grafiklar asosida aniqlangan yuklamalar solishtirildi. Natijada shu narsa ma'lum bo'ldiki, taklif etilayotgan usul bilan hisobiy yuklamani aniqlash aniqrqoq bo'lib, eski usullar natijalaridan 27 foizdan oshiqroqqa farq qiladi.

Yuklamaning sutkalik grafigini bashorat qilishning 4 ta xarakterli nuqtasini topib aniqlash metodini ko'rib chiqamiz:

Quyidagi rasmda 4 ta xarakterli nuqtalar ko'rsatilgan:

X_1 – yuklamaning tonggi maksimumi;

X_2 – yuklamaning minimumi;

X_3 – yuklamaning kechki maksimumi;


X_4 - grafikning so'ngi nuqtasi.

R (kVt)

Parametrlar:

1) pik koefistiyenti

$$\alpha = \frac{P_{\min}}{P_{\max}}$$



2) to'ldirish koeffitsiyenti

$$\beta = \frac{W_{\text{int}}}{24 P_{\max}}$$

3) kunduzgi maksimum koeffitsiyenti

$$\alpha_1 = \frac{P_{\max \text{ kuz}}}{P_{\min \text{ kech}}}$$

4) tonggi maksimum koeffitsiyenti

$$\alpha_2 = \frac{P_{\max \text{ long}}}{P_{\min \text{ kuz}}}$$

Elektr yuklamalarni aniqlash uchun dastlab sutkalik grafikning parametrlarini aniqlash lozim. Parametrlarni to'liq olish uchun qishki va yozgi kunlarning grafiklari, turli xil iste'molchilar (kommunal-

xo‘jalik va umumfoydalanuv binolari)ning xarakterli sutkalik grafiklari bo‘ishi kerak.

5.4. Shahar elektr si iste’molining bashorat modeli (amaliy misoli)

O‘zbekiston Respublikasi, xususan, Toshkent shahri elektr si iste’molini bashorati, asosan, eng kichik kvadratlar usulida (Markov ifodasi yordamida) bajarilgan. Shuningdek, adaptiv, logarifmik funksiya, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan solishtirma quvvat (aholi soni o‘sishi bashorat qilinib, keyin hisoblangan), iste’mol qilingan yillik elektr ning o‘rtacha o‘sishi 2 va 2,5 foiz deb olinib bashorat qilingan.

Hisoblashlar shahar umumiyligi iste’mol, umumiyligi kommunal-xo‘jalik iste’molchilari va jamoat binolari va turarjoy iste’molchilari uchun bajarilgan. Albatta, bashorat qilingan hisoblarning qaysi biri amalda to‘g‘ri kelishini oldindan aytish qiyin. Lekin, shunday bo‘lsada O‘zbekiston elektr stansiyalarini modernizatsiyalash va yangi zamonoviy PGQ va gidroelektr stansiyalar qurish, qayta tiklanuvchan manbalari yordamida arzon va ekologiyaga zararsiz elektr olishni rivojlantirish zarur. Shundagina O‘zbekiston energetika mustaqilligini saqlab qolib, O‘rta Osiyoda etakchilik qilishda va iqtisodiyoti rivojlanishda davom etadi (Hisob kitoblar ilovada keltirilgan).

Shahar elektr iste’molining 2020-yilgacha bo‘lgan bashorati modeli

Markov usuli bo‘yicha eng kichik kvadratlar formulasi asosida hisoblash (berilgan ma’lumotlar ToshGorPESdan keltirilgan):

$$r = \frac{\sum (X - \bar{X}) \cdot (Y - \bar{Y})}{\sum (X - \bar{X})^2} \cdot (X - \bar{X})$$

Korrelyatsiya koefitsiyenti:

$$r = \frac{\sum (X - \bar{X}) \cdot (Y - \bar{Y})}{\sqrt{\sum (X - \bar{X})^2 \sum (Y - \bar{Y})^2}} \geq 0.8$$

Kutilayotgan elektr iste'molining o'rtacha kvadratik xatoligi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$\delta_{sr} \% = \pm \sqrt{\frac{\sum \Delta^2}{n-1}} \cdot 100\%$$

bu yerda:

Y – elektr iste'moli funksiyasi;

\bar{Y} – Y ning o'rtacha qiymati;

X – yillar tartib raqami;

\bar{X} – X ning o'rtacha qiymati;

n – o'lchov nuqtalari soni;

Wh – elektr iste'moli.

Shaharning turarjoy sektori uchun

$$Wh - \bar{Wh} = \frac{\sum (x - \bar{x})(Wh - \bar{Wh})}{\sum (x - \bar{x})^2} (x - \bar{x})$$

$$Wh - 550 = \frac{17197,5}{625} (x - 26)$$

$$Wh = 27,5x - 165 \text{ (mln.kVt.s)}$$

Korrelyatsiya koefitsiyenti:

$$r = \frac{177075}{\sqrt{2750 \cdot 17871703}} \geq 0.799 \approx 0.8$$

$$Wh = 27,5x - 165; r = \geq 0,799 \approx 0,8$$

Umumiy jamoat sektori uchun

$$Wh - 137,3 = \frac{29445}{2750} (x - 26)$$

$$Wh = 10,7x + (437,3 - 278,2)$$

$$Wh = 10.7x + 159 \text{ (mln.kVst)}$$

Korrelyatsiya koefitsiyenti:

$$r = \frac{29445}{\sqrt{2750 \cdot 546009,4}} = 0,76$$

Umumiy kommunal-xo‘jalik va jamoat sektorini uchun


$$Wh = 47,24x + 228,5; r = 0,951$$

$$Wh - \bar{W}h = \frac{\sum(x - \bar{x})(Wh - \bar{W}h)}{\sum(x - \bar{x})^2} (x - \bar{x})$$

$$Wh - 14569 = \frac{129924}{2750}(x - 26)$$

$$Wh = 47,24x + (1456,9 - 1228,4)$$

$$Wh = 47,24x + 228,5 \text{ (mln.kVt.s)}$$



Korrelyatsiya koefitsiyenti:

$$r = \frac{129924}{\sqrt{2750 \cdot 6786158}} = 0,95$$

Shahar bo'yicha umumiy:

$$Wh = 64,4x + 1327,6; r = 0,941$$

$$Wh - 3002 = \frac{177075}{2750} (x - 26)$$

$$Wh = 64,4x + (3002 - 1674,4)$$

$$Wh = 64,4x + 1327,6 \text{ (mln. kVt.s)}$$

$$r = \frac{51385}{\sqrt{2750 \cdot 1086482}} = 0,94$$

Nazorat savollari

1. Elektr iste'moliga ta'sir qiluvchi omillariga nimalar kiradi?
2. Elektr iste'moli bashoratining mavjud usullarini tahlil qilish va rastional uslubini ishlab chiqishni qanday usullari mavjud?
3. Qanday elektr iste'molining bashorat modelini bilasiz?
4. Umumiy jamoat sektor echimini formulada keltiring.
5. Shahar bo'yicha umumiy bashorat modelini formulani keltiring.
6. Umumiy kommunal-xo'jalik va jamoat sektori uchun bashorat modelini formulani keltiring.

6. SHAHAR ELEKTR TARMOQLARIDA ELEKTRONI HISOBGA OLİSH VA NAZORAT QILISH

6.1. Hisobga olish va nazorat qilish tizimlarining qurilish prinsipi nazariyasi

Energetik taftish asboblari. Energetika nazorati ko‘p bosqichdan iborat. Ular oddiy yoki mufassal tekshirishlar natijalarini o‘z ichiga olib, namunaviy tekshirish va reja bo‘yicha tekshirishlarning natijalari bilan tasdiqlanadi. Nazorat uchun ajratilgan vaqt korxonaning turi va hajmiga bog‘liq bo‘ladi.

Energiyani avvaldan taftish qilish. Avvaldan taftish qilish yoki tekshirish taftishida muhim bosqich bo‘lib, boshlang‘ich ma’lumotlarni yig‘ishni ta’minlash uchun xizmat qiladi (Davlat nazorati). Nazorat paytida murakkab bo‘Imagan asboblар yordamida, nisbatan qisqa muddat ichida olingan ma’lumotlardan foydalaniladi. Boshlang‘ich nazorat kichik va o‘rta biznes korxonalari uchun bir yoki ikki kunda o‘tkazilsa, katta korxonalar uchun esa bir haftadan ko‘p vaqt talab etadi.

Energiyani sinchkovlik bilan energetik nazorat qilishdagi muhim ma’lumotlar talabni va iste’mol sohasini belgilangan holda texnik xizmat ko‘rsatish, ekspluatatsiya qilish bo‘yicha tavsiyalar majmuasini yaratib, ularni bajarish esa tejamkorligiga olib keladi.

Energiyani nazorat qilish. Sinchkovlik bilan ni nazorat qilish – bu asbob-uskunalar, o‘lchov asboblari yordamida ko‘p iste’mol qiluvchi ishlab chiqarish jarayonlarini va jihozlarini tekshirishdir.

Energiya nazoratchilarida portativ ko‘chirib o‘quvchi asbob-uskunalar, o‘lchov asboblari bo‘lishi kerak. Ular yordamida kerakli ma’lumotlarga ega bo‘lib, iste’molining hajmini aniqlab, tejalishini tadqiq qilish imkoniyati hosil bo‘ladi.

Energetik tekshirishlar o‘tkazish uchun quyidagi bosqichlarni amalga oshirish zarur:

1. Vaqtidan unumli foydalilanigan holda korxonaning muhim hududlarini belgilab, loyiha-reja tuzish.

2. Standart hujjatlardan foydalanib ishlab chiqarishdagi iste'moli haqidagi asosiy ma'lumotlar yig'ish.

3. Korxona miqyosidagi sinovlarni o'tkazish va iste'moli, uni foydalali ekanligi haqida ma'lumotlar olish yo'llarini qidirib topish.

4. Butun jarayon va asosiy jihozlar uchun hamda butun korxona uchun energetik muvozanat va uning samaradorligini hisoblab topish.

5. Energiya tejamkorligiga olib keluvchi va foydaliligin oshiruvchi texnik xizmat ko'rsatish va boshqarish amaliyotini o'rnatish.

6. Yirik investitsiyalar va jihozlarni almashtirishni talab qilmaydigan tejash imkoniyatlarini aniqlash.

7. Korxonada tejash, iqtisodiy isrofni kamaytirish bo'yicha aniq rejuni ishlab chiqish.

8. Energiya nazorati bo'yicha xulosalar hamda tejamkorligi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan hisobotni tayyorlash.

Energetik taftish asboblari. Hozirgi paytda turli xil o'Ichov asboblaridan foydalilaniladi, ularni 4 guruhga bo'lish mumkin:

1. Ko'rsatuvechi

2. Yozib oluvechi

3. Integrallovchi yoki yig'uvchi

4. Nuzorat qiluvechi

Aksariyat holatlarda o'Ichov asboblari:

Ko'pchilik hollarda barcha talablarni ko'rsatuvchi o'Ichov asboblarining ko'rsatkichlari qoniqtiradi. Ko'pincha xotiraga ma'lumotni joylashtirish va uni yozib olish kerak bo'ladi.

Ma'lumotni yozish usullari:

a) qo'lda;

b) avtomatik ravishda.

Yozib oluvechi yoki qayd qiluvechi o'Ichov asboblari. Bunday asboblar tok, kuchlanish, harorat va hokazolar ta'sirida grafik yozuvni tusvirlovchi chiziqlar chizadi.

Integrallovchi o'Ichov asboblari. Ko'rsatuvechi va qayd qiluvechi o'Ichov asboblari ko'pchilik hollarda ulash talablarini qondirsa, integrallovchi o'Ichov asboblaridan butun davr bo'yicha ma'lumotlar olishda foydalilaniladi. Asosan, bunday asboblar mexanik yoki elektrik bo'ladi.

Nazorat qiluvechi o'Ichov asboblari. Avtomatik nazorat qiluvechi va boshqaruvchi ma'lum sinfdagi o'Ichov asboblari.

Energiyani o'lhash asboblari. Ko'pchilik korxonalarda iste'moli hisobini aniqlovchi asosiy o'lhash tizimi o'rnatilgan. Bir oy davomida iste'mol qilingan energiyani o'lhash uchun undan qanday foydalilanlayotganligini bilish yetarli emas. Shuning uchun turli zonalar va ishlab chiqarish modullaridagi energiya sarfini o'lhashda, energiya iste'moli haqida ishonchli ma'lumotlar olish uchun, turli usullarni qo'llash talab etiladi. Hozirgi paytda neft, gaz, issiqlik va elektr energiya iste'molini o'lhash uchun hisoblagichlardan foydalilanadi.

Elektr yuklamasi yuqori bo'lgan ko'pchilik korxonalarda uch modifikatsiyali energiyani nazorat qilish va hisoblashning informatsion-o'lhash sistemasi – IISE-3m o'rnatilgan.

«Alfa» turidagi elektr hisoblagichlar shaxsiy kompyuterlarga ulanib Wh, I, U, W elektr energiya, tok, kuchlanish va quvvatni sutka va yillar davomida o'lchap xotirasiga, ya'ni perfokartaga yozib boradi.

1. Taftish qilishda ko'tarib yuradigan o'lchov asboblari. Korxonalarda o'lchanadigan asosiy parametrlar quyidagilar:

- a) harorat;
- b) bosim;
- v) gaz aralashmasining pechdag'i hajmi;
- g) elektroenergiya sathi;
- d) yoritilganlik me'yori.

Simob yoki 300°C gacha o'lchaydigan boshqa suyuqliklar ishlataladi. Termometrlar va termojuftliklar (termoparalar) 1000°C dan ortiq haroratda ishlataladi. Pirometrlar to'g'ridan-to'g'ri kontaktsiz haroratni o'lhashni ta'minlaydi. Bu harakatda bo'lgan buyumlarning haroratini o'lhashda muhim bo'lib, 2000°C dan yuqori haroratni o'lhashda ishlataladi.

2. Oqimni o'lhash. Odatda, gaz oqimi tezligini o'lhashda Pito trubkasidan foydalilanadi. Pito trubkasining ishslash tartibi statik va harakatdagi suyuqliklar orasidagi differensiyaga, bosimni o'lhashga asoslangan bo'lib, bular harakatdagi gazning massasi, tezligi va tezlik bosimini hosil qiladi.

$$Q = C \cdot F \cdot (2gh)^{0.5} \quad (6.1)$$

Q – oqim tezligi;

S – oqim koeffitsiyenti;

F – oqimning ko'ndalang kesim yuzi;

h – tezlik bosimi.

3. Bosimni o'Ichash. Manometr yoki elektron differenstiallangan bosim kamerasi: 500ml. sim.ust gacha bo'lgan bosimni o'Ichashda qo'llaniladi. Yuqori bosimlar uchun Burdon o'Ichash asboblari qo'llaniladi.

4. Elektrik o'Ichamlar. Kichik elektr o'Ichamlar kuchlanish, tok, quvvat, yuklash koeffitsiyenti kabi parametrlarni o'Ichashda ishlataladi. Aktiv-reakтив hisoblagichlar 3 va 4 sim li, no'lli yoki no'lsiz va tok transformatorlari bilan birga bo'ladi.

Energiya audit (tekshiruvi), energiya samaradorligi. Energetik tekshiruvlar O'zbekiston Respublikasining «dan oqilona foydalanish to'g'risida» gi qonunning 13–14-moddalariga asosan o'tkaziladi.

Majburiy energetik tekshiruvga taa'luqli tashkilotlarga yoqilg'i-energetika manbalari iste'molining yoki har bir turlarining yig'indisi yiliga 6 ming tyosh (tonna shartli yoqilg'i) dan ko'p yoki 1 ming t. dan ko'p motor yoqilg'isi tashkil qiladigan tashkilotlar kiradi.

Tashkilotlarda energetik tekshiruvlarining 6 xili mavjud (ishga tushirishdan oldin va foydalanishdan oldin: dastlabki, davriy, navbatdan tashqari, mahalliy, ekspress tekshiruvlar).

Yoqilg'i-energetika manbalari iste'molchilarini energetik tekshiruvdan o'tkazish huquqi quyidagilarga berilgan:

– «O'zdavenergonazorat» inspekstiyasi va o'zdavneftgaz» inspekstiyasiga.

– Energetik tekshiruvlar o'tkazuvchi tashkilotlarga (bundan keyin – shu xildagi tekshiruvlarga ruxsatnomasi bo'lgan energiya auditorlarga).

Inspekstiya nazoratchilari muvofiqlashtirish rejasiga asosan ko'rnatib o'tilgan tekshiruv xillaridan faqat bittasini – ekspress tekshiruvini bajarishi mumkin. Qolgan tekshiruv xillarini faqat energiya tekshiruvlari (auditorlari) «o'zdavenergonazorat» inspekstiyasi tomonidan tasdiqlangan dasturga muvofiq bajarilishi mumkin.

Energiya auditorlari o'z faoliyatida O'zR davlat hokimiyati idoralarining me'yoriy-huquqiy hujjatlariga va O'zR Vazirlar Mahkumasining 2003-yil 12-noyabr «Energetik tekshiruv va ekspertizalar o'tkazishga oid faoliyatni litsenziyalash haqidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida» gi 504-sonli qaroriga amal qiladi.

Energetik tekshiruv natijalarida tashkilotlar tomonidan yoqilg'i-energetik manbalardan foydalanishda aniqlangan kamchiliklar ko'rsatilgan, aniqlangan tejash bo'yicha mavjud zaxiralar, ni saqlashga doir tashkiliy va texnik qarorlar taklif qilinib, unda

istiqboldagi iqtisodning jismoniy va puldagi ifodasi hamda ularning sotilish narxi ko'rsatilishi lozim.

Energiyani tejash va yoqilg'i-energetik manbalardan oqilona foydalanish bo'yicha berilgan tavsiyalar ishlab turgan uskunaning ekologik xususiyatlarini va texnologik jarayonlarini, xavfsizlik darajasi, xodimlar ishidagi qulayliklarni, mahsulot sifati va xavfsizligini pasaytirmasligi lozim.

Iste'molchining energetik salohiyatiga baho berish, ishlab chiqarish xususiyatini hisobga olib mahsulot ishlab chiqarish jarayonda qatnashuvchi har bir texnologik uskunaning turli ish rejimlaridagi energiya iste'molini asboblar yordamida o'Ichash; energiya ta'minlashning matematik modelini tuzish; eng maqbul energetik texnologik jarayonni aniqlash; turli kasb mutaxassislari (elektrik, issiqlik – texnik, mexanik, kemyogar, metallurg va hokazolar) hamda asboblar bazasiga ega ixtisoslashtirilgan tashkilotlar berishi mumkin bo'lgan energiya tejash salohiyatini har bir sex bo'yicha va yaxlit korxona bo'yicha baholash asosida amalga oshiriladi.

Ekspertlar bahosiga ko'ra, hozirgi vaqtida yoqilg'i-energetik manbalarning iste'moli jahon miqyosida yiliga o'rtacha 1÷2 foizga muntazam ortayotganligi hamda uchinchi davlatlarga energiya bora-sida qaramlikning ortib borayotganligi kuzatilmoqda va u 2020-yil istiqboliga ko'ra umumiy iste'molning 70 foiziga yetadi. Energiya iste'molining tez o'sishi avvalambor jahon miqyosida ishlab chiqarishning muntazam ko'payib borayotganligiga bog'liq. Shuning uchun energiya iste'molining dinamikasini ko'rib chiqishda, uning darajasini tafsiflovchi asosiy ko'rsatkichning o'zgarishi bilan nisbatlash lozim.

Yevropa Ittifoqi, AQSh, Yaponiya iste'molchilarining energiyadan samarali foydalanish siyosatiga o'tishga majbur qilgan omillar – bu hukumat miqyosida kelishilgan bozor mexanizmlari (energiya manbalari narxining oshishi samaradorligi texnologiyalarini joriy qilishga darakchi bo'lgan).

Ushbu davlatlar tajribasining tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat siyosatisiz va energiya saqlash dasturisiz, energetik menejment tizimini yaratmasdan turib tanglikdan chiqib bo'lmaydi.

1970-yillardagi neft tangligidan keyingi 15 yillar mobaynida g'arbdagi sanoati rivojlangan davlatlarning sezilarli manbalari ishga tushirilishi mumkin bo'lgan energiyadan samarali foydalanish siyosati natijasida, kishi boshiga energiya iste'mol qilish hajmi

yilga borib iqtisodiy o'sish sur'ati oshsa, MDH mamlakatlarida energiya va elektrga bo'lgan talab sanoati rivojlangan davlatlarning hozirgi darajasiga yetishi mumkin. Energiyani tejash ularning energetika siyosatining muhim negizlaridan biri bo'lmog'i lozim. MDH mamlakatlarida juda ulkan tejash salohiyati mavjud bo'lib, kompleks tejash siyosati va yoqilg'i-energetika manbalaridan samarali foydalanishni oshirish bo'yicha belgilangan ayrim dasturlarni ro'yobga chiqarish MDH a'zolari va xorijiy davlatlarning xalqaro hamkorligida ustuvor o'rinn tutishi lozim.

Energiya iste'molining samaradorligini baholash va uning istiqbolini belgilash energetik menejmentning ikki muhim vazifasini echish uchun zarur:

1. Ishlab chiqarish va energiya eltuvchilar bilan savdo - sotiq qilish strategiyasini ishlab chiqish.

2. Iqtisodiyotning barcha sohalarida uzoq muddatli samaradorligi va energiya tejash siyosatini ishlab chiqish va ro'yobga chiqarish.

Energiya samaradorlik siyosati – bu iqtisodni, ijtimoiy taraqqiyot va mamlakatning milliy havfsizligini barqarorlashtirish shart-sharoitidir.

Masalan, AQSh da 1974–1985-yillar sanoatining ni ko'p talab qilishi har yili 3,7 foizga pasayib borgan, keyinchalik pasayish sur'ati yiliga 1,2 foizni tashkil etgan. 1985–1995-yillarda sovitgich uskunalarining energiya saqlash samaradorligi 3–7 marta, muzlatgichlarniki 4–5 marta ortgan. Aksariyat xonadonlarning lyuminissentli chiroqlarga o'tganligidan ham tejamkorlikni sezsa bo'ladi. Ular energiya sarflash borasida 4 marta foydali, xizmat qilish muddati ham boshqa oddiy lampalarnikidan 10 marta uzoq. Ushbu lampalarning o'matilishi AQSh da 1995-yilning o'zidayoq IEM lari quvvatini 9,6 mln kVt ga o'stirish zaruriyatidan qutqardi.

1990-yil oxirlarida AQSh da yoritish uchun taxminan 500 mlrd kVt/s yoki mamlakatda ishlab chiqarilgan elektr energiyaning 20% sarflanar edi. Bunda energiyaning 40% cho'g'lanmalarda, 40% lyuminissent chulg'amlarda va 20% katta quvvatdag'i gaz razryadli chulg'amlarga to'g'ri kelar edi.

Yaponiyada birinchi neft tangligidan so'ng energiya tejash bo'yicha choralar ko'rilgan va u yalpi milliy mahsulot talabining 35% ga pasayishga olib kelgan. Biroq, oxirgi 7 yil ichida ta'minoti yiliga o'rtacha 3,1 % ko'paygan. Shuning uchun Yaponiya hukumati 1993 yil «saqlash to'g'risida»gi qonunni qayta ko'rib chiqqan. Umumiy

energiyaning 50% ini iste'mol qiluvchi sanoat sektorlarida tartibga solish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

1. Sanoat korxonalarini rahbariyati uchun uslubiy qo'llanmalar (ular uchun standartlarni belgilaydi va energiyadan foydalanish bo'yicha zaruriy ko'rsatmalar beradi);

2. Yiliga 3000 t.sh.yo.dan ortiq yoqilg'i yoki 12 gigavattdan ortiq elektr quvvatini iste'mol qiluvchi har bir sanoat va energetika korxonalariga energetik menejment xizmatini ta'sis qilishni yuklash;

3. Elektroenergiyanad foydalanish ustidan qat'iy nazorat o'rnatish;

4. Korxona rahbari ma'lum bir miqdorda litsenziyalangan energiya menejerlarini tayinlashi lozim va ularning faoliyatiga energiyadan oqilona foydalanish bo'yicha choralar ko'rish, hisobotlar berish kiradi;

5. Energetik menejment xizmatini tashkil qilish lozim bo'lgan katta korxonalarda zarur bo'lgan nazorat uskunalarini mavjud bo'lib, ularning o'zi menejerlari ko'magida energiya auditini o'tkazishlari lozim, 300 kishidan kam xodimi bo'lgan korxonalarda energiya auditni bepul o'tkaziladi. Tekshirishda energiya tejash markazidan 1-2 nafar nazoratchi qatnashadi. 2005-yilda Yaponiyada taxminan 5600 ta shunday tekshirishlar o'tkazilgan. O'rta va katta kompaniyalarda tekshirish shtatdagi energiya auditorlari tomonidan o'tkaziladi. 2 yoki 3 nafar ekspert avval dastlabki, so'ngra ishlab chiqarish jarayonlarini mufassal tekshiruvdan o'tkazadi. Energiya tejash borasida aniq choralar taklif qilinadi, kutiladigan foyda va zaruriy mablag'lar aniqlanadi.

Rossiyada 3 ta auditorlik firmalari: ORGRES, «VTI» OAJ va «Intexenergo» MChJ o'tkazgan tekshirishlar quyidagilarni ko'rsatdi.

«ORGRES» tomonidan 7-IES qozonxonasi tekshirilganda quyidagilar aniqlangan: haqiqatdan ham IESlarda energiya samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan asosiy ish dastlabki texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni me'yordagi darajaga yetkazish yoki me'yordagi darajada saqlashdan iborat bo'lgan.

Ikkinci muhim xulosa – uskunalar parkining eskirganligi, demak unda yuqori xaratjatli tadbirlar bajarish maqsadga nomuvofiqligi.

Uskuna ish rejimlarini optimallashtirish va nisbatan katta bo'limgan kapital xaratjatlar bilan ishlatish tadbirlari ro'yxati alohida tavsifga ega.

Energetik tekshiruvlar yakuni bo'yicha chiqarilgan hujjatlar katta ahamiyatga ega. Ulardan asosiysi – energetik pasportdir va u barcha

manfaatdor idoralar bilan kelishilgan bo'lishi lozim. Ushbu pasport bo'yicha aniq bajarish muddati va xarajatlari ko'rsatilgan tadbirlar rejeasi ishlab chiqiladi. Ushbu hujjatni barcha bajarishga majbur.

Tekshirish natijalari malakali mutaxassislardan iborat uslubiy kengash tomonidan baholanadi.

2020-yilgacha bo'lган davning energetik strategiyasini rivojlantirish – bu ustuvor vazifalardan biri. Oxirgi 20 yil ichida rivojlangan mamlakatlarda energiya samaradorligi oshirilishi energiyaga talabini 21–27% ga kamayishiga olib kelgan. Rossiyada esa bu ko'rsatkich oshgan va 2000-yildan keyin ham xorija nisbatan 3,5–3,7 baravar yuqori bo'lган. Energiyani behuda sarflash xavfsizligiga tahdid hisoblanadi, chunki bu energiya eltuvchilarga bo'lган ehtiyojning ortishiga olib keladi.

Energetika tangligini oldini olish usullaridan biri – bu korxonalarda energiya va manbalarni tejash texnologiyalarini keng miqyosda tatbiq qilishni ko'zlovchi siyosat yuritishdir. Boshqacha aytganda texnika va iqtisodiyotning yanada rivojlanishi yoqilg'i-energetik manbalardan unumli fodalanishni ta'minlovchi huquqiy, tashkiliy, ilmiy-texnik, ishlabchiqarish va iqtisodiy choralar va tiklanadigan energiya manbalarini xo'jalik aylanmasiga jalb qilish asosida ro'y berishi lozim.

2010-yil istiqboliga ko'ra, respublikamizning birlamchi energiya-ga talabi 73 mln t.e.yo. ni tashkil etadi. Yoqilg'i-energetika kompleksi taraqqiyotining optimal variantida yoqilg'i-energetik manbalarga bo'lган ichki ehtiyojni ta'minlovchi istiqboldagi hajmlar 58 mln t.e.yo. darajasida aks etish lozim.

Demak, 2010-yil energetik manbalarga ehtiyoj va ularni optimal ishlab chiqarish orasidagi farq 15 mln t.e.yo. ($1 \text{ t.n.e.} = 1,43 \text{ t.sh.yo.}$) ni tashkil etadi.

Respublikamiz energetika tizimi tomonidan foydali uzatiladigan energiyaning 44% idan sanoat, 25% idan qishloq xo'jaligi (asosan keng miqyosli sug'orish ishlarida nasos stansiyalarni ishlatish uchun), 14% idan aholi foydalanadi.

Hozirgi vaqtida issiqlik energiyasining 25% ini «O'zbekenergo» DAK elektrstansiyalari, 30% ini yirik qozonxonalar, 45% ini quvvati 1 dan 100 Gkal/s gacha bo'lган mahalliy isitish va ishlab chiqarish-isitish qozonxonalar (Hokimliklarning communal xizmatlariga tegishli) bermoqda. Respublikamizda isitish ta'minotining markazlashtirilgan tizimi ustunlik qiladi va issiqlik iste'molchilarining 80% ini o'z ichiga oladi (bu ko'rsatkich G'arb mamlakatlarida taxminan

45%ni tashkil qiladi. Masalan: Avstriyada – 9,5%, Germaniyada – 6%, Italiyada – 0,5%, Daniya va Finlyandiyada – 45%). Respublikamizdagi markazlashtirilgan issiqlik ta'minoti yuqori samarali emas, uning asosiy sababi ochiq issiqlik suv ta'minoti tizimidan foydalanishidir. Ilgari bu ta'minot oddiy va arzon bo'lganligidan ushbu tizim tanlangan. 30 yildan ortiq ishlatish tajribasi bu tizimning samarasini va ishonchliligi past ekanligini ko'rsatdi.

Iste'molchilar tomonidan issiqlik suv ko'p to'kib yuborilayotganligi sababli suv tayyorlagich uskunalar hisobsiz holatda ishlarloqda, suvning sifati pasaymoqda. Bu ta'minlovchi suvdagi kislorod va uglekislotaning ortishiga olib kelib, quvurlarning, isitish asboblarining ichdan zanglashi va ularning xizmat muddati ikki barobar qisqarishiga sabab bo'immoqda.

Mahalliy isitish qozonxonalarida 11 mingdan ortiq qozonlar ishlatilmogda, ularning ko'pi pasportlashtirilmagan, ma'naviy va jismoniyligi jihatdan yemirilgan (foydali ish koeffitsiyenti 75% dan ko'p emas), yonish jarayonining avtomatik vositalari va issiqlik ishlab chiqarishni rostlash vositalari ta'minlanmagan.

Iqtisodiyotning yuqorida ko'rsatilgan sohalarida yaqin orada energetika manbalarida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan tanglikni qoplashga qodir asosiy salohiyat hamda energetik samaradorlik doirasida tarmoq va hududlarning idoralararo muvofiqlashtirishni, yagona texnik siyosat o'tkazishni ta'min-laydigan ishlarni boshqarish va muvofiqlashtirish bo'yicha davlat yoki davlat-tijorat tuzilmasi shaklidagi idoraning yo'qligi ko'rsatilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 14-fevraldagagi 2001-yil Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari, iqtisodiy islohotlarning borishini baholash hamda 2002-yilgi vazirlarga bag'ishlangan yig'ilishida so'zlagan nutqida Prezidentimiz Islom Karimov energiya tejash bo'yicha 2010-yilgacha dastur ishlab chiqishning muhimligini, foydali texnologiyalarni keng tatbiq qilish bo'yicha choralar ko'rish zarurligini, tabiiy, mineral xomashyo va yoqilg'i-energetik manbalardan xo'jasizliklarcha foydalanganlik uchun javobgarlik kuchaytirilishi lozimligini alohida ta'kidlab o'tdi¹.

Elektr stansiyalarda 1 kVt/s elektr energiya ishlab chiqarishga sarflanadigan yoqilg'inining solishtirma sarfi taxminin 382 grammni

¹ Islom Karimov. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-tom. T.: «O'zbekiston», 2002. 219–220-betlar.

tashkil qiladi, ya'ni u oxirgi 10 yillikda 13,5 grammga ko'paygan. Rivojlangan mamlakatlarda (BGQ va PTQ dan foydalanadigan mamlakatlarda) 1 kVt/s elektr energiya ishlab chiqarish uchun 230–235 gramm yoqilg'i sarflanadi.

Respublikamizda 2010-yilda taxminan 49,7 mlrd kVt/s elektr energiya ishlab chiqarildi. Umumiy hajmdan 48,7 mlrd kVt/s tarmoqlarga uzatildi, 20% isrof bo'ldi, shulardan 12 % texnik isroflar, tijorat yo'lida ketadigan isroflar esa 8–10 % ni tashkil etdi yoki elektr stansiyalarining xususiy ehtiyoji uchun ishlatildi.

6.2. Hisobga olishning yangi tizimlari

Hozirgi vaqtida O'zbekiston energetikasida elektr stansiya, nimstansiya, elektr uzatuvchi liniyalar va elektr ta'minot tizimlarida bosqichma-bosqich hususiylashtirish hamda restrukturizatsiya negizida barcha yoqilg'i-energetik komplekslarda keng ko'lamdag'i rekonstruksiya va asbob-uskuna bilan ta'minlanish amalga oshirilmoqda. Elektr stansiya va elektr uzatuvchi liniyalar quvvatining ortishi, shuningdek, energotizim ekspluatatsiya sanotining ko'payishi hamda texnologik jarayonlarda hisoblash texnikasi va ABT (ASU) larining qo'llanilishi quvvat va ni o'lchashda yuqori darajadagi aniqlikka erishishni taqozo etmoqda. Energetik nazoratning oddiy yoki aniq tadqiqotlarni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan, ko'pincha qisqa tekshiruv hamda tajriba o'tkazish yo'li bilan kuzatiladigan bir qancha bosqichlari mavjud.

Hozirgacha aniqlik sinfi 2,0–2,5 bo'lgan elektrni induksion hisoblagichi xizmat qilib kelmoqda. Energiyaning katta oqimini hisobga olishda o'lchashdagi absolyut xatolik shunchalik katta bo'lishi mumkinki, uni inobatga olmaslikning iloji yo'q. Shu sababli ham nazorat va hisobga olishdagi bosh muammolardan biri – bu aniqlik sinfi 0,2; 0,5; 1 bo'lgan hisobga olish va nazorat tizimini tanlash masalasidir.

«Alfa» turidagi aniqlik sinfi 0,2 va 0,5 bo'lgan ko'p funksiyali elektron hisoblagichi transformatorli va transformatorsiz o'zgaruvchan tokli zanjirlardagi aktiv hamda reaktiv energiyani hisobga olish uchun mo'ljallangan. Shuningdek, elektr energiyani tijorat ko'rinishida hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimida foydalanish uchun ETHAT (ASKUE) nazorat, hisobga olish va elektr ni taqsimlanish bo'yicha o'lchangan yoki hisoblangan parametrlarni dispatcherlik

punktiga jo‘natish uchun «Alfa» hisoblagichidan keng qamrovdagi iste’mol kuchlanishida diapazoni 70 dan 440 V gacha bo‘lgan har qanday kuchlanishda foydalanish mumkin.

Kuchlanish kattaligini o‘lhash chiziqli, yuqori rezistiv sxemalar yordamida kuchlanishni bo‘lish orqali amalga oshiriladi. Chiziqli kuchlanishdagi siljishdan kelib chiqadigan aniqlikdagi siljish juda kichik bo‘lib, ular hisoblagichni kalibrovka qilishda kompensatsiya lanadi. Ta’minotdagi uzilishlar vaqtida hisoblagichning barcha kalit ma’lumotlari hamda uning konfiguratsiya ma’lumotlari buzilmaydigan 2 kbayt hajmli EEPROM xotirada va mikrokontroller RAMida saqlanadi. Kalit ma’lumotlari quyidagilar:

- hisoblagichning tuzilishi (konfiguratsiya) haqidagi ma’lumotlar;
- aktiv energiya;
- reaktiv energiya;
- ta’minotdagi uzilishlar miqdori;
- hisoblagich bilan aloqa seanslari miqdori.

Ayni davr uchun tijorat ko‘rinishida hisobga olishning ko‘p taraflı rejim ma’lumotlari qo‘srimcha A+ platali OZUda hisoblagichga superkondensator yoki batareya orqali quvvat borguncha saqlanadi. Har bir hisoblagich hisoblagichlar va shaxsiy kompyuter orasidagi ma’lumot almashinuv bosqichida qo’llaniladigan parolga ega. Uning yordamida hisoblagich va uning qayta dasturlashtirish ma’lumotlariga kirish imkoniyati yaratiladi.

Energetikada nazorat qilinadigan ni o‘lhash uchun «Alfa» tizimidagi quyidagi markali hisoblagichlar qo’llanilmoqda: StE 685 (16-modifikatsiyadagi), StE 6822 (8-modifikatsiyadagi), StE 6823 (44-modifikatsiyadagi), StE 6822 yoki StE 6823 ikki yo‘nalishda hisobga olishdagi StE 6808 V(2-modifikatsiyadagi), StE 6805 V(8-modifikatsiyadagi), StE 6803 (42-modifikatsiyadagi). Bu tizimlar «Energomer» konserni tomonidan ishlab chiqariladi.

Ular bir, ikki, uch va ko‘p tarifli bo‘ladi. Bu qurilmalarning texnik ma’lumotlari quyidagi jadvalda berilgan:

Turlari	SE 6850	SE 6822	SE 6823
Aniqlik sifati	0,5; 1,0	1,0; 2,0	0,5; 1,0; 2,0
Nominal tok A	1;5	5;10	1;0
Maksimal tok A	1,5; 7,5	50; 100	50; 100
Nominal fazalar kuchlanish (chiziqli) V	3x 57,7 (3x100) 3x200 (380)	3x220	3x 57,7 (3x100) 3x200 (380)

Hozirda «Alfa» tizimi O‘zbekistonning katta sanoat korxonalarida keng qo‘llanilmoqda va kommunal-xo‘jalik hamda sanoat korxonalarini uchun bir fazali va uch fazali elektron hisoblagichlarni «Elektron hisoblagich» qo‘shma korxonasi ishlab chiqarmoqda.

Taqsimlovchi tarmoqlarda va maishiy sektordagi yuqori toklar, generatsiyalar bilan ishlash uchun ABB «Metronika» korxonasi tomonidan «Evro Alfa» seriyasidagi ko‘p funksiyali mikroprostessorga ega bo‘lgan elektr hisoblagichlari yaratilgan. «Evro Alfa» seriyasidagi hisoblagichlar elektr ni tijorat ko‘rinishida hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimi ETHAT (ASKUE)ida foydalanish uchun mo‘ljallangan. U aktiv va reaktiv ni va quvvatni ko‘p tarifli rejimda o‘lchash, elektro iste’moli va tarqatilishini hisobga olish, iste’molini boshqarish va nazorat qilish uchun xizmat qiladi. Bu hisoblagichlar energotizim, sanoat, transport, kichik motor korxonalarini hamda maishiy iste’molchilar foydalanishi uchun mo‘ljallangan.

«Evro Alfa» hisoblagichlari quyidagi maqsadlarda qo‘llaniladi: elektr stansiya generatorlarining ishlab chiqarayotgan elektr energiyasini aniqlashda; tizimlararo liniyalardagi va quvvatning oshib ketishini hisobga olishda; elektr energiya va quvvat isroflarini aniq hisobga olishda; ishlab chiqarishni avtomatlashtirishda; korxona uchun belgilangan quvvatni bashorat qilishda; iste’moli grafigini tanlashda; reaktiv quvvatni hisobga olishda; energoiste’molidagi o‘lchangan parametrlarni energota’minot xizmatidagilar uchun uzatishda.

«Evro Alfa» hisoblagichlari mikroprostessorli o‘lchov sxemali asosiy elektron plataga ega bo‘lgan kuchlanish va tokni o‘lchovchi datchiklardan tashkil topgan. O‘lchanadigan kattaliklar va boshqa ma’lumotlar suyuq kristall displayda namoyon bo‘ladi. «Evro Alfa» hisoblagichining mikroprostessorliligi uni dasturlash mumkinligini bildiradi. Bu esa undan turli funksiyali hisoblagich tarzida foydalanish imkonini beradi. «Evro Alfa» hisoblagichining barcha elektron elementlari asosiy ona platada joylashadi. Ona plata to‘g‘ri burchakli tor korpus ichiga o‘rnatilgan. Hisoblagich korpusini old tarafdan boshqaruv organlari joylashgan panel, hisoblagich shildiki va display to‘sib turadi. Hisoblagichda modul prinsipi tashkil etilgan, ya’ni: qo‘sishma elektron xotira platalari, interfeyslar va kontakt ulagichlar yordamida asosiy ona plataga ularish imkonini beruvchi boshqa boshqaruv qurilmalari. Shu holatda «Evro Alfa» hisoblagichlarining funksional imkoniyatini sezilarli darajada oshirish mumkin.

«Evro Alfa» hisoblagichining old qismi panelida o‘lchanayotgan parametlarni ko‘rsatuvchi hisoblagich displayi o‘matilish joyidagi kompyuter bilan aloqa o‘rnatishga xizmat qiluvchi optik port, hisoblagich shildiki, displayning ishlash rejimini o‘zgartiruvchi tugma mavjud (tugma sintetik rezinadan tayyorlangan pishiq qotishma ostiga joylashtirilgan).

Hisoblagich ishining yorug‘lik diod indikatori indikator o‘lchanayotgan chastotasiga proporsional ravishda o‘chib-yonadi va hisoblagich ishi nazorati uchun xizmat qiladi. Batareya – kerak bo‘lgan vaqtida hisoblagichni ochmay uni almashtirish mumkin. Tashqi manbani qo‘sish uchun mo‘ljallangan ulagich – o‘lchov zanjirlarida kuchlanish yo‘qolganda hisoblagichdagi axborotni olish uchun xizmat qiladi. Har bir hisoblagich klemmnik qopqog‘ining orqa tarafiga mahkamlangan ularish sxemalari bilan ta’milanadi. Hisoblagich qisqichlari raqamlangan, bu esa hisoblagichning ularish paytidagi xatoliklarini oldini oladi. «Evro Alfa» hisoblagichi konstruksiyasida ikki marotaba tamg‘alash ko‘zda tutilgan. Hisoblagichning ichki qismini faqatgina ana shu tamg‘alarning yakdilligi buzilgandagina ko‘rish mumkin. Uch fazali manba qo‘llanilishi hisoblagichning ishonchlilagini oshiradi. Faza yoki neytral sim uzilgan taqdirda ham hisoblagich ishlayveradi. «Evro Alfa» hisoblagichidagi vaqtini nazorat qilish uchun kvarstli generatordan foydalilaniladi. Hisoblagichdagi vaqtini, ma’lumot o‘qish jarayonida ham, kompyuter yordamida avtomatik ravishda to‘g‘rilash mumkin.

«Evro Alfa» hisoblagichi displayida quyidagilar ko‘rinib turadi: raqamli indikatorlar; raqamli identifikatorlar; kuchlanish indikatorlari; harfli indikatorlar; strelkali indikatorlar; strelkali indikatorlar ostidagi imzolar; displayning ishlash indikatorlari. «ABB» firmasi hisoblagich ma’lumotini uzatishda yordam beruvchi tashqi modem loyihasini yakunladi. Bu ma’lumot to‘plashning an’anaviy usulidan voz kechgan holda, uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri operatorning ish o‘rnida olish imkonini beradi.

«Energomer» konsernining ETHATga mo‘ljallangan kompleks texnik usullari energetik obyektlardagi va sanoat korxonalaridagi boshqaruvni avtomatlashtirish, elektr quvvatni tijorat va texnik ko‘rinishda hisobga olish hamda boshqarishning ko‘p bosqichli avtomatlashtirilgan tizimini yaratish uchun mo‘ljallangan. «Energomer» konserni dinamik rivojlanayotgan ulkan xolding kompa-

niya hisoblanadi. U o‘ziga olti mingdan ziyod turli yo‘nalishdagи mutaxassislarni birlashtiradi. Elektron qurilmalar va elektr iste’molini hisobga oluvchi tizimlar, metrologik holdagi servis uskunalarini kompaniyaning vizit kartochkasi bo‘lib qoladi.

EST.L, EST.M guruhidagi masofadan hisobga oluvchi va yig‘indi ko‘rinishiga keltiruvchi uskunalar elektr energiyani hisobga olish va nazorat qilish uchun qo‘llaniladi. EST.L guruhidagi summalovchi qurilmalar uzoq nuqtalardagi aloqa kanallari orqali keluvchi impulslarni qayd etish uchun o‘lchanayotgan aniq bir kattalik miqdoriga ekvivalent bo‘lgan, ularni hamma kanallar bo‘yicha summalash va o‘lchanayotgan isrofning o‘rtacha qiymat maksimumini davriy ravishda (berilgan vaqt oralig‘ida) ko‘rsatib borish uchun mo‘ljallangan. Masofani hisobga oluvchi va summalovchi uskunadan, uning kirishiga kelayotgan aniq bir turdagи impulslarni tahlil qilishni nazarda tutgan holda, aktiv quvvatni hamda reaktiv quvvatni o‘lhashda foydalanish mumkin. Bundan tashqari, analogli signallarni berilgan impulslar ketma-ketligi ekvivalentiga aylantirilsa, undan boshqa kattaliklarni o‘lhashda ham foydalanish mumkin.

Bitta masofadan hisobga oluvchi va summalovchi uskuna sakkiztagacha bo‘lgan hisobga olish punktlaridan keladigan axborotni qabul qilib olish hamda tahlil etish imkoniga ega. Uskuna impuls datchiklarga ega bo‘lgan, o‘zidan 25 km masofada joylashgan hisoblagichlardan axborot olish imkoniyatiga ega. Chunki, uskunaning katta kirish qarshiligi evaziga aloqa liniyasi uzunligining ta’siri umumiylis hisobda nolga teng. Uskuna davomiyligi 30 ms bo‘lgan impulslarni, musbat kuchlanishni 6 dan to 12 V gacha qabul qiladi. Kontakt datchikli impuls hisoblagich holatida kuchlanish impulslarini yuqoridagi davomiylikda 250 V gacha ko‘tarilishi mumkin. Uskuna o‘ziga kelib tushayotgan signallarni ham bir vaqtning o‘zida, ham turli vaqt oralarida qabul qila oladi. Mikrosxemadagi xotira bloki hisobiga bir vaqtning o‘zida kelib tushayotgan signallar yo‘qolmaydi. Ular yozib olinib, bir-bir ko‘rib chiqiladi. Uskunaning ko‘rsatkichi shartnomada ko‘rsatilgan quvvatdan 20–40% oshuvchi maksimumga ega. Foydalilanayotgan quvvat oshib ketganda, uskunaning maksimum ko‘rsatkichidagi tishli uzatmani almashtirish zarurati tug‘ilishi mumkin.

Masofadan hisobga oluvchi va summalovchi uskunaning aniqligi unga ulangan impuls datchikli hisoblagichlarning aniqlik sinfiga bog'liq.

EST.M turdag'i masofadan summalovchi dasturlanuvchi uskunaning asosiy vazifasi – elektr iste'molini o'lchashdir. Qayerda iste'molchi bir necha nimstansiyalardan qabul qilib olsa, o'sha yerda uskunaning ustunliklari namoyon bo'limoqda. Bunday holatda har bir ta'minlash simining kirish qismida impulsli datchikka ega bo'lgan elektr hisoblagichlar o'rnatilgan. EST.M uskunasi elektr hisoblagich impulslarini summalaydi, iste'molni yuklananining sutkalik grafigi qancha bo'yicha o'zgarishni ko'rsatadi. Integrallash davrining davomiyligi har qanday standart qiymat bo'lishi mumkin.

EST.M uskunasi suv va gaz ta'minotini o'lchashda hamda aniq bir miqdordagi proporsional impulsları tahlil qilinadigan har bir sohada qo'llanilishi bo'yicha ET turidagi elektr tizimiga nisbatan bir qancha afzalliklarga ega.

Ular quyidagilar:

- joyning o'zida hisobga olish punktlari nominallarini dasturlash imkoniyati;
- har bir kanalda yo'nalishini berish imkoniyati;
- 2 dan 12 gacha kanallar miqdori;
- yo'nalishlari bo'yicha iste'molning summaviy chiqishi;
- shu turdag'i uskunaning kirishidagi bir qancha uskunalarning chiqish signallarini qo'shish yo'li bilan hisobga olish kanallari miqdorini oshirish imkoniyati;
- kvarst stabilizatsiyali kontakt soat funksiyasini hamda tashqi qurilmalar ishini boshqarish uchun chiqishlarning bajarilish imkoniyati;
- yuklama maksimumini ko'rsatish funksiyasining bajarilishi;
- tig'iz paytlarda talab etilgan quvvat miqdorini kuzatish imkoniyati;
- mikroprotsessorli konstruksiya;
- boshqarishning soddaligi hamda klaviatura va raqamli indikator evaziga dasturlash imkoniyati;
- tuzilishning soddaligi, yuqori ishonchhlilik.

EST.M turidagi masofadan boshqariluvchi uskuna buyurtmaga ko'ra 4 ta, 8 ta va 12 ta kirish joyi bilan tayyorlanishi mumkin. Haqiqiy soni esa dasturlanishiga ko'ra 2-4, 2-6, 2-12 bo'ladi.

yo‘nalishi har bir kanal bo‘yicha aniqlanishi mumkin. Bitta summatorga manfiy yo‘nalishdagi da (energiya chiqarishda) ishlovchi hisoblagichlarni hamda musbat yo‘nalishdagi energiyada (energiya iste’molida) ishlovchi elektr hisoblagichlarning ularish imkoniyati bor. Aktiv va reaktiv energiyalarni summalash uchun ikkita alohida uskuna kerak bo‘ladi. Chunki summator kontaktli soat funksiyasini bajaradi, alohida kontaktli soat talab etilmaydi. EST.M uskunasi to‘liq elektron jihozlaridan yasalgan. Barcha funksiyalar undagi mikrohisoblovchi mashina va dasturiy ta’minotning mavjudligi hisobiga amalga oshiriladi. «GANZ» elektr hisoblovchi uskunalar zavodi tomonidan ishlab chiqariladi.

«GANZ» elektr hisoblovchi uskunalar zavodi dunyodagi elektr hisoblagichlar ishlab chiqaruvchilarining eng asosiyasi hisoblanadi. Vengriyada bundan 100 yil avval hisoblagichlar ishlab chiqarila boshlagan. Dunyoda birinchi induksion prinzipda ishlaydigan o‘zgaruvchan tok iste’molidagi hisoblagich venger muhandisi Otto Blat tomonidan ishlab chiqilib, ro‘yxatga olingan. Birinchi namuna esa Frankfurt yarmarkasida 1889-yili namoyish etilgan. Shundan so‘ng, o‘sha yilning o‘zida «GANZ» zavodida uni ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan.

Elektr hisoblagichlarning konstruksiysi 1900-yillar boshida ancha takomillashtirilgan hamda «GANZ» zavodi o‘tgan asrning 20-yillarida shu uskunalarini eksportga chiqara boshladi. Biroq hisoblagichlarning katta miqdorda ishlab chiqarilishi Vengriyada, Budapest shahridan uzoq bo‘limgan Gedele shahrida «GANZ» elektr o‘lchovchi uskunalar zavodi qurilgandan so‘ng, 1950-yilda sobiq «GANZ» korxonalarini bazasida yo‘lga qo‘yilgan.

Energotejamkorlikni boshqarish uchun avariya signali va radiokanalga ega bo‘lgan integral avtomatlashirilgan o‘lchov tizimi (ETHAT) sanoat va turarjoy sektorlaridagi hisobga olish, nazorat va gaz, elektr energiyasi, issiqlik, issiq va sovuq suv iste’molini rostlash, shuningdek yong‘in, avariya signali, energiya resurslarini va suvni tashuvchi hamma korxonalarga radiokanal orqali ma’lumotlarni uzatuvchi ekologik monitoring, avariya xizmati, to‘lov qabul qiluvchi bank punktlari, kommunal-xo‘jalik, FVV, IIV tizimlariga bo‘ladigan xarakatlarni kamaytirish uchun mo‘ljallangan. «ENEPEKO» AJning bu tizimi Moskva shahrining yangi qurilish obyektlarida keng qo‘llanilmoqda.

Energiyani tijorat ko‘rinish hisobga olishning avtomatlishtirilgan tizimi «EMKOS» turli ko‘rinishdagi iste’molini masofadan hisobga olishni avtomatik tashkil etish uchun mo‘ljallangan. U hisobga olish natijalarini iste’molchi uchun tushunarli va qulay ko‘rinishda taqdim etadi. Shu bilan birga, u foydalilanigan energiya miqdori hamda uning qiymati to‘g‘risidagi tijorat ko‘rinishdagi ma’lumotlarni o‘z vaqtida va ishonchli holda uzatishni ta’minlaydi. Tajribalar ko‘rsatishicha, «EMKOS» ni 5–25% gacha iqtisod qilishi mumkin.

Katta sanoat korxonalari hamda elektr stansiyalarida operativ nazorat va boshqaruv tizimining har xil turlari keng qo‘llanilmoqda.

Masalan: «Siemens» konserni tomonidan ishlab chiqilgan axborot ta’motini texnologik jarayonga kiritish, «Siemens» konserni OM 650 tizimi (OM=Operating and Monotoring) TELEPERM. XP-ME tizimlari uchun texnologik jarayonga axborot ta’motini kiritish va operativ nazorat kabi masalalarni bajaradi. Berilgan funksiyalarni bajarish uchun iste’molchiga X/Windows va OSF-MOUFTM standartlariga asoslangan unifikatsiyalangan interfeys taqdim etiladi.

Shlyumberjening energoresurslarni hisobga olish bo‘yicha kompleks tizimi (elektrenergiya, gaz, suv). Shlyumberje birlashmasining elektrenergiya departamenti son jixatdan juda yirik hisoblanib, u dunyoning 22 mamlakatida joylashgan 30 ga yaqin zavodlarni o‘z ichiga birlashtiradi. Guruh yiliga 7 milliondan ziyod elektr hisoblagichlarini ishlab chiqaradi. Yillik sotuv hajmi 1 milliard dollarni tashkil etadi. Energoresurslarni boshqarish tizimlari va hisobga olish uskunalarini ishlab chiqaradi. Schlumberger Resource Management Systems bo‘limi ham maishiy, ham sanoat korxonalari uchun mo‘ljallangan energoresurslarning barcha turlari elektr, issiqlik, gaz, suvni hisobga oluvchi tizimlar va uskunalarini ishlabchiqarish bo‘yicha yetakchilardan biridir. Barcha turdagisi hisoblash uskunalarini maishiy va sanoat korxonalari uchun mo‘ljallangan, sertifikatlangan hamda Rossiya, O‘zbekiston, Belorussiya, Ukraina, Boltiq bo‘yi, Moldova, Qozog‘iston, Armaniston va Gruziya davlatlari reestriga kiritilgan.

Shlyumberje Elektr departamentining xizmat va mahsulotlari keng spektrini quyidagi kategoriyalarga bo‘lish mumkin:

- elektr hisoblagichlari (elektromexanik va elektron, ko‘p tarifli) – sanoatda, maishiy va kichik matorli sektorlardagi elektro iste’molida qo‘llash uchun;

- ko‘p funksiyali va intellektual hisoblagichlar;
- elektroni taqsimlash va uzatishda hisobga olish uchun, shuningdek, sanoat tizimlaridagi energoresurslarni hisobga olishda;
- energo iste’molni boshqarish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimidagi (ASKUE) ma’lumotlarni uzatish va qayta ishslash, saqlash va yig‘ish uchun dasturiy ta’milot va uskunalar;
- elektroenergiya uchun oldindan to‘lov tizimlari;
- elektr iste’molni boshqarish va hisobga olish bo‘yicha ma’lumotlarni kuch tarmoqlaridan uzatishning avtomatlashtirilgan tizimlari;
- elektroenergiyadan samarali foydalanishni tashkil etish uchun periferik uskunalar: tarif o‘zgartrigichlari, elektroni texnik hisobga olish uchun hisoblagichlar, yuklamani tahlil qilish motorlari;
- elektroenergiya ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlashda birlashma tomonidan turli kategoriyadagi mijozlarga ko‘rsatadigan xizmatlarning keng ko‘lami.

10 yildan ortiq davr mobaynida yangi, texnologik va ko‘p funksiyali NPF «Energosoyuz» ning «Neva» axborot tizimi qo‘llanilmoqda. Qayd etish hamda normal va avariya rejimlarini nazorat qilish va tashuvchilar sarfini hisobga olish bloki (QNHB) «Neva»ning asosiy vazifasi hisoblanadi. Bitta osstillografga 64 ta analogli va 288 tagacha diskret signallarni ulash mumkin. Signallar avtomatik ravishda yozib olinib, ShK ga uzatiladi va iste’molchiga qulay ko‘rinishda monitor ekranida ko‘rsatiladi. Osstillograf «ichi-dagi» datchiklardan tok va kuchlanishlar signallari bo‘yicha har qanday nuqtadagi avariyanidan oldingi, avariya hamda avariyanadan keyingi jarayonlarning harakatdagi qiymatlari dasturiy yo‘l orqali hisoblanadi. QNHB ga uzgich va ajratgichlardan keladigan signal ulansa, obyekt sxemasining holatini ShK ekranida ko‘rish mumkin bo‘ladi.

QNHB ning har qanday diskret kirishiga elektroenergiya, suv, gaz va boshqa hisoblagichlarning impuls chiqishlarini ulash mumkin, albatta ETHAT dasturida ishlovchilarni ham. «Neva» tizimida sutkalik yuklama grafiklari xulosasi avtomatik ravishda ishlab chiqariladi. Komplektga yana osstillograflash, o‘lchash va elektr rejimlarni hamda elektr sifatini tahlil etuvchi uskunalar ham kiradi. Sanoat hamda energota’milot korxonalarining elektr qismini energetik tekshirish (energoaudit), «Neva» tizimini korxonaning lokal tarmog‘iga ulanish, shikastlangan joyini aniqlanishi «Neva» dasturiy

ta'minotida integrastiya prinsipi bo'yicha bajarilgan va u iste'molchi uchun doimo ochiq. Kommutatsion apparatlar, rele himoyasi va avtomatikasini ishga tushirilishi, «Neva» tizimi tomonidan qayd etiladigan har qanday hodisa «Informator» dasturi yordamida aniqlanadi.

«Neva-TM» telemexanik kompleksi «Neva»ning navbatdagি texnik va dasturiy modelining davomi hisoblanadi. Uning oldingi modellardan farqi boshqaruv funksiyasining mavjudligidadir.

Qo'llanilishi: «Neva-TM» sanoatning turli tarmoqlaridagi lokal va taqsimlovchi tizimlarning energo obyektlari oprativ-dispatcherlik nazorati va boshqaruvida qo'llash uchun mo'ljallangan.

«Neva-TM» blokining texnik ma'lumotlari

Kirishlar miqdori:

Osstillograflash 32/6

Normal rejimni o'lhash 32/64/94

Diskret kirishlar/chiqishlar 24/48/288

Kiruvchi analogli signallarning darajasi: 1 A, 5 A, 100 V, ±5mA, ±100 mA, 75 mV, 1000 V.

Kiruvchi diskret signallarning turi – «quruq kontakt» yoki daraja kuchlanishi – 3,5 dan 52 V gacha.

Kiruvchi signallar darajasi:

Elektron kalit 60 V, 800 mA;

Releniki =~270 V, 1,5 A;

Diskret signallari bo'yicha galvanik tarqalishi – 1,5 kV;

Analogli va diskret signallarining skanerlanish darajasi – 1 ms;

Telemexanik ma'lumotlarning uzatilish davri – 1-10 s;

Analogli signallarni o'lhashdagi xatolik – 1% gacha;

Vaqtinchalik intervallarni o'lhash xatoligi – 1 ms gacha;

QNHB ning kompyuter bilan bog'lanish turi Ethernet 10/100 M, bit/c;

Uzilmaydigan ta'minoat manbaidan yoki operativ tokdan keladigan ta'minot =~170-264 V;

Iste'mol qilinadigan quvvat – 60 VA gacha;

Konstruksiya gabaritlari kross bilan (MO 64/288 uchun) 600x800x250 mm;

Kompyuterning dasturiy muhiti – Windows NT/98/2000.

«Neva-TM» funksiyalari: Obyekt holati monitoringi; uzgichlarning masofadan boshqarilishi; avariyalarni osstillograflash;

elektroenergiyani hisobga olish; hodisalarining diskret signallar bo‘yicha qayd etilishi; sutkalik hisobot; qurilma resurslarini hisobga olish; ma’lumotlarining masofadan uzatilishi; EUL sining shikastlangan joyi aniqlanishi.

«Neva-TM»dagi boshqaruv – bu QNHB bloki dikret chiqishlarini masofadan boshqarilishi. Boshqaruv sichqoncha orqali shaxsiy kompyuterda obyektning mnemosxemasida olib boriladi. «Yoqish-o‘chirish» buyrug‘i QNHB ning alohida chiqishlarida berilgan uzunlikdagi impulslarni hosil qiladi. Bloklovchi signallar mavjud bo‘lganda ushbu buyruqlarni uzatish mumkin bo‘lmaydi. Uzbekistonda 12 kompleks «Neva TM» urnatilgan.

Issiqlik hisoblagichlari issiqlik ta’mnotinining turli tizimlaridagi issiqlik energiyasini o‘lhash, issiqlik tashuvchining parametrlarini qayd etish uchun mo‘ljallangan. Issiqlik hisoblagichlari o‘lhash va indikatsiyani avtomatik ravishda bajaradi. Elektromagnit turidagi sarf o‘zgartrgichlari bilan ta’minlangan issiqlik hisoblagichlari eng keng tarqalganidir. Ular SA-94, TEM-05M, STR-01, KM-5 kabi issiqlik hisoblagichlari bilan ta’minlangan. Elektromagnit turidagi sarf o‘zgartrgichli issiqlik hisoblagichlari KTPTR-01 turidagi qarshilikka ega bo‘lgan platinali termometrlar qo‘llaniladigan harorat o‘zgartirgichlarida qo‘llaniladigan boshqa bir sarf o‘zgartrgichi o‘rama turidagi sarf o‘zgartrgichdir. Bunday o‘zgartrgichlar bilan «TARAN-T», Maklo, STK-5 turidagi issiqlik hisoblagichlari ta’minlangan. O‘rama turidagi sarf o‘zgartrgichli «TARAN-T» issiqlik hisoblagichlarida issiqlik tashuvchining maksimal va minimal sarflar munosabati 40:1 ni tashkil etadi, aynan shu paytda STR-01, TEM-05, SA-94, KM-5 turidagi issiqlik hisoblagichlarida elektromagnit sarf o‘zgartrgichlaridagi ana o‘scha munosabat 150:1 ni tashkil etadi.

Issiqlik hisoblagichlari uchun mo‘ljallangan uchinchi tur sarf o‘zgartrgichlari ultratovushli o‘zgartigichlar hisoblanadi. U bilan, UFM 001 issiqlik hisoblagichi ta’minlangan. Ultratovushli sarf o‘zgartrgichli issiqlik hisoblagichlarini ekspress-o‘lhash uchun xizmat qiladigan qo‘zg‘atiladigan qurilmalarda foydalanish ancha qulay, ya’ni ultratovushli o‘lhash usulida quvur butunligini buzish talab etilmaydi.

Issiqlik hisoblagichlari uchun yana bir turdagisi sarf o‘zgartrgichi taxometrik turdagisi o‘zgartrgich hisoblanadi. Taxometrik datchikning asosiy zanjiri turbinka va krilchatka hisoblanadi. Ularning tezligi suyuqlik oqimining tezligiga bog‘liq ravishda o‘zgaradi. Harorat

datchiklari sifatida hisoblagichlar bitta bo‘g‘inda ishlashini amalga oshirish uchun qarshilikli platinali termometrlardan tashqari, termoparalar qo‘llanishi mumkin. Masalan, «Taran-T» hisoblagichi bo‘g‘inida KTXA-01 turidagi xromel-alyumelli termopara qo‘llaniladi. O‘lchov-hisoblov blokiga nazoratchilar, display, klaviatura, bloklar, bog‘lovchi kabellar va boshqalar kiradi. Issiqlik hisoblagichining elektron blokiga har bir o‘zgartrgichning alohida-aloqa liniyasi orqali signallarni uzatish imkoniyati mavjud. Bunday usul TEM-05M, SA-94, STR-01 turidagi issiqlik hisoblagichlarida qo‘llaniladi.

Yana bir signallarni o‘zgartrgichdan uzatish usuli – bu birinchi va ikkinchi usullarini kombinatsiyasini tashkil etuvchi «CALMEX» turidagi kombinatsiyalangan issiqlik hisoblagichlaridir. U issiq suv, issiqlik tashuvchi masofali isitish tizimiga kiruvchi turarjoy binolari, issiqlik almashinuv shoxobchalari va boshqa binolardagi issiqlik sarfni doimiy o‘lhash uchun mo‘ljallangan. «CALMEX» hisoblagichi quyidagi elementlarni o‘z ichiga oluvchi o‘lchov asbobdir: ikki turda bajariluvch; ikki bosqichli; standart va nostandart bajariluvchi. VKP 111-VKP 242 va VKP 191- VKP292 markali, VKP3113 – VKP3 274 va VKPS193- VKPS gaz markali, TMRS turidagi qarshilikli termodatchiklar RS-M turidagi o‘zgartirgichlar, jh-3-V/3-k turidagi, REED impuls uzatuvchili M-T turidagi suv hisoblagichlar hamda WP turidagi REED 02.2 impuls uzatuvchili. Ko‘p funksiyali issiqlik hisoblagichi orqali boshqariladigan bitta chipli mikrouzgich qarshilik termodatchiklari va suv hisoblagichlaridan keladigan signallarni yuqori aniqlikda tahlil qiladi. Sarflanayotgan issiqliknii, unumdorlikni, kiruvchi (eng yuqori) haroratni, chiquvchi (eng past) haroratni, dolzarb sana va vaqtini aniqlaydi. Issiqlik miqdori tahlilida solishtirma entalpiyani va solishtirma suv hajmini o‘z ichiga oluvchi variastiyalangan issiqlik koeffitsiyenti bilan ishlaydi. Bundan tashqari taxlil qiladi va LCD displayda nosozlik holatini ko‘rsatib turadi, o‘lchangan ma‘lumotlarni saqlanish muddati minimal 10 yil bo‘lgan EEPROM xotiraga joylaydi.

Suv hisoblagichlari turli suv ta’minoti tizimlaridagi issiq va sovuq suv sarfni tijorat ko‘rinishida hisobga olish uchun mo‘ljallangan. Suvni hisobga olish uchun VSX, VMX (sovut suv $tB=+5\div+500C$) turidagi va VSG, VMG turidagi (issiq suv ($tB=+5\div+500C$)) hisoblagichlar qo‘llaniladi.

6.3. Elektr energiya iste'molining nazorati va hisobga olishining avtomatik tizimi

Elektron axborot tizimlarini ishlab chiqarilishi zamonaviy yuqori texnologiyalarning rivojlanishida peshqadam hisoblanadi. Ushbu tizimlarning ishlab chiqarish hajmi, ya'ni milliy ishlab chiqarishdagi umumiy hajmi mamlakatning intellektual, ilmiy va texnik darajasini ko'rsatadi.

Bunday turdag'i ishlab chiqarish professional kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga, uskunalarini sotib olishga, dasturiy ta'minotga, xalqaro standart talablariga va ularni bu talablarga mosligini ishlab chiqishga ketadigan sarf-xarajatlarni talab etadi. Lekin elektron axborot tizimlarini yiliga o'nlab million dollar hajmidagi ishlab chiqarish quyidagilarni ta'minlaydi:

1. Soha va mamlakatning yangi professional, intellektual va ishlab chiqarish darajasiga o'tishi.

2. Sanoatni aralash sohalaridagi ishlab chiqarishni xalqaro standart me'yorlariga ko'tarish. Elektro iste'molini hisobga olish va nazoratining avtomatik tizimi ham elektroenergetika ko'magidagi elektron axborot tizimi hisoblanadi. Elektroni hisobga olishni tezligi va aniqligi ham energetika korxonalari uchun ham iste'molchilar uchun yanada dolzarb masala bo'lib hisoblanadi.

Elektroenergiya istemolini hisobga olish va nazoratining avtomatlashirilgan tizimi (EHNAT) :

Energota'minlovchi korxonalariga:

- Elektroenergiya bozori subyektlari bilan ma'lumot almashinuvini avtomatlashirish;
- Elektroenergiya bozori subyektlari va iste'molchilar bilan hisob-kitobni avtomatlashirish;
- Elektr energiya hisobini tezligi va aniqligini oshirishga erishish;
- Elektroenergetik tizimlarni texnik holatini avtomatik boshqarishni ta'minlash;
- Iste'molchilar orasida va quvvat taqsimlanishini har hil boshqarish sxemalarini tatbiq etish;
- Korxona ishi samaradorligini oshirish.

Iste'molchilarga:

- elektr energiyani hisobga olishni tezligi va aniqligini oshirishga erishish;

- xarajatlarni kamaytirish maqsadida korxonadagi quvvat va taqsimlanishini har hil boshqarish sxemalarini tatbiq etish;
- istemol qilinayotgan va quvvat to'lovlarini pasaytirish (tez tez bir necha bor);
- enargiya va quvvat tashuvchi bilan hisoblarni avtomatlashtirish (energiya ta'minot korxonasi bilan).

EHNAT – bu boshqaruv-o'lchov apparaturalari, aloqa kommunikatsiyasi (ma'lumotni uzatuvchi tarmoqlar), EHM va dasturiy ta'minot (DT)dir.

Umumiyo ko'rinishda EHNAT tashkil etuvchilarini quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

- elektroenergiya va quvvat hisoblagichlari (raqamli interfeys yoki impulsli chiqish bilan), shuningdek ma'lumotni yig'uvchi va uzatuvchi uskunalar (MYUU), multipleksorlar, telesummatorlar va boshqa shu kabi qurilmalar;

-kommunikatsiyalar(kommunikatsiyalovchi telefon aloqa kanallari GSM, GPRS, radiokanallar va boshqalar);

-maxsus o'rnatilgan DTli EHM (hisoblagichlar va iste'molchilar guruhidan keladigan ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish uchun);

-o'lchov ma'lumotlarini boshqa korxonalar yoki elektro energiya tashuvchi bilan almashinuv dasturiy ta'minoti;

Dasturiy ta'minot 5 qismdan iborat:

1) ma'lumotlar bazasi va elektr hisoblagichlar ko'rsatkichlarini boshqarish bo'yicha tizimlar;

2) kuch aloqa liniyalari bo'yicha hisoblagichlarni avtomatik so'rov tizimi;

3) elektr hisoblagichlar dislokatsiyasi va parametrlarini ko'rsatuvchi grafik tizimlar;

4) ma'lumotlarni tahlil qilish bo'yicha tizimlar;

5) kompleksni, ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi.

EHNAT tizimi quyifagi funksiyalarga ega:

-elektro energiya to'g'risidagi ma'lumotlarni yozib olish;

-iste'molchi hisoblagichidagi ma'lumotlarni arxiv yozuvini aniqlash va boshqarishi hamda tizimni avtomatik o'z o'zini tekshirishi;

-konsentrator, terminal va hisoblagichni parametrlarini o'rnatish;

-ma'lumotlarni masofadan o'qish, energota'minotni uzilishi/ulanishini va istemol qilinayotgan quvvat darajasini boshqarish;

- qo'lda va avtomatik so'rov;
- liniyalardagi isroflarni va elektr o'g'irligini oldini olish;
- operator haq-huquqlarini chegaralash;
- nome'yoriy hodisalar to'g'risidagi hisobot;
- taqsimlovchi tarmoq sxemasini ko'rsatib turilishi;
- har bir fazadagi ma'lumotlarni hisobga olish va har bir fazadagi nobalanslarni aniqlash;
- ko'ptariflilik;
- har hil hodisalar to'g'risida avtomatik ogohlantirish;
- quvvat va istemol qilinayotgan quvvat darajasini boshqarish haqidagi ma'lumotlar;

Barcha ma'lumotlarni izlash va chaqirish.

Hal qilish lozom bo'lgan masalalardan keyingisi-elektroenergiya va quvvatni ulgurji bozor ishi talablariga javob beruvchi, elektroenergiyani hisobga olish va nazoratning axborot-o'lchov tizimlarini avtomatik tizimini(EHNAT) obektlarga kiritilishi.

EHNAUAT va EHNAT – elektr tarmoqlaridagi energetik oqimlar haqidagi ma'lumotlarini ishlab chiqish va saqlash, masofadan turib ma'lumotlarni iyig'uvchi uskuna va dasturiy vositalarni yig'indisidir.

EHNAUAT elektroenergiya bozorini avtomatlashtirish uchun kerakdir. Shuningdek, EHNAUAT elektrouskunalarni ishlash rejimini boshqarishda texnik funksiyalarni bajaradi.

Tizimni tarkibi

EHNAUAT ishlab chiqaruvchilar orasida tizimni shartli ravishda quyi va yuqori darajalarga bo'linishi qabul qilingan. Quyi darajaga hisobga olinuvchi obyektda to'g'ridan to'g'ri ishlovchi uskunalar va mikrodasturlar kiradi. Yuqorigi darajaga boshqaruvchi tashkilot ofislarida va ma'lumotlarni ishlab chiqish markazida bo'lgan tizimning qolgan qismlari kiradi.

Axborot-o'lchov kompleksi

Axborot-o'lchov kompleksi(AO'K) – elektr hisoblagichdan elektroenergiya o'tkazgichigacha bo'lgan tizim qismi. Hisoblagichni transformatorlar bilan bog'lovchi trnsformator toklari, kuchlanish transformatori va elektr uzatgichlar, axborot o'lchov kompleksi

tarkibiga kiradi. EHNAUAT qoidaga ko'ra , bir necha axborot-o'lchov kanallarini o'z ichiga oladi. Axborot-o'lchov kompleksi EHNAATni quyi darajasiga kiradi. Hisoblagich va MUYU (ma'lumotlarni uzatuvchi va yig'uvchi uskuna) orasidagi kommunikatsiyon soha sifatida RS-485 interfeysi , RS-232 interfeysi, CAN interfeysi, GSM, radioefir, PLS-0,4 kv tarmoq hizmat qiladi. Kommunikatsion sohada aloqa kanalini tashkil etish dasturi va uskunaviy usullar bilan amalga oshiriladi.

Axborot – hisoblash kompleksi

Axborot – hisoblash kompleksi (AHK) – elektr hisoblagichdan boshqaruvchi tashkilotga bo'lgan tizim qismi. AHK tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ma'lumotlarni uzatish va yig'ish uskunasi (MUYU)
- elektr hisoblagich va MUYU orasidagi aloqa kanallari
- yuqori daraja serverlari
- MUYU va yuqori daraja serverlari (quyi darajadan yuqori darajaga o'tish) orasidagi aloqa kanallari va kommunikatsion soha
- bir vaqt ni ta'minlovchi tizim (BVTT)
- dispecherlarning avtomatlashtirilgan ish joylari (AIJ)
- tizim boshqaruvchilarining avtomatlashtirilgan ish joylari
- yuqori darajaning aloqa kanallari, shu qatorda AIJning aralash axborot foydalanuvchilarini va serverlar orasidagi aloqa kanallari
- yuqori darajaning dasturiy ta'minoti

MUYU va yuqori daraja serverlari borasidagi kommunikatsion sohasi bo'lib tarmoqlashgan kabel tarmog'i , kommunikatsiyalovchi kanalli telefon tarmoqlari, Ethernet, GSM, optik-tolali aloqa, radio aloqa yoki internet xizmat qiladi. Kommutatsiyalovchi sohadagi aloqa kanallarini tashkil etilishi dasturiy yoki uskunaviy usullar bilan amalga oshiriladi.

Iste'mol qilingan elektro miqdori haqidagi ma'lumotdan aralash foydalanuvchilarini deb, ushbu axborotga haqqi bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar tushuniladi (masalan, iste'molchi va energosotish, tarmoqlar va generatsiyalovchi tashkilotlar va boshqalar).

Tizim funksiyalari

Elektrtoenergiyani har bir nuqtadagi(guruhdagi) berilgan tijorat intervallaridagi (NP ATSGa ko'ra – 30 daq.) iste'molini tijorat ko'ri-nishida hisobga olish ma'lumotlarini avtomatik tarzda to'planishi.

Hisobga olish ko'tsatgichlarni ma'lumotlar bazasida saqlanishi. Elektroenergiya istemolida ko'ptarifli hisobga olishni nazoratini ta'minlanishi.

Energoiste'molni limitlarga amal qilishni nazoratini ta'minlash.

Berilgan so'rov (texnik) intervalidagi elektroenergiya ko'rsatgichlari (toklari, kuchlanishi, chastota) nazorati.

Hisobiy ko'rsatgichlarni terminalga yoki chop etish qurulmasiga operatorning talabi bilan chiqarish.

Bitta tizimi vaqtini kiritilishi uni o'zgartira olish imkoniyati bilan.

Tizimni ishga tushirish va uni ekspluatatsiya qilish davridagi hisobiy guruh (seksiya, shinalar tizimi va boshqalar) bo'yicha elektroenergiya balansi haqidagi ma'lumotlar.

Qollanilish sohalari Iste'molchi – korxonalarda

Yirik elektroenergiya iste'molchilariga (fabrika, zavod va boshqalar) EHNAO'AT quyidagi justunliklarni beradi:

Ko'pgina elektro hisoblagichlar ko'rsatgichlarini qo'lda olish imkoniyati shart emasligi

Elektroenergiyani ko'p tarifli hisobga olishni kiritilishini yengillashishi

Elektroenergiya harajatlarini bashoratlashni yengillashishi

Elektroenergiya sifatini nazorati(sertifikatlanmagan)

Tok va kuchlanishlar orasidagi farq bo'yicha fiderlarni o'chirilishi va yoqilishi haqidagi ma'lumotlarni MUYU hodisalar jurnaliga yozib qo'yilishi (bu ma'lumotlarni hisoblagich yig'adi va MUYUga uzatadi)

Istemol qilingan elektr energiya miqdori haqidagi ma'lumotlarni maishiy elektr korxonalariga avtomatik tarzda uzatish imkoniyatining mavjudligi

Elektroenergiya va quvvatning ulgurji bozoriga chiqish imkoniyatining borligi.

Tarmoqlangan korxonalarda

EHNAO'AT yordamida tarmoqlangan korxonalar transformator va elektr uzatish liniyalaridagi energiya isroflari hisobini olib borishadi. EHNAO'AT tomonidan beriladigan ma'lumotlar tahlili shuningdek, elektr tarmoqdagi yuklangan qismlarni aniqlab uni o'tkazuvchanlik xususiyatini oshirish bo'yicha qaror qabul qilishga yordam beradi.

Generatsiyalovchi korxonalarida

Ba'zi bir elektroenergiya ishlab chiqaruvchi korxonalar elektr hisolagichlardan ko'rsatgich olishda chastotaga yuqori samarali ish rejimida usulida so'rash sharti va energiyatashuvchida ortiqcha xarajatga yo'l qo'ymaslik bilan izohlanadi.

Maishiy – elektr korxonalarini

EHNAO'AT faqatgina iste'molchilarga elektroenergiya hisobini berish uchun emas balki o'zaro kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun hamdir. Ya'ni EHNAO'AT bitta ma'lumotni ham energota'minotchi ham iste'molchiga bir vaqt ni o'zida berishi kelishmovchilik boshlanishidan oldin uni bartaraf etadi.

Huquqiy tomoni

EHNAO'AT shartli ravishda sertifikatlangan bo'lishi va davlat reestrga o'Ichov vositalari sifatida kiritilishi lozim. Tizim tomonidan hisobga olingan ma'lumot, tijorat statusiga ega va sudda moliyaviy garovlarni hal etishda ishlatilishi mumkin.

Ma'lumotni uzatish uchun kommutatsiyalovchi yoki ajratilgan aloqa kanallari qo'llaniladi:

- kabel va simli telefon kanallari;
- yuqori kuchlanishli liniyalar bo'yicha yuqori chastotali aloqa(YU.CH) kanallari;
- ajratilgan ingichka lentali (telemexanik) kanallar;
- UKV radiostansiya bazasidagi radiokanallar, uyali yoki boshqa mobil aloqa kanallari.

Elektroenergiya va quvvat haqidagi boshlang'ich ma'lumotlar MET hududida joylashgan EHNAT obyektlarda tashkil topadi: elektrostansiyalarda, podstansiyalarda va blok-stansiyalarda, sanoat korxonalarida.

EHNATni tuzilishi va funksiyalarini hayotga tatbiq etish uchun universal va maxsus texnik vositalar qo'llaniladi. Ular quyidagilar:

- uskunalar (hisoblagichlar) va o'Ichov o'zgartgichlari(datchiklar)
- axborot-o'Ichov tizimlari (AO'T) – uskunalardan keladigan ma'lumotlarni saqlash, toplash, birlamchi tahlili va ma'lumotlarni uzatish va yig'ishni avtomatik vositalari;

-ma'lumotni AO'Tdan axborotni tahlil qilish markazlariga shuningdek, lokal tarmoqlar, aloqa kanallari, modemlar, signallarni kommutatsiya qilish uskunalarini va boshqalarga uzatish vositalari;


-energo obyektlardan tashuvchi axborotni tahlil qilish markazlari uchun va EHNAT ierarxiyasi darajalari orasida ma'lumot almashinishi uchun hisoblash texnika vositalari;

-EHNAT dasturiy ta'minoti (DT) tizimi, funksional va texnologik bo'limlardan iborat. Tizimi va funksional DT bajariladigan masala va foydalaniadigan texnik vositalarga, EHNAT ierarxiyasiga bog'liq.

Tizimning lokal darajasi tuzilishi

Bitta darajali lokal tizim qurilma va dasturiy vositalarni minimal miqdoridan foydalangan holda amalga oshiriladi:

Bitta darajali lokal tizimi



6.1-rasm. Bitta darajali lokal tizim sxemasi :


- ko'pfunksiyali elektron hisoblagichlar;
- elektron to'lov vositasi – elektron plastic karta;
- iste'molchilarga xizmat ko'rsatish terminali.

Ko'p darajali tizim tuzilishi

Ko'p darajali tizim lokal tizimlarning mantiqiy davomi hisoblanadi. Iste'molchilarga xizmat ko'rsatish terminallari hisoblash markazi bilan ierarxik sxema orqali bog'lanadi. Ular orasidagi aloqani ta'minlash uchun kompyuter tomonidan boshqariladigan modem-

lardan foydalaniлади. Ко‘п даражали тизимларни юратишда худди бир даражали тизимлардагидек қурилма востілардан фойдаланилади, шунингдек, һар бир тизим даражаси учун қо‘шимча дастурий та’минот ва модемдан фойдаланган holda телефон алоқа каналлари.


Hududiy tizim sxemasi



6.2-rasm. Hududiy tizim sxemasi

To‘g‘ridan – tog‘ri sim aloqali ETHAT


Tog‘ridan – to‘g‘ri sim aloqali EHNAT sxemali eng oddiy va keng tarqalgани hisoblanadi. Uskunalarga ketadigan sarf – harajatlarni minimal qilgan holda energetik korxona real vaqt rejimida barcha uchastka va sexlardagi energoiste’molni kuzatish imkonini beradi. Bunday sxema uncha katta bo‘lmagan korxonalarda elektroenergiya texnik hisobini avtomatlashtirish учун қо‘llanilishi mumkin. Hisoblagichlarni kompyuterga bog‘lanishi RS 232/485 adapteri orqali UTP 5 cat yet signallaardan himoyalangan standart tarmoq kabeli bilan amalga oshiriladi. Ideal shart – sharoitlarda bitta guruhda 32 tagacha hisoblagichlarni ulyash imkoniyati mavjuddir, tarmoq uzunligi 1200 м gacha, ma’lumotni uzatish tezligi 115200 kVt/s gacha bo‘lishi mumkin.



6.3-rasm. Tog‘ridan-to‘g‘ri sim orqali EHNAT sxemasi.


Modem aloqali ENHAT

Modem aloqali ENHATni qurishda har doim ham samarali ishlatilmaydigan AIJ hamda elektr energiyasi hisoblagichi atrofida sifatli raqamli telefon liniyasini bo‘lishi ko‘zda tutiladi.



6.4-rasm. Modem aloqali ENHAT

GSM modemli ENHAT




6.5-rasm. GSM modemli ENHAT

GSM modemlarda ENHATni qurish juda qulay va bu sxemalar oson ishlataladi. Bunday sxema AIJ dan hisoblagichlar qanday masofada bo'lishidan qat'iy nazar, elektr energiyasini hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish imkoniyatini beradi. "Altair Jr" DT hamda GSM modem o'rnatilgan istalgan AIJ hisoblagichlaridan ma'lumotlarni olish imkonnini beradi. Shunday qilib, ma'lumotlarni korxona energetigining hamda yuqori pog'onalardagi AIJlardan ma'lumotlarni olish va tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

Ma'lumotlarni uzatish moduli asosidagi ENHAT

TC-485 ma'lumotlarni uzatish moduli asosidagi ENHATni qurish korxona energetigi lokal AIJdan to'g'ri simli aloqali ENHAT bo'yicha va viloyat energiya ta'minoti korxonasi AIJ dan GSM kanali orqali hisoblagichlarda saqlanayotgan axborotlar to'g'risida ma'lumotlarni olish zarur bo'lgan hollarda optimal yechim hisoblanadi.



6.6-rasm. Ma'lumotlarni uzatish moduli asosidagi ENHAT


Bunday hollarda korxonaga zamonaviy GSM modemlarni sotib olish zarurati va GSM aloqaga sarflarni qilishi kerak bo'lmaydi. Bundan tashqari, TC-485 ma'lumotlarni uzatish moduli "Energiya-9" markali hisoblagichlari bilan ishlash uchun moslashtirilgan va qo'shimcha sozlash ishlarini va DTni talab qilmaydi. Bu esa o'z navbatida bu sxemadagi ENHATni ishga tushirish xarajatlarini kamaytiradi.

“O‘zbekenergo” DAK ENHATning imitatsion axborot-tahlil modeli

ToshDTU da “Eletktr ta’minoti” kafedrasida “O‘zbekenergo” DAK imitatsion axborot-tahlil stendining modeli o’rnatilgan, bu yerda butun respublika bo‘yicha ENHAT tuzilmasi va boshqaruvi aniq ko‘rsatilgan. Stendda quyidagi to‘rtta tuzilmalar bilan aloqaga va boshqaruvga ega bo‘lgan bosh axborot-tahlil markazi tasvirlangan:

Birinchi tuzilma – barcha issiqlik va gidroelektrostansiyalardan iborat. ENHAT generatsiya, o‘z ehtiyojlari, texnologik ehtiyojlar va tuzilmaga berish uchun CTK3 turidagi “Energiya-9” markali uch fazali ko‘p funksiyali to‘rtta hisoblagichiga ega.

Ikkinchchi tuzilma – barcha 110-220-500 kV kuchlanishdagi elektr tarmoqlari va nimstansiyalardan tashkil topgan METdan iborat. ENHAT energiyani uzatish va qabul qilish uchun CTK3 markadagi “Energiya-9” turidagi uch fazali ko‘p funksiyali uchta hisoblagichlarga ega. MET ga kirish chegarasidagi birinchi hisoblagich elektr energiyasini qabul qilish uchun, ikkinchisi – o‘z ehtiyojlari uchun, uchinchi hisoblagich – ETK tuzilmasiga elektrenergiyasini uzatish uchun o’rnatilgan.



6.7-rasm. ENHAT tuzilmalari

Uchinchi tuzilma – barcha 6-10-35 kV kuchlanishli elektr tarmoqlari va elektr nimstansiyalaridan tashkil topgan ETKdan iborat. ENHAT ETK ga kirish chegarasidagi birinchi hisoblagich elektr energiyasini qabul qilish uchun, ikkinchisi – o‘z ehtiyojlari uchun, uchinchi hisoblagich – tuman elektr tarmoqlari (TET) tuzilmasiga elektr energiyasini uzatish uchun o‘rnatilgan uchta hisoblagichlarga ega.

To‘rtinchi tuzilma – TET liniyalari va 6-10 kVli TP hamda 0,38 kV li elektr tarmoqlarini o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga bu tuzilma aholi yashash joylari va maishiy sektor iste’molchilari bilan aloqaga ega. Stendda 3 ta “Energiya-9” turdagи uch fazali hisoblagichlar va CTK1-10 markadagi 5 ta “Energiya-9” turdagи bir fazali hisoblagichlar o‘rnatilgan. Ular 1-anqlik sinfiga ega va quyidagi rejimlarda ishlaydi: 1. Ko‘p tarifli; 2. Plastik kartadan oldindan to‘lanishli; 3. Ulovchi va uzuvchi rejimlarda.

Ko‘p funksiyallı hisoblagichlar

Ko‘p funksiyallı “Energiya 9” turdagи elektr energiyasi hisoblagichli bu turkumdagи hisobga olish asboblarining yetakchisi hisoblanadi. Bu ushablar ishlab chiqarish va energiya ta’minoti korxonalaridн qo’llanilishi uchun ularning spetsifikasi hamda bu ushablardн elektr energiyasini hisoblash talablarini e’tiborga olib maxsus ishlab chiqilgan. Bu turkumdagи hisoblagichlar 0,2S gacha anqlik sinfiga ega. Tok bo‘yicha yoki tok va kuchlanish bo‘yicha to‘g’ridan-to‘g’ri va transformator orqali ulanishi mumkin. O‘zgaruvchan tokdagи uch simli yoki to‘rt simli tarmoqlarda qo’llaniladi. Barcha hisoblagichlar infraqizil port va RS485 porti bilan jihozlangan. Hisoblagich xotirasida aktiv va reaktiv energiya uchun fazalar bo‘yicha yuklama grafigi saqlanadi, fazalar bo‘yicha tok grafigi olib horiladi. Grafiklardan har birining saqlanish muddati bir yillardн iborat. Hisoblagichlar kuchlanish, tok, quvvat, cosq, tarmoq channotanining joriy qiymatlari monitoringini olib borishga imkon beradi; energiya grafigini yarim soat maksimumlarini saqlaydi. Shu bilan blrga tarif zonalarini hisobga olish dasturlanadi. Yuklama yordamida boshqariladigan modifikatsiya yuklamani ularash/uzish uchun tashqi kontaktorni boshqarishga va ta’minot kuchlanishi bo‘limganida ko‘rsatkichlarni olishga imkon beradi. Bu

hisoblagichlar asosida ENHATning tijorat va texnik hisoblari to'g'risida bat afsil va aniq ma'lumot olish imkonini beradi.

Ko'p tarifli bir fazali hisoblagichlar

CTK1-10.K52I4Zt va CTK1-10.K55I4Zt bir fazali hisoblagichlar "Energiya 9" turkumidagi maishiy hisoblagichlarning davomi hisoblanadi. Bu turdag'i hisoblagichlarning boshqa maishiy hisoblagichlardan farqi shundaki, sutka vaqtłari bo'yicha differensiallangan (pog'onalashgan) tariflar asosida hisobga olishni amalg'a oshirish imkonini beradi. Bu hisoblagichlar ko'p tarifli hisoblanadi. Hisoblagich 12 ta mavsum bo'yicha elektr energiyasini hisobga olishga mo'ljallangan bo'lib, ularning har biri 8 ta tarif zonalari bo'yicha dasturlanishi mumkin. Bundan tashqari, hisoblagich yuklama grafigini va hodisalar jurnalini shakllantiradi, ikki turdag'i interfeys bilan jihozlangan: tokli halqa va optoport. Ruxsat etilmagan ulanishlardan signalizatsiya va himoyalash ko'zda tutilgan. Bu hisoblagichlar asosida EHNAT ni qurish mumkin. Hisoblagich funksional jihatdan mavjud analoglaridan ustun, narxi ham u qadar yuqori emas.

CTK1-10.VU1(5)t ko'p tarifli bir fazali hisoblagichlar o'rnatilgan kontaktorga ega. Sutkaning vaqtłari bo'yicha differensiallangan (pog'onalashgan) tariflar sharoitida elektr energiya iste'molini hisobga olishni olib borishga imkon beradi. Bu energiya iste'molini optimal-lashtirishga va elektr energiyasi xarajatlarini kamaytirishga sharoit yaratadi. Bundan tashqari, bu hisoblagichlar elektr energiyasi uchun oldindan to'lash tizimi "Omera" bilan birlgilikda qo'llanilishi mumkin.

Ko'p tarifli uch fazali hisoblagichlar

Yangi CTK3-10AN7R.t va CTK3-10AN9R.t turdag'i ko'p tarifli uch fazali hisoblagichlar sanoat korxonalarida, turar-joy binolarida elektr energiyasi iste'molini hisobga olish uchun va ko'chani yoritish korxonalarida elektr energiyasini hisobga olish uchun qo'llanilishi mumkin. Hisoblagich 12 ta mavsum bo'yicha elektr energiyasini hisobga olishga mo'ljallangan bo'lib, ularning har biri 8 ta tarif zonalari bo'yicha dasturlanishi mumkin. Bundan tashqari, bu hisoblagichlar yuklama grafigini va hodisalar jurnalini shakllantiradi, ikki turdag'i interfeys turlari bilan jihozlangan: tokli halqa va optoport.

Ruxsat etilmagan ulanishlardan signalizatsiya va himoyalash ko‘zda tutilgan. Bu hisoblagichlar asosida EHNAT ni qurish mumkin. Hisoblagich funksional jihatdan mavjud analoglaridan ustun, narxi ham u qadar yuqori emas.

CTK3-10A1N5(9)R.Vt ko‘p tarifli hisoblagichlar sutkaning vaqtлари bo‘yicha differensiallangan (pog‘onalashgan) tariflar sharoitida elektr energiya iste’molini hisobga olishni olib borishga imkon beradi. Bu energiya iste’molini optimallashtirishga va elektr energiyasi xarajatlarini kamaytirishga sharoit yaratadi. Bundan tashqari, bu hisoblagichlar elektr energiyasi uchun oldindan to‘lash tizimi “Omera” bilan birgalikda qo‘llanilishi mumkin.

Bir tarifli uch fazali hisoblagichlar

Bir tarifli uch fazali elektron hisoblagichlar turkumiga kiruvchi CTK3-10AN7.K4t va CTK3-10Q2N4.K4t turidagi hisoblagichlar uch fazali tarmoqlarda elektr energiya iste’molini hisobga olish uchun mo‘ljallangan. Ular maishiy va kichik quvvatli kuch iste’molchilari sektorida ishlataldi. Shunga qaramay, bu guruhdagi hisoblagichlar transformatorli ulanishda bo‘lib, ular aktiv va reaktiv energiyani generatsiyalash va iste’molini hisobga olishni olib borish imkoniyatini beradi. Ma‘lumotlarni masofadan olishni amalga oshirish uchun RS485 interfeysga ega. Shu bilan birga tarmoq hamda yuklamaning joriy kuchlanishi, toki, cos φ, iste’mol quvvati kabi parametrlarini monitoring qilish imkonini beradi.

Bir tarifli bir fazali hisoblagichlar

Bir tarifli bir fazali “Telekart-Asbob” hisoblagichlari maishiy sektorda qo‘llash uchun mo‘ljallangan. Maksimal tokning yuqori qiymati tufayli ular elektr energiyasini ko‘p miqdorda iste’mol qiladigan ko‘p sonli elektr asboblar bilan jihozlangan uylarda va xonadonlarda qo‘llanilishi mumkin.

“Telekart-Asbob” MCHJ ishlab chiqaradigan barcha hisoblagichlar 1,0 dan past bo‘lmagan aniqlik sinflariga ega va ishchi harorat oraliq‘i -40 dan +55°C ni tashkil etadi. Eng oddiy modifikatsiyalar mexanik indikatorga ega, lekin suyuq kristalli indikator (SKI) o‘rnatilgan, EHAT ga ulanish uchun interfeys

chiqishiga, himoyalash va ruxsat etilmagan ulanishlardan indikatsiya tizimiga ega bo‘lgan modellari mavjud.

Hisoblagichlarning DTi

Hisoblagichlarning DTi quyidagi parametrlardan iborat:

1. Identifikatsiya parametrlari:

- hisoblagichni «initsializatsiya» sanasi;
- hisoblagichning identifikatori.

2. Hisoblagichning asosiy parametrlari:

- integratsiyalash davrlari (15, 30, 60 minut);
- vaqt ni korreksiya qilish soniyalar soni (kunda bir marta), ± 10 soniya oraliqlarida;

- yozgi/qishki vaqtga o‘tish (ha/yo‘q);

- yozgi/qishki vaqtga o‘tish parametrlari (sana, vaqt);

- mavsumlar bo‘yicha oylarni bo‘lish (12 tagacha);

- har bir mavsum uchun 8 tagacha vaqtli tarif zonalarini dasturlash imkoniyati;

- shanba, yakshanba va bayram kunlarida ularga alohida tariflar berish bilan vaqt zonalarini dasturlash imkoniyati (modifikatsiyaga bog‘liq ravishda).

3. Yig‘iladigan ma’lumotlar va saqlanadigan axborotlar:

- “Butunlay”, “Bir oyga” formatdagi har bir tarif uchun hisobga olinadigan energiya miqdori (joriy va oldingi, shuningdek, oxirgi 13 oylik ko‘rsatkichlar);

- ta’mnotinning ulanishlari soni (tarmoq kuchlanishlarining yo‘qotilishi);

- hisoblagichga ruxsat etishlar soni, oxirgi ruxsat etishning sanasi va vaqt;

- hisoblagich korpusining ochilishlari soni, oxirisining sanasi va vaqt.

4. Yuklamani ulash/uzishni boshqarish imkoniyati (modifikatsiyashga bog‘liq ravishda):

- 1 boshqarish kanallarining soni;

- tarifikatsion vaqt oraliq‘ini ishlashi vaqt bo‘yicha boshqarish imkoniyati;

- interfeys bo‘yicha hisoblagichga uzatilgan buyruq bo‘yicha boshqarish imkoniyati;

- boshqarish kanali kommutatsiyalaydigan kuchlanish, 220 V dan ortiq emas;
- boshqarish kanali kommutatsiyalaydigan tok, 1 A dan ortiq emas.

Hisoblagichni dasturlash.

1. Hisoblagich parametrlarini quyidagicha dasturlash mumkin:

- ketma-ket port bo'yicha kompyuter yurdamida boshqarish;


- parametrlarni almashtirish qurilmasidan foydalanish – optoport yordamida.

2. Hisoblagichni dasturlash energiya ta'minoti korxonasi tomonidan ishlatish joyiga o'rnatishdan oldin yoki ishlatilishi jarayonida "Energiya" masofadan boshqarish tizimi vositalari orqali amalga oshiriladi.


3. Dasturlash «Konsol» dasturi yordamida amalga oshiriladi.

4. Agar shanba, yakshanba va bayram kunlari alohida tariflar bo'yicha tariflashtirish zarurati bo'lgan hollarda, bu kunlar uchun xam ish kunlariga o'xhash tariflarni tayinlash va vaqt zonalarini dasturlash zarur. Bayram kunlarida ishlatish uchun bayram nishonlanadigan kun sanalarini ko'rsatish lozim.

5. Statistik axborotlarni yig'ish va dasturlashni o'tkazish «Konsol» DTining "Dasturlash bo'yicha ko'rsatmalar" bo'limida keltirilgan.



6.8-rasm. CTK1 hisoblagichlarining ularish sxemasi.



6.9-rasm. «Energiya –9» CTK3-10A1HXR.VU hisoblagichini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ulash sxemasi

6.4. Shahar elektr tarmoqlarida EHNAT dan foydalanib hisoblash

TP nimstansiyasi iste’molchilarining elektr yuklamasini hisoblaymiz. Dastlab 4 qavatli 40 xonadonli turar-joy binosining hisobiy yuklamasini aniqlaymiz. Bu holatda solishtirma yuklamalar QMQ 2.04.17-98 jadvallaridan olingan.

$$P_{hk} = P_{sol} \cdot N_{kv} = 1,2 \cdot 40 = 48 \text{ kVt}$$

320 va 180 ta o‘rin uchun mo‘ljallangan bog‘cha uchun solishtirma yuklamani QMQ 2.04.17-98 ning 3-jadvalidan olamiz, u quyidagiga teng $P_{sol} = 0,4 \text{ kVt/o‘rin}$. Solishtima yuklamani hisoblaymiz:

$$P_h = P_{sol} \cdot N = 320 \cdot 0,4 = 128 \text{ kVt}$$

$$P_h = P_{sol} \cdot N = 180 \cdot 0,4 = 72 \text{ kVt}$$

4 qavatli 40 xonadonli bino uchun kuch yuklamasini hisoblaymiz:

$$P_{hs} = P_{hmas} \cdot K_t + P_{hven} \cdot K_t + P_{hyor} \cdot K_t = 7,35 + 5,625 + 1,8 = 14,775 \text{ kVt}$$

4 qavatli 40 xonadonli bino uchun umumiylis hisobiy yuklamani hisoblaymiz:

$$P_{h,tj} = \sum P_{hk} + 0,9 \sum P_{hs} = 48 + 0,9 \cdot 14,775 = 61,3 \text{ kVt}$$

Transformator punktining umumiylary aralash hisobiy aktiv quvvati
quyidagiga teng:

$$P_{hip} = P_{MAX} + K_1 P_1 + K_2 P_2 = 570.7 + 0.42 \cdot 200 + 0.8 \cdot 44 = 685.9 \text{ kVt}$$

Turarjoy binosining hisobiy reaktiv quvvatini aniqlaymiz:

$$Q_{hd} = P_h \cdot \operatorname{tg} \varphi = 570.7 \cdot 0.33 = 188.33 \text{ kVAR}$$

Turarjoy binosining hisobiy to'liq quvvatini aniqlaymiz:

$$S_h = \sqrt{P_h^2 + Q_h^2} = \sqrt{570.7^2 + 188.33^2} = 601 \text{ kVA}$$

Xonadonlarning umumiylary hisobiy quvvati quyidagi teng:

$$I_{kv} = \frac{P}{\sqrt{3} \cdot U \cdot \cos \varphi} = \frac{48000}{1.73 \cdot 380 \cdot 0.9} = 81.1 A$$

Turarjoy binosi kuch yuklamasining umumiylary hisobiy quvvati:

$$I_c = \frac{P}{\sqrt{3} \cdot U \cdot \cos \varphi \cdot \eta} = \frac{14770}{1.73 \cdot 380 \cdot 0.75 \cdot 0.9} = 33.3 A$$

Turarjoy binosining umumiylary hisobiy quvvati:

$$I_d = I_{kv} + I_c = 81.1 + 33.3 = 114.4 A$$

Kabel liniyalaridagi kuchlanish isrofini hisoblash

$$\Delta U \% = \frac{P \cdot L \cdot 10^5}{F \cdot \gamma \cdot U^2} = \frac{61.3 \cdot 100 \cdot 10^5}{50 \cdot 31.7 \cdot 380^2} = 2.6 \%$$

Liniyalardagi elektr ning hisobiy isroflarini aniqlaymiz:

$$\Delta Wh = 3 \cdot I^2 \cdot R \cdot 10^{-3} \cdot \tau = 4,4686 \cdot 10^4 \text{ kVt.ch}$$

$$\tau = (0.124 + \frac{T_{\max}}{10000})^2 \cdot 8760 = (0.124 + \frac{3810}{10000})^2 \cdot 8760 = 2234.019$$

soat

$$T_{\max} = \frac{W_{\max}}{P_{\max}} = \frac{83820}{22} = 3810$$

soat

$$R = r_0 \cdot i = (1000 / 31,7 \cdot 95) \cdot 0,170 = 0,0509 \text{ Om}$$

Uy manzili	Kvlar soni va N	Pr	Prs	P r t/b	Pr TP	Qp	S p
Chimkent ko'ch. 13 ^a - uy	40	48	14,77	61,3			
Chimkent ko'ch. 9-uy	40	48	14,77	61,3			
Chimkent ko'ch. 13- uy	40	48	14,77	61,3			
Chimkent ko'ch. 7-uy	84	80,6	20,4	99			
Chimkent ko'ch. 19-uy	80	78	28,83	103,9			
Chimkent ko'ch. 15-uy	40	48	14,77	61,3			
Chimkent ko'ch. 11-uy	40	48	14,77	61,3			
Chimkent ko'ch. 8-uy	40	48	14,77	61,3	570,7	188,3	601
398 - bog'cha	320	128	-	-			
389 - bog'cha	180	72	-	-	200	66	210,6
1 - do'kon	200 m ²	44	-	-	44	14,5	46,3
JAMI:				570,7	685,9	268,8	857,9

Hisobga olish va nazorat qilish tizimlarining tahlili «Alfa» elektron hisoblagichlar bazasidagi ETHAT tizimi sodda va iqtisodiy jihatdan eng qulayi ekanligini ko'rsatdi. U «O'zstandart» agentligida sertifikatlangan hamda O'zbekistonning 69 ta yirik korxonalarida qo'llanilmoqda. Bir fazali kommunal-xo'jalik iste'molchilar uchun eng arzon va foydalanish uchun qulayi «SEB-1M1» turidagi bir fazali bir tarifli yoki ko'p tarifli elektron hisoblagichdir.

Uy manzili	Kv-lar soni va N	L(m)	F(mm ²)	ΔU %	ΔWl
Chimkent ko'ch.13 ^a -uy	40	170	95	2,3	$4,4686 \cdot 1010$
Chimkent ko'ch.9-uy	40	140	70	2,6	$3,4264 \cdot 1010$
Chimkent ko'ch.13-uy	40	150	70	2,8	$3,0405 \cdot 1010$
Chimkent ko'ch.7-uy	84	100	95	2,4	$1,984 \cdot 1010$
Chimkent ko'ch.19-uy	80	100	95	2,4	$2,4789 \cdot 1010$
Chimkent ko'ch.15-uy	40	150	70	2,8	$3,366 \cdot 1010$
Chimkent ko'ch.11-uy	40	100	50	2,6	$2,6046 \cdot 1010$
Chimkent ko'ch. 8-uy	40	80	50	2,1	$1,0511 \cdot 1010$
398 - bog'cha	320	150	150	2,8	$3,4249 \cdot 1010$
389 - bog'cha	180	200	120	2,6	$1,1569 \cdot 1010$
1 - do'kon	200 M	250	95	2,5	$2,556 \cdot 109$
JAMI:		1590			

Eng ishonchli va ko'p funksiyali ma'lum darajada iqtisodiy jihatdan arzon, energoaudit va hisobga olishdan tashqari rele himoyasi va avtomatikasida avariyan dan oldingi va keyingi rejimlarda qo'llaniladigan tizim – bu NPF «Energosoyuz»ning «Neva» tizimi hisoblanadi. U O'zbekenergotizimining yirik nimstansiya va stansiyalariga o'rnatilmoqda.

Rivojlanishning keyingi yillarda shaharlarning kommunal-xo'shalikgidagi suv, gaz, elektr si va boshqalarni hisobga olishda iqtisodiy jihatdan eng maqbولي «EMKOS» tizimi hisoblanadi.

Nazorat savollari

1. Hisobga olish va nazorat qilish tizimlarining qurilish prinstiplarini keltirib bering.
2. Qanday hisobga olishning yangi tizimlarini bilasiz?
3. Qanday issiqqlik hisoblagichlarni parametrlarini bilasiz?
4. Shahar elektr tarmoqlarida ETHAT dan qanday foydalanim hisoblash mumkin?
5. Yangi texnologik va ko'p funksiyali NPF «Energosoyuz» ning «Neva» axborot tizimi nima uchun qo'llaniladi?

6. Nechta mamlakatalarda korporatsiya Shlyumberje bir yilda elektr energiya hisoblagichlarni ishlab chiqaradi?
7. Tajribalar ko'rsatishicha, «EMKOS» ni nechi foyizgacha tejashi mumkin?
8. «Alfa» va «Evro Alfa» elektr energiyani tijorat ko'rinishida hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimida foydalanish uchun ETHAT (ASKUE) nazorat, hisobga olish va elektr energiyani taqsimlanish bo'yicha o'lchanan yoki hisoblangan parametrlarni aniqlang.
9. Elektr energiyani tijorat ko'rinishida hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizim Energotejamkorlikni boshqarish uchun avariya signali va radiokanalga ega bo'lgan integral avtomatlashtirilgan o'lchov tizimi (ETHAT)ni hamma funksiyalarini ko'rsating.

7. SHAHAR ELEKTR TARMOQLARINI HISOBLASH USULLARI

7.1. Transformatorga iqtisodiy jihatdan mos keluvchi quvvatning aniqlanishi

Shahar elektr tarmoqlaridagi transformatorlarning quvvatini eng qulay yo'l bilan aniqlash. Shahar elektr ta'minotini tashkil etishning muhim shartlaridan biri – transformator punktlari (TP) quvvatini to'g'ri tanlashdir. Chunki past kuchlanish tarmoqlarining hamda TP ning tannarxi shularga bog'liqdir. Masalan, TP ning quvvati oshishi past kuchlanish tarmoqlari uzunligi va tarmoq qurilmalarining tannarxi oshishiga sabab bo'lsa, pasaytirish esa TP qurilishida kapital mablag'larning oshishiga sabab bo'ladi. Odatda, podstansiyalarining quvvati bir nechtasini taqqoslash asosida tanlanadi. Ammo, shahar elektr tarmoqlari uchun taqqoslash hisoblashlarini qo'llash ancha murakkab va taqqoslash mumkin bo'lganlari soni juda ko'p bo'lishi mumkin. Shuning uchun shahar tarmog'ining optimal quvvatini tanlashni osonlashtirish uchun turli hisoblash ifodalari taklif etiladi. Ular tarmoqlarning avariya holatida o'tkazgich ko'ndalang kesim yuzining yuklama tokini yo'l qo'yilgan zichligi bo'yicha hisoblash (F_2), yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan kuchlanish yo'qolishi bo'yicha (F_1) yoki iqtisodiy jihatdan maqbul bo'lgan o'tkazgichlarning ko'ndalang kesimi bo'yicha (F_4) zarur.

Boshqa ifodalar guruhi maqbul bo'lgan transformatorlar podstansiyasi sonidan tarmoqlarning uzunlik birligida kub tenglamalar ko'rinishidan kelib chiqadi. Hozirda loyihalash tashkilotlarida V.A. Kozlov tomonidan tarmoq hududi yuklamasining solishtirma zichligi bo'yicha qulay holatga keltirilgan ifodadan foydalilanildi.

Shunday qilib, TP quvvatini tanlashning u yoki bu ifodalarini ishonchligi qat'iy yechilmagan va munozarali hisoblanadi. Bundan tashqari, barcha ifodalar mis simli kabellar hamda g'ishtdan qurilgan xonalardagi TP lar uchun chiqarilgan. Keltirilgan hisoblash ifodalari tarmoqlarning va tarmoq transformator podstansiyalarining qurilishiga kiritilgan investitsiyaning turli omillariga bog'liqligi taddiq etilgan.

Bular: tarmoq kuchlanishi, kuchlanishning hisoblangan yo'qolishi, yuklamaning zichligi, shahar kvartallarining tuzilishi va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasidagi shahar tarmoqlari o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, aksariyati TP 6-10 kV metall konstrukstiyali, o'tkazgich va kabellar asosan alyuminiy o'zakli, atrof-muhit harorati va TP ichidagi harorat me'yordan bir necha barobar yuqori, turli shaharlardagi yuklamaning solishtirma zichligi gektarga nisbatan bir-biridan farq qiladi. TP ning maqbul quvvatini tanlash uchun eng ishonchli ifodani aniqlashda hozirda tarmoqlarni qurishning turli usullarini qo'llashni tadqiq qilamiz.

Quvvat tanlashning maqbul ifodalarini ko'rib chiqamiz, bular:

1. «Uch mualliflar»
2. B.L.Ayzenberg
3. B.L.Ayzenberg va N.I.Medvedskiy
4. P.F.Gogichayshvili
5. V.A.Kozlov

«Uch mualliflar» (S.N.Nikogosov, B.L.Ayzenberg, M.N.Karasik) ifodasi kabel yoki o'tkazgichning ko'ndalang kesim yuzida kuchlanish mumkin bo'lgan yo'qolishini (F_1) aniqlashda barcha sarf-har ajatlar past kuchlanish tarmog'ining 1 m ga nisbati bo'yicha ishlab chiqilgan. Tarmoq qanday tuzilishga ega bo'lishidan qat'i nazar, bu ifoda quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$S_1 = \psi \sqrt[3]{\frac{a_i \cdot \delta^2 \cdot U \cdot \Delta U \cdot j}{25000 \cdot b_2}} \quad (7.1)$$

bu yerda:

ψ – tarmoq shakli koeffitsiyenti;

a_i – transformator quvvatiga bog'liq bo'ligan har ajatlarning bir qismi;

b_2 – o'tkazgich ko'ndalang kesim yuzasiga bog'liq bo'lgan har ajatlarning bir qismi;

$U, \Delta U$ – tarmoq liniya kuchlanishi va kuchlanishi isrofi;

$n = 2 - 3$

j – elektrenergiyaning yil davomidagi kVt.s dagi tannarxi.

B.L. Ayzenberg o'tkazgichning kesim yuzasini tanlash uchun quyidagi ifodani taklif etgan.

Past kuchlanishli (F_2) tarmoqning halokatli holatda yuklama tokining yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan holati:

$$S_T = \sqrt[3]{\frac{a_1 \cdot \delta \cdot U^2 \cdot n^2}{3660 \cdot b_2}} \quad (7.2)$$

Ushbu ifodalarni taqqoslash imkoniyati bo'lishi uchun quyidagi ko'rinishga keltirildi.

U holda

$$\begin{aligned} S_T &= f(\delta) : \\ S_T &= k_1 \sqrt[3]{\delta^2} \\ S_T &= k_2 \sqrt[3]{\delta} \end{aligned} \quad (7.3)$$

K_1 va K_2 – turli sharoitlarga bog'liq bo'lgan koefitsiyentlar.

Aniqliklar etishmagan yangi qurilayotgan tumanlar uchun **B.L.Ayzenberg va N.I.Medvedskiyar** quyidagi ifodani taklif etishdi:

$$S_T = K_3 \sqrt[3]{\delta^2} \quad \text{yoki} \quad S_T = K_4 \sqrt[3]{\delta} \quad (7.4)$$

V.A.Kozlov esa quyidagi ifodani taklif etdi [27].

Ifoda quyidagi ko'rinishga ega:

$$S_T = \sqrt{\frac{(C_{01} + B) D m U}{3,8 \sqrt{c \cdot \tau \cdot c_m}}} = S_T = K_5 \sqrt{\sigma} \quad (7.5)$$

bu yerda: σ – 1 km 2 ga yuklama zichligi;

S_{01} – transformator quvvatiga bog'liq bo'lmagan TP yillik sarf-har ajatlarining bir qismi;

S_m – elektrenergiya isrofining 1 kVt·s tannarxi;

τ – bir yillik maksimal isrof vaqt;

s – o'tkazgich ko'ndalang kesim yuziga bog'liq bo'lgan, past kuchlanish tarmog'i bo'yicha yillik sarf-har ajatlarining bir qismi;

V – o'rta kuchlanish tarmog'i bo'yicha (1000 V dan yuqori) yillik sarf-har ajatlar;

m – TP chiqayotgan past kuchlanishli magistral liniyalarning soni;

D – past kuchlanish tarmog'i (0,38 kV) bo'yicha yillik sarf-har ajatlar.

Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, V.A.Kozlov ifodasi bo'yicha transformatorning maqbul quvvati oshadi, ammo kabelning maqbul ko'ndalang kesimi F_0 kamayadi.

P.F.Gogichayshvili ishlarida esa 0,38 kV li shahar elektr tarmog'i o'tkazgichlarining kesim yuzasi iqtisodiy tok zichligi bo'yicha tanlangan holat uchun tarmoq TP quvvatining maqbul ifodasi keltirib chiqarilgan. V.A.Kozlov singari P.F.Gogichayshvili ham o'z ifodasiga tarmoqdagi elektr yo'qolishining tannarxini kiritgan. P.F.Gogichayshvili ifodasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$S_T = 0,65 \sqrt{\frac{(\delta_T K_T + C_T) \cdot D \cdot U \cdot m \cdot \sqrt{e}}{\sqrt{\delta_n \cdot E_n \cdot \eta' \cdot N \cdot \tau}}} = K_6 \sqrt{\delta} \quad (7.6)$$

Bu ifoda S_T (TP ning optimal quvvati) ni aniqlashda qo'llanilishi mumkin emas. Chunki, unda o'tkazgich va kabellar kesim yuzasi tokning iqtisodiy zichligini (F_4) aniqlash shartidan keltirib chiqarilgan hamda yuklamalari kichik zichlikka ega bo'lgan bir qavatlari binolardan tashkil topgan hududlar uchun mo'ljallangan. Lekin shahar elektr tarmoqlaridagi yuklamani iqtisodiy zichligi bo'yicha hisoblash haqiqatdan yiroq bo'lgan natijalarni beradi va ular past kuchlanishli tarmoqlarda qo'llanilmasligi tadqiqotlarda e'lon qilinib isbotlangan.

Biz tomonidan taqsimlovchi yuqori kuchlanishli tarmoqlarga va tarmoqdagi elektro isrofiga ketadigan qo'shimcha sarf-har ajatlarni hisobga olgan holda mikrorayon maydonining bir gektari uchun yuklama zichligi bo'yicha TP ga eng qulay quvvatni aniqlash hisobini kiritish taklif etiladi. Shuningdek, shu tarmoqqa kiruvchi barcha iste'molchilarining sutkalik elektr yuklama grafiklari yig'masidan hosil qilingan tajribaviy nusxalari ham e'tiborga loyiq. Bunda 24 yoki 48 variant uchun vaqtning har soat intervali bo'yicha hisob-kitob olib boriladi va tarmoq hisobining maksimal-optimal varianti aniqlanadi.

1. TP ning eng qulay quvvatini mikrorayon maydonining 1 ga hududi uchun yuklama zichligini (7.5) ifoda orqali aniqlash lozim. Bu ifoda yuklama zichligi teng yoki 1 Ga uchun 40 kVt dan yuqori bo'lganda, yuklama zichligi 1 Ga uchun 40 kVt gacha bo'lganda TP uchun eng qulay quvvat (7.7) ifoda orqali topiladi:

$$S_T = K_7 \sqrt[3]{\sigma^2} \quad S_T = K_5 \sqrt[3]{\sigma} \quad (7.7)$$

Bu yerda, $K_5 = 50$, $K_7 = 20$. (7.5) va (7.7) ifodalar qurilish me'yorlari va qoidalarida [17] (QMQ 2.04.17-98 «Turarjoy va jamoat binolarining elektrijihozlari», Toshkent, O'zR «Davarxitektqurilish-qo'm». 1998) qabul qilingan, ko'p qavatli binolardan tashkil topgan hududlar uchun tavsiya etiladi.

Mikrorayondagi TP lar sonidan kelib chiqib har bir nimstansiya uchun talab etiladigan quvvat aniqlanadi. Buning uchun TP rayon rejasiga kiritiladi. Keyin har bir TP uchun haqiqiy hisobiy quvvat aniqlanadi. Hisobga TPga kiruvchi iste'molchilarni sutkaning har soati bo'yicha 24 yoki 48 variantini kiritish lozim, Shunda shu variantlar ichidagi maksimal yuklama ushbu TP uchun eng qulayi bo'ladi. Shunda n so'ng har bir nimstansiyaning talab etiladigan o'rnatilgan quvvati quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$S_{o'r'm} = \frac{P_{his}}{1,4 \cos \varphi} \text{ kVA} \quad (7.8)$$

bu yerda: $\cos\varphi$ – iste'molchi yuklamalariga tegishli TP fiderlaridan chiquvchi quvvatning o'rtacha olingan koefitsiyenti, odatda, u shahar tarmoqlari uchun 0,9 ga teng deb olinadi;

1,4 – yuklamaning minimal yuklama davrida ishlashi hisobiga maksimal yuklama rejimidagi transformatorning ruxsat etilgan quvvatini hisobga oluvchi koefitsiyent;

P_{his} – ushbu TP uchun hisobiy yuklamaning yig'indisi, kVt.

3. Hozirda shaharlarning qurilmalar joylashgan hudud maydonidagi har xil yuklama zichligi uchun shahar tarmoqlaridagi TP lurga eng qulay quvvatni yanada aniqroq topilishini TP dan ta'minlanuvchi elektr yuklamalarning har xarakterli (tipdagi) grafiklaridan foydalananadigan usul asosida hisoblab chiqish mumkin.

Shahar tarmoqlari uchun, bino va qurilmalardan boshlab o'tkazgich va kabellarni (0,38 kV) kesim yuzasini hisoblashda uzoq vaqt ruxsat etilgan tok usulini, qizishga chidamliligini, kesim yuzadan ruxsat etilgan kuchlanish isroflarini hisobga olgan holdagi usulni kiritish mumkin. Bunda qabul qilingan hisobiy maksimum (30,60 min) vaqt muhim emas, balki har akterli sutkalik grafiklardan topilgan TP ning umumiy yuklamasidan kelib chiqqan maksimal tok muhim.

Tarmoqdagi isrofn va optimal kesim yuzasini hisobga olish uchun mikrorayon elektr ta'minoti tizimidagi boshlang'ich parametrlardan birinchi va ikkinchi keltirib chiqarilgan ifodalarni olish hamda TP uchun eng qulay quvvatni hisoblash lozim.

Cho'lg'am izolyasiyasining xizmat vaqtini ruxsat etilgan qizish sharti bo'yicha transformatorlarning yuklanish qobiliyatini aniqlovchi asosiy omillardan hisoblanadi. Hozirgi vaqtida nominal xizmat vaqtini o'zgarmas 95°C harorat sharoitida 20 yilga qabul qilingan.

Izolyatsiyaning xizmat vaqtini "sakkiz gradusli qoidaga" bo'ysunadi. Izolyatsiyaning qizish harorati 87°C ga o'zgarganda uning xizmat vaqtini ikki barobar o'zgaradi.

Masalan: doimiy 95°C haroratda izolyatsiyaning xizmat vaqtini 20 yil, doimiy 87°C haroratda 40 yil, doimiy 103°C haroratda 10 yilga teng. Bunday bog'liqlik quyidagi formulada ifodalangan:

$$\frac{T_{st}}{T_n} = e^{\alpha(Q_n - Q)} \quad (7.9)$$

T_{st} – Q haroratdagi xizmat vaqtini;

T_n – Q_n (95°S) haroratdagi nominal xizmat vaqtini $Q_n=95^{\circ}\text{C}$;

α – izolyatsiyaning eskirish tezligini aniqlovchi koefitsiyent ("A"-sinf uchun $\alpha=0,0888$);

e – natural logarifm asosi.

Transformatorning sovitish shartini bilgan holda, izolyatsiyaning qizish haroratini bilish uchun transformatorda ruxsat etilgan yuklanishni aniqlash mumkin. Biroq, mahalliy elektr tarmoqda transformator ishlaganda uning yuklanishi iste'molchining yuklanish grafigi bilan mos holda o'zgaradi, Shuning uchun transformatorning qizishi doimiy bo'lmaydi. Amaliyotda transformatorning yuklanish rejimini Shunday tanlash kerakki, aniq yuklanish grafigida uning xizmat vaqtini nominal xizmat vaqtiga mos kelgan o'zgarmas maksimal yukdagi xizmat vaqtiga teng bo'lsin. Demak, agar transformator vaqtning ba'zi bir davrida yuklanishsiz ishlasa, unda vaqtning boshqa qismida u yuklangan holda ishlashi mumkin.


Ruxsat etilgan yuklanishning qiymati va uzoqligini yuklanganlik tokining turlicha kundalik yuklanish grafigini to'ldirish koefitsi-

yentlari uchun talab qilingan yuklanganlik davomliligiga bog'liqligini ko'rsatuvchi egri chiziq orqali aniqlanadi.

$$K_{yuk} = \frac{I_{o'r}}{I_m} \quad (7.10)$$

bu yerda: $I_{o'r}$ – o'rta kundalik yuklanish toki;

I_m – bir kundagi maksimal tok.



7.1-rasm.

Tadqiqotlar asosida shahar elektr tarmoqlarida 1,4 o'lchamli, yillik harorati o'rtacha 5°C bo'lgan joylardagi ochiq transformator qurilmalari uchun ruxsat etilgan yuklanganlikni qo'llash tavsiya etiladi.

Masalan: $k_n=0,7$, $s_{t,r.ch} = 5^{\circ}\text{C}$ haroratdagi ochiq havoga o'rnatilgan 630 kVA transformator berilgan. Yuklanish soatlar soni (maks) $t_{per}=6\text{s}$. Ruxsat etilgan maksimal yuklanish aniqlansin.

Yechish:

1. Egri chiziq bo'yicha $t=6\text{s}$ va $k_n=0,7$ uchun

$$\frac{I_{o'r-yuk}}{I_n} = \frac{S_{max}}{S_n} = 1,14$$

(14% ga yuklash mumkin)

$$2. S_{\max} = 1,14 \cdot S_n = 1,14 \cdot 630 = 718 \text{ kVA}$$

50°C haroratdan farqli o'laroq, havoning yillik haroratida o'rtacha (ψ_V), yuklanish koefitsiyentini (masalan 1,14) A qiyamatiga ko'paytirish kerak.

$$A = 1 + \frac{5^{\circ}}{100} \psi_B \quad (7.11)$$

Bizning loyihamizda yillik harorat o'rtacha $\psi_{s,i}=18^{\circ}\text{C}$ ga teng.

Bundan tashqari, qachon havoning harorati 35°C dan oshsa, transformatorning yuklanishi k_n ga bog'liq bo'lmagan holda, ($\psi_V - 35^{\circ}\text{S}$ ning nominalidan kichik bo'lishi kerak. Xonada o'rnatilgan transformator uchun ochiq havoda o'rnatilgan transformatorlarga qaraganda o'rtacha yillik $\psi_{s,ch}$ haroratni 8°C dan yuqori qilib qabul qilish kerak. Shuningdek, yozda yuklanmaganligi sababli transformatorlarni yuklash ruxsat etiladi.

Masalan: 630 kVAli transformator 500 kVAga yuklatilgan. Qishda ruxsat etilgan yuklanishni aniqlang. Yozdag'i yuklanganligi foizlarda:

$$\frac{630}{630} \cdot \frac{500}{100} = 20,6 \% \quad (7.12)$$

Lekin qishda faqat 15% ga yuklash mumkin. Shuning uchun transformatorning maksimal yuklanishi 14%. Kundalik grafikni to'ldirish uchun (15% yuklanmaganligi uchun) $14\% + 15\% = 29\%$ (1,29) qabul qilinadi. Yuqoridagilarga asoslangan holda, qishda transformator 6 soat davomida quyidagi qiyamatda yuklanishi mumkin:

$$S_{\max} = 1,29 \cdot 630 = 815 \text{ kVA}$$

Agar Huddi shu transformatorni ichki xonaga o'rnatstak, unda:

$$A = 1 + \frac{5^{\circ}}{100} \cdot 13 = 0,92$$

$13^{\circ}=5^{\circ}+8^{\circ}$; 5° – o‘rtacha yillik harorat, 8° – xonadagi o‘rtacha yillik harorat.

$$S_{\text{rux}} = A \cdot S_{\text{u}} = 0,92 \cdot 630 = 579 \text{ kVA}$$

Yuklanish foizlarda

$$\frac{579 - 500 (\text{yo'zda})}{579} \cdot 100 = 13,7\%$$

$$13,7\% + 14\% = 27,7\%$$

Shu transformatorning qishda xonadagi yuklanishini olsak

$$S_{\text{nx}} = 579 \cdot 1,277 = 739 \text{ kVA}$$

Oldingi yuklanishlarga bog‘liq holda PTE avariyyadagi ruxsat berilgan yuklanishlar

Avariya rejimida bir kunda 6 soat davomida transformatori 40% ga yuklash ruxsat etiladi, lekin 5 kun ketma-ket emas. Ko‘p shaharlarda, masalan, Toshkentda energosistema transformatorlarni $k_n < 0,75$ sharti bajarilganda, 80% ga yuklashga ruxsat beradi.

7.1-jadval.

Tok bo‘yicha yuklanganlik, %	30	45	60	75	100	200
Yuklunganlikning davomiyligi, min	120	80	45	20	10	1,5

7.2. Shahar elektr tarmoqlaridagi quvvat va elektr isroflarini aniqlash

Manbadan iste’molchilarga transformatorlar va liniyalar orqali uzatilayotgan elektr doimiy ravishda isrof bo‘lib keladi. Shuning uchun ham iste’molchilardagi kuchlanish o‘zining doimiy miqdorini saqlamaydi.

Bunda quyidagicha farqlanadi:

1. Kuchlanish og'ishi – sekin-asta o'zgarib oqadigan kuchlanish o'zgarishi, iste'molchilar rejimining o'zgarishi va hokazolar. Bu esa sutka (yil, oy) davomida elektr tarmog'ining alohida nuqtalarida o'zining nominal qiymatidan og'ishi mumkin.

2. Kuchlanishning tebranishi – tezlik bilan oqib o'tadigan kuchlanishning o'zgarishi, keskin ravishda tarmoqning normal rejimi o'zgarishi (qisqa tutashuv va katta quvvatni uzatish chog'ida).

Iste'molchilarning normal ish rejimini ta'minlash uchun kuchlanish nominal qiymatga yaqin holda uzatilishi kerak. Bu elektr yuritgichlarni aylantiruvchi moment kuchlanishning kvadratiga bog'liq. Sabab, kuchlanishning 100%ga kamayishi elektr yuritgichlarning ishslash muddatini 2 marta qisqartiradi, kuchlanishning katta miqdorda oshishi esa yuritgichning to'xtab qolishiga, chiqarilayotgan mahsulotning sifati pasayib ketishiga, shu bilan birga cosq ning tushib ketishiga olib keladi.

Iste'molchilardagi kuchlanish og'ishi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\delta_n = (U - U_n) \cdot 100\% / U_n \quad (7.12)$$

Bu og'ish nominal kuchlanishga nisbatan foizlarda beriladi va EUBQ (PUE) orqali normallashtiriladi:

- yuritgichlar uchun nominalga nisbatan $\pm 5\%$;
- turarjoy binolari lampalari, ko'cha yoritgichlari, avariya yoritgichlari uchun kuchlanish og'ishi nominalga nisbatan $\pm 5\%$;
- projektorlarda va korxonalardagi ichki ishchi yoritgichlarda kuchlanish og'ishi nominalga nisbatan $\pm 2,5\%$ gacha ruxsat etiladi;
- avariya rejimlarida lampalardagi kuchlanish og'ishi nominalga nisbatan 12% gacha ruxsat etiladi.

Elektr ta'minot sxemasini loyihalashtirayotganda muhandis iloji boricha isrofni minimumga etkazishi zarur: odatda, simning ko'ndalang kesimi aniqlanayotganda $\Delta U_{re} = 5\%$ ruxsat etilgan kuchlanish isrofi hisobga olinadi.

Ishlab turgan tarmoqlarda esa kuchlanish isrofining haqiqiy qiy-mati topilib, uni kamaytirish yo'llari aniqlanadi. Bu transformatorning K_T sini o'zgartirish, kompensatorlarni qo'llash, tarmoq kuchlanishini ko'tarish va kesim yuzasini o'zgartirish orqali bajariladi.

Bitta iste'molchili liniyadagi kuchlanish isrofi

$Z=R+jX$ parametrlı liniyani ko'rib chiqamiz.

Bu verda: U_1 - liniya boshidagi kuchlanish;

Uz- jiniva oxiridagi kuchlanish;

S₂= iste'molchining to'la quvvati.

To'la quvvat berilgan bo'lishi mumkin.

$$S_2 = P_2 + jQ_2$$

buu verda: $P = 3 UI \cos\varphi$ – aktiv quvvat.

$\Omega \equiv 3 UI \sin \varphi$ - reaktiv kuvaat.

1. Bu formuladagi U va I – chiziqli kattaliklar;
 2. Agar yuk $S = P + jQ$ bo'lsa, u holda «+» ishora reaktiv qismining induktiv har akterga ega ekanligini bildiradi;
 3. Agar yuk $S = P - jQ$ bo'lsa, u holda «-» ishora reaktiv qismining sig'im har aktyerde ekanini bildiradi.


Liniya boshidagi U_1 – kuchlanish, liniya oxiridagi U_2 – kuchlanish summasidek bo'lib chiqadi va bularga liniyalardagi kuchlanish isrofi qo'shiladi.

$$U_1 = U_2 = \sqrt{3} \cdot I \cdot Z$$

To'la quvvatni kompleks shaklda ko'rib chiqamiz:

$$S_2 = P_2 + jQ_2 \quad \text{yoki} \quad S_2 = \sqrt{3} \cdot U_2 \hat{l}.$$

$$\text{Bu verdi} \hat{l} = S_2/\sqrt{3} \cdot U_2 = (P_2+jQ_2)/\sqrt{3} \cdot U_2 \quad \text{va} \quad I=(P_2-jQ_2)/\sqrt{3} \cdot U_2$$



7.3-rasm. Kuchlanish isrofini aniqlash vektor diagrammasi

Faraz qilaylik (1) da:

$$\begin{aligned} U_1 &= U_2 + 3IZ = U_2 + (3 \cdot (P_2 - jQ_2)(R + jX)) / 3U_2 = \\ &= U_2 + (PR + QX) / U_2 + j(PX - QR) / U_2 / \\ U_1 &= U_2 + \end{aligned}$$

yoki $U_1 = U_2 + \Delta U' + j\Delta U.$

bu yerda: $U_1 = U_2 + \Delta U + \delta U$, bu esa $\Delta U = \Delta U' = (PR + QX) / U$ – kuchlanish og‘ishning bo‘ylama tashkil etuvchisi:

$$\frac{PR + QX}{U_2} + j \frac{PR - QX}{U_2}$$

$\delta U = \Delta U' = (PR - QX) / U$ – kuchlanish og‘ishining ko‘ndalang tashkil etuvchisi.

Bu nomlar vektor diagrammadan kelib chiqadi. Vektor diagrammani qurish quyidagicha amalga oshiriladi:

1. U ni gorizontal o‘q bo‘yicha qo‘yamiz;
2. I ni ϕ burchak bo‘yicha U ga qo‘yib, I_a ni I_a va I_r ga bo‘lamiz;
3. I_a – toki U_2 ga mos kelib, aktiv isroflarni hosil qiladi, $\sqrt{3}I_a R$, U_2 – faza bilan mos keluvchi;
4. Perpendikulyar holda $\sqrt{3}I_a X$ isrofni chizamiz, I_a va X hosil qilgan;
5. Tok hosil qilgan (avs), burchakni hosil qilamiz;
6. I_p bilan parallel ravishda $\sqrt{3}I_a R$ ni hosil qilamiz;
7. Huddi shunga perpendikulyar ravishda $\sqrt{3}I_a X$ ni chizamiz;
8. I_r – toki hosil qilgan (sde), uchburchakka ega bo‘lamiz;
9. (e) – nuqtani (0) nuqta bilan birlashtirib, U – vektorni hosil qilamiz.

Bilamizki, $U_1 = U_2 + \sqrt{3}I_a Z$ bo‘ladi, Shunda n kelib chiqib ($ac = \sqrt{3}I_a Z$ – kesim geometrik farqni (ya’ni vektor diagramma boshidagi kuchlanish vektorlarini) oladi. Bu esa $(U_1 - U_2)$ – kuchlanish isrofi deb ataladi. Vektor diagrammada bu kesimning a dan f gacha bo‘lgan qismi.

$$ab + bf = \sqrt{3}I_a R + \sqrt{3}I_p X = (PR + QX) / U = \Delta U'$$

Isbot: $\bar{af} = ef = bc - cd = \sqrt{3}I_a X - \sqrt{3}I_p R = (PX - QR) / U = \Delta U'$

Bu yerda: $\bar{a}f = \Delta U$ – kuchlanish tushuvining bo‘ylama tashkil etuvchisi; $e_f = \Delta U$ – kuchlanish tushuvining ko‘ndalang tashkil etuvchisi.

$$\sqrt{3} \cdot I_r = Q/U, \text{ huddi Shunday } \sqrt{3} \cdot I_r = P/U.$$

Natijalarни taqqoslaganimizda nima uchun amaliyotda ko‘ndalang tashkil etuvchilarni ($\Delta U''$) hisobga olmay, $\Delta U = \Delta U'$ ni olinishini tushunib olamiz. Agar vektor diagrammani masshtabda qurilsa, kuchlanish tushuvchining bo‘ylama tashkil etuvchisi $\bar{a}f$ va e_f ga teng bo‘lgan kuchlanish isrofi $\bar{a}k$ orasidagi farq kichik bo‘lsa-da, undan hisoblashda foydalanish kerak.

Bunday holatda kuchlanish isrofini bo‘ylama tashkil etuvchi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\Delta U = (PR + QX) / U.$$

Loyha ishlarida YuK uchun 35-110 kV li liniyalarda kuchlanish isrofi – ΔU ni hisobga olmasdan quyidagi holatlarda aniqlasa bo‘ladi:

YuK – 35 kV har qanday uzunlik va quvvatlar uchun;

YuK – 110 kV uzunligi 100 km va quvvati 25 MVt dan oshmagani uchun;

YuK – 220 kV uzunligi 200 km va quvvati 80 MVt dan oshmagani uchun.

Bu holatda hisoblardagi xatolik 0,25% dan oshmagani holatda bo‘ladi.

Vektor diagrammadan ko‘rinib turibdiki, U_1 – tashkil etuvchi U_2 ga nisbatan θ burchakka siljigan, u burchak quyidagicha aniqlanadi:

$$tg\theta = (cx)/(ox) = \Delta U'' / (U_2 + \Delta U').$$

Agar ko‘ndalang tashkil etuvchini hisobga olsak, unda $\theta=0$ va kuchlanish isrofi kuchlanish tushishiga teng deb hisoblasa bo‘ladi.

Transformatorlardagi kuchlanish isrofini aniqlash

Quyidagilarni qabul qilamiz: $S_1 = P_1 + jQ_1$ – transformatorlarning birlamchi chulg‘ami qabul qiladigan quvvat;

$S_2 = P_2 + jQ_2$ – transformatorlaring ikkilamchi chulg'ami orqali chiqib ketadigan quvvat; $S_1 - S_2$ – transformatorlarning ichki isroflari.

Transformatorlarning almashtirish sxemasi liniyanikiga o'xhashligi sababli, $\Delta U'$ va $\Delta U''$ larni yuqoridagi formulalar orqali aniqlanadi.

Elektr tarmoqlaridagi quvvat isrofini aniqlash

Elektr energiyani tarmoqlar orqali uzatish va taqsimlash chog'ida liniya va transformatorlarda quvvat va energiya isrofi kuzatiladi. Quvvat isrofi aktiv – ΔR va reaktiv – ΔQ quvvat isroflariga bo'linadi.

Aktiv quvvat isrofi $[\Delta P = 3I^2R]$ – bu isroflar tarmoqlarning elektr o'tkazgichlari va transformator simlarining qizishiga sarf bo'ladi.

Katta sistemalarda bu isroflar 10 dan 100 minglab kVt ni tashkil etishi mumkin. Bu isroflar o'mini qoplash uchun esa elektr stansiya quvvatini yanada oshirish, ya'ni qo'shimcha mablag' talab etiladi.

Faqat iste'molchilar quvvatiga qarab generator quvvatini tanlab bo'lmaydi. 2 mln kVt li sistemada aktiv quvvat isrofi 200–300 mln kVt ni tashkil etadi. O'sha isroflarni qoplash maqsadida generatorga qaratiladigan qo'shimcha mablag' 20–40 mln dollarni (2007 yil narxida) tashkil etadi. Yil davomida yo'qotilgan energiya narxi esa 5–7 mln dollarni tashkil etadi.

Reaktiv quvvat isrofi $[\Delta Q = 3I^2X]$ transformatorlarda va liniya o'tkazgichlarida X_L va X_T hisobiga hosil bo'ladi.

Isroflarni qoplash maqsadida nimstansiyada maxsus reaktiv quvvat generatorlari sinxron kompensatorlari va kondensatorlar o'rnatiladi. Bu esa, o'z navbatida yana qo'shimcha mablag'ni talab etadi.

Elektr tizimdagagi reaktiv quvvat isrofi har doim aktiv quvvat isrofiga nisbatan yuqori bo'lган, ya'ni X_L va X_T , R_L va R_T ga nisbatan bir necha marta ko'proq. Lekin 1 MVt generatsiya qilinayotgan reaktiv quvvat narxi o'rnatilgan quvvatga nisbatan 10–15 marta kam.


Quvvat va energiya isroflari kuchlanishini ko'tarish, ko'ndalang kesim yuzasini ko'tarish va iste'molchilarda kondensatorlar hamda sinxron kompensatorlarni o'rnatish hisobiga amalga oshiriladi. Loyihalashtirish jarayonida energiya isrofini kamaytirish masalasi ko'ndalang qo'yiladi, sababi tizim sistema faoliyati uning iqtisodiy qo'sratkichlariga ham bog'liq.

A. Bitta yuklamali liniyadagi quvvat isrofi

Elektrotexnika nazariyasidan ma'lum bo'lgan va elektr tarmoqlarida qo'llaniladigan ifodasi.

$$\Delta R = 3 \cdot I^2 \cdot R - \text{aktiv quvvat isrofi};$$

$$\Delta Q = 3 \cdot I^2 \cdot X - \text{reaktiv quvvat isrofi}.$$



Tula kuvvat

$$S = \sqrt{3} \cdot U \cdot I$$

Agar, $S = \sqrt{3} \cdot I \cdot U_C$ bo'lsa, u holda

$$3I^2 = S^2/U^2 \text{ va}$$

$$\Delta R = S^2 R / U^2,$$

lekin $S^2 = P^2 + Q^2$,

$$\text{unda, } \Delta R = (P^2 + Q^2) R / U^2;$$

$$\Delta Q = (P^2 + Q^2) X / U^2.$$


B. Yuklamasi teng taqsimlangan liniyadagi quvvat isrofi

l – liniya uzunligi [km] larda bo'lsin;

R_0 – birlik qarshilik [Om/km] da;

I – hamma yuklama toki ampyerda;

$i = I/l$ birlik toki [A/m] da, bu tok liniya bo'yicha oqadigan birlik toki;



ΔR , ΔQ larni aniqlash uchun, biz liniya oxiridan (x) oraliqdan elementar qism (dx) ni ajratib olamiz va shu qism uchun quvvat isrofini aniqlaymiz:

$$d(\Delta p) = 3(ix)^2 \cdot r_0 \cdot dx.$$

To‘liq isrofnini aniqlash uchun liniya boshidan oxirigacha yig‘indi hosil qilish kerak, ya’ni 0 dan 1 gacha:

$$\Delta P = \int_0^1 3(ix)^2 r_0 dx = 3r_0 i^2 \cdot \int_0^1 x^2 dx = 3i^2 \cdot r_0 \left[\frac{x^3}{3} \right]_0^1 = 3i^2 \cdot r_0 I^3 / 3 = i^2 \cdot r_0 \cdot I^3 = I^2 \cdot r_0 \cdot I^3 / I^2 = I^2 \cdot r_0 \cdot I = I^2 \cdot R.$$

ya’ni

$$\Delta R = I^2 R$$

va $\Delta Q = I^2 X$.

Bu formulalarni solishtirgan holda aytish mumkinki, aktiv va reaktiv quvvat isroflari teng taqsimlangan liniyalar yuklamasi liniya oxirida joylashtirilgan liniyadan uch marta kichik.

V. Bir necha yuklamalni liniyalardagi quvvat isrofi

$$\begin{aligned} \Delta P_{0-2} &= \Delta P_{0-1} + \Delta P_{1-2} + \Delta P_{2-3} = \\ &= (S_1 + S_2 + S_3)^2 R_1 / U^2 + (S_2 + S_3)^2 R_2 / U^2 + S_3^2 R_3 / U^2 \end{aligned}$$

0	1	2	3
\downarrow	\downarrow	\downarrow	\downarrow
S_1	S_2	S_3	

Bu ifodadan xulosa qilish mumkinki, har bir qismdagi isroflarni aniqlash orqali yig‘indi holatida butun liniyadagi isroflarni topish mumkin.

G. Transformatordagi quvvat isroflari

Transformatorlar liniyaga nisbatan faqatgina o‘zakning mavjudligi bilan farqlanadi, Shunda n kelib chiqqan holda transformatordagagi aktiv isroflar quyidagilardan iborat:

- simlarning qizishiga ketadigan aktiv isrof yuklamadagi tokning kvadratiga teng;

– yuklamaga bog'liq bo'lmagan metalldagi aktiv quvvat isroflari

$$\Delta P_T = 3 \cdot I^2 R_T + \Delta P_{po-lat}$$

Transformatordagagi reaktiv quvvat isrofi:

– simlarda tarqaladigan reaktiv quvvat isrofi, iste'molchi tokining kvadratiga teng;

– yuklamaga bog'liq bo'lmagan magnitlash uchun ketadigan reaktiv quvvat $\Delta Q_T = 3I^2X + \Delta Q_{po-lat}$

salt ishlaganda $\Delta Q_{xx} = \Delta Q_{po-lat}$

Elektr tarmoqlaridagi isrofini aniqlash

Energiyani uzatish va taqsimlash chog'ida liniya va transformatorlarda isrofi kuzatiladi.

35 kV li past voltli va yuqori voltli tarmoqlarda bu isroflar asosan o'tkazgichning qizishiga ketadi, 110 kV va undan yuqori tarmoqlarda energiya sarfi izolyatsiyaga ketadi. Transformatorlardagi isroflar bu simlardagi o'zakdag'i isroflardir.

isrofi – bu vaqtinchalik quvvat sarfidir. Agar maksimal yuklamadagi energiya isrofini olsak va vaqtga ko'paytirsak, tarmoqdagi maksimal energiya isrofi kelib chiqadi.

Agar minimal yuklama isrofini vaqtga ko'paytirsak, minimal isroflar kelib chiqadi.

Haqiqiy energiya isroflarini olish uchun bir misol va aniqliklarni ko'rib chiqamiz.

Davomiyligi bo'yicha yillik grafikni olamiz. Yuklamadan maksimaldan minimalgacha o'zgarishni ko'ramiz i – egri tashkil etuvchini kuchlanish mashtabida ko'rsak, yil davomida uzatilgan energiya miqdori kelib chiqadi.

$$\sqrt{3}U\cos\phi H - kuchlanish masshtabi;$$

\int_0^{Itd} – maydon.

U holda,

$$Wh = \sqrt{3} \cdot U \cdot \cos\phi H \int_0^{Itd} \quad (7.13)$$

– yil davomida ishlatilgan (8760 soat);

I_{max} – balandlikka ega bo'lgan to'g'ri burchakni quramiz, uning o'zagi T_m bo'ladi. Bu, maksimal yuklamadan foydalanishning shartli

vaqtin, ya'ni liniyadan faqatgina I_{\max} beriladigan bo'lsa, hamma energiya 8760 soat ichida emas balki T_m da uzatilgan bo'lar edi:

$$Wh = \sqrt{3} \cdot U \cdot \cos \varphi \cdot I_{\max} \cdot T_m \quad (7.14)$$

(7.13) va (7.14) – ni tenglashtirib quyidagini topamiz:

$$T_m = \int_0^t i(t) dt / I_{\max}$$

T_{\max} – statistik ma'lumotlarga tayanch holda har bir iste'molchi guruhi uchun har akterlidir:

- yoritgich yuklamalri uchun $\Rightarrow T_{\max} = 1500-2500$ soat;
- 1 smenali korxonalar uchun $\Rightarrow T_{\max} = 1600-2500$ soat;
- 2 smenali korxonalar uchun $\Rightarrow T_{\max} = 3500-4500$ soat;
- 3 smenali korxonalar uchun $\Rightarrow T_{\max} = 5000-7000$ soat.

T_{\max} dan iste'mol qilingan (W) va energiya isrofini (τ) aniqlashda foydalaniladi. Liniyada yil davomida yo'qotilgan energiya Joul-Lenst qonuni bo'yicha aniqlanadi.

$$\Delta Wh = 3 R \int i^2 dt \quad (7.15)$$

i^2 uchun teng kattalikdagi to'g'ri burchakni qurgan holda (I_m^2 – balandlikdagilar), τ ni olamiz (maksimal isroflar vaqtini), ya'ni bu liniyadan biz faqat I_{\max}^2 ni uzatamiz, aniqrog'i ΔW -ni 8760 soat bo'yicha emas, balki kamroq vaqtida (τ da) olamiz. Bu Shunday shartli vaqtki, liniya doim ishchi holatda bo'lganda (maksimal yuklamaga to'g'ri kelgan paytda), huddi liniya haqiqiy grafik bo'yicha ishlagan-dagidek bo'ladi (ko'pincha uni «maksimal isroflar vaqt» deb atashadi).

$$\Delta Wh = 3 R I_{\max}^2 \tau \quad (7.16)$$

(7.15) va (7.16) dan

$$\tau = \int_0^t i(t) dt / I_{\max}^2 \quad (7.17)$$

ni hosil qilamiz. Huddi shu qiymatni liniya bo'yicha o'rtacha kvadratik quvvat oqqanda ham aniqlash mumkin. U I_{\max}^2 katta bo'ladi. Kvadratik tokni aniqlash uchun egri tashkil etuvchi – i^2 ni teng

kattalikdagি to‘g‘ri burchak 8760 soatli o‘zak bilan almashtiramiz, balandlik esa $I_{o'r.kv}$ ga teng bo‘ladi.

$$\Delta Wh = RI_{o'r}^2 \cdot t \quad (7.18)$$

bu yerda, $t=8760$ coat. (7.18) va (7.15) lardan

$$I_{o'r.kv} = \sqrt{\int_0^t i^2 dt / t} = I_{\max} \cdot \sqrt{r/8760} \text{ ni topamiz.}$$

Shunda n kelib chiqib, o‘rta kvadratik tok maksimal tok va isroflar vaqtiga bog‘liq.

Transformatorlardagi energiya isrofi

Transformatorlardagi isrofi ikkita tashkil etuvchilardan iborat:

- chulg‘amlardagi isroflar, ya’ni yuklamaga bog‘liq bo‘lgan;
- o‘zakdagи isroflar, ya’ni yuklamaga bog‘liq bo‘lmagan

$$\Delta Wh = 3 \cdot R \cdot I^2 \cdot \tau \cdot 10^{-3} + \Delta P_{pul} \cdot t$$

Ba’zida transformatorlardagi energiya isrof tok bo‘yicha emas, balki quvvat bo‘yicha aniqlanadi. $I_{\max} = S_{\max} / \sqrt{3} \cdot U$.

$$\Delta W_T = (S_{\max}^2 / U^2) \cdot R_T \cdot \tau \cdot 10^{-3} + \Delta P_{o'r} \cdot t = ((P_{\max}^2 + Q_{\max}^2) / U^2) \cdot R_T \cdot \tau \cdot 10^{-3} + \Delta P_{o'r} \cdot t;$$

Uch fazali uch chulg‘amli transformatorlardagi isrofi

$$\Delta W = \Delta P_H \cdot \tau_H \cdot 10^{-3} + \Delta P_c \cdot \tau_c \cdot 10^{-3} + \Delta P_B \cdot \tau_{o'r} \cdot 10^{-3} + \Delta P_{pul} \cdot t$$

Bir necha yuklamali va bo‘lingan elektr zanjiridagi isrofnini aniqlash.

- Liniya bo‘yicha toklar:

$$I_{1-2} = I_2 + I_3 + I_4; I_{A-I} = I_1 + I_2 + I_3 + I_4 + I_5$$

- Har xil qismdagи energiya isrofi:

$$\Delta Wh_{A-I} = 3R_{A-I} \cdot I_{A-I}^2 \cdot \tau \cdot 10^{-3};$$

$$\Delta Wh_{I-2} = 3R_{I-2} \cdot I^2_{I-2} \cdot \tau \cdot 10^{-3};$$

$$\Delta Wh_E = \Delta Wh_{A-I} + \Delta Wh_{I-2} + \Delta Wh_{2-3} + \Delta Wh_{2-4} + \Delta Wh_{I-5}$$

Energetika tizimidagi isroflar – bu yangilik emas, lekin ular bor ekan, bu mavzu dolzarbligicha qolaveradi. Umumiyligi isroflarning 12 % i texnik, 8–10 % i tijorat yo‘lida ketadigan isroflar bo‘ladigan bo‘lsa, ana shu 8–10 % ni iloji boricha minimal qilishga harakat qilish lozim. Bunda esa yangi barpo etilayotgan tizimlar uchun eng optimal bo‘lgan rejimlarni hisoblab chiqqan holda tanlanishini yo‘lga qo‘yish lozim bo‘ladi. Optimal deganda faqatgina rejimlarni emas, balki tizim uchun zaruriy ekspluatatsion qurilmalarni eng kam har ajatlisi, lekin ishonchiligi ham yuqori bo‘lganlarini tanlash maqsadga muvofiq.

7.3. Shahar elektr tarmoqlari hisobining o‘ziga xos jihatlari

Normal rejim deb, iste’molchilar elektr ta’minotining talab etiladigan shartlarini hisobga olgan holda, tarmoqning barcha elementlari ishchi holatda hamda tok taqsimlanishi energiya uzatishning eng qulay sharoitlarida bo‘lgan holatiga aytildi. Bunday rejimda elektr tarmog‘i yil bo‘yi eng ko‘p vaqt bilan ishlashi lozim.

Tarmoqning shikastlanishi u yoki bu elementda sodir bo‘ladigan avariyanidan keyingi normal rejimning buzilishi bilan bog‘liq. Bunday shikastlanishlar kutilmagan holatda, tarmoqning ishlash jarayonida yuz beradi, avariyanidan keyingi rejimlar shikastlangan element o‘chirilgandan keyin yuzaga keladi. Tarmoq elementi ataylab ta’mirga chiqarilgan paytda ham normal rejimning buzilishi kuzatiladi. Bunday holatdagi rejim ta’mirlash rejimi deyiladi. Bunday rejimlarning davomiyligi birinchi holatda elementning ishchi holatini tiklash uchun, ikkinchi holatda ta’mirlash uchun ketadigan vaqt bilan aniqlanadi.

Normal rejimdan avariyanidan keyingi va ta’mirlash rejimlari turli holatlari bilan farqlanadi. Tarmoqning qaysi elementi ishdan chiqishiga qarab iste’molchilarning ta’minot sxemasi, ish holatida qolgan elementlarning yuklamasi, ta’minot ishonchiligi hamda iste’molchilarning elektr ta’minoti tavsiflari o‘zgarib boradi.

Ko‘rilayotgan rejimlardagi elektr ta’minoti sharoitlari va tarmoq elementlarining ishi yomonlashishini hisobga olgan holda, ekspluatat-

siya xodimlari bunday rejimlarni oldini oldish yo‘lida barcha choralarни ko‘rishlari lozim.

Tanlangan tarmoq parametrlari ko‘rsatilgan rejimlarning ishslash sharoitini talab doirasida qondirishi kerak. Bunday rejimlar ko‘rib chiqilayotganda o‘simizda chiqarilayotgan tarmoqlar uchun tarmoq qismining tasodifiy va ta’mir uchun o‘chirilishi hisobga olinmaydi, ya’ni tarmoq bitta avariyanidan keyingi rejim hosil bo‘lishi uchun mo‘ljallanadi. Faqatgina o‘ta muhim elektr iste’molchilar uchun tarmoq parametrlarini tanlashda turli rejimlarning hosil bo‘lishini hisobga olishlariga ruxsat etiladi.

Chet elda ba’zi yirik shaharlarning markaziy rayonlarida ikki rejim shartiga ko‘ra taqsimlovchi tarmoqlarning tuzilish sxemasi ishlab chiqiladi.

Ta’kidlash joizki, alohida elementlarning qabul qilingan parametrlari asosiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni aniqlab beradi. Shunda n kelib chiqib, hisobiy rejimlarni tanlash asosida topiladigan parametrlar loyihalash jarayonida mas’uliyatli davr hisoblanadi. Bu rejimlarni noto‘g‘ri tanlash yo tarmoq elementi parametrlarining ~~anossiz~~ kattalashuviga, yoki iste’molchilar elektr ta’motini ~~inhonchligining~~ tushib ketishiga olib keladi.

Qoidaga ko‘ra, elektr tarmoqlari avariya holatlarida elektr qurilmalarning to‘liq yuklamasiga mo‘ljallanadi. Shu bilan birga tarmoqning alohida elementi parametrlarini Shunday rejimlardagi unchalik muhim bo‘lmagan elektr uskunalar qismining o‘chirilishini ~~hisobga olgan holda~~ tanlashiga ruxsat etiladi.

Normal avariya holatlarining hisobiy ko‘rinishi, taqsimlovchi tarmoqning ~~sxemasidan~~ aniqlanadi. Tarmoq sxemasi alohida tarmoq elementlarining o‘zaro zaxiralash usulini ko‘rsatadi. Agar alohida iste’molchilarning yulkama qiymatlari hamda ularning joylashishi va tarmoq tuzilishi nazarda tutilsa, unda tarmoqning alohida elementlarini zaxiralashning asosiy usullarini keltirish mumkin.

Ushbu usullar negizida taqsimlovchi tarmoqlarning asosiy tuzilish ~~sxemalari~~ ishlab chiqilgan. Turli ish rejimida tarmoq elementlari bo‘yicha yulkamaning taqsimlanish har akterini yuzaga chiqarishda zaxiralash usulining qo‘yilishi sxemaning o‘ziga xosliklarini aniqlash-tirishda yordam beradi.

Iste’molchilarning elektr ta’motini bir taraflama (uzoq cho‘zii-magan) ta’motlanishi keltirilgan. Elektr ta’mot tizimi faqatgina

ishchi rejim bilan har akterlanadi. Chunki liniyaning ishdan olinishi yoki uning shikastlanishi iste'molchilar ta'minotini to'xtatadi. Tok taqsimlanishi bo'yicha amalga oshiriladigan liniyada kesim yuzasining qat'iy aniqligi P₁ iste'molchining yuklamasi bo'yicha topiladi.

Iste'molchilar ta'minotining tiklanish va avariya rejimlarida tarmoqning shikastlangan qismini o'chirish mumkin bo'lishi uchun manbalar orasidagi liniya qoidaga ko'ra uchastkalar ko'rinishida bajariladi.

Liniyaning alohida uchastkalari bo'yicha tok taqsimlanishi rejimlarga muvofiq farqlanadi. Birinchi holatda tok berilgan bo'ladi va liniyaning kalitlanadigan nuqtasida joylashish o'rni bilan aniqlanadi. Ikkinci holatda tok taqsimlanishi tabiiy bo'ladi va alohida iste'molchilarning yuklama qiymati hamda liniya uchastkalarining uzunligi bilan aniqlanadi. Agar kesim yuzasi yuklamaga proporsional oshadi deb faraz qilsak, unda kutilayotgan liniya kesim yuzasini ko'rsatilishi mumkin bo'lgan rejim shartiga ko'ra, normal rejim orqali topiladigan kesim yuzaga nisbatan ikki marta kattalashtirilishi lozim. Bundan kelib chiqadiki, iste'molchilarning ikki taraflama ta'minotida liniya 100% li zaxira o'tkazuvchanligiga ega bo'lishi kerak, sababi og'ir kechadigan avariya rejimlarida ham iste'molchilarning ta'minoti bajarilishi zarur.

Liniyaning avariyanadan keyingi rejimlari ishdan olinadigan uchastkalari bilan har akterlanadi.

Tizimga yana bir liniyaning qo'shilishi o'tkazuvchanlik qobiliyatidagi zaxiralash qiymati kamayishiga olib keladi. Kelib chiqishi mumkin bo'lgan avariya rejimida, ya'ni L₁, L₂ va L₃ liniyalarning birontasi ishdan chiqishida qolgan liniyalarning yuklamasi normal rejimnikidan 2 marta emas, balki 1,5 marta ortadi. Proporshional ravishda liniya kesim yuzasi kichrayib boradi.

Ikkita avariyanadan keyingi rejimlar shartiga ko'ra, tarmoq elementlari hisobi haqidagi savolni qo'yish mumkin. Shu maqsadda har bir iste'molchi ta'minoti har bir liniyanadan chiqadigan uchta kirish qisqichlari orqali amalga oshiriladi. Bunda liniya parametrlarini aniqlash chog'ida bir vaqtning o'zida qaysidir ikkita liniyaning, ishdan chiqish holatini hisobga olish kerak. Bunday holatlarda liniya yuklamasi normal rejimga qarama-qarshi uch marta kattalashib

borishini aniqlash qiyin bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, liniyaning o‘tkazuvchanlik qobiliyati 200% ni tashkil etadi.

Belgilangan tuzilish usullari bitta kuchlanishdagi tarmoq elementini tug‘ridan-to‘g‘ri, boshqa kuchlanishdagi tarmoq elementini qo‘llamasdan zaxiralashni ko‘zda tutadi. Huddi Shunday holatda transformatorlar zaxirasini, TP ga ikkita transformator o‘rnatilib amalga oshirish mumkin.

Yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek, shahar taqsimlovchi tarmoqlarini tuzishda turli xildagi kuchlanish elementlarini qo‘llagan holda tarmoq zanjirlarini o‘zaro zaxiralash mumkin.

Bu 6-10 kV li liniya hamda transformatorlarni o‘zaro zaxiralash kuchlanishi 1000 V gacha bo‘lgan normal rejimda uzilgan yoki ulangan holda ishlay oladigan tarmoqlar orqali amalga oshiriladi. Avariya rejimlari liniyani transformatorlar bilan birga ishdan chiqish shartlaridan aniqlanadi. Hamma element parametrlari Shunday tanlanadiki, unda ish holatida qolgan tarmoq elementlarining o‘tkazuvchanlik qobiliyati umumiy iste’molchilar yuklamasiga mos kelishi lozim.

Tarmoq elementlaridagi zaxirani kamaytirish uchun qo‘srimcha 6-10 kV li liniyalarni transformatorlar bilan kiritilishi mumkin. Kuchlanish 1000 V gacha bo‘lgan tarmoq orqali transformatorlarning ko‘p miqdori qoplanadigan tarmoqlarda tugun nuqtalarning yaratilishi juda samaralidir. ikki tomonlama ta’midotga ega bo‘lgan ikki liniyaning kuchlanishi 1000 V gacha bo‘lgan tugun nuqtali tarmoqqa o‘tish munusasi keltirilgan. Yuklamaning taqsimlanish grafiklaridan transformatorlarning navbatma-navbat ishdan chiqishida liniya yuklamasi tugun bo‘lgan taqdirda ikki marta oshib ketmasligi, ikki taraflama ta’midotda belgilanganidek faqatgina 1,3 martaga ortishini ko‘rishimiz mumkin. Shunga muvofiq ravishda kuchlanish 1000 V gacha bo‘lgan transformator hamda liniyalarning o‘tkazuvchanlik qobiliyati kamayadi.

Ko‘rilayotgan tarmoqlardagi sonning taqsimlanish hisobi ayniqsa 1000 V gacha bo‘lgan tarmoqlar ulangan rejimda ishlasa, ancha qiyinlashadi. Bunday tarmoqlar yuqorida ko‘rsatilganidek, har xil kuchlanishdagi alohida element har akteristikalarini o‘zaro mustahkam bog‘langanligi bilan farqlanadi. Bitta element parametrlarining o‘zgarishi boshqa hamma tarmoq elementlari parametrlariga ta’sir qiladi.

Belgilangan zaxiralash usullari tarmoqning alohida elementlari yuklamasi avariya rejimlarida bir qancha o'sib ketishini ko'rsatadi. Bu yuklamalarning qiymatlari tarmoq parametrlarini tanlashda hal qiluvchi bo'lishi mumkin. Qayd etish joizki, «Elektr uskunalarini tuzilish qoidalari» (EUTQ)ga muvofiq bunday rejimlarda qurilmalarning yuklanish qobiliyatidan foydalanishga ruxsat beriladi. Natijada tarmoq parametrlari normal va avariyyadan keyingi rejim shartlariga ko'ra yaqinlashadi hamda elementlardagi o'tkazuvchanlik qobiliyatidagi zaxira qiymati kamayadi.

Tarmoqning ideal sharoitlarida zaxiralanishi ko'rib chiqilganda, u bir xil qiymatga ega bo'ladi. Asosiy farqlar tarmoq liniyasining bajarilish usulidadir. Qisman, iste'molchilar ta'minotini amalgalashuvchi bittalik liniya sifatida har akterlanadi, iste'molchilar ta'minoti ikkitalik liniya hisobiga, ikki taraflama ta'minotga ega bo'lgan, kuchlanish 1000 V gacha bo'lgan liniyalar bilan birligida 6–10 kV li bittalik liniyalardan foydalaniladi va h.k.

Belgilangan zaxiralash usullari uchun liniyaning o'tkazuvchanlik qibiliyatida 100% li zaxiralanishing bo'lishi taqsimlovchi tarmoqlarning u yoki bu sxemasining umumiy ko'rinishidagi afzalliklari to'g'risida xulosa chiqarishga yo'l bermaydi.

Rayon hududidagi iste'molchilarning joylashuvida tarmoq tuzilishi va uning elementlari parametrlari liniyaning qurilish uslubi bo'yicha aniqlanadi. Bunda o'sha hudud sharoitiga bog'liq ravishda u yoki bu liniyaning qurilish uslubi so'ngi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga muvofiq bo'lishi mumkin. Shunday qilib, konkret taqsimlovchi tarmoqning maqsadli qurilishi (belgilangan sxemalarning bittasi bo'yicha) asosan o'sha joyning sharoitidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

7.4. Sim va kabellar kesim yuzasini hisoblash va tanlash usullari.

Shahar elektr tarmoqlaridan sim kabellarni kesim yuzasini hisoblash o'ziga xosliklari

Elektr tarmoqlari sim va kabellari kesim yuzasini hisoblash va tanlashni ko'pgina usullari mavjud:

1. Normal va avariaviy shu rejimlaridan ruxsat etilgan kuchlanish isrofi bo'yicha (F_1);
2. Ruxsat etilgan tok sig'imi bo'yicha, uzoq muddatli ruxsat etilgan qizish sharti bo'yicha (F_2);

3. Tokning iqtisodiy sig'imi bo'yicha (F_3);
4. Qisqa tutashuv paitida termik chidamlilik bo'yicha (F_4);
5. Iqtisodiy intervallar usuli bo'yicha (F_5);
6. Mexanik mustahkamlik sharti bo'yicha (F_6);
7. Toklanish isrofini chegaralash sharti bo'yicha (F_7);
8. Himoya vositalarini ishlashini kelishuv sharti bo'yicha (F_8);
9. Rangli metallar sarfini kamaytirish sharti bo'yicha (F_9) va boshqalar.

Uzoq yillik loyihalashtirish tajribasi shuni ko'rsatadiki, past kuchlanishli (1000 V gacha) elektr tarmoqlarini kesim yuzasini hisoblash va tanlash uchun ruxsat etilgan kuchlanish isrofi usulidan foydalananish lozim va kesim yuzani normal va avariyyiv rejimlarda uzoq muddatli ruxsat etilgan tok bo'yicha ($I_{nux.et}$) tekshirish kerak.

Yuqori kuchlanishli (1000 B dan yuqori) elektr tarmoqlarni kesim yuzasini hisoblash va tanlashda tokning iqtisodiy sig'imi bo'yicha amalga oshirilishi lozim

$$F_1 = \frac{I_{hit}}{J_{eq}} (\text{mm}^2).$$

Kesim yuzani tekshirish uchun esa uzoq muddatli ruxsat etilgan tok bo'yicha (PUE 2.5.jadv.) amalga oshiriladi, termik chidamlilik bo'yicha qisqa-tutashuv paytida quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$F_4 = \frac{I_{qf} \cdot \sqrt{t_k}}{c} (\text{mm}^2)$$

Bu yerda: $\sqrt{t_k}$ - keltirilgan vaqt, rele himoyasini va elektr jihozlar, alyumin sim va kabellar uchun $C=90$, Shuningdek juda uzun liniyalar ruxsat etilgan kuchlanish isrofi bo'yicha.

$$F_1 = \frac{\sqrt{3}I \cdot l \cdot \cos\phi}{\gamma \cdot \Delta U_{nux.et}} (\text{mm}^2) \quad \text{yoki}$$

$$F_1 = \frac{\sqrt{3}P \cdot l \cdot 100 \cdot 10^3}{\gamma \cdot \Delta U_{nux.et} U_n^2} (\text{mm}^2)$$

Bu yerda:

I - uzunlik (m)

I -yuklama toki (A)

Belgilangan zaxiralash usullari tarmoqning alohida elementlari yuklamasi avariya rejimlarida bir qancha o'sib ketishini ko'rsatadi. Bu yuklamalarning qiymatlari tarmoq parametrlarini tanlashda hal qiluvchi bo'lishi mumkin. Qayd etish joizki, «Elektr uskunalarini tuzilish qoidalari» (EUTQ)ga muvofiq bunday rejimlarda qurilmalarning yuklanish qobiliyatidan foydalanishga ruxsat beriladi. Natijada tarmoq parametrlari normal va avariyanadan keyingi rejim shartlariga ko'ra yaqinlashadi hamda elementlardagi o'tkazuvchanlik qobiliyatidagi zaxira qiymati kamayadi.

Tarmoqning ideal sharoitlarida zaxiralanishi ko'rib chiqilganda, u bir xil qiymatga ega bo'ladi. Asosiy farqlar tarmoq liniyasining bajarilish usulidadir. Qisman, iste'molchilar ta'minotini amalga oshiruvchi bittalik liniya sifatida har akterlanadi, iste'molchilar ta'minoti ikkitalik liniya hisobiga, ikki taraflama ta'minotga ega bo'lgan, kuchlanish 1000 V gacha bo'lgan liniyalar bilan birgalikda 6–10 kV li bittalik liniyalardan foydalaniladi va h.k.

Belgilangan zaxiralash usullari uchun liniyaning o'tkazuvchanlik qobiliyatida 100% li zaxiralashning bo'lishi taqsimlovchi tarmoqlarning u yoki bu sxemasining umumiy ko'rinishidagi afzallikkleri to'g'risida xulosa chiqarishga yo'l bermaydi.

Rayon hududidagi iste'molchilarining joylashuvida tarmoq tuzilishi va uning elementlari parametrlari liniyaning qurilish uslubi bo'yicha aniqlanadi. Bunda o'sha hudud sharoitiga bog'liq ravishda u yoki bu liniyaning qurilish uslubi so'ngi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga muvofiq bo'lishi mumkin. Shunday qilib, konkret taqsimlovchi tarmoqning maqsadli qurilishi (belgilangan sxemalarning bittasi bo'yicha) asosan o'sha joyning sharoitidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

7.4. Sim va kabellar kesim yuzasini hisoblash va tanlash usullari.

Shahar elektr tarmoqlaridan sim kabellarni kesim yuzasini hisoblash o'ziga xosliklari

Elektr tarmoqlari sim va kabellari kesim yuzasini hisoblash va tanlashni ko'pgina usullari mavjud:

1. Normal va avariyyaviy shu rejimlaridan ruxsat etilgan kuchlanish isrofi bo'yicha (F_1);
2. Ruxsat etilgan tok sig'imi bo'yicha, uzoq muddatli ruxsat etilgan qizish sharti bo'yicha (F_2);

3. Tokning iqtisodiy sig‘imi bo‘yicha (F_3);
4. Qisqa tutashuv paitida termik chidamlilik bo‘yicha (F_4);
5. Iqtisodiy intervallar usuli bo‘yicha (F_5);
6. Mexanik mustahkamlik sharti bo‘yicha (F_6);
7. Toklanish isrofini chegaralash sharti bo‘yicha (F_7);
8. Himoya vositalarini ishlashini kelishuv sharti bo‘yicha (F_8);
9. Rungli metallar sarfini kamaytirish sharti bo‘yicha (F_9) va boshqalar.

Uzoq yillik loyihalashtirish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, past kuchlanishli (1000 V gacha) elektr tarmoqlarini kesim yuzasini hisoblash va tanlash uchun ruxsat etilgan kuchlanish isrofi usulidan foydalanish lozim va kesim yuzani normal va avariyyaviy rejimlarda uzoq muddatli ruxsat etilgan tok bo‘yicha ($I_{nx,et}$) tekshirish kerak.

Yuqori kuchlanishli (1000 B dan yuqori) elektr tarmoqlarni kesim yuzasini hisoblash va tanlashda tokning iqtisodiy sig‘imi bo‘yicha amalga oshirilishi lozim

$$F_3 = \frac{I_{his}}{J_{iq}} (\text{mm}^2).$$

Kesim yuzani tekshirish uchun esa uzoq muddatli ruxsat etilgan tok bo‘yicha (PUE 2.5.jadv.) amalga oshiriladi, termik chidamlilik bo‘yicha qisqa-tutashuv paytida quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$F_4 = \frac{I_{q} \cdot \sqrt{t_k}}{c} (\text{mm}^2)$$

Bu yerda: $\sqrt{t_k}$ - keltirilgan vaqt, rele himoyasini va elektr jihozlar, alyumin sim va kabellar uchun $C = 90$, Shuningdek juda uzun liniyalar ruxsat etilgan kuchlanish isrofi bo‘yicha.

$$F_i = \frac{\sqrt{3} I \cdot \cos \varphi}{\gamma \cdot \Delta U_{aux,et}}, (\text{mm}^2) \quad \text{yoki}$$

$$F_i = \frac{\sqrt{3} P \cdot l \cdot 100 \cdot 10^3}{\gamma \cdot \Delta U_{aux,et} U_n^2}, (\text{mm}^2)$$

Bu yerda:

l- uzunlik (m)

I-yuklama toki (A)

γ - o'tkazuvchanlik (alyumin uzun $\gamma = 31,7; \frac{m}{om \cdot mm^2}$)

P-yuklamani aktiv quvvati (kVt),

$\Delta U_{rux\ et}$ – ruxsat etilgan kuchlanish isrofi (V),

U_n - nominal kuchlanish (V).

Kuchlanish isrofini aniqlash bo'yicha hisoblarni mavjud elektr tarmoqlarda amalga oshiriladi, loyihalashtirilayotganlarida esa yuklamani va ularni joylanishini bila turib ularni elektr tarmoqlaridagi sim va kabellarni kesim yuzasini aniqlash bo'yicha hisob olib boriladi.

Bir necha yuklamali hamma liniyalarni o'zgarmas kesim yuzasida liniyani 3 fazali tok hisobini ruxsat etilgan kuchlanish isrofi bo'yicha $\Delta U_{rux\ et}$ usuli orqali ko'rib chiqamiz.

$\Delta U_{rux\ et}$ bo'yicha hisob shunisi bilan qiyinki, u yerda $\Delta U_{rux\ et}$ aktiv (R) va reaktiv (X) qarshiliklarga bog'liq, ular esa o'z navbatida quyidagi ifoda orqali aniqlanadigan F kesim yuzaga bog'liq

$$\Delta U = \frac{PR + QX}{U_n} \quad \text{yoki}$$

$$\Delta U = \sqrt{3} \sum I_a R + \sqrt{3} \sum I_r X.$$

Shuning uchun; ΔU - 2 qismga bo'linadi aktiv va reaktiv kuchlanish isrofi $\Delta U = \Delta U_a + \Delta U_r$

Bu yerda: $\Delta U_a = \sqrt{3} \sum I_r \cdot R$ - kuchlanish isrofining aktiv qarshilikka bog'liqligi, $R = r_0 \cdot l$

$\Delta U_r = \sqrt{3} \sum I_r \cdot X$ - kuchlanishi isrofini reaktiv qarshilikka bog'liqligi aktiv va reaktiv solishtirma qarshiliklari ($r_0 x_0$) $X = x_0 \cdot l$

$$r_0 = \frac{P}{F} = \frac{1000}{\gamma \cdot F}; \quad x_0 = 0,114 \lg \frac{D_{w\cdot i}}{\gamma} + 0,016 \mu$$

Bu yerda: ρ - liniyani solishtirma qarshiligi

$$\rho_{Cu} = 18 \frac{om - mm^2}{m}; \quad \rho_{Al} = 31,5 \frac{om - mm^2}{m};$$

γ -solishtirma o'tkazuvchanlik

$$\gamma_{Al} = 31,7; \quad \gamma_{Cu} = 53 \frac{m}{om \cdot mm^2};$$

$D_{o\cdot r}$ - fazolararo o'rtacha masofa;

r - sim kesim yuzasining radiusi;

4. magnit qabul qiluvchilik A1=1; Cu=1.

Kesim yuza $E/15$ marta kattalashganda, r_0 1 km liniyaga solish-tirme aktiv qarshilik 15 marta kamayadi, x_0 - liniyaning solishtirma reaktiv qarshiliqi esa 1,5 barobar kamayadi, chunki x_0 kichik o'cham-lardan olinadi:

x_0 havo hilyalar uchun $x_0 = 0,36 + 0,46$ Om / km 35 kV kabel hilyalar uchun $x_0 = 0,11 + 0,13$ Om/ km bo'lsa, hisob boshida x_0 ni o'tmagan kattaligini berib ishlash mumkin va hisob quyidagi ketma-ketlikda olib boriladi:

1. x_0 kattaligini beramiz.

2. $\Delta U_i = \sqrt{3} \sum_{\text{t}} I_{hi} \cdot L$ aniqlaymiz.

3. $\Delta U_{\text{max et}} = \Delta U_{\text{a max et}} + \Delta U_{\text{r max et}} = \sqrt{3} \sum_{\text{t}} I_a R + \sum_{\text{t}} I_p \cdot X$

$$\Delta U_{\text{a max et}} = \Delta U_{\text{rux et}} - \Delta U_{\text{r max et}}$$

4. E' kesim yuzini quyidagi ifoda orqali aniqlab oling.

$$\Delta U_{\text{max et}} = \sqrt{3} r_0 \sum_{\text{t}} I_a l + \sqrt{3} \frac{P}{U_n} I_a l \quad \text{yoki} \quad = \sqrt{3} \frac{1000}{\gamma \cdot F} \cdot \sum_{\text{t}} I_a \cdot l$$

Bunda $F = \frac{\sqrt{3} \sum_{\text{t}} I_a \cdot l}{\gamma \cdot \Delta U_{\text{max et}}}$ yoki $F = \frac{\sqrt{3} \sum P \cdot l \cdot 100000}{\gamma \cdot \Delta U_{\text{max et}} \cdot U_n^2}$

Bu yerda: l - liniyu uzunligi (metrda)

γ - solishtirma o'tkazuvchanligi $\frac{\text{om}}{\text{mm}^2}$

$\Delta U_{\text{max et}}$ -voltin (V) ngari $\Delta U_{\text{max et}} \%$ da I_a -amperda (A)

Shunda $F = \frac{\sqrt{3} \sum_{\text{t}} I_a \cdot l \cdot 10}{\gamma \cdot \Delta U_{\text{max et}} \cdot U_n}$ yoki $F = \frac{\sqrt{3} \sum P \cdot l \cdot 100}{\gamma \cdot \Delta U_{\text{max et}} \cdot U_n}$

5. Topilgan E ni standartgacha tugirlab r_0 va x_0 ni aniqlaymiz.

6. Tanlangan kesim yuza uzun kuchlanish isrofi ΔU haqiqiy qiymatini aniqlaymiz:

$$\Delta U = \sqrt{3} r_0 \sum_{\text{t}} I_{ai} \cdot l + \sqrt{3} x_0 \cdot \sum_{\text{t}} I_r \cdot l \quad \text{yoki}$$

$$\Delta U = \frac{r_0 \sum_{\text{t}} p_i l_i + x_0 \sum_{\text{t}} q_i l_i}{U_n}$$

7. Olingan ΔU ni $\Delta U_{\text{rux et}}$ bilan solishtiramiz, ular kichik qiymatlarda farqlanishi lozim. Bu holda tanlangan kesma yuza to'g'ri keladi.

Lekin, agar $\Delta U > \Delta U_{\text{rux}}$ et bo'lsa, kesim yuza standartgacha kattalashadi.

Agar $\Delta U < \Delta U_{\text{rux}}$ et bo'lsa, kesim yuza standartiga pasayadi.

Katta kuchlanish 6,10,35 kV taqsimlovchi va tahminlovchi tarmoq va kabellarni kesim yuzasi tanlashda quyidagilar hisobga olinishi lozim:

1) Norma ish rejimida tokning iqtisodiy zichligini bo'yicha:

$$F = \frac{I_{\text{his}}}{I_{\text{iq}}};$$

2) Norma va avariya ish rejimlarida sim va kabellarni qizish sharti bo'yicha:

$$I_{\text{his}} = I_{\text{rux}} \text{ et};$$

3) Normal va avariyyiy ish rejimlarida ruxsat etilgan kuchlanish isrofi bo'yicha

$$F = \frac{\sqrt{3} I_h \cdot l \cdot \cos \varphi}{\gamma \cdot \Delta U};$$

4) Qisqa tutashuv tokiga termik chidamligi bo'yicha

$$F = \alpha \cdot I_\infty \sqrt{t_k}; \quad \text{yoki} \quad F = I_\infty \sqrt{t_k} / C$$

Qabul qilingan sxemadan (taqqoslanoyatgan sxema variyantlaridan) kelib chiqqan holda, tahminlovchi tarmoq hisobini normal va avariyyiy ish rejimlaridan hisobiy yuklamani aniqlashdan boshlash lozim.

Iqtisodiy kesma yuza:

$$F = \frac{I_{\text{his}}}{I_{\text{iq}}};$$

Bu yerda: I_{his} - normal rejimlardan liniyaning hisobli toki (A);

I_{iq} - tokning iqtisodiy zichligini me'yoriy qiymati, (A / mm^2)

Kesim yuzani tokning iqtisodiy zichligi bo'yicha toklashda kuchdanishi 1000 V gacha bo'lgan ishlab chiqarish korxonalari va

binolari tarmoklarini kiritmasa ham bo'ladi, qachonki yuklamani maksimum soatlaridan foydalinish vaqt 4000-5000 soatga bo'lsa, yana kuchlanishi 1000 V gacha bo'lgan alohida ulangan elektr qabul qilgichlar, shuningdek, ishlab – chiqarish korxonalarini, turar – joy va jumont binolarini yoritish tarmoqlari ham ular kuchlanish isrofi bo'yinch tekshiriladi.

Kabel kesim yuzasini simlar qizish bo'yicha tanlashda hisobiy tok ~~qilgichlari lozimi~~ va jadvallar bo'yicha ($I_{\text{rux et}}$ - (PUE) yaqinroqda katta tokka mos keluvchi standart kesim yuza tanlanadi. Bu kesim yuzani hisobiy quvvat bo'yicha ham tanlash mumkin.

Kabel kesim yuzasini kuchlanish isrofi bo'yicha tanlashda kuchlanish isrofi kattaligini aniqlab olish lozim:

$$\Delta U = \sqrt{3} \cdot I_{\text{his}} (r_0 \cdot \cos \varphi + x_0 \cdot \sin \varphi) \cdot l,$$

Bu yerdan: I_{his} - liniyin hisobiy toki, A

r_0, x_0 - liniyoning har metridagi aktiv va reaktiv qarshilikni, Ohm/km;

Copp: linlyn so'ngidan aktiv quvvat koefitsiyenti.

$|I|$ - linlyn uzunligi, km.

Keyin kesim yuzani quyidagi ifoda orqali aniqladi:

$$F = \frac{\sqrt{3} I_{\text{his}} L \cos \varphi}{\gamma \Delta U}$$

Bu yerdan: γ - sifning solishtirma o'tkazuvchanligi, m/om \cdot mm 2 , γ -qlymati alyumin sim uchun 31,7, mis sim uchun 53 m/om \cdot mm 2 .

Kabel kesim yuzasini termik mustahkamligi bo'yicha tanlash uchun hisoblardan qiymatini va o'sha tokni kabel vaqtini rele himoyasiga o'rnatilgan o'rnatmalardan aniqlash mumkin (ularni soniga qarab).

Kesim yuzani termik mustahkamlik bo'yicha aniqlashda quyidagi ifodadan foydalilanadi:

$$F = \alpha \cdot I_x \sqrt{t_{pr}}; \quad \text{yoki} \quad F = I_x \sqrt{t_{pr}} / C$$

α - hisobiy koefitsiyent, kabel qizishini ruxsat etilgan haroratni chegaralash orqali aniqlanadi, α qiymat – kuchlanishi 10 kV bo'lgan

alyumin simlar uchun 12 ga teng deb olinadi ($\alpha=12$ yoki doimiy kattaligi $C=90$).

Tokning iqtisodiy zinchligi va uzoq muddatli qizish bo'yiga tanlangan tahminlovchi liniyaning kesim yuzasi, qisqa tutashuv tokiga chidamlilik sharti bo'yicha aniqlangan kesim yuzadan kichik bo'lmasligi lozim.

Kesim yuzani termik chidamlilik bo'yicha tanlagach kichigini yaqinroq kesim yuza tanlanadi. Bunga asos bo'lib hisoblash usuliga kiritilgan xatolik foizini kattaligi, kesim yuzani qizish tomonga o'sishiga xizmat qiladi.

Kesim yuzani kuchlanish isrof bo'yicha tanlashda kattaroq kesim tanlash kerak bo'ladi. Biroq ba'zi bir hollarda, hisobiy kesim yuza standartiga juda yaqin bo'lganda kichikrog'ini tanlash mumkun.

Qizish bo'yicha kesim yuzani tanlashda eng yaqin katta kesim yuzani olish lozim.

Hamma usulda kesim yuzani asossiz ravishda o'sishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Shahar elektr tarmoqlari kesim yuzani hisoblash, shahar elektr ta'minoti tizimlari bir faza, ikki fazali, uch fazali nol va nolsiz, teng taqsimlangan yuklamalar, yopiq va ikki tamonlama tahminlagan va boshqalarga egadir. Shuning uchun mayjud tarmoqlarda kuchlanish isrofi aniqlanadi.

$$U = \sqrt{3} (r_0 \cdot \cos\varphi + x_0 \cdot \sin\varphi) \sum_i^n I_i \cdot l$$

Loyihalashtirilayotgan elektr tarmoqlarida kesim yuzani quyidagi ifoda orqali topiladi:

a) Teng taqsimlangan yuklamali liniyalar

$$F = \frac{0,5 \cdot \sum_i^n P \cdot n \cdot l \cdot 10^5}{\gamma \cdot \Delta U_{max} \cdot U_n^2}$$

b) Yuklamasi teng taqsiplangan aralash liniyalar

$$F = \frac{0,7 \cdot \sum_i^n P \cdot l \cdot 10^5}{\gamma \cdot \Delta U_{max} \cdot U_n^2}$$

v) Ikki faza nolli liniyalar

$$F = \frac{2,25 \cdot \sum_i^n P \cdot l \cdot 10^5}{\gamma \cdot \Delta U_{max} \cdot U_n^2}$$

g) Bir faza nolli liniyalar

$$F = \frac{6 \cdot \sum_i^n P \cdot l \cdot 10^5}{\gamma \cdot \Delta U_{ruxet} \cdot U_n^2}$$

d) Ikki tomonlama tahminlangan liniyalar

$$F = \frac{0,2 \cdot \sum_i^n P \cdot l \cdot 10^5}{\gamma \cdot \Delta U_{ruxet} \cdot U_n^2}$$

Bu esa shahar elektr tarmoqlaridan sim kabellarni kesim yuzasini hisoblash o‘ziga xosliklari.

Kabel kesim yuzasini ruxsat etilgan qizish shartlariga ko‘ra tekshirish

Liniyaning tanlangan iqtisodiy kesim yuzasi tarmoq ishining normal va avariya rejimlarida yuklama va qisqa tutashuv toklarining ruxsat etilgan qizish shartlariga ko‘ra tekshirib ko‘rilishi lozim.

Kabel kesim yuzasini yuklama toklaridan qizishi bo‘yicha EUTQ ning 1-3-boblaridagi kabellarning har xil turlari uchun turli o‘rnatilish sharoitidagi ruxsat etilgan uzoq muddatli hisobiy toklar haqidagi ma’lumotlarni inobatga olish lozim. Bu yuklamalar boshlang‘ich bo‘lib, atrof-muhitga bog‘liq ravishda tok o‘tkazuvchi simlarning ruxsat etilgan haroratda qizishi sifatida qabul qilingan. Xususan, moyga bo‘ktirilgan qog‘oz izolyatsiyali kabellar uchun simning hisobiy qizish harorati 1 kV – 80°С, 6 kV – 65°С va 10 kV – 60°С. Plastmassu izolyatsiyali kabellar uchun 1- 6 kV kuchlanishda simning qizish harorati 65°С qabul qilingan, 10 kV uchun 60°С, atrof-muhitning hisobiy harorati kabellarning erga o‘rnatilishida (tranmes) +15°С va havoda +25°С.

Shahar sharoitida kabel liniyasi suv maydonini kesib o‘tishi (suvga o‘rnatilishi), ko‘cha bo‘ylab yer transheyasidan o‘tishi (yerdan o‘tish) hamda ta’midot markazi erto‘lasida joylashtirilishi mumkin (havodan o‘tish). Bunday holatlarda kabelga tushadigan ruxsat etilgan yuklama eng noqulay haroratli sharoitdagi uchastka bo‘yicha aniqlanishi kerak (agar bunday uchastkaning uzunligi 10 m dan oshsa).

Bittalik kabel liniyasining o'tkazuvchanlik qobiliyati (MV·A)

Kabel kesim yuzasi	Yerda		Havoda	
	6 kV	10 kV	6 kV	10 kV
50	1,7	2,6	1,2	1,9
70	2,1	3,0	1,4	2,3
95	2,4	3,8	1,8	2,8
120	2,8	4,3	2,1	3,3
150	3,2	5,0	2,4	3,8
185	3,7	5,7	2,7	4,2
240	4,2	6,4	3,1	4,9

7.2-jadvalda yer yoki havo bo'ylab o'tkazilgan bittalik kabel liniyasining o'tkazuvchanlik qibiliyati har akteristikasi uchun tarmoq kuchlanishi $1.05U_{\text{max}}$ bo'lgan moyga bo'ktirilgan qog'oz izolyatsiyali uch simli kabellarning ruxsat etilgan uzatiluvchi quvvat qiymatlari berilgan. Jadvaldan ko'rinish turibdiki, atrof-muhitning ruxsat etiluvchi quvvatga ta'siri sezilarlidir. Masalan, yerdan o'tadigan kabelning ruxsat etiladigan yuklamasi havo bo'ylab o'tuvchi huddi shu kesim yuzali kabellarga nisbatan taxminan 30% yuqori. Ko'cha o'tish joylari kesishib qolsa, kabellar ventillanmaydigan quvurlarda yerdan o'tkaziladi. EUTQ ning 3.13-bo'limiga ko'ra [74], bunday holatdagi boshlang'ich ruxsat etiladigan yuklama, Xuddi havo bo'ylab o'matilgan kabellardagidek qabul qilinadi. Bunda ruxsat etiladigan yuklama boshlang'ich havo harorati $+25^{\circ}\text{S}$, hisobiy yer harorati $+15^{\circ}\text{S}$ bo'lganda quyidagi formula orqali qayta hisoblanishi lozim:

$$I_{T/3} = I_x \sqrt{(v_c - 15^{\circ}) / (v_c) - 25} = k_1 I_x \quad (7.23)$$

bu yerda: I_x – havo bo'ylab o'tkazilgan kabellar uchun ruxsat etiladigan yuklama; v_c – kabel simining ruxsat etilgan harorat bo'yicha qizishi.

Yerda bitta transheyaga bir necha kabellar o'matilsa, kabellarning bir-biriga nisbatan issiqlik ta'siri hisobga olinadi. Bu esa EUTQ dagi 1.3.23-jadvalda [74] berilgan to'g'rilovchi koefitsiyent k_1 qiymatlari

yordamida amalga oshiriladi. quvurdagi kabellarning ko'payish holatida k, koeffitsiyentni kiritish muhim.

Ko'pincha atrof-muhitning haqiqiy harorati EUTQ da o'tkaziladigan hisobiy haroratdan farq qiladi. Masalan, shahar tarmog'i yuklamasining maksimumi qishda yer harorati boshlang'ich haroratdan +15° past bo'lganda belgilanadi. Oxirgisi k, koeffitsiyenti orqali EUTQ dagi 1.3.36-jadvalda keltirilgan qiymati bo'yicha hisobga olinishi mumkin. Bunday holatda kabelga bo'ladijan ruxsat etiladigan yuklama normal sharoit uchun quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$I_{pe} = k_1 k_2 k_3 I_{resw} \quad (7.24)$$

Bu yerda I_{resw} – EUTQ dagi hisobiy o'rnatilish sharoitlariga ko'ra kabelning ruxsat etiladigan tok yuklamasi.

Tekshiriladigan kabel kesim yuzasi tarmoqning normal rejimdagি ishi uchun qizish shartlarini qoniqtiradi, agar: $I_{pe} \geq I_{max}$ ga rioya etilsa, bu yerda, I_{max} – normal rejimda liniyaning hisobiy yuklamasi. EUTQ ning 1.3.5-bo'limiga ko'ra, avariyanidan keyingi rejimni bartaraf etish vanqtida kabel yuklanishi 130% gacha ruxsat etiladi (agar normal rejimda ruxsat etilgan yuklama 80% dan oshmag'an bo'lsa). Bunday kelib chiqadiki, avariyanidan keyingi rejimda kabel kesim yuzasi ushbu munosabatni, ya'ni $1.3 \geq I_{avar} / I_{max}$ ni qondirishi lozim. Bu yerda, I_{avar} – avariya rejimidagi liniyaning hisobiy tok yuklamasidir.

Bir necha vaziyatlarda kabellar nominal bo'lmagan kuchlanishlarda qo'llaniladi, masalan ishlayotgan 6 kV li tarmoqning kuchlanishi 10 kV li bo'lgan tarmoqqi o'tishida. Bunday liniyalarning ruxsat etilgan yuklamasi

$$I_{ish} = I_{resw} \sqrt{(v_{c,ish} - v_{air}) / (v_{c,b} - v_{air})} \quad (7.25)$$

bu yerda: I_{resw} – konstruktiv kuchlanishdan kelib chiqqan holdagi kabel yuklamasi; $v_{c,ish}$ – ruxsat etilgan ishchi kuchlanishdagi sim harorati; $v_{c,b}$ – xuddi shunday konstruktiv kuchlanishdagi kabel simi uchun ruxsat etilgan harorat; v_{air} – atrof-muhit harorati.

Bloklar ichiga yotqizilgan kabellarning ruxsat etilgan hisobiy yuklamasi spetifik ahamiyatga ega. EUTQ 1.3.24-jadvalda [6]

bloklarning tuzilishi belgilangan. Kabel qayerda joylashganligiga qarab blokda uning ruxsat etilgan yuklamasi aniqlanadi. Yuklama qiymatlari mis simli kesim yuzasi $3 \times 95\text{mm}^2$ bo‘lgan, kuchlanish 10 kV li kabellar uchun o‘rnatalgan. Real kuchlanishlar va kabellarning kesim yuzasi ma’lum bir koefitsiyentlar orqali hisobga olinadi.

Shahar tarmoqlaridagi turba va havodagi kabel uchastkalari ta’minot markazining kirish joylarida va erto'lalarida, ko‘chalarning kesishish nuqtalarida uchraydi, ya’ni ular liniyaning uncha katta bo‘lmagan qismini tashkil etadi. Hozirda uzunlik bo‘yicha uning kesim yuzasini kattalashtirmaslik maqsadida, katta kesim yuzali kabellarni faqatgina mana Shunday uchastkalarda qo’llash mumkin. Unga eksplutatsion har akterga ega bo‘lgan qarshiliklar mavjud. Qoidaga ko‘ra kabel liniyalarini butun uzunlik bo‘yicha bitta kesim yuzasida bajariladi. Biroq, trassa bo‘ylab ketgan kabelning turli kesim yuzasidagi simlaridan maqsadli foydalanish zarurligini unutmaslik lozim.

Qisqa tutashuv rejimi bo‘yicha qurilmalarni tekshirish ketma-ketligi EUTQ dan aniqlanadi. Shahar tarmoqlari sharoitida kuchlanish 1 kV gacha bo‘lgan tarmoqlardagi qisqa tutashuvning hisobi quvvati, asosan, himoya parametrlarini tanlash uchun amalga oshiriladi (6-10 kV li tarmoqlarda qurilmalarni tanlash va kabel kesim yuzasini tekshirish uchun).

7.3-jadval

Kabellarning termik mustahkamlik shartlari bo‘yicha qisqa tutashuvning chegaraviy toklari, kA

t_n, C	Kesim yuzasi, mm^2						
	50	70	95	120	150	185	240
0,50	6,90	9,65	13,00	16,50	20,00	25,45	34,25
0,75	5,60	7,90	10,65	13,50	16,90	20,50	27,20
1,0	4,85	6,80	9,25	11,80	14,60	18,00	23,50
1,50	4,00	5,55	7,55	9,55	11,90	14,75	19,30
2,00	3,45	4,80	6,55	8,25	10,30	12,75	16,65

Qisqa tutashuv rejimi bo‘yicha taqsimlochi tarmoqlarning TP va $T_{aq}P$ qurilmalarini tekshirishda to‘xtalar ekanmiz, zavod qiymatlariga muvofiq VMG-10 va VMP-10 uzgichlarining chegaraviy o‘chirish

toklari 20 kA ni tashkil etishini eslatib o'tish joiz. Taqsimlovchi tarimoqdagi qisqa tutashuv toklari quvvatining qiymatiga bo'ladigan qisqartirishlarni VN-16 turidagi yuklama uzgichlari keltirib chiqaradi.

7.5. Kuchlanishni tanlash

Shahar va sanoat korxonasida elektr ta'minoti tizimini loyihalashda asosiy masalalar kompleksi bilan bir qatorda umumiyligi iste'mol sxemasini tanlash va kuch transformatorlarining quvvatini aniqlash, sxema uchun ratsional kuchlanish tanlash shu bilan birga elektr qurilmalarini aniqlashda kapital qurilmalarning qiymati, rangli metallar sarfi, elektr isrofi va ekspluatatsion har ajatlar ham hisobga olinadi.

Standart bo'limgan ratsional kuchlanishni aniqlash masalasiga analitik yo'l qo'yilgan chet elda katta ahamiyat beriladi.

Analitik ratsional kuchlanishni aniqlash

Ratsional kuchlanishni tanlash masalasini yechishda umuman standart bo'limgan ratsional kuchlanish minimal har ajatlar bo'yicha aniqlanadi. Bu kuchlanishni har qanday aniq voqeа uchun to'g'riroq tanlash mumkin. Nostandart ratsional kuchlanishlarni aniqlash bo'yicha bir qator mualliflar quyidagi usullarni qo'llaganlar.

A) Ratsional kuchlanishni aniqlash uchun Nyuton interpolatsion nazariyasini qo'llash mumkin. Nyuton metodi bo'yicha aniqlangan nostandart bo'limgan ratsional kuchlanish 2 ta standartlar oraliq'ining o'rnatilishi bo'ladi.

B) Ratsional kuchlanishni aniqlash uchun Lagranj interpolatsion nazariyasini qo'llash.

V) Ratsional kuchlanishni grafik usuli orqali taxminiy aniqlash. Sanoat elektr ta'minoti tizimini loyihalashtirish tajribasi kutilgan ratsional kuchlanishni oldindan berish imkonini yaratadi. Faqat bu usul bilan echilgan hisobiy amallarda ko'pgina xatoliklar uchraydi. Shu bilan bir qatorda kuchlanishning barcha qiymati uchun har ajatlarni aniqlashda qilingan hisob-kitoblar qo'shimcha ishni talab etadi.

Kuchlanish tanlanayotganda quydagilar o'rnatilgan:

1. Standart kuchlanish kattaligi.
2. Ko'pgina foydali kuchlanishlar va elektr ta'minoti sistemasi uchun transformatorlar soni.

1963 yilning 1 yanvaridan GOST 721-62 bo'yicha kuchlanishlar 0,22, 0,38, 0,66, 3, 6, 10, 20, 35, 110 kV. 220; 330; 500; 750; 1050; 1500 kV – [MDH] belgilangan.

O'zbekistonda 0,22, 0,38; 0,66, 6, 10, 35, 110, 220, 500 kV

Chet mamlakatlarda:

Angliya – 0,38; 11; 33; 132 kV 50 Gst

Shvetsiya – 0,38; 10; 40; 132 kV 50 Gst

Germaniya – 0,38; 10; 30; 110 kV 50 Gst

AQSh – 0,208; 0,46; 13,8; 34,5; 138 kV 60 Gst

Yugoslaviya – 0,38; 10; 35; 110 kV 50 Gst

Fransiya – 0,38; 15; 63; 220 kV 50 Gst

Elektr tarmoqlar kuchlanishining xalqaro standart shkalasi

Hozirda elektr tarmoqlarining nominal kuchlanishini standartlashtirish masalasiga e'tibor qaratilmoqda. 1967-yilning boshlarida tok, kuchlanish va chastota masalalari bilan shug'ullanuvchi Xalqaro elektrotexnik qo'mitasi (MEK) 38 ta ommabop standart kuchlanishlarni chiqardi.

XEKning barcha standart kuchlanishlar shkalasi beshta jadvalga bo'lingan I-II jadvalda 100 dan 1000 V gacha oraliqda bo'lgan kuchlanishlar bir fazali va uch fazali tarmoqlar uchun keltirilgan.

Seriya I, V	Seriya II, V
220/380	120/208
500	240/415 277/480
600	600

Seriya I 50 Gst va Seriya II 60 Gst

60 Gst chastotali sistema chastotali sistemalar

Shu o'rinda kommunal elektr tarmoqlarida 10 kV dan past kuchlanishlar ishlatalmasligiga maslaxat beriladi.

Seriya I		Seriya II	
Elektr qurilmaning yuqori kuchlanishi, kV	Tarmoqning nominal kuchlanishi	Elektr qurilmaning yuqori kuchlanishi	Tarmoqning nominal kuchlanishi
3,6	3,3 3	2,75 2,75/4,76 5,5	2,4 2,4/4,16 4,8
7,2	6,6 6	8,25 5,5/9,52	7,2 4,8/8,32
12	11 10	13,2 7,22/13,7 8,32/14,7 14,5	12 7,2/12,5 7,6/13,2 13,2
17,5	- 15	15,5 25,8 3	14,4 23 27,6
36	3,3 30	38	34,6
52	47 45	48,3	46

Shahar va qishloqlar elektr ta'minlash tizimini tanlashda ning transformatsiyalash miqdori pasayishini va 6 hamda 35 kV kuchlanishni yo'qotishni hisobga olganda ham elektr ta'minoti turlarida kuchlanish turi (klass) tanlanadi. Bunda ularning o'mniga 6-35 kV tarmoqlar yuqori kuchlanishli 10 va 110 kV tarmoqqa aylanishi kerak. Bir qator shaharlar va qishloqlar uchun 220-110/10 kV li kuchlanishlar sistemasi maqsadga muvofiq.

Yirik shaharlar uchun 500/220 yoki 220-110/10 kV kuchlanish maqsadga muvofiq, 35 kV li kuchlanish shahar va qishloqlarda maxsus holda saqlab qolish mumkin. 6 kV li kuchlanish – yaqin-atrofdagi qishloq hududlarini ta'minlash uchun. Shahardagi 35 kV kuchlanishli podstansiyalarining soni mumkin qadar chegaralangan bo'lishi zarur.

6 kV li kabel liniyalarini 10 kV li kuchlanishga ishlataliganda, ularni vertikal uchastkalarda va 10 kV li kabelni buzuq uchastkalarda almashtirishni nazarda tutish kerak.

6 kV li kuchlanish liniyalarini 10 kV li kuchlanish perpendikulyar o'tkazilganda, ularning ish vaqtini quyidagicha qabul qilish kerak:

– 6 kV li kuchlanishda 15 yildan ortiq ishlamagan kabel liniyalari uchun ish muddati 20 yil bo‘ladi.

– 6 kV da kuchlanish liniyalari 15 yildan ortiq ishlasa ham, ta‘mirlangan liniyalarning yuklamasi yaqin 5 yil ichida nominal qiyomatining 50% ini tashkil esta, ish muddati 15 yil bo‘ladi.

Ko‘rsatilgan ish muddati liniyalar izolyatsiyasini va ish holatini kuchaytirishi mumkin. Shahar tarmoqlarida ta‘minlovchi 20 kV li kuchlanishni quyidagi sharoitlarda ishlatish mumkin:

a) 20 kV kuchlanish berilgan generator bo‘lganda;

b) ishlab turgan 20 kV li tarmoqlarni qayta ishlatganda va kengaytirganda.

1000 V kuchlanishgacha bo‘lgan tarmoqlar uch fazali, to‘rt simli, yerga ulangan neytral kuchlanish 380÷220 volt sistemasi orqali bajarilishi kerak.

Texnik-iqtisodiy asoslar va xavfsizlik talablari bajarilganda 380÷220 V dan yuqori bo‘lgan kuchlanishlar ishlatilishi mumkin.

Shahar ta‘minlash tarmoqlarida yulduz va uchburchak-yulduz sxemalarida ulangan transformatorlarni ishlatish zarur. Chulg‘amlari yulduz-yulduz qilib ulangan transformatorlarni 6 kV li tarmoq, 10 kV li kuchlanish hamda uch fazali yuklama mavjud bo‘lganda ishlatish mumkin.

Sig‘im toklarni kompensatsiya qilish R 1-2-16 PUE talablariga mos ravishda olib borilishi kerak. 10-35 kV li tarmoqlar qo‘llanilishi uch fazali izolyatsiya qilingan yoki yerga ulangan elektr yoyini yo‘qotuvchi neytral reaktorlar orqali amalga oshirilishi kerak. Ma’lum texnik - iqtisodiy sharoitga asoslangan holatlarda 6 kV li kuchlanish saqlab qolinishi mumkin.

10-15 yil ishlashi uchun mo‘ljallangan 6 kV li kuchlanish kabeliga har yili qo‘yiladigan yuklama 5% ga oshsa, 5-10 yil ichida 10 kV li kuchlanishga o‘tish zarur.

Germaniyalik muhandis Veykert nostonart kuchlanishni quyidagi formula orqali aniqlashni taklif qildi:

$$U = 3\sqrt{S} + 0,5L \quad (7.26)$$

bu yerda: S – uzatiluvchi quvvat;

L – masofa, km.

AQSh amaliyotida nostandard kuchlanish uchun Still formulasi qo'llaniladi:

$$U = 4,34 \sqrt{L + 16 P} \quad (7.27)$$

bu yerda, L – masofa, km;

R – uzatiluvchi quvvat.

Still formulasi Nikochasov tomonidan qulay ko'rinishga keltirilgan

$$U = 16 \sqrt[4]{pl} \quad (7.28)$$

Shvetsiyada esa nostandard kuchlanishni quyidagicha taklif qiladilar.

$$U = 17 \sqrt{\frac{l}{16} + p} \quad (7.29)$$

bu yerda: r – uzatiluvchi quvvat, ming kVt;

L – masofa, km.

Nazorat savollari

1. Shahar elektr tarmoqlaridagi quvvat va elektroenergiya isroflarini aniqlash yo'llarini keltiring.
2. Qanday elektr tarmoqlaridagi quvvat isrofini aniqlash yo'llarini bilasiz?
3. Qanday shahar elektr tarmoqlari hisobining o'ziga xos jihatlarini bilasiz?
4. Qanday kabel kesim yuzasini ruxsat etilgan qizish shartlarini bilasiz?
5. Kuchlanishni tanlash yo'llarini keltiring.

8. SHAHAR ELEKTR TA'MINOTI TIZIMLARIDA DAN RATSIONAL FOYDALANISH

8.1. Shahar elektr ta'minoti tizimlarida tejamkorligi va undan ratsional foydalanish

Aktiv quvvatni ishlab chiqarish va taqsimlashdagi isroflarning asosiy qismi elektr stansiyalariga to'g'ri keladi. Tarmoqlardagi isroflar umumiy isroflarning yetarli katta qismini tashkil etmaydi. Reaktiv quvvatni ishlab chiqarishning ratsional rejimi tarmoqlarda isroflarni minimallashtirish sharoiti bilan aniqlanadi. Elektr tarmoqlarining rejimi optimallashtirish masalasi – bu belgilangan aktiv va reaktiv quvvatlarni uzatish va taqsimlashdagi elektr si isroflarini, elektr sining belgilangan sifati hamda ishonchlik talablarini ta'minlagan holda, mumkin bo'lgan minimal darajaga tushirishdir.

Turli holatlar uchun belgilangan va turli kuchlanishdagi tarmoqlarning umumiy miqdori orasidan energetika tizimining asosiy tarmog'ini ajratib olish lozim. Bu bilan energetika tizimining asosiy elektr stansiyalari (uning quvvati va ish rejimini aniqlovchi) va qo'shni energetika tizimlari bilan bog'lovchi elektr uzatish liniyalari va transformator nimstansiyalarini nazarda tutamiz.

Asosiy tarmoqning ish rejimi elektr stansiyalarining ratsional rejimini amalga oshirish masalasiga to'liq ravishda tobedir (tarmoqlardagi quvvat isroflari inobatga olinib, hisob-kitob qilingan holda, albatta). Asosiy tarmoqdagi isroflarni kamaytirish ikki usulda amalga oshirilishi mumkin: ko'p transformatorli nimstansiyalarda ratsional rejim tanlash va turli qismlari har xil sifat va mustah-kamlikka ega bo'lgan berk tarmoqlarda, kuchlanishni bo'ylama-ko'ndalang rostlovchi ishlab turgan transformatorlarning soni va quvvatini tanlash yo'li bilan quvvatlar aylanma oqimlarining paydo bo'lishini oldini olish.

Energetika tizimining asosiy tarmog'i bo'lgan energiya manbalarini iste'molchilar bilan bog'lovchi tarmoqlar – amalda taqsimlovchi tarmoqlardir. Biroq, 220-35 kV tarmoqlarning bir qismi ta'minlovchi tarmoqlar deb nomlanadi, 10-6 kV tarmoqlar esa

taqsimlovchidir. Yirik sanoat korxonalari bir yoki bir necha 110-220 kV nimstansiyalardan ta'minlanuvchi hamda qator 35-10-6 kV nimstansiyalarga ega bo'lgan ichki elektr ta'minoti tizimlariga ega.

10-6 kV taqsimlovchi tarmoqlardan kommunal-xo'jalik, sanoat va qishloq xo'jalik yuklamalari ulangan 0,38 / 0,22 kV tarmoqlarni ta'minlovchi "iste'molchilar" nimstansiyalari ta'minlanadi.

Taqsimlovchi tarmoqlar rejimlarini ratsionallashtirish imkonlarini ko'rib chiqqanda uskunalar quvvatlari va tarmoqlar sxemalarining turlicha ekanligini aniqlovchi hamda navbatchi xodimlarga ega bo'lmagan nimstansiyalar sonining ko'pligi va joylashishi jihatidan uzoqligi kabilarni inobatga olish lozim. Rejimlarni operativ ravishda ratsionallashtirishda o'Ichov asboblar, xodimlar va teleboshqaru uskunalarida uchrab turadigan kamchiliklarni ham nazarda tutish lozim. Shu bilan bir qatorda nimstansiyalar va taqsimot elektr tarmoqlari elektr uzatish yo'llarining ko'p qismi bizning mamlakatimiz miqyosida ularning rejimlarini ratsionallashtirish natijasida alohida obyektlar bo'yicha erishiladigan iqtisodiy qiyatlarning yig'indisi hisobiga yuqori samara beradi.

Mavjud taqsimot qurilmalari rejimini ratsionallashtirish iste'molchilaring elektr ta'minotini lozim bo'lgan darajada va elektr si sifatini talab qilingan darajada ta'minlash uchun o'tkaziladigan chora-tadbirlar bilan mutanosiblikda bo'lishi lozim.

Kuchlanishlarni optimallashtirish masalasi bilan bog'liq bo'lgan tarmoq transformatorlarining transformatsiyalash koefitsiyentini tanlash masalasi tegishli kuchlanish darajalarini tanlash va kuchlanishlar nosimmetrikligi paydo bo'lishini oldini olish yo'li bilan hal qilinadi. Transformator nimstansiyalari rejimlarini hamda reaktiv quvvat manbalari rejimlarini to'g'ri tanlash va ishlatalish elektr si isroflarini sezilarli darajada pasaytirish imkonini beradi. Tarmoqning barcha qismlarini doimiy ulangan holatda ushlab turish va shikastlanish joyini aniqlash, ta'mirlash va sinovdan o'tkazish maqsadidagi majburiy o'chirishlar davomiyligini qisqartirish yo'li bilan isroflarni kamaytirishga erishish mumkin.

Hisobli ishonchlilik darajasini ratsionallashtirish

Hozirgi paytda energetik tizimlarni yaratish, ularning ishi bilan bog'liq bo'lgan barcha loyihibaviy va ekspluatatsion masalalarni,

ularning tejamkorligi hamda ishonchlilagini hisobga olgan holda hal etish qabul qilingan. Aslida energetika tizimining ishonchliligi ixtiyoriy agregat yoki uskunaning ishonchliligi kabi iqtisodiy jihatdan ko'rib chiqilmog'i darkor. Ishonchlilikni oshirish xarajatlarni ko'paytirishni talab etadi. Bu esa faqatgina ishonchlilikni oshirish va bundan kelib chiqqan holda kutilayotgan zararni kamaytirish natijasida tejalgan mablag'lar sarf etilgan harajatlardan ortiq bo'lgandagina maqsadga muvofiq bo'ladi. Yetarli darajada yuqori ishonchlilikni ta'minlashning asosiy masalalarini hal etish energetika tizimlarini loyihalashtirish bosqichida bajariladi. Bu masalani hal etish uchun quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lish zarur:

- energetika tizimi asosiy elementlarining ishlamay qolishlik ehtimoli;
- energetika tizimi elementlarining tarkibi (tarmoqlararo elektr uzatish yo'llari va ularning bog'lanishlari sxemasini inobatga olgan holda);
- elementlarni zaxiralash maqsadida, ularning sonini ko'paytirish yoki quvvatini oshirish uchun sarf etiladigan mablag'lar;
- u yoki bu elementlarni ishga tushirish, ulash va yuklama berish uchun lozim bo'lgan vaqt;
- iste'molchilarning tarkibi, ularning energetika tizimi sxemasida joylashuvi va yuklamalar grafiklari, ularning ehtimollik xarakteristikalar;
- u yoki bu iste'molchilarga elektr yoki issiqqlik larini uzatishdagi uzilishlar natijasida xalq xo'jaligi ko'radigan zarar.

Yuklama maksimumini ta'minlashning ishonchliligi zaxiraviy quvvat to'satdan ishdan chiqqan agregatning quvvatini qabul qila olish darajasida bo'lgandagina yetarli bo'ladi. Bundan shunday ma'no kelib chiqadiki, bu aylanib turgan zaxira yoki zudlik bilan ishga tushirish mumkin bo'lgan agregatlar bo'lishi mumkin. Bu esa, zaxirani ishga tushirish paytida ishlab turgan aggregatlarni ortiqcha yuklash sharoiti ruxsat etilishi mumkin bo'lgan sharoitdagina bo'lishi mumkin.

Energetika tizimi ekspluatatsiyasining zarur bo'lgan ishonchlilagini ta'minlash uchun uning statik va dinamik turg'unligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan bo'lishi lozim. Asosiy tarmoqlararo aloqalarning ruxsat etilishi mumkin bo'lgan ish rejimi statik va dinamik turg'unlikning lozim bo'lgan zaxirasini hisobga olgan holda tanlanishi kerak. Asosiy e'tibor avariya holatlarida

turg‘unlikni saqlashni ta’minlab beruvchi generatorlarni qo’zg’atishni avtomatik rostlash uskunalariga va avtomatikaning boshqa uskunalariga qaratilishi lozim.

Energetika tizimi tarmoq elementlari ishining zarur bo‘lgan mustahkamlik va ishonchlilik darajasini ta’minlashga avtomatik qayta ulash uskunalarini ishlatish yo‘li bilan erishiladi. Yirik sanoat korxonalarasi, shaharlar yoki qishloqlarni ta’minlovchi mahalliy elektr ta’minoti tizimlarida ishonchlilik darajasini ratsionallashtirish imkoniyati salmoqlidir.

Elektr tarmoqlari rejimini ratsionallashtirishda ishonchlilik hisobi

Loyihalashtirish jarayonidagidek elektr tarmoqlari ishining operativ sxemalarini tanlashda ham iste’molchilarning mustahkam va ishonchli ta’minoti masalalarini e’tiborga olmoq zarur. Ba’zi holatlarda ko‘p kriteriyli optimallashtirishni (vektor optimallashtirish deb ham ataluvchi) amalga oshirish maqsadga muvofiqroq bo‘lishi ham mumkin. Ko‘rilayotgan masalaga tatbiq etilgan holda gap ikki mezon – tejamkorlik hamda ishonchlilik kabi kriterial optimallashtirish ustida ham bo‘lishi mumkin.

Qator shahar tarmoqlari uchun o’tkazilgan hisob-kitoblar tejamkorlik hamda ishonchlilik bo‘yicha optimallashtirish shart-sharoitlari, odatda, mos kelmasligini ko‘rsatdi. Biroq ushbu ikki maqsadli funksiyaga bog‘liq bo‘limgan kattaliklar ba’zi diapazonda mos kelib qolishi mumkin, ya’ni ularning u yoki bu argument bo‘yicha ko‘paytmasi bir xil qiymatga ega bo‘lishi mumkin. Bu holda bir mezon bo‘yicha optimallashtirish shu paytning o‘zida optimallahsga boshqa mezon bo‘yicha ham yaqinlashish mumkinligini ma’lum qiladi. Bu holda maqsadli funksiyalar xarakterining o‘zgarishini solishtirish lozim va ko‘proq egrilikka ega bo‘lgan mezonni tanlash afzalroq bo‘ladi. Vektorli optimallashtirish usuli masalani hal etishda evristik yondashishni rad etmaydi, aksincha shu usulni, ya’ni avvalgi tajribalarga tayangan intuitiv mulohazalardan foydalanishni nazarda tutadi.

Maqsadli funksiyalar xarakterining o‘zgarishini (uning qiyaligini) hisobga olish ushbu funksiyalar nomutanosib o‘zgarishi holatlarda, ya’ni birining kamayishi ikkinchisini oshirgan holatlarda alohida

ahamiyat kasb etadi. Bunda qiyaroq bo‘lgan maqsadli funksiyaning ruxsat etilgan yuzasini chegaralab, masalaning yechimini keskin o‘sayotgan maqsadli funksiyada yanada yaxshilash imkoniyati paydo bo‘ladi. Shu kabi masalalarning algoritmlari yechimlarini koordinataga diskret tushuvi uslublariga amal qildirish maqsadga muvofiqdir.


Ko‘p transformatorli nimstansiyalar ish rejimlarini ratsionallashtirish ulangan transformatorlar tarkibini tanlash

Transformator nimstansiyalarining eng foydali ish rejimi belgilangan umumiyl quvvatni uzatish sharoitida transformatorlardagi isroflarni mukammalashtirish yo‘li bilan aniqlanadi. Ko‘p transformatorli nimstansiyalarning rejimini optimallashtirish degani – bu ishlab turgan transformatorlarning soni va quvvatini tanlashdir. Transformatorlardagi isroflarni yuklamaga bog‘liq bo‘limgan doimiy va yuklanamaning kvadratiga mutanosib bo‘lgan o‘zgaruvchan isroflarga bo‘lish mumkin. 7.1-rasmda $S_1=10$ va $S_2=16$ MVA bo‘lgan ikki transformatorli nimstansiyadagi isroflarning nimstansiyaning umumiyl yig‘indisiga bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Kichik quvvatli transformatorlardan katta quvvatli transformatorlarga o‘tish maqsadga muvofiq ekanligini va yuklanamaning bundan keyingi oshishida katta quvvatli transformatoridan ikkita transformatorga o‘tish lozimligini aniqlab beruvchi chiziqlarning kesishuvi $S_{k1,2}$ va $S_{k1(1+2)}$ bo‘lgan.

Shunday qilib, kritik yuklamalar va optimal rejimlarni grafik usulda topish mumkin. 12965-97 DSt bo‘yicha 10–40 MVA quvvatli transformatorlar uchun o‘zgaruvchan isroflarning doimiy isroflarga bo‘lgan nisbati 3,3–3,4 chegaralarida yotadi. Iste’mol nuqtasining reaktiv quvvat manbaidan qay darajada uzoqligiga nisbatan $V=0,02-0,2$ oraliq‘ida deb qabul qilish tavsiya etiladi. 7.1-rasmda bir xil quvvatli transformatorlari bo‘lgan nimstansiyaning kritik yuklamalarini reaktiv quvvatning iqtisodiy ekvivalentiga bog‘liqligi ko‘rsatilgan.

S_k holatdagi indekslar quyidagilarni ko‘rsatadi: $S_{1,2}$ – bitta transformatoridan ikkitaga o‘tish, $S_{2,3}$ – ikkita transformatoridan uchtaga o‘tish va $S_{3,4}$ – uchta transformatoridan to‘rttaga o‘tishni ko‘rsatadi. Kritik yuklamalarning qiymatlari bitta transformatorning quvvatiga nisbatan olingan. Punktir chiziqlar 10-40 MVA quvvatli

110 kV, to‘g‘ri chiziqlar 100-1000 kVA quvvatli 10 kV pasaytiruvchi transformatorlarga tegishli. Quyidagi rasmdan ko‘rinib turibdiki, $\gamma=0,6$ bo‘lganda nimstansiyaning umumiy quvvati 59 % dan oshganda (bitta transformatorning quvvatidan) 110 kV ikkinchi transformatorni, 102% dan oshganda esa uchinchi transformatorni ulash kerak. Reaktiv quvvatning o‘zgaruvchan va doimiy sarflaridagi nisbatning salmoqli farqi borligi 110-10 kV transformatorlar uchun qiya chiziqlardagi farqning paydo bo‘lishiga ta’sir etadi (γ oshganda Sk ning pasayishi yoki oshishi). 110 kV transformatorlar uchun $U_q=10,5\%$, $I_{syu}=0,7-0,9\%$, ya’ni ularning nisbati 15-12 ga teng, 10 kV transformatorlar uchun esa $U_q=4,5-5,5\%$, $I_{syu}=3,2-2,0\%$ va ularning nisbati ancha kamroqdir. Salt yurishdagи isroflarning nisbatan katta qiymati – γ oshganda yuklamalarni eng katta qiymatgacha oshirish foydali bo‘ladi.



8.1-rasm. Aktiv quvvatning keltirilgan isroflarini kuch transformatorlaridagi yuklamaga bog‘liqligi: 1, 2 – transformatorlar alohida ishlaganda aktiv quvvat isrofi egri chiziqlari; 3 – transformatorlar parallel ishlaganda aktiv quvvat isroflarining summaviy egri chiziqlari.

Transformatorlardagi isrof nimstansiyaning yuklamasiga bog‘liq ligi S_{k12} va $S_{k1(1+2)}$ nuqtalarda agar haqiqiy yuklama ko‘proq yoki buning aksi bo‘lsa, kritik yuklama hisoblanadi.

8.2. Shahar elektr tarmoqlarining avtomatlashtirish va rele himoyasini asosiy prinsiplari va belgilari

Shahar tarmoqlarida har xil nosozliklar vujudga kelishi tufayli qimoya qilish choralar ko‘riladi. Nosozliklarning ko‘proq uchraydigan fazalararo qisqa tutashuv va bir fazali yerga qisqa tutashuvdir. Himoyaning vazifasi Shunda n iboratki u iloji boricha shikastlangan maydonni tezda o‘chirishdan iborat. Shikastlangan maydonni tezda o‘chirish uskunalarining qisqa tutashuv toki natijasida buzilishidan saqlaydi, kuchayish tebranishi kamayadi, o‘zgarmas yuklama saqlanadi. Rele himoyasi bilan bir qatorda shahar tarmoqlarida avtomatik vositalar ham qo‘llaniladi, ularning vazifasi tarmoqning shikastlanishidan kelib chiqqan elektr ta’minotining uzilishini oldini olish (AVR, AOM, APV, ART, AIR).

Elektr ta’mintonida boshqalariga nisbatan ishonchli va samarali bu rele himoyali va avtomatikali uzgichlarni qo‘llash iqtisod jihatdan maqsadga muvofiqdir faqatgina ta’minlovchi tarmoqlarda, taqsimlash tarmoqlarida esa saqlagichlar katta ahamiyatga ega.

a) Ta’minlovchi tarmoo

Hozirgi vaqtida ko‘pgina 6-10 kVli tarmoqlar izolyatsiyalangan yoki kompensatsiyalangan neytral bilan ishlaydi.

Bir fazali erga qisqa tutashuv normal ish holatini buzilishiga olib keladi. (shikastlangan fazada kuchlanish tushib ketishi bilan bir qatorda qolgan 2 fazada kuchlanishning oshib ketishiga).

Biroq tezda o‘chirishga hojat yo‘qligi tufayli bunday shikastlanishlardagi himoyalari «signal»ga ishlaydigan qilib bajariladi. Buning uchun RP va StP shinalarida erga nisbatan hamisha fazalarda izolyatsiyaning nazorati o‘rnatalidi.

Kuchli tarmoqlangan shahar tarmoqlarida shikastlangan joyni topish uchun tarmoq maydonlarini ketma-ket o‘chirish kerak, bu esa ancha qiyinchiliklar tug‘diradi. Shuning uchun StP va Rp lardan tarqaluvchi liniyalarda signalga ishlovchi zaminlangan himoyalari o‘rnatish tavsija etiladi.

Fazalararo qisqa tutashuvlardan himoya qilish uchun MTH lar qo‘llaniladi, bu himoyalari o‘zining soddaligi, arzonligi va ishonchliligi bilan ajralib turadi.

Agar ikki parallel ta'minlangan liniyalar bo'lsa, ularda shikastlangan elementni o'chirishda tanlovchanlikka erishish uchun maksimal yo'naltirilgan tokni himoya ishlatalinadi.

Effektiv va yetarlicha sodda bo'lган avtomatik vositalardan biri AVRdir, ular keng ko'lamma RP va StP sektsiya uzgichlarida RP orasidagi tutashtirgichlarda keng qo'llaniladi.

Elektr ta'minoti ishonchililigini oshirish uchun APV qo'llaniladi, ular 6-10 kVli elektr uzatish havo yo'llarida 65% muvaffaqiyatlari qayta ulashni, laboratoriya sharoitida esa 50%ni tashkil qiladi.

Ba'zi vaqtarda avtomatik joiz tokni yuksizlantirish talab qilishadi.

Agar RP 2 ta liniyadan ta'minlangan bo'lsa va ulardan har biri RP ning quvvatini o'tkazishga mo'ljallanmagan bo'lsa, u holda 1 ta yoki bir nechta RP dan tarqaluvchi liniyalarga ART o'rnatiladi, shunday hisob (o'chirilganda) bilanki agar masalan L-1 liniya o'chirilganda va AVR ishga tushgandan so'ng L-2 o'ta yuklangan vaqtida 1 ta yoki nechta kam javobgar liniyalarda o'chirilishi hosil qilish uchun, bu yuklanish 1-2 dagi tok ruxsat etilgan o'ta yuklanish tokining qiymatidan kichik bo'lguna qadar davom etadi (L-2 uchun 1 dd). Shunda muhim masalalardan biri shahar tarmoqlarini avtomatlashtirish vaqtida AVR bilan AChR ni to'g'ri farqlay olish muhimdir, AChR ning sistemada qo'llanilishiga sabab quvvat defitsiti va chastota pasayganda yuklantirishdir.

AChR bilan AVR noto'g'ri qo'llanilganda, AChR bilan liniya o'chirilganda iste'molchilarning quvvati pasayishiga olib kelmaydi, chunki ularni shu vaqtning o'zida AVR qayta ularshi mumkin, Shuning uchun AChR qurilmasiga rezerv bilan ta'minlanmagan liniyalarni ularsh kerak, AChR navbat bilan yoki bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Himoya va avtomatikaning alohida belgilaridan biri chuqr kiritgichli sxemalarning mayjudligidir, masalan chuqr kiritgichli sxemalar RP bilan ta'minlangan 2 ta StP dan bo'lsa.

Agar chuqr kiritgichli liniyalardan 1 ta nim stansiya ta'minlangan bo'lsa, u holda unda VN tomonidagi uzgich qisqa tutashtirgich bilan almashtirilgandir. Uning vazifasi transformatorda qisqa tutashuv mahalda, liniya boshidagi himoya sezgir bo'lмаган vaqtida, transformator qisqichlariga olib chiqish uchun sun'iy qisqa tutashuv hosil qiladi.

Bu transformatorning ichki shikastlanishidan asraydigan himoya qisqa tutashtirgichni ishga tushirishi bilan amalga oshadi. Shunda shikastlanish liniyaning boshida o'chiriladi. Zaminlangan neytral tarmoqlarda (110 kv va undan yuqori) 1 fazali qisqa tutashtirgich bo'lishi yetarlidir. Yakkalangan neytral tarmoqlarda esa (35 kv va undan past) 2 fazali qisqa tutashtirgichlar qo'llaniladi. Agar 1 ta liniyaga bir nechta nimstansiya ulangan bo'lsa, u holda qisqa tutashtirgich bilan bir qatorda ajratgich ham o'rnatiladi.

Bunday sxema ko'pincha zavod ta'minotida qo'llaniladi. Zavod territoriysi bo'yicha kichik iste'molchilar iste'moli uchun 35 kv li havo magistrali va 35/0,4 transformatorli yoki katta iste'molchilar uchun 35/6-10 kv li magistral tarqalishli ning sistemasi tuziladi. Bunday nimstansiylar bevosita sex yaqinida yoki ular ichida joylashtiriladi. Transformatorlarni himoya qilish uchun yoki qisqa tutashtirgich (nimstansiya 1-2), yoki saqlagichlar (nimstansiya 3-4) qo'llaniladi. Transformator shikastlanganda 1 yoki 2 nimstansiyadagi qisqa tutashtirgich ishga tushadi va so'ngra StP uzgichi ishga tushib butun liniyani uzatadi. Toksiz pauza vaqtida himoyaning vaqt bilan moslashgan holda liniyaning boshida va nimstansiyada qisqa tutashtirgich bilan OD (bo'lgich) o'chiriladi, shikastlanmagan zanjirni shikastlangan transformatordan ajratib so'ngra APV qolgan hamma nimstansiyalarga energiyani uzatadi. Nimstansiyada OD ning o'mniga saqlagichni ham o'rnatish mumkin. Bu sxema arzon, lekin bunday avtomatikali sxemalarning kamchiliklaridan biri nimstansiylardan 1 tasi shikastlangan yoki remontga chiqarilgan vaqtida hamma iste'molchilarni qisqa vaqtga o'chirishdir. Shuning uchun bunday sxemalarni faqat 2-4 nimstansiylar ketuvchi joylarda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

b) Taqsimlovchi tarmoqlar

Taqsimlovchi tarmoqlardagi rele himoya va avtomatikaning asosiy elementlari keltirilgan (sirtmoqli va nurli sxemalarga qarang). Magistral va sirtmoqli liniyalarda RP tomonidan oddiy maksimal va zaminlangan himoyalar o'rnatilgan.

Taqsimlovchi zanjirlarda eruvchan elementli saqlagichlarni qo'llash keng tarqalgan. Transformatorlarni ichki shikastlanishlardan saqlash uchun TP da 6-10 kvli saqlagichlar o'rnatiladi – 1000 v gacha kuchlanishli tarmoqni himoya qilish uchun transformator zanjirida va ketuvchi liniyalarda avtomat yoki saqlagich o'rnatiladi. (6-12 rasmga

qarang). Eruvchan elementni tanlashda ularning tanlash qobiliyati va tanlovchanligiga ahamiyat beriladi. Bu qiyin masalalardan biridir, chunki eruvchan elementning erish vaqtini ham atrofdagi haroratga, saqlagichning holatiga, oksidlanish darajasiga va boshqa qator omillarga bog'liqdir. Agar har xil VP magistral tarmoqlari TP orqali bog'langan bo'lsa va tarmoq NP, u holda transformatorlarda AOM o'rnatiladi, u qachonki tok teskari yo'nalishda oqsa, ya'ni NP tarmoqdan VP tarmoqqa oqqanda o'chadi. Bu hol faqatgina VP tarmoqda qisqa tutashuv ro'y berganda kuzatiladi (rasm-1 qarang)

Shahar va sanoat tarmoqlarida TP da VN va NN tomonidan AVR ning qo'llaniladi. Masalan, 6-15, 6-16.

Ko'pincha hollarda rezerv qilish hamma TP da emas, faqatgina ba'zi shoxobchalarda qilish mumkin, u holda AVR shoxobchalangan iste'molchini, ya'ni ularga bir nurli sxema bo'yicha 2 ta liniya olib kelingan bo'ladi, Shunday TP da yuklama uzgichini o'rnatib bajarilgan bo'lishi mumkin.

8.3. Shahar elektr ta'minot tizimlarini avtomatlashtirish va dispetcherlashtirish

Energetik birlashuvni rivojlanishi natijasida ularni operativ-dispetcherlik boshqaruvini avtomatlashtirish mumkin masalalardan biri bo'lmoqda. Ushbu avtomatik boshqarish ilmiy jihatdan asoslab berilgan matematik-iqtisodiy uslublarni va eng yangi boshqarish texnologiyalarni qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Avtomatik boshqarish deganda EETni elektr va issiqlik sini (inson ishtirokisiz) ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash jarayonini insonni ishtirokisiz yoki minimal ishtiroki bilan amalga oshiruvchi qurilmalar bilan ta'minlanishini tushuniladi. Avtomatik boshqarish boshqaruv uchun katta ahamiyatga ega, ya'ni: XEUL, nimstansiya va stansiyalarni normal ishlashini ta'minlaydi, energotizimni iqtisodiy jihatdan optimal va ishonchli ishlashini ta'minlaydi, elektr va issiqlik ning talab etilgan miqdorini ta'minlab beradi. Asosiy vazifasi va qo'llanilish sohasiga qarab avtomatik qurilmalar texnologik avtomatika va tizim avtomatikasiga bo'linadi.

Texnologik avtomatika normal va avariya holatida nimstansiya qurilmalarida, issiqlik va gidravlik elektr stansiya agregatlarida

kechadigan jarayonlarning parametrlarni rostlash uchun mo'ljalangan.

Tizim avtomatikasi 3 ga bo'linadi, ya'ni 1) sekin ta'sir etuvchi 2) normal holat va 3) tez ta'sir etuvchi avtomatlarga bo'linadi.

Normal holat avtomatikasi holat sekin va asta o'zgarganda ta'sir etadi. Tizim avtomatikasi energotizimida chastotani rostlash uchun, elektr tarmoqda kuchlanishni rostlash uchun va boshqa hollarda ishlatalidi.

Avariya qarshi avtomatika, avariya holati avtomatikasining bir turi bo'lib, tizim yoki uning qismlarida normal holat buzilganda ishga tushadi.

Avtomatik boshqaruvida muhim o'rinni rele himoyasi egallaydi. U asosan shikastlangan qismni shikastlanmagan qismdan ajratadi.

Dispatcherlik boshqaruvi

Boshqaruvning barcha vositalari ETTda asosiy masalani echishga yo'naltirilgan ya'ni – ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash jarayonlarini yagona operativ dispatcherlik boshqaruvi orqali ishonchli sifatli markazlashgan ta'minotini amalga oshirish. Dispatcherlik xizmati orqali amalga oshiriladigan boshqaruuv EET ishi uchun katta ahamiyatga ega.

Elektr stansiya, tarmoqlar va nimstansiyalarni va ularga ulangan iste'molchilarini yagona tizimda ishlatayotganda uzatilayotgan ni iste'molchilarga eng optimal ravishda yo'naltirish lozim. Dispatcherlik xizmati tegishli hisob-kitoblarni amalga oshirib har bir holat uchun talab etilgan o'rnatmalarni berishi lozim. Ushbu jarayon uzlucksiz ravishda amalga oshirilishi lozim. Dispatcherlik boshqaruvining asosiy maqsadi bo'lib ishlab chiqarishda ningo minimal narxini quyidagi shartlarni hisobga olgan holda ta'minlanishdan iborat:

1. Ruxsat etilgan sifatdagi bilan ta'minlash;
2. Boshqa tizimlar oldidagi majburiyatlarini bajarilishini ta'minlash;
3. Normal va avriya holatlarida ruxsat etilgan kuchlanish miqdorini ushlab turish.

Elektr tizimining dispatcherlik boshqaruvi (EDB) ta'minotini uzlucksiz amalga oshirish maqsadida, barcha energetik obyektlarni bir

Holatda ishlayotganda ushbu tizim holatining boshqaruvini uzlaksiz amulga oshirib turadi. EDB ko'p pog'onali tizim bo'lib unda quyi pog'ona yuqoriga to'laligicha bo'ysunadi. Ko'pgina davlatlarda EDBning yuqori pog'onasi bo'lib umum davlat pog'onasi, so'ng energetizim, elektrostansiya va elektr tarmoqlar pog'onalar keladi.

Dispatcherning operativ boshqaruvida operastiylar tezda **bajarilishi va faqatgina dispatcher buyrug'i bilan amalga oshiriladi.**

Dispatcherning operativ ish yuritishida u, elektr tarmoqlarning holati va ishonchligiga, elektr stansiya va umuman EET zahirasiga, mavjud quvvaga ta'sir etuvchi, avtomatika uskuna va qurilmalarga ega bo'ladi.

Navbatchi dispatcherlar boshqaruvni dispatcherlik punktlaridan amulga oshiradigan va ular barcha aloqa vositalari, telemexanika va avtomatika vositalariga egadirlar.

Dispatcherlik punktlarida asosiy va zahiraviy aloqa vositalari mavjud.

Energotizimning murakkablashuvi va EDB masalalarini murakkablashishi natijasida operativ boshqaruvning yangi usul va vositalarini qo'llashga zamin yaratadi – dispatcherlik boshqaruvning **avtomatlashgan tizimlarini** (DBAT) yaratish. DBAT o'zida dispatcherlik boshqaruv vositalari va hisoblash texnikasini mujassam-lashdirib, ma'lumotlarni toplashni, uzatishni va qayta ishslashni jarayonlarini avtomatlashdirishni ta'minlaydi.

EXMLarini qo'llash telemetrik va statik axborotlarning xajmini oshishi va ularning haqqoniyligini oshiradi;

DBATning rivojlanishi operativ boshqaruvning asosiy funksiyalarini to'la avtomatlashishiga olib keldi.

Dispatcherlik EXMLar yordamida echiladigan masalalarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

operativ ma'lumotlarni toplash, qayta ishslash, xujjatlarni va dispatcherga qulay holda keltirish;

iqtisodiy va ishonchli holatni hisoblashda, avariya holatini bartaraf etishda, avtomatik boshqarishda dispatcherga hisob-kitoblarda yordam qilish;

Dispatcherlik boshqaruvda EETlarni 1, 2 va 3 lamchi boshqarishning o'rni

Birlamchi yuritgich va bug' qozonlariga keltiriladigan iste'molchilarga keladigan lar yig'indisiga teng. Ushbu tarkibiga

tizimdagи isroflar ham kiradi. ta'minotida ishlab chiqariladigan iste'mol qilinadigan ga tenglik sharti bajariladi. Ushbu tenglik bug' qozonlarida o'rnatiladigan avtomatik rostlagich yordamida ta'minlanadi.

Tezlik o'zgarishini sezuvchi rostlash tizimi (TAR) yordamida rostlash birlamchi deyiladi. Turbina chiqishidagi quvvatning o'rtaga olingan miqdori TAR o'rnatmasini tezlik datchiklari (TD) ni qo'llash orqali amalga oshiriladi. Tezlik datchikiga uzatiladigan impulslar qo'lida bajarilib yoki, chastota o'zgarishini sezuvchi avtomatik qurilma yordamida, avtomatik uzatilishi mumkin. Bunday rostlash ikkilamchi deyiladi. Yuklamani taqsimlash qurilmasidan tezlik rostlagichiga uzatiladigan ma'lumotlar ishlab chiqarishda uni minimal narxini ta'minlasa ushbu iqtisodiy masalalarni hal qiladigan, ma'lumotlarni uzatilishi uchlamchi rostlash deyiladi.

Elektrni energiya uzatish tizimlarini avtomatik boshqarish

a) Energiyani taqsimlovchi bo'limning vazifalari:

Taqsimlovchi bo'limning asosiy vazifasi taqsimlovchi tarmoqlar va iste'molchilarни iqtisodiy jihatи va ishonchilik jihatidan talablarga javob beruvchi o'ta yuqori kuchlanishli elektr energiya bilan ta'minlash.

Ushbu masalani hal etishda ushbu xizmat elektr energiyani i/ch va uzatish vositalarining ishini boshqaradi va vositachilar orqali energiyani sotish va almashish bo'yicha chegaradosh davlatlar bilan shartnomalar tuzishadi.

Taqsimlovchi tarmoqlar sifatli elektr energiya bilan ishonchli ta'minlashda asosiy o'rinni dispatcherlik xizmati egallaydi. Dispatcherlik xizmatlari energotizim uchun aniq chora tadbirlarni ishlab chiqishadi, elektrostansiya va elektr tarmoqlarni ishlatsizda ularni ishonchli ishlatsizligini nazorat qiladilar.

Dispatcherlik xizmatining asosiy vazifalaridan yana biri elektr ishlab chiqarish jarayonini optimal boshqarish hisoblanadi. Undan tashqari asosiy masalalardan biri bo'lib uzlusiz ravishda chastota va kuchlanishni o'lhash aniqligini oshirish va avariya holatlarida iste'molchilar uzilishini kamaytirishdan iborat. Bu vazifalarni bajarish faqatgina effektiv boshqarish vositalarini qo'llash orqali erishish mumkin.

Dispatcherlik xizmatini tashkil etish

Fransiya energotarmog'i 5 qismga blinadi: ushbu qismlarga 5 ta rayonlararo markazlar mos keladi. Sharqiy va G'arbiy qismlarda har bir rayonlararo markazlar o'z dispatcherlik xizmatiga ega; qolgan qismlarda (Shimoliy, Janubiy, Garbiy, Janubiy-Sharqiy) har bir rayonlararo markazlar 2 tadan dispatcherlik xizmatlariga ega. Mamlakatda elektr energiya taqsimotini Milliy dispatcherlik xizmati umalga oshiradi. Rayon dispatcherlik xizmati faqatgina o'ziga tegishli bo'lган qisning ta'minoti uchun javobgar. Milliy dispatcherlik xizmatining vazifasi mamlakat energotizimini optimal boshqarish va mamlakatdagi mavjud barcha elektr tarmoqlarini elektr energiya bilan ishonchli ta'minlash kiradi.

Dastavval elektr stansiya va katta kuchlanishdagi XULLarini ishlatish bo'yicha masalalar hal etiladi, ya'ni dastavval ularni ishlatish bo'yicha dasturlar ishlab chiqiladi.

Elektr stansiya va tarmoqlarni ishlatishning eng optimal ishlatish holatini aniqlash uchun ko'pincha prognozlarni o'tkazish lozim. Ushbu analizlarning murakkabligi energotizim kattaligiga va uning turkibiga kiruvchi gidrostansiyalar soniga bog'liq. Sxematik holda grafik rejani tuzishda, ya'ni gidrostansiyalarni ishlatish dasturini tuzishda uni 3 etapga bo'lish mumkin:

1. Yillik reja tuziladi. Unda joriy ta'mirni o'tkazish vaqtleri ko'rsatiladi.

2. Haftalik reja. Kunlik rejalarini tuzish uchun dastlabki ma'lumotlar olinadi, masalan:

- suv sarfi;

- ko'l va shlyuzli tizimlar sini optimal ishlatish;

- ishlovchi elektrostansiyalarni tanlash va elekt energiyani uzatish bilan bog'liq masalalarni taxlil qilish;

- chegaradosh davlatlar bilan elektroenergiya almashuvi bilan bog'liq chora tadbirlari.

3. Gidro va issiqlik elektrostansiyalarni ishlashini kunlik grafiklarini tuzish va oldi-berdi dasturlarini ishlab chiqish.

Xaftalik va kunlik grafiklarni tuzish rayon va markaziy dispatcherlik xizmatlarini o'zaro uzluksiz ravishda aloqa qilib turishni taqozo etadi.

Masofadan boshqarish va axborot uzatish tizimlari

Fransiya davlat energetik boshqarmasida axborotlarni uzatish tizimlari ni taqsimlash xizmati uchun maxsus ishlab chiqilgan bo'lib ular dispatcherlik xizmatlari tomonidan ishlatish uchun mo'ljallangan.

Teleulov. Parametrnii o'zgarish qoidasini hisobga olgan holda 10 son vaqt oralig'idagi parametrarning o'rtacha qiymatlari olinadi. Bunday uchul ishlatish jarayonida qanday holat hosil bo'lishini ta'minlaydi.

Tele xabar berish. Tizimni boshqarayotganda biror bir qismning holatini o'zgarishi haqidagi ma'lumot olish shart emas.

Axborotlarni uzatish. Tele o'Ichov ma'lumotlarni dispatcherlik xizmatiga maxsus stikllik «qabul qiling-uzating» qurilma yordamida uzatiladi.

Tele uzatgichlar 2 xil ma'lumotlarni uzatadilar:

1. Alovida xotira bloklariga keluvchi axborotlar. Ular faqatgina bir turdag'i o'Ichovlarni saqlash uchun mo'ljallangan.

2. «Qayta ishlash» blokiga kelib tushuvchi axborotlar. Ular EKMga ulangan.

Yangi qurilmalar

Ishlatish talablarining oshishi va texnika darajasini oshishi Fransiya Davlat energetik boshqarmasini teleaxborot apparaturasi kompleksini yaratishga majbur qildi. Ushbu kompleks «ko'p adresli tizimda» axborot va buyruq almashuvini amalga oshiradi. Kompleks tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

1. Hisoblash markazi (XM) apparaturalari. U ma'lumotlarni uzatish va «markaziy prostessordan» iborat.

2. XMning tegishli apparaturasiga ulanuvchi qurilmalar. Ular aloqa o'rnatish va axborotni uzatish uchun xizmat qiladilar. Yangi apparatura energotizimni avtomatik boshqarishni yaxshilashni ta'minlaydi.

EHMni o'llash.

EHMLar quyidagi vazifalarni bajarishlari lozim:

1. Axborotni to'plash va tahlil qilish.

2. Yuqori kuchlanish tarmog'ining ishonchli ishlashini ta'minlash.

3. Iqtisodiy hisob-kitoblarni amalga oshirish.

Tarmoqni ishonchli ishlashini nazorat qilish vazifasi.

1. Tarmoq parametrlarini nazorat qilish ya’ni:

- liniyalarda quvvat uzatilishini nazorat qilish va ushbu quvvatni chegaravaiy qiymat bilan taqqoslash;

- kuchlanish kattaligini tekshirish va uni maksimal va minimal ruxsat etilgan miqdorlari bilan taqqoslash;

- generatorlarni ishlashini nazorat qilish va ular to‘xtaganda ushbu huqida axborot berish.

2. Ishonchlilagini tahlil qilish.

«Nasladla» uchishni oldini olish maqsadida yuklama avtomatik ravishda hisoblanadi.

Real vaqt davomida tarmoqni ishonchli ishlashi hisobi.

Energo tizimning asosi tugunlarida faza kuchlanishlari orasidagi burchakning siljishini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

1. Ikki tugun orasidagi faza bo‘yicha siljish ushbu tugunlarni liniyaga ulovchi yuklamani ifodalaydi.

2. Real vaqt davomida tarmoqda hisob-kitoblarni bajarishda modul va fazalarni bilish har bir liniyada uzatiladigan energiyani va tarmoqdagagi isroflarni aniqlashga imkon tug‘iladi.

3. Faza siljishini uzlusiz ravishda aniqlab borish barcha parametrlarning o‘zgarishini aniq kuzatish imkonini beradi. Faza siljishi burchaginiq rejasini tuzishda 2 turli xildagi dastlabki ma’lumotlardan foydalanamiz.

A) Aktiv quvvatni uzatish haqidagi ma’lumotlar.

B) Tarmoqning har bir tarmog‘iga keltiriladigan energiya miqdori haqidagi ma’lumotlar.

Dastlabki ma’lumot sifatida ishlab chiqarilgan va iste’mol qilinadigan haqida ma’lumotlardan foydalilanadi. Tugunlarga uzatiladigan miqdori ishlab chiqilgan va iste’mol qilingan elektroenergiya balansidan olinadi.

Masofadan boshqarish

Elektr energiya almashuvi tarmog‘ida chastotani rostlash.

Chastotani rostlash masalasi bo‘lib ixtiyoriy vaqt oralig‘ida ishlab chiqariladigan va iste’mol qilinadigan energiya miqdorini bir-biriga tenglashtirishdan iborat. Qoniqarli sifatdagi sifatni ma’minlash uchun bir tomonidan tarmoqdagagi chastotaning tebranishini minimumgacha

kamaytirish lozim. Ikkinci tomondan – arzon elektr ni olishdan iborat.

Hozirgi kunda avtomatik rostlashning ikki darajasi qo'llaniladi.

Bitta ko'rsatgich bo'yicha rostlash

Ishlab chiqiladigan va iste'mol qilinadigan energiyalarning tengligi generator agregatlariga tezlik regulatorlarini o'rnatish orqali erishiladi. Ular turbinaga uzatiladigan energoyuritgichlarni uzatilishini boshqarib turadilar. Agarda tarmoqda bir necha generator mavjud bilsa ular o'rtasida yuklamani taqsimlanishini amalga oshirish lozim. Shu sababi tezlik regulatorlari qo'llaniladi. Ushbu yuritgichlarning xarakteristikasi shunday xususiyatga egaligi ya'ni chastotaning qiymati agregat yuklamasiga bog'liq.

Lekin rostlashning bunday usulida shu narsa ma'lum bo'ldiki tarmoqning ixtiyoriy nuqtasida yuklama sakrashi kuzatilganda u barcha ishlovchi generatorlarning quvvatlarini saqlab o'zgarishiga olib keladi.

Ikkita ko'rsatgich bo'yicha rostlash

Bu usulning asosiy masalasi bo'lib har bir generator ishlab chiqaradigan quvvatni bir me'yorda tutib turishdan iborat.

Ma'lum vaqtida chastota siljishi bo'lsa va uzatiladigan quvvat og'ishi bo'lsa rostlash Shunday amalga oshirilishi kerakli bunda har bir o'zaro bog'liq tarmoqlarda qolsa keltirilishi lozim.

Hozirgi kunda ishlatiladigan rostlash tizimi kompensatsiyalovchi kattalikni ishlab chiquvchi tarmoq rostlagichiga ega. Kompensatsiyalovchi ta'sirning gradientini generatorlarning ta'sir vaqt bilan moslashtirish uchun, rostlagich boshqaruvchi ta'sirni ishlab chiqaradi. Ushbu ta'sir vaqt bo'yicha kompensatsiyalanuvchi kattalik integratika proporsional integralni olish uchun sxemaga integrator

Energetika tizimida shikastlanishlar sodir bo'lishi, elektrostansiya va podstansiya el.qurilmalari, taqsimlash qurilmalari, el.uzatish liniyalari, el.iste'molchi el.qurilmalarining nonormal rejimda ishlashi mumkin.

Energotizim elementlarida shikastlanishlar ko'pgina hollarda tokning oshib ketishi va kuchlanishining tushib ketish hollari orqali

kuzatiladi. Oshib ketgan tok shikastlanish joyining buzilishiga olib keluvchi katta miqdordagi issiqlik ajratadi va bu tok shikastlanmagan liniya va qurilmalardan oqib o'tishi natijasida ularning xavfli qizishiga olib keladi.

Normal rejimlar odatda kuchlanish, tok va chastota kattaliklarining ruxsat etilgan qiymatidan tushib ketishiga olib keladi.

Chastota va kuchlanishning tushib ketishi, el. iste'molchilarining normal ishini buzilishiga xavf tug'diradi, energotizimning turg'unligi buzilishiga xavf tug'diradi. Demak, nonormal rejimlar shikastlanish hosil bo'lish ehtimolligini tug'diradi, shikastlanishlar esa el.iste'molchilarining va energotizim ishining buzilishiga olib keladi. Bulardan kelib chiqqan holda, energotizim va uning elementini himoyalovchi, buyurilgan (ko'rsatilgan) operastiyani bajaruvchi avtomatik qurilma yaratish va ulardan foydalanish ehtiyoji tug'iladi.

Dastavval ma'qul himoya bo'lib saqlagichlar qo'llaniladi. El. qurilmalarining quvvati va kuchlanish oshganligi sababli bu himoya etarli javob bera olmadi, shu qatorda himoya qurilmasi o'ylab topilib rele avtomatlari bilan bajariladigan bu himoya-releni himoya deb yuritildi.

Zamonaviy el.tizimida releli himoya (RX) bevosita el.avtomatikasi bilan bog'lanib iste'molchi ta'minoti va normal rejimni tez avtomatik tiklashga mo'ljallangan.

Tarmoq avtomatikasi qurilmalariga :

Avtomatik qayta ulagich (AQU. Rus-APV), zahiradagi manbani avtomatik ravishda ulash qurilmasi (rus. AVR), chastota va tok bo'yicha avtomatik yuksizlantirish qurilmalari (rus. AVRACHR va ART) kiradi.

Qisqa tutashuv (QT) bo'lganda Rxga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagiga: Tanlovchanlik, har akat tezligi, sezgirlik, ishonchlilik va boshqalar.

Yopiq tarmoqning himoyasi va konstruktiv bajarilishi

Yopiq tarmoq elementlarini himoya qiluvchi maxsus qurilma zaruriyatlarini tarmoqning qanday qurilganiga bog'liq. Huddi shunday himoyaning tanlovchanligini ta'minlashda quyidagini e'tiborga olish lozim: tarmoq elementlaridan tokning oqib o'tishi shikastlanish joyiga bog'liq ravishda har xil yo'nalishda sodir bo'ladi. Yopiq tarmoqda

alohida elementlarda shikastlanish yuz berganda tok oqimi yo'llarini ko'rib chiqaylik.

Kuchlanishi 1000 V gacha bo'lgan tarmoqda shikastlanish sodir bo'lganda (Kn nuqtada), shikastlanish joyi 1000 V gacha bo'lgan taqsimlash qurilmasidan ikki tomonlama ta'minlaydi. Ushbu holatda T 2 va T 3 da v 3 himoya elementlari ishlab shikastlanishni bartaraf etishi zarur.

Tarmoq transformatorida shikastlanish yuz berganda (Kf nuqtada) tokning normal rejimga qarshi oqishi T 1 ning himoya elementlarida (b, v1 i v) yuz beradi.

1000 V dan yuqori taqsimlash qurilmalarida shikastlanish yuz berganda (Kv nuqtada) tok yo'naliشining o'zgarishi T 1 ning himoya elementlarida (a) yuz beradi. T 1 himoyasidan tashqari, ushbu holatda himoyaning tanlovchanligi Rpning 2 himoyasi ishi orqali ham ta'minlashi kerak.

1000 Vgacha bo'lgan tarmoqda shikastlanish yuz berganda kabelning o'z-o'zidan qizib erishi kuzatiladi. Tarmoq transformatori shikastlaganda, shikastlanishni lokalizastiya qilish, teskari quvvat avtomatining ishlashi hisobiga amalga oshiriladi. Teskari quvvat avtomatining ishlashi quyida faktorga bog'liq: avtomat orqali o'tayotgan oqimi yo'naliشining o'zgarishi va tarmoq transformatorining birlamchi kuchlanish tomoniga o'rnatilgan himoyaning ishiga bog'liq.

Yopiq tarmoq himoyasining turi qanday bo'lishidan qat'iy nazar taqsimlash liniyalarida sabr vaqtiga ega bo'lgan maksimal tok himoyasini qo'llaniladi.

Bunday holatda transformatorlarning Ktdan himoyasi RP dagi 1000 V da yuqori bo'lgan taqsimlash liniyalarining bosh qismidagi himoya orqali himoyalash ko'zda tutiladi. Eklanish himoyasi transformatorning ikkilamchi kuchlanish tomonidan amalga oshiriladi.

Teskari quvvat avtomatikasi qo'llanilgan himoya (TQA)

Shikastlanish va Kn nuqtada sodir bo'lganda oqimining yo'naliши o'zgarmaydi. (ta'minot manbasidan iste'molchiga), bunday holatda TKA ishlamasligi kerak. Bunda shikastlanish joyini lokalizastiya qilish 1000 V gacha bo'lgan kuchlanishli kabelning quyishi hisobiga bo'ladi.

Tarmoq transformatorida (Kt nuqtada) yoki 1000 V dan yuqori bo'lgan tarmoq elementi va shikastlanish ro'y bersa avtomatdan oqayotgan oqimi teskariga o'zgaradi. Shakastlangan joy yopiq zanjirda boshqa TP orqali ta'minlanishi amalga oshiriladi. Bunday holatda TQA 1000 v gacha bo'lgan yopiq zanjirida TP dagi transformatori o'chiradi.

Yopiq zanjirda ta'minot bir necha manbadan amalga oshirilgan. Bunday hollarda ixtiyoriy qisqa vaqt oralig'ida manbaning biror shinasida kuchlanishning tushuvchi TQA dan o'tuvchi oqimi yo'nalishining o'zgarishiga keltiradi. Oqibatda hamma TP o'chirilgan holatda kelib qoladi. Bu og'ir holatdan chiqish uchun AQU qurilmasi ishlataladi, transformatorning ikkilamchi tomonida kuchlanish qiymati aniqlanadi.

Yopiq tarmoq himoyasi

Aylanma tarmoqlarda va 2 tomonlama ta'minlangan tarmoqlarda QT toki va quvvati yo'nalishi shikastlanish ro'y bergen joyga bog'liq bo'lib, 2 ta qarama-qarshi qiymatga ega bo'lishi mumkin.

Masalan L2 liniyasida x1 nuqtada K T da 5 himoya orqali Ik,V tok o'tadi (ta'minot manbasidan k t bo'lgan nuqtada) K2 nuqtada KT bo'lganda (L3 liniyada) 5 himoya orqali o'tuvchi L2 liniyasidagi I k2V tok manbadan yo'naltirilgan bo'lib I k2V ga qarama-qarshi.

Faraz qilaylik, agarda birinchi holatda I k tok 3- podstansiya shinasidagi ish kuchlanishidan 4k burchakka orqada qolsin, kt quvvati esa shinadan liniyaga yo'naltirilgan bo'lsa ikkinchi holatda tok ga nisbatan 180° ga buriladi, bunga bog'liq ravishda KT quvvati liniyadan shinaga yo'nalgan bo'lib qoniqarsiz bo'ladi. Liniyadan yoki boshqa yig'malardan berilgan podstansiya chiquvchi shinalaridan o'tuvchi KT quvvati yo'nalishi shu tarzda ketadi. Bu holat yo'naltirilgan himoyada qo'llaniladi, qaysiki quvvat ishorasiga qarshi aniqlaydi qaysi tikmada shikastlanish ro'y bergenini va himoya zonasidagi KT bo'lgandagina ishlaydi.

Tokli yo'naltirilgan himoya ishlash prinsipi va sxemasi (YTX)

Maksimal yo'naltirilgan himoya KT quvvati va tokning kattaligiga ta'sir javob qilishi kerak. U o'zida maksimal tok himoyasi (MTX), qo'shimcha yo'naltirilgan quvvat relsini mujassamlashtirgan. U Quyidagi 3 ta asosiy elementdan tashkil topgan.

1. Tok relesi – KT sodir bo'lganda ta'sir javob berishga.

2. Yo'naltirilgan quvvat relesi. KT quvvati yo'nalishini aniqlashga.

3. Vaqt relesi.

Yo'naltirilgan quvvat relesi o'rniga elektromexanik rele yoki yarim o'tkazgichli releni ishlatalish mumkin.

Himoyalananayotgan liniyada, yoki undan keyingi oraliqda k.t. yuz bersa tok relesi va YKRSi o'z kontaktlarini qo'shamadi (tutashtiradi) va vaqt relesini ishga tushiradi. O'rnatilgan sabr vaqtidan so'ng uning kontaktlari tutashib o'chirgichga o'chirish uchun impuls yuboradi. Berilgan podstansiyadan tashqaridagi yig'malarda KT quvvati shinaga (shu kontaktlardan) yo'naltirilgan bo'lib himoyani o'chirish uchun ishlashiga olib kelmaydi.

Normal holatda yuklama quvvati shinadan liniyaga yo'nalib YQR o'zining kontaktlarini tutashtirishi mumkin, faqat bu holda himoyaning ishlashida T releni kontaktlari tutashgan holda qolib, ishga tushiruvchi relega aylanadi. Shu maqsadda ishga tushiruvchi relega aylanadi. Shu maqsadda ishga tushirish relesi yuklama tokidan rostlanadi. Quyidagi hollarda, qachonki sezgirlik sharti bo'yicha Ktda tok relesini maksimal yuklamadan rostlab bo'lmaydi. Bunda blokirovka qilinadi (minimal kuchlanish relesi ishga tushiriladi).

Masofali himoya

Murakkab konfiguratsiyali tarmoqlarda (bir nechta ta'minot manbalari bo'lgan) yuqorida ko'rilgan maksimal va yo'naltirilgan himoyalar o'chirishda tanlovchanlikni ta'minlab bera olmaydi.

Maksimal va yo'naltirilgan tok himoyasi tezlik sharti bo'yicha qoniqtirmaydi.

Tokli kesim uzoq masofada har doim ham qo'llanilinmaydi, bo'ylama differenstial himoya ham faqat yaqin liniyalarda o'matilishi mumkin.

Bulardan kelib chiqqan holatda boshqa himoyalash jarayoni qo'llanildi.

Bulardan biri bu masofali himoya.

Masofali himoyaning sabr vaqtiga «t» himoya o'rnatilgan joy bilan QT nuqtasi orasidagi masofaga bog'liq va tekis va pog'onali oshib boradi masofaning o'zgarishiga qarab.

Bunday ishlash jarayonida shikastlanish joyiga yaqin masofali himoyaning sabr vaqtini uzoqdagiga qaraganda kam bo'ladi, buning yaxshi tomoni shikastlangan joyni o'chirishni tanlovchanligini ta'minlaydi.

Masofali himoyaning asosiy elementi bo'lib (Ulchash organi deb nomlashuvchi) masofali organi hisoblanadi. U himoya qurilmasi joyidan Ktni yo'qolganligini aniqlaydi. Masofali organ sifatida qarshilik relesi qo'llaniladi. /bevosita yoki bilvosita ta'sir javob qiluvchi, to'la, aktiv, reaktiv quvvatlarga/ Rele qurilmasidan KT joyigacha bo'lgan liniyaning faza qarshiligi, shu uchastka uzunligiga proprotsional.

Murakkab konfiguratsiyali tarmoqlar masofali himoyasida tanlovchanlikni ta'minlashni yo'naltirilganlikda bajarish lozim, shinadan liniyaga KT quvvati yo'nalishi bo'yicha.

Quvvatlarning bir xil yo'nalishida ishlovchi himoyalarning sabr vaqtini shunaqa tanlanadiki bunda har bir himoya bir pog'ona ko'proq sabr vaqtiga ega bo'lishi kerak keyingi uchastka uchun.

Masofali himoyada yo'naltirilganlik odatiy yo'naltirilgan quvvat relesi yoki yo'naltirilgan o'ichovchi yoki ishga tushuruvchi organlarni pullash yordamida KT quvvati yo'nalishiga ta'sir javob berish imkoniyati yuzaga keltiriladi.

Reaktiv va ayniqsa aktiv qarshilikli masofali himoyalar kam qo'llaniladi.

Nazorat savollari

1. Qanday shahar elektr ta'minoti tizimlarida tejamkorligi va undan ratsional foydalanish yo'llarini bilasiz?
2. Shahar elektr tarmoqlarining avtomatlashtirish va rele himoyasini asosiy prinsip belgilarini bilasizmi?
3. Elektr ta'minot tizimlarini avtomatlatlashtirish va dispatcherlashtirish yo'llarini bilasizmi?

G L O S S A R I Y

Asosiy ishlab chiqarish jamg'armalarining elektr sig'imi - asosiy ishlab chiqarish jamg'armalarining korxona tomonidan yil davomida sarflangan barcha elektr sining asosiy ishlab chiqarish jamg`rammasi bahosiga nisbatiga aytildi.

Aktiv energiya hisoblagichi deb – hisoblash jarayonida integrallashgan aktiv ni hisobga oladigan hisoblagichga aytildi.

Energetika – barcha turdag'i energetik resurslardan foydalanish, taqsimlash va o'zgartirish kabi murakkab jarayonlarni qamrab oladi. Bir xil umumlashgan holatdag'i elektr stansiyalar, havo va kabel liniyalar, nimstansiyalar va issiqqlik tarmoqlarining jamlamasiga va elektr hamda issiqqlik sini uzlusiz ishlab chiqarish va taqsimlab beruvchi tizimga energetizim deyiladi.

Elektr ta'minoti tizimi (ETT) deb, elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash uchun mo'ljallangan qurilmalar majmuasiga aytildi.

Elektr kurilmalari deb, elektr energiyani ishlab chiqarish, o'zgartirish, transformatsiyalash, uzatish, taqsimlash va boshqa turdag'i ga o'zgartiruvchi mashinalar, apparatlar, liniyalar va yordamchi uskunalar (ular o'rnatilgan inshoat va xonalar bilan birga) majmuasiga aytildi.

Elektr qabul qiluvchi deb - elektr enegiyani qabul qilish va foydalanishga mo'ljallangan qurilmaga aytildi. Elektr qabul qiluvchilar – elektr energiyasini boshqa turdag'i ga (yorug'lik, mexanik, issiqqliq) aylantiruvchi qurilmalar, apparat, agregat, mexanizmlardir.

Har bir elektr qabul qiluvchi zaruratiga qarab elektr tarmoqqa ulanishi va ajralishi (uzilishi) mumkin. Bunda, ko'pincha alohida elektr qabul qiluvchilar emas, bir guruh elektr qabul qiluvchilar ko'rib chiqiladi.

Iste'molchi deb, elektr ta'minlovchi tashkilot bilan, «Elektr dan foydalanish qoidalari» ga muvofiq, elektr energiyadan foydalanish huquqini beruvchi, yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan shartnomaga ega korxona, tashkilot yoki alohida shaxsga aytildi.

Elektr energiya iste'molchilar deb, shahar elektr ta'minoti tizimidan ta'minlovchi manbaga va elektr ta'minlovchi tashkilot bilan yuridik shartnomaga ega bo'lgan elektr qabul qiluvchilar guruhibiga aytildi. Ular shahar elektr tarmog'ining asosiy tashkiliy qismlari

hisoblanadilar. Elektr energiya iste'molchilari sex, zavod, supermarket, xonodon, maktab va boshqalar bo'lishi mumkin. Texnologik jarayon bilan birlashgan va ma'lum bir hududda joylashgan elektr qabul qiluvchi yoki bir guruh elektr qabul qiluvchilar elektr energiya iste'molchilari hisoblanadilar.

Energetik tizim deb, bir-biri bilan o'zaro bog'langan elektrstansiyalar, elektr va issiqlik tarmoqlari majmuining elektr energiyasini uzluksiz ishlab chiqarish, o'zgartirish va taqsimlash jarayonlarining umumiyligi rejimda birlashganligi va shu rejimning umumiyligi holda boshqarilishiga aytildi.

Elektr energetik tizim deb, energetik tizimning elektr qismiga va undan ta'minlanuvchi, elektroenergiyani ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash va iste'mol qilish umumiyligi jarayonlari bilan bog'langan elektroenergiya qabul qiluvchilarga aytildi.

Elektr tarmog'i deb, ma'lum bir hududda ishlovchi podstansiyalar, taqsimlovchi qurilmalar, havo va kabel elektr uzatuv liniyalaridan tashkil topgan, elektroenergiyani uzatish va taqsimlash uchun mo'ljallangan elektr qurilmalar majmuiga aytildi.

Elektrik energiya balansi kiruvchi va sarf bo'lgan elektrik energiyani to'la sonli tengligini o'zida aks ettirgan ko'rsatkichlar sistemasi.

Elektr uskunalarini deb mashinalar apparatlari, linyalar va yordamchi jihozlar (ular o'rnatilgan qurilmalar va shu bilan birga) birlashmasiga aytildi va ular elektr sini ishlab chiqarish o'zgartirish, transformatsiyalash, uzatish, taqsimlash va boshqa turdag'i ga o'zgartirishga mo'ljallangan bo'ladi.

Elektro va quvvat hisobini hisoblash moslamasi - elektr uskunalaridan foydalanish qoidalari «PUE» ga mos holda o'rnatilgan va GOST talablariga javob beradigan (aktiv va reaktiv quvvat elektr hisoblagichlari, summallashtirish moslamasi va hisoblashning avtomatlashtirilgan tizimi shular jumlasidan) hisoblash moslamasi.

Reaktiv energiya hisoblagichi deb hisoblash jarayonida integral-lashgan reaktiv energiyani hisobga oladigan hisoblagichga aytildi.

Saqlagich - himoya qilinadigan zanjirda qiymati belgilangan miqdordan oshgan tok ta'sirida o'ta qizib kuyadigan maxsus o'tkazgichli kommutatsiya apparati.

Elektr isroflari- elektr energiyada sarflanganadigan isroflar.

Elektr zanjirlar (Rubilnik) - o'zgarmas va o'zgaruvchan tok kuchlanishi 1000 v dan kam bo'lgan elektr zanjirlarini uzish va ulash uchun xizmat qiladi.

O'rashgan hududlar deb, shahar va shahar tipidagi aholi yashash joylari, shuningdek, shahar qurilishi uchun mo'ljallangan yer hududlari (qismlari)ga aytildi. Yerlarning bu turi turar joy va binolarni, sanoat korxonalarini, yo'l, maydon va h.k. larni ko'rish uchun mo'ljallangan bo'ladi.

Mustaqil manbai deb, kuchlanish boshqa manbalarida yo'qolanida, ushbu qoidalarda avariyanan keyingi rejim uchun belgilangan oraliqda, kuchlanish saqlanib qoluvchi energiya manbaiga aytildi.

Zaminlash deb, elektr qurilmasining biror qismini zaminlovchi qurilmaga, elektr ulanishga aytildi.

Apparatlar – barcha turdag'i kuchlanish o'chirgichlari, bo'lgichlar, ajratkichlar, uzgichlar, qisqa tutashirgichlar, saqlagichlar, razryadniklar, tokni chegaralovchi reaktorlar, kondensatorlar.

Taqsimlovchi qurilma deb, elektr ni qabul qilib, uni taqsimlash uchun xizmat qiladigan kommutatsion apparatlardan, yig'ma va ulanma shinalardan, yordamchi qurilmalardan, shuningdek, himoya hamda avtomatik qurilmalar va o'lchov moslamalaridan tashkil topgan elektr qurilmaga aytildi.

Komplektli taksimlovchi kurilma deb, to'liq yoki qisman yopiq shkaflardan yoki apparatlar o'rnatilgan bloklardan, himoya va avtomatik qurilmalaridan tashkil topgan taqsimlovchi qurilmaga aytildi.

Podstansiya (nimstansiya) deb, elektr energiyani o'zgartirish va taqsimlash uchun xizmat qiladigan elektr qurilmaga aytildi. U transformatorlar va boshqa energiya o'zgartirgichlardan, taqsimlovchi qurilmalardan, boshqarish qurilmalari va yordamchi moslamalardan iborat bo'ladi.

Avtomatik uzgich (kommutatsion apparat) – avariya holatlari zanjirlarini kommutastiyalash (uzish, o'chirish) uchun, shuningdek, elektr zanjirlarini ko'p bo'lmasligan (sutkasiga 6-30 marotabagacha) operativ ulash va uzish uchun mo'ljallangan.

Uzgich – xavfsizlikni ta'minlash uchun o'chgan holatda kontaktlar orasida izolyastion oraliqqa ega bo'lgan, toksiz yoki juda

kichik tokli elektr zanjirlarni ulash va uzish uchun mo'ljallangan kontaktli kommutatsion apparat.

Bo'lgich o'zgarmas va o'zaruvchan tok kuchlanishi 1000 V dan kam bo'lgan elektr zanjirlarini qo'lda uzish va ulash uchun xizmat qiladi.

Qayta ulagich – elektr zanjirlarini qayta ulash uchun xizmat qiluvchi kontaktli kommutatsion apparat.

Qisqa tutashtirgich – elektr zanjirlarda sun'iy qisqa tutashuv hosil qilish uchun mo'ljallangan kommutatsion apparat.

Saqlagich – tokni ma'lum bir qiymatdan oshishi natijasida tok yurituvchi qismlarini himoyalaydigan zanjirni o'chirishga mo'ljallangan kommutatsion elektr apparat.

Havo elektr uzatish liniyasi (HEUL) – izolyatorlar va tayanchlar yordamida simlari ochiq havoda tortilgan, elektr sini uzatish uchun mo'ljallangan uskuna.

Elektr xavfsizligi bo'yicha guruh – elektr uskunalarida ishlarni xavfsiz bajarilishi uchun xodim tayyorgarligini belgilovchi malaka darajasi. Xavfsizlik texnikasi qoidalari bo'yicha bilimlar hajmi va ish tajribasiga qarab elektr xavfsizligi bo'yicha guruhlar I, II, III, IV va V guruhlarga bo'linadi. Xodimlarga malaka guruhini berish uchun qo'yiladigan talablar mazkur qoidalarning 1-ilovasidagi Nizomda belgilab qo'yilgan.

Kommutatsion apparat – elektr zanjirlarini bir-biriga ulash-uzish va o'zi orqali tok o'tkazish uchun mo'ljallangan elektr apparatlari (o'chirgich, quvvat o'chirgichi, uzgich, ajratgich, avtomat, paketli o'chirgich, saqlagich va hokazolar).

Kuchlanish ostida ishlash – ishchi kuchlanishi ostida bo'lgan tok o'tkazuvchi qismlarga tegib bajariladigan yoki ushbu tok o'tkazuvchi qismlargacha belgilangandan kam masofaga yaqinlashib bajariladigan ishlar.

Tok uzatuvchi qism – mo'tadil kuchlanish ostida turgan elektr uskunalar qismi.

Tok o'tkazmaydigan qism – avariya rejimi natijasida kuchlanish ostida bo'lish xavfi yuzaga keluvchi elektr uskuna qismlari

I toifali elektr iste'molchilar – ularning elektr ta'minotdan uzilishi insonlar hayotiga xavf tug'dirishi, xalq xo'jaligiga talofat keltirishi, asosiy uskunaning ishdan chiqishi, mahsulotlar nuqsonli bo'lishi, murakkab texnologik jarayonning ishdan chiqishi, maishiy

xo'jalikning o'ta muhim elementlari funksiyasini buzilishiga olib keladi.

II toifali elektr iste'molchilar – ularning elektr ta'minotdan uzilishi mahsulotlar ishlab chiqarilmasligiga, ishchi mexanizmlarni va ishlab chiqarish transporti turib qolishiga, shahar va qishloq aholisi normal faoliyatining buzilishiga olib keladi.

III toifali elektr iste'molchilar – I va II toifaga taalluqli bo'lmagan boshqa hamma elektr iste'molchilar.

Elektr qurilmalari deb elektr energiyasini ishlab chiqarish, o'zgartirish, transformatsiyalash, uzatish, taqsimlash va boshqa turdag'i energiyaga o'zgartiruvchi mashinalar, apparatlar, liniyalar va yordamchi uskunalar (ular o'rmatilgan inshoat va xonalar bilan birga) majmuasiga aytildi.

Elektr uskuna – elektr energiyasini hosil qiluvchi, kuchlanishini o'zgartiruvchi, uzatuvchi, taqsimlovchi va iste'mol qiluvchi uskunalar.

Hisoblash vositasi – o'lchash uchun mo'ljallangan texnik qurilma.

Ma'muriy-texnik xodim - energetika boshsarmalari (birlashmalari), korxonalari, sexlari, laboratoriyalari, tuman elektr tarmoqlari va uchastkalari rahbarlari, ularning muovinlari hamda ma'muriy vazifalar yuklatilgan muhandis, texnik va ustalar.

Navbatchi xodim (navbatchi) - smenada navbatchilik qilayotgan va tezkor boshqaruva va tezkor o'chirish-yoqishiga ruxsat etilgan xodimlar: dispetcherlar, navbatchi muhandis va texniklar, smena boshliqlari, uyda navbatchilik qiluvchi va boshqaruva shchitlari navbatchilar, tezkor harakatdagi brigada a'zolari. Ushbu qoida matnida yuqoridaq xodimlarni ajratish talab qilinmasa, «navbatchi» termini ishlataladi.

Tezkor-ta'mirlovchi xodim - biriktirilgan elektr qurilmalari, doirasida tezkor xizmat ko'rsatish maqsadida tayyorlab maxsus o'rgatilgan ta'mirlovchi xodim.

Ta'mirlovchi xodim - elektrostansiyalar, nimstansiyalar, kabelli va havo elektr uzatish tarmoqlari, kabelli va havo aloqa tarmoqlari, rele himoyasi. Avtomatika, o'lchov asboblarida, izolyastiya va momaqaldiroqdan himoya qiluvchi vositalarda, dispetcherlik va texnologik boshqaruva vositalarida ekspluatatsion-ta'mirlash xizmatlari bilan shug'ullanuvchi muhandislar, texniklar, ustalar, ishchilar, elektrolaboratoriya xodimlari.

T E S T L A R

1. Aholi soni bo'yicha shaharlar necha guruhga bo'linadi?

- A) 3 B) 10 D) 5 E) 14

2. Xonadon ichida elektr iste'molchilar necha guruhga bo'linadi?

- A) 14 B) 5 D) 8 E) 12

3. O'zbekistonda qo'llaniladigan lift tezligi qanday?

- A) 0,5; 1; 1,4; 6,0; m/sek. B) 0,5; 1,5; 2,5; 3,5 m/sek.
D) 0,71; 1; 1,4; 2,5; 3,5 m/sek. E) 0,71; 1,5; 3,9; 8,2; m/sek.

4. Liftlar qanday tasniflanadi?

- A) yo'lovchi, yo'lovchi yuk tashuvchi,
B) yo'lovchi, yuk tashuvchi,
C) yo'lovchilar, yuk tashuvchilar, yo'lovchi yuk tashuvchi
D) yo'lovchi, yuk tashuvchi, yo'lovchi yuk tashuvchi, kasallar

5. O'zbekistonda yo'lovchi tashuvchi liftlarning yuk tashish hajmi?

- A) 100 kg, 200 kg, 400 kg, 800 kg
B) 320 kg, 500 kg, 1000 kg
D) 200kg, 400 kg, 1200 kg
E) 100 kg, 300 kg, 700 kg, 1200 kg

6. Liftlar joylashtirish elektr yuklamasi qaysi formulaga asosan aniqlanadi?

- A) $P_{hl} = K_{yor} P_{max}$
B) $P_{hl} = K_{tl} Rr$
D) $P_{..} = K_r \sum_{i=1}^n P_{..} n_i$.
E) $P_{hl} = K_t P_{qt}$

7. Havoni mo'tadillashtirish qurilmalari qanday bo'ladi?

- A) Texnologik, maishiy, markaziy, mahalliy, avtonom, noavtonom, qish-yoz
B) Markaziy, mahalliy, avtonom, noavtonom, qish-yoz, yakka tartibda, guruhlar
D) Avtonom,noavtonom, qish-yoz, yakka tartibda, guruhlar
E) Texnologik, maishiy, markaziy, mahalliy, avtonom, noavtonom, qish-yoz,yakka tartibda, guruhlar

8. Havo ishlab chiqarish bo'yicha standart seksiyalarning qanday sanoat sovutgichlari mavjud?

- A) 20, 40, 60, 80, 100, 200 ming. m³/ch.
- B) 30, 40, 60, 80, 120, 160 i 250 ming. m³/ch.
- C) 10, 20, 50, 80, 100, 200 ming. m³/ch.
- E) 15, 25, 55, 75, 125, 150 i 250 ming. m³/ch.

9. Tramvay va trolleybus qanday kuchlanishda oziqlanadi?

- A) 500 V
- B) 1000 V
- D) 600 V
- E) 1500 V

10. Metropoliten qanday kuchlanishda oziqlanadi?

- A) 1500 V
- B) 1000 V
- D) 500 V
- E) 825 V

11. Shaharlararo elektropoezdlar kuchlanishi qanday?

- A) 2000, 15000 V
- B) 1000, 10000 V
- D) 3000, 27000 V
- E) 1400, 20000 V

12. Elektrotransportda elektr yuklama qanday ifoda bilan aniqlanadi?

- A) $P_{he.t} = m \cdot v \cdot W \cdot \eta_{pik} \cdot \eta_{s.n.}$
- B) $P_{he.t} = W \cdot \eta_{pik} \cdot \eta_{s.n.}$
- D) $P_{he.t} = P_{ud} \cdot Wh_{sol} \cos \varphi \cdot \eta_{rasch.}$
- E) $P_{he.t} = m \cdot v \cdot w$

13. Qanday suv manba zahiralarini bilasiz?

- A.yer osti manbalari, yer usti manbalari
- B.yer usti manbalari, aralash manbalar
- D.yer osti manbalari, yer usti manbalari, aralash manbalar
- E. Yer osti manbalari, yer usti manbalari, aralash manbalar, tog' manbalari

14. Qanday ifoda bilan suv ta'minoti elektroenergiya xarajatlarini aniqlash mumkin?

$$A) P_{yur} = \frac{Q_{max} \cdot H}{102 \cdot \eta_{nas} \cdot 3600}; \quad Wh_{yil} = \frac{Q_{sat} \cdot 365 \cdot H}{102 \cdot \eta_{nav}}$$

$$B) P_{jur} = \frac{Q_{\max}}{102 \cdot \eta_{nas} \cdot 3600}; \quad Wh_{jur} = \frac{Q_{\max} \cdot 365 \cdot H}{102 \cdot \eta_{nas}};$$

$$D) P_{jur} = \frac{Q_{\max}}{102 \cdot \eta_{nas} \cdot 3600}; \quad Wh_{jur} = \frac{Q_{\max} \cdot 365}{102 \cdot \eta_{nas}};$$

$$E) P_{jur} = \frac{Q_{\max} \cdot H}{102 \cdot \eta_{nas}}; \quad Wh_{jur} = \frac{Q_{\max} \cdot 365 \cdot H}{102 \cdot \eta_{nas}};$$

15. Maydon va ko'chalar klassifikatsiyasi qanday?

A. AO'KMR

B. MJVPR

D. ABDEF

E. ILMJA

16. Ikki yo'nalishda 1 soatda ko'chada o'tayotgan transport yo'nalishining o'rtacha yorug'lik me'yori qanday? Yuqori nurlanish 1m² dan 1 kandella uchun yorug'lik birligi soni bo'yicha yorug'lik kuchiga teng.

A) 2000 ortiq harakat - 1,0 n B) 2000 ortiq harakat - 2,0 n

1000-2000 - 0,7 n 1000-2000 - 0,9 n

500-1000 - 0,4 n 500-1000 - 0,5 n

200-500 - 0,2 n 200-500 - 0,3 n

50-200 - 0,1 n 50-200 - 0,1 n

D) 2000 ortiq harakat - 4,0 n E) 2000 ortiq harakat - 3,0 n

1000-2000 - 3,7 n 1000-2000 - 2,8 n

500-1000 - 0,4 n 500-1000 - 2,4 n

200-500 - 1,2 n 200-500 - 1,2 n

50-200 - 0,1 n 50-200 - 0,1 n

17. Xonadonlarda elektr yuklama hisobi qaysi formulada aniqlanadi?

$$A) P_{h_kv} = K_{\max} \cdot P_{sol_kv}$$

$$B) P_{h_kv} = P_{ud_kv} \cdot K_{\max} \cdot K_s$$

$$D) P_{h_kv} = K_{\max} \cdot P_{\max}$$

$$E) P_{h_kv} = K_s \cdot K_i \cdot P_{n_kv}$$

18. Turar - joy uylarida elektr yuklama hisobi qaysi formulada aniqlanadi?

$$A) P_{h_tj} = \sum_{hr_kv} + \sum_{Pr sil}$$

$$B) P_{h_tj} = P_{n.osv.} + P_{n.sil}$$

$$D) P_{h_tj} = \sum_{hr_kv} + 0.9 \sum_{Pr sil}$$

$$E) P_{h_tj} = P_{sol} \cdot N$$

19. 0,4 kv TP yuklama hisoblash uchun qanday formulada aniqlanadi?

- A) $P_{h,tr} = P_{nom} \cdot K_{max}$
- B) $P_{h,tr} = \sum P_{ri} \cdot K_{sov,max}$
- C) $P_{h,tr} = P_{h,max} + K_1 P_1 + K_2 P_2 + \dots$
- D) $P_{h,tr} = P_{nom} \cdot K_{isp}$

20. Jamoa binolarining elektr quvvati qaysi formula bilan aniqlanadi?

- A) $P_{h,ob,zd} = P_{sol} \cdot K_i \cdot K_{min}$
- B) $P_{h,ob,zd} = P_{sol} \cdot N$
- C) $P_{h,ob,zd} = K_s \cdot K_i \cdot P_{nom}$
- D) $P_{h,ob,zd} = P_{ud} \cdot K_i \cdot K_{max}$

21. Jamoa binolarining individual loyihadagi elektr quvvati qaysi formula bilan aniqlanadi?

- A) $P_{h,j,b} = \cos \varphi \cdot P_{nom} \cdot K_i$
- B) $P_{h,j,b} = K_i \cdot K_{max} \cdot P_{nom}$
- C) $P_{h,j,b} = P_{ud} \cdot K_o$
- D) $P_{h,j,b} = n_{zf} \cdot \cos \varphi \cdot P_{nom} \cdot K_i$

22. Kanalizastiya, vodoprovod, shahar nasos stansiyalarida elektr quvvati qaysi formula bilan aniqlanadi?

- A) $P_{dv} = \frac{Q_{max} \cdot H}{\eta_{nas} \cdot 3600}$
- B) $P_{dv} = \frac{W_{nas} \cdot H}{102 \cdot \eta_{nas} \eta_{s,n} \eta_{pot}}$

- C) $P_{dv} = \frac{Q_{max} \cdot W_{nas}}{102 \cdot \eta_{nas} \cdot f}$
- D) $P_{dv} = \frac{Q_{max} \cdot H}{102 \cdot \eta_{nas} \cdot 3600}$

23. Transformatorlarda reaktiv quvvatning yo‘qolishi qanday aniqlanadi?

- A) $\Delta Q_{tp} = \frac{S}{U} X_{tp};$
- B) $\Delta Q_{tp} = \frac{P^2 + Q^2}{U_{nom}^2} X_{tp} + \Delta Q_M;$
- C) $\Delta Q_{TP} = I_{H,TP}^2 X_{TP};$
- D) $\Delta Q_{TP} = \frac{S^2}{U^2} X_{TP};$

